

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O`ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

HAMDAM ISMOILOV

JAHON ADABIYOTI

O`quv qo`llanma

1-jild

Toshkent – 2013

ANNOTATSIYA

«Jahon adabiyoti tarixi» fanidan tuzilgan ushbu o`quv qo`llanma san`at oliy o`quv yurtlari uchun mo`ljallandi. Unda 2800 yillik jahon adabiyotining eng nodir durdonalarini o`rganish maqsad qilib olindi. O`quv qo`llanmasining birinchi kitobida Antik davrdan boshlab XVI asrgacha rivojlangan Yevropa adabiyoti bilan tanishish vazifa qilib qo`yildi. Bu davrlardagi adabiy turlar va janrlarning xususiyatlari hamda ularning san`at sohasi turlari va janrlariga aloqasi haqida so`z yuritiladi. Ushbu ulkan tarixiy davrda rivojlangan adabiyot xronologik tarzda o`rganiladi. Bu fandan dastur dastlabki kurs talabalariga bir o`quv yili davomida tahsil berishni nazarda tutadi. Qadimdan boshlab hozirgi davrgacha bo`lgan adabiy yo`nalishlarga mansub adiblarningina ijodi o`rganiladi va ular yaratgan asarlarning jahon adabiyotiga ta`siri, uning taraqqiyotidagi o`rni kabilarga baho beriladi. Ushbu fan har san`at sohalarining o`ziga xos tomonlariga moslangan holda o`qitiladi.

Taqrizchilar:

Ravshan JOMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Boqijon TO`XLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
TDPU professori

«Jahon adabiyoti tarixi» fanidan tuzilgan mazkur o`quv qo`llanma O`zbekiston Davlat san`at institutining Ilmiy Kengashi tomonidan 2013- yil _____da nashrga tavsiya etildi.

© Ismoilov H., Toshkent, O`zDSMI, 2013.

KIRISH

«Jahon adabiyoti tarixi» fani barcha adabiyotlarning ibtidosi boʻlganligi tufayli butun dunyoda adabiyotning taraqqiy etishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Qadimgi Yunonistonda paydo boʻlgan adabiyot oʻz navbatida boshqa adabiyotlarning paydo boʻlishida oʻrni va ahamiyati katta boʻldi. Qadim zamonlardan Yevropa tuprogʻida kichikroq mamlakatlardan biri Yunonistonda ilk adabiyot paydo boʻldi. Soʻngra bu adabiyotning oʻrni lotin tilidagi antik adabiyot egalladi.

Qadim qadim zamonlarda – bundan taxminan 2007-2008 yillar muqaddam Yevropa tuprogʻidagi kichkina mamlakatlardan biri Yunonistonda badiiy ijodning dastlabki yozma namunalari yuzaga kela boshlaydi. Yunonistonda tugʻilib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga koʻtarilgan bu adabiyot eramizdan avvalgi III asrda Rim madaniyatining barpo etilishida, tarkib topishiga ham katta taʼsir koʻrsatdi, insoniyat tarixidagi ana shu ikki qadimiy xalq yaratgan madaniyat, sanʼat va badiiy ijod namunalari antik madaniyat, antik adabiyot deb ataladi.

Lotin tilidagi «antik» (antiques) soʻzining maʼnosi «qadimgi» demakdir. Qadimgi zamon yozuvchilari asarlarning jozibasi faqat ularning yuksak badiiy mahoratida boʻlgan emas. Antik adabiyot shu adabiyotni yaratgan xalqning his-tuygʻulari, orzu-umidlarining ifodasi ham boʻlgan. Madaniyat osmonida endigina yorishib kelayotgan oʻsha uzoq oʻtmishda yunon-rim xalqlari qoʻli bilan qurilgan ulugʻvor, koʻrkam va jozibador madaniyat qasrlari asrlar toʻfoniga, zamonlar sinoviga bardosh berib, hanuz magʻrur bosh koʻtarib turibdi.

Xalqlar oʻrtasida aqidalarga, xurofot asoratlariga qarshi ayovsiz kurash boshlangan davrlarda Uygʻonish davrining ulugʻ zotlari qoʻlida antik dunyoning ilm-u fani, sanʼat va adabiyoti, falsafiy taʼlimotlari eng kuchli qurol boʻlib xizmat etdi. «Uygʻonish» soʻzining dastlabki maʼnosi ham «Qadimgi madaniyatni qayta tiklash, yangidan oyoqqa bostirish» demakdir. Bu odamlar oʻzlarini «gumanist» deb atagan ekanlar, bu tushuncha ostida shubhasiz insonparvarlik gʻoyalarini, antik adabiyot koʻmagida bashariyatni «tutqunlikdan» xalos qilish, odam bolasining har tomonlama taraqqiy etishiga zamin hozirlash, uni jaholat uyqusidan uygʻotish istaklarini anglamoq lozim.

O`quv qo`llanmasida antik davr adiblaridan tortib, XX asrning so`nggi yillarigacha ijod etgan, jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan shoir, yozuvchilar hayoti va ijodi haqida hikoya qilinadi. Qo`llanma san`at oliy o`quv yurtlarining talabalariga mo`ljallangan. Shuning uchun qo`llanmani tuzishda shu yo`nalishlardagi o`quv yurtlarining talabalari o`rganishi zarur bo`lgan ijodkorlarning faoliyatiga e`tibor berildi. San`atning o`ziga xos bo`lgan xususiyatlarini hisobga olib, qo`llanmada adabiy asarlarning turlari va janrlari xususiyatlari asosida tahlil qilishga urindik. Hozirgi o`zbek teatri XX asr boshlarida yevropa teatri prinsiplari asosida rivojlanganligi sababli adabiy asarlarni o`rganishda ularning sahnaviy talqinlariga urg`u berildi. Teatrlar tarixi maxsus o`rganilganligi tufayli adabiy asarlarni tahlil qilishda ko`proq badiiy jihatlariga e`tibor berildi.

Ushbu fanning metodologik asosini xorijiy va o`zbek olimlarining adabiyot haqidagi fikrlari, jahon adabiyoti yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari, «Jahon adabiyoti tarixi» fanidan yaratilgan darsliklar, xukumatimizning adabiyotni rivojlantirish haqidagi farmon va qarorlari, Prezidentimizning ma`naviy tarbiya sohasida adabiyotning o`rni haqidagi fikrlari tashkil etdi. Shuningdek, «Jahon adabiyoti tarixi»ga oid barcha mavzularni o`rganishga mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yondashildi.

Ushbu fan orqali butun dunyoda adabiyot taraqqiyoti bilan bog`liq muammolar o`rganiladi, ularga nisbatan ma`lum qarashlar paydo bo`ladi.

Qo`llanmaning har ikkala kitobini yaratishda A.Alimuhamedovning «Antik adabiyot tarixi» (1975), O.Qayumovning «Chet el adabiyoti tarixi» (1979), Q.Azimov, O.Qayumovlarning «Chet el adabiyoti tarixi» (1987) singari darsliklariga, Internet ma`lumotlariga tayanildi. Bu qo`llanmani yaratish dastlabki urinish sifatida baholanishi mumkin. Muallif tug`ulajak fikrlarni hisobga olib, uni yanada kengaytirish, qo`shimcha materiallar bilan boyitish va yangi talablar asosida darslik darajasiga yetkazish niyatida, shu sababdan kitoblar yuzasidan foydali takliflarni bajonudil qabul qilinadi.

YUNON ADABIYOTINING IBTIDOIY DAVRI

Yunon yozma adabiyotining bizga qadar yetib kelgan eng qadimgi yagona namunalar – «Iliada» hamda «Odisseya» dostonlaridir. Mazkur asarlarni o`qir ekansiz, yunon elida bularning muallifi hisoblangan Gomerdan ilgari ham shoirlar bo`lganmi, degan savol tug`iladi. Bu savolning javobini avvalo shu dostonlarning o`zlaridan axtarmoq darkor. Shubhasiz, «Iliada» va «Odisseya» kabi yuksak badiiy asarlarning o`zlari ham faqatgina uzoq muddatli adabiy harakatning davomi, uning yetuk mahsuli o`laroq maydonga kelishlari mumkin bo`lgan. «Odisseya» poemasi botirlik haqida doston aytib, ziyofat ahllarini rom qilgan Demodok kabi ajoyib baxshilar–rapsodlarni uchratamiz. Ehtimol bularning kuylarida Gomerdan oldin o`tgan shoirlarning san`ati tarannum etilgandir!.. Bundan tashqari Platon, Gerodot kabi mo`tabar zotlar va shu zamonning ba`zi yozuvchilari, Gomerdan ilgari Orfey degan nihoyatda dilrabo shoir o`tganligini xabar qiladilar. Biroq tarix sahifasida bu shoirning go`zal navolari haqidagi afsonaviy rivoyatlardan boshqa birona ham misra saqlanib qolgan emas. Shu rivoyatlarda hikoya qilinishicha, Orfeyning qo`shiqlari hatto yirtqich hayvonlarni ham maftun etar, daryolarning oqishini to`xtatib qo`yar, tog`-toshlarni tebrantirar, daraxtlarni harakatga keltirar ekan; go`yo shoir o`z yori ko`yida bir marta narigi dunyoga borib mungli taronalari bilan u yerdagi behis ma`budlarning dillarini ham vayron etgan emish.

Yunon xalqi o`rtasida keng tarqalgan rivoyatlarda Orfeydan tashqari yana Muze, Evmolp, Tamir, Olen kabi shoirlar ham tilga olinadi.

Barcha xalqlarning tarixida bo`lgani kabi yunon adabiyoti ham og`zaki xalq ijodi zaminida maydonga kelganligi muqarrar. Tarix sahifalarida yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo`lsa-da, shularga asosan eski zamonlarda, ibtidoiy qabilachilik davrlarida yunon xalqining anchagina boy va rang-barang og`zaki adabiyoti: ertaklari, maqollari, matallari, topishmoqlari, qo`shiqlari bo`lganligini aniqlash mumkin.

Ma`lumki, kollektiv ijod samarasi sifatida maydonga kelgan ibtidoiy jamiyat og`zaki adabiyoti, shu jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etgan. Koinotning chaqmoq,

momaqaldir, zilzila, bo`ron, to`fon, yong`in, oy va quyosh tutilishi kabi qo`rqinchli hodisalar qurshovida yashagan ibtidoiy inson, shu hodisalar sababini anglamasdan, tabiatdagi har qanday «sirli» o`zgarishlarga ilohiy ma`no berib, butun borliqni ins-jinslar, dev-parilar va boshqa turli-tuman g`ayri-tabiiy maxluqlar makoni tarzida tasavvur etgan, ular haqida benihoyat ko`p diniy afsonalar yaratgan. Ana shunday hayoliy tushunchalardan hosil bo`lgan afsonalarni – miflar, ularning yig`indisi mifologiya deb ataladi. Ajoyib poetik mahorat bilan yaratilgan mifologik rivoyatlar yunon og`zaki adabiyotida benihoyat ko`p. Bu miflar, garchi, ibtidoiy insonning tabiat sirlari qarshisida zaifliklari tufayli tug`ilgan bo`lsa ham, tabiatning odam uchun xatarli bo`lgan hodisalariga ta`sir etish istaklaridan iborat bo`lgan. Qadim zamonlarda odamlarning havoda uchishni orzu qilganlarini, bu orzular Poeton, Dedal va Ikar afsonalarida o`zining ifodasini topgan, insonning jur`at va jasoratini, tabiat kuchlarini zabt etish ishtiyoqini qanoatlantirishda qadimgi miflarning mohiyati nechog`li zo`r bo`lgan.

Yunon mifologiyasining ming-ming yillik tarixi bor. Shu uzoq muddat davomida ijtimoiy ongning o`sishi bilan miflar ham o`zgardi, yangidan-yangi mazmun kasb etdi. Yunon kishisi ibtidoiy qabilachilik sharoitlarida yashar ekan, tevarak-atrofdagi tabiiy hodisalarning hammasini jonli his qilib, shularga sig`inadi, ulardan madad tilaydi, yovuz kuchlarni moyil qilish uchun qurbonlar tuhfa qiladi. Xullas, tabiat hodisalari qarshisida ibtidoiy insonning butun hayoti qo`rquv va tahlkada o`tgan. Keyin-keyin bulutlar sultoni, ma`budlar ma`budi Zevs, Poseydon – dengizlar hukmroni; Aid – oxirat hoqoni; Zevsning rafiqasi Gera – osmon ma`budasi, ma`budlar malikasi, homilador xotinlar, kelin-kuyovlar rahnamosi. Zevsning bosh xotini Geradan va boshqa ma`budalardan ko`rgan bir qancha farzandlari ikkinchi darajali ma`budlar qatoriga kiradilar. Bular tubandagilardir: Geradan tug`ilgan birinchi o`g`li Gefest – otash ma`budi, temirchilar piri; ikkinchi o`g`li Ares – qonli urushlar ma`budi; zulmat ma`budasi Latonadan tug`ilgan o`g`li Apollon – yorug`lik, san`at, she`riyat va muzika ma`budi, ulug` kohin hamda buyuk yoyandoz, uning singlisi Aptemida – qamar ma`budasi, o`rmonlar va o`rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda; Zevsning miyasidan bunyodga kelgan dono va ma`suma Afina – shaharlar homiysi; Olimp sultonining

zebo qizi Afrodita va uning tirmizak o'g'li Erot – sevgi va go'zallik ma'budlari; parizod Mayyadan tug'ilgan o'g'li Germes ma'budlar jarchisi, murdalar ruhini oxiratga kuzatib boruvchi, sayyohlar va savdogarlar himoyachisi, badantarbiya ishlarining rahnamosi; nihoyat, har kuni yer yuzidan qorong'ilik ko'tarilishi bilan to'rt uchar ot qo'shilgan olov aravaga o'tirib fazoga parvoz etuvchi Gelios – quyosh ma'budi.

Olamning ana shu o'n ikki hukmroni va ular qatori yana bir qancha ma'bud va ma'budalar abadiy barhayotlik bag'ishlovchi nektar ichib, oltin tovoqlarda tortilgan amvroziya taomini yeb, go'zal parilarning raqs va navolariga mast bo'lib, Zevs, uni yer bilan osmon o'rtasiga osib qo'yib to'qmoqlari bilan to'la uch kechayu uch kunduz savalaydi, onasining yoniga tushgan Gefestni Olimp tog'idan shunday itarib yuboradiki, bechora otash ma'budi bir umr oqsoq bo'lib qoladi. Umuman, ma'budlar inson nasliga onda-sonda iltifot ko'rsatsalar ham, ko'pincha ularning kulfatlariga beparvo qaraydilar, boshlariga og'ir musibatlar soladilar. Zevs hatto bir marta inson zotini to'fonda g'arq qilib yubormoqchi bo'lganida, quvg'in qilingan oldingi avlod ma'budlaridan biri, odam farzandining g'amxo'ri ulug' Prometey g'ayrat ko'rsatib falokatni bartaraf qiladi; shu titan Olimp tog'idan keltirib bergan olov tufayli insoniyat yana kamol topadi. Insonga qilgan bu yaxshiligi uchun Zevs Prometeyni qattiq jazolaydi. Bunday ixtiloflar ma'budlar o'rtasida siyrak uchraydigan voqealar emas: Zevsning o'zi ham otasiga qarshi olib borilgan dahshatli urushlardan keyin Olimp taxtiga erishgan. Yunonlar o'z ilohlarini kiborlar vakillaridan ko'chirganlari vajidan ularni shunday zolim va berahm qilib ko'rsatganlar.

Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish, o'z navbatida mifologiyani hayotga yaqinlashtirdi va uning obrazlariga chinakam hayotiylik bag'ishladi. Yunon mifologiyasining bemisl boyligi, obrazlarining nafisligi, butun insoniyat tarixi davomida kitobxonning e'tiborini o'ziga jalb etib keldi, yunon adabiyoti, yunon san'atiga esa behad-behisob porloq mavzular hadya qildi. Yunon ma'naviy hayoti taraqqiyotida mifologiya muhim o'rin tutgan. Darhaqiqat, o'sha uzoq o'tmishning dostonnavislari ham, dramatik shoirlari ham, lirik tuyg'ularning kuychilari ham ushbu buloqdan suv ichganlar, ushbu «zamin»dan ilhom olganlar; ulug' rassomlar, haykaltaroshlar ham o'z asarlarida asosan shu «xazina» afsonalarini qimmatbaho real

obrazlarga ko`chirdilar, ularni asrlarga doston qildilar. «Iliada» va «Odisseya» dostonlarining mavzusi ham shu manbadan olingandir.

GOMER DOSTONLARI

Yuqorida aytganimizdek, qadimgi yunon yozma adabiyotining bizga qadar yetib kelgan yakka-yu yagona yozma namunalari «Iliada» va «Odisseya» dostonlaridir. Gomer degan ulug` shoirning nomi bilan bog`liq bo`lgan har ikkala poemaning mavzusi Troya afsonalaridan, ya`ni yunonlar bilan troyaliklar o`rtasida bo`lib o`tgan urush rivoyatlaridan olingan.

Troya shahri haqiqatan ham Kichik Osiyoda, Dardanel bo`g`ozining janubiy qirg`og`ida joylashgan ko`hna shaharlardan biri edi. Olimlarning bundan bir necha yillar muqaddam eski Troya shahri o`rnida olib borgan arxeologik izlashlari natijasida eramizdan qariyb uch ming yil ilgari gullab-yashnagan va keyinchalik turli falokatlar orqasida halok bo`lib ketgan aholigohning vayronalari topilgan. Ilm ahllarining aytishlaricha, yunonlarning troyaliklar ustiga bostirib kelishlari tarixiy voqea bo`lib, eramizdan taxminan XIII–XII asr ilgari yuz bergandir.

Rivoyatlarning hikoya qilishicha, Troya shahzodasi Paris Sparta podshohi Menelayning uyiga mehmon bo`lib keladi. Menelay Parisni izzat-ikrom bilan qarshi olib, uning sharafiga hashamatli ziyofatlar beradi, bazmlar uyushtiradi. Shu bazmlarning birida Paris mezbonning rafiqasi Yelenani uchratib, uning husn-jamoliga shaydo bo`lib qoladi. Parisning qaddi-basti, ustidagi ajoyib sharq liboslari Yelenani ham maftun etadi. Kunlardan birida Menelay uzoq safarga ketganida, Paris Yelenani yo`ldan urib, allaqancha mol-dunyolar bilan birga uni o`z yurtiga olib qochadi. Safardan qaytib kelgan Menelay mehmonining ko`rnamakligidan, rafiqasining xiyonatidan nomus alamida, iztirob qiynog`ida azob chekadi va raqibidan qasos olishga ahd qiladi. Menelayning murojaatiga ko`ra butun Yunon o`lkasidan to`plangan podshohlar, alamdiydaning akasi, Miken podshohi Agamemnonni sarkarda ko`tarib, bir qancha kemalarda Troya ustiga bostirib boradilar. Yunon lashkargohida zamonasining bir qancha ulug` pahlavonlari va shular orasida Yunonistonning buyuk bahodir yunon lashkarlari bilan uning ichiga kirib, ziyon

yetkazadilar va shaharning jamiki boyliklarini talab qaytadilar. Biroq vatanga qaytishda g'oliblarning boshiga anchagina kulfatlar tushadi: ularning ba'zilar og'ir yo'l mashaqqatlaridan halok bo'ladilar, ba'zilar eson-omon yurtlariga qaytib kelganlarida xoinona o'ldiriladilar, yana ba'zilar uzoq yillar dengiz to'lqinlarida sarson-sargardonlik azobini tortadilar.

GOMER

Ana shu urush haqidagi rivoyatlar yig'indisidan yunon mifologiyasining «Troya urushi afsonalari» deb ataluvchi turkum yuzaga kelgan. «Iliada» hamda «Odisseya» dostonlarining mavzulari shu turkumdagi rivoyatlardan olingan. Ammo har ikkala dostonida mazkur afsonaning hammasi emas, ikkita kichik-kichik voqeasigina hikoya qilinadi. Chunonchi, «Iliada»da Troya urushining o'ninchi yilida bo'lib o'tgan muhim bir hodisa tasvir etilgan. Asarning bayoni hatto Troya shahrining yunonlar tomonidan zabt etilishi voqealariga qadar ham olib borilmasdan, Troyaning ulug' pahlavoni Gektorning o'limi va uni dafn qilish marosimi bilan tugaydi. Ilgari bo'lib o'tgan va keyinchalik ro'y berishi lozim bo'lgan voqealar to'g'risida shoir yo'l-yo'lakay gapirib o'tadi. Xuddi shunday holni «Odisseya» dostonida ham ko'ramiz. Bu asarda Troya jangi qahramoni Odisseyning urushdan qaytishi, dengizlarda va begona yurtlarda uning boshidan kechgan sarguzashtlar va, nihoyat, o'z vatani Itaka oroliga yetib kelib, dushmanlaridan qasos olishi hikoya qilinadi.

Eslatib o'tish zarurki, Troya urushi haqidagi rivoyatlar, garchi bo'lib o'tgan tarixiy voqealardan bahs etsalar-da, bu voqealar real tasvirlarda emas, balki mifologik liboslarga o'ralgan holda beriladi. Troya urushida va bu urush bilan aloqador bo'lgan hodisalarda odam bolalari bilan bir qatorda Olimp tog'ining ma'budlari, parizodlar, devlar va boshqa g'ayri tabiiy kuchlar ham bab-baravar qatnashadilar.

Troya urushi haqidagi afsona va rivoyatlar asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi, turli-tuman variantlarda tarqaladi va, nihoyat, Gomer dostonlarida muayyan va mustahkam adabiy shakl kasb etadi.

«ILIADA»

Qadimgi yunonlar Troya shahrini «Ilion» deb ham ataganlar. Binobarin, «Iliada» dostonining nomi ostida «Ilion qissasi», «Ilionnoma» degan ma'nolarni anglamoq lozim. Biroq bu nom asarning mazmuniga unchalik monand emas. Chunki dostonda asosan Yunon-Troya urushidagi kichik bir voqeagina bayon etiladi va ana shu yagona voqea atrofida mazkur urushning ba'zi hodisalariga yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tiladi.

«Iliada» dostoni 15700 misradan iborat juda katta asar. Qadimgi olimlar, yunon alifbesining soniga qarab poemani 24 bobga qo'shimcha bo'lganlar.

Asar voqealari tavsifiga kirishdan oldin, shoir ilhom parisiga murojaat qilib, o'z dostonning bosh mavzusi Axill g'azablarini kuylashda undan madad tilaydi. Priamning birinchi qo'shig'i shu g'azabning sabablariga bag'ishlangan.

O'n yil bo'ladiki, Troya urushi hali bir tomonli bo'lgan emas. Shu davr ichida Ilion aholisi yunonlarga qarshi jiddiy kurashga otlanishdan cho'chib, faqat mudofaa yo'li bilan o'zini himoya qilib keladi, chunki Yunon lashkarlari orasida Fessaliya podshohi Peley va uning xotini – dengiz ma'budasi Fetidaning o'g'li Axill ham bor. Yunon pahlavonlaridan birontasi bahodirlikda Axill bilan tenglasha olmaydi. Axill tpoyaliklap yuragiga shunchalar vahima solib qo'yganki, shahar darvozasini ochib tashqariga chiqishga ular jur'at etolmaydilar. Troya shahri ostonalarida lashkargoh qurgan yunonlar, tevarak-atrofdagi aholini talash, qiz-juvonlarni asir tushirish bilan ovora. Shunday bosqinchilik paytlarining birida yunonlar Apollon ibodatxonasining kohini Xrisning qizi Xpiseidani asir olib, bebaho o'ljani o'z sardorlari Agamemnonga tuhfa qiladilar. Ko'p o'tmay Xriseidaning otasi behad-behisob sovg'alar bilan o'z qizini ajratib olish niyatida yunonlar lashkargohiga keladi. Agamemnon Xrisning iltijolarini rad qilish bilan kifoyalanmasdan, keksa kohinni hatto haqoratlab jo'natadi. Agamemnonning tahqiridan qattiq ozor chekkan Xris Apollonga zor-zor iltijo qilib, dilozorning jazosini berishni so'raydi. Keksa kohinning nolalarini eshitgan Apollon Olimp tog'idan tushib, yunonlar lashkargohini kamalakdan o'qqa tutadi. Lashkarlar o'rtasida qirg'in boshlanadi. G'azab o'tida yongan Apollon bu bilan ham qanoatlanmasdan yunonlar ustiga o'lat

yog`diradi, lashkargohni qabristonga aylantiradi. Og`ir musibatlarning sababini aniqlash niyatida Axill hamma qo`shinni yig`inga to`playdi. Kalxas degan kohin xaloyiqqa qarab, yunonlarning boshiga tushgan barcha ko`rguliklarning sababchisi Agamemnon ekanligini, alamdida Xrisning ko`z yoshlari tufayli begunohlar Apollon g`azabiga muhtalo bo`lganliklarini aytadi va Xriseida otasiga qaytarib berilmaguncha lashkargoh vabodan xalos bo`lmamasligini uqtiradi. Bu so`zlarni eshitgan Agamemnon Kalxas bilan Axillni o`zining dushmanlari gumon qilib, ularga istehzoli so`zlar aytadi, biroq Apollonning qahridan qo`rqib, yig`in ahlining zo`ri bilan o`z asirasini otasiga qaytarishga rozi bo`ladi-yu, lekin uning badaliga Axillning asirasi Xriseidani talab etadi. Agamemnonning beorligidan qattiq g`azabl原因 ulug` bahodir qilichini qindan sug`urib sarkardaga tashlanmoqchi bo`lib turganida, uning qarshisida Afina namoyon bo`lib, sevikli bahodirining qahrini qaytaradi. Axill noiloj taqdirga tan berib, qilichini qayta qiniga joylaydi-da, bundan buyon janglarda qatnashmasligini aytib, lashkarlari bilan o`z qarorgohiga jo`naydi. Or-nomusi, izzat-nafsi oyoq osti qilingan alamzada pahlavonning tun-kunlari shu soatdan boshlab qayg`u hasratda, iztirob qiynog`ida o`tadi. Bolasining ohu zorini ko`rgan Fetida Olimp tog`iga chiqib, Agamemnonning zulmidan Zevsga shikoyat qiladi va o`g`lini badnom etgan sardorning jazosini berishni so`raydi. Zevs Fetidaning iltimosini bajo keltirishni va`da qiladi.

Axill jangga qatnashishdan bosh tortgach, butun omad birdan troyaliklar tomoniga og`ib ketadi. Ilion podshohi Priamning o`g`li Parisning akasi zabardast pahlavon Gektor boshchiligida Troya lashkarlari shahar darvozasini ochib tashqariga chiqadilar. Har ikkala tomonning bahodirlari o`rtasida yakkama-yakka jang boshlanadi. Birinchi bo`lib urushning bosh aybdorlari – Paris bilan Menelay maydonga chiqadilar. By jang urushni uzil-kesil bir yoqli qilishi kerak: kimda-kim g`olib chiqsa, go`zal Yelena hamda Paris o`g`irlab kelgan qimmatbaho boyliklar o`shaniki bo`ladi. Raqibidan qasos olish alamida o`rtangan Menelayning nayzasi Parisning qalqonini parcha-parcha qilib yuboradi. Sparta podshohi Troya shahzodasining joniga qasd qilib, uni sudrab ketayotganida, Parisniig mehriboni Afrodita yetib keladi-da, o`z seviklisini qop-qora bulutlarga chulg`ab dast ko`targanicha Troya ichkarisiga, Yelenaning yotog`iga qochirib

keladi. Shuningdek, Gektor bilan Ayaks ham yakkama-yakka jangga chiqadilar, dahshatli kurashda Gektor yarador bo`ladi, Apollon uning jarohatini tuzatadi. Yerdagi odam bolalarining jang harorati Olimp tog`idagi ma`budlarning jazavasini ham qo`zitib yuborgan: Fetida va unga va`da bergan Zevs troyaliklar tomoniga, Afina bilan Gera yunonlar tarafiga o`tdilar. Axill jang maydonini tark etganida yunonlarning bir qancha pahlavonlari ajoyib bahodirliklar ko`rsatishadi. Diomed degan dovyurak botir dushmanga ayniqsa qaqshatqich zarba berib, behad-behisob troyaliklarni qiradi, shular jumlasida merganlikda tengi bo`lmagan Pandarni o`ldiradi, ikkinchi ulug` Troya pahlavoni Eneyga xarsang tosh uloqtirib, uni qattiq yarador qiladi. Apollon Eneyni arang jang maydonidan olib qochib ketadi; qo`rquvni bilmaydigan Diomed hatto Afroditaga, urush ma`budi Aresga ham shikast yetkazadi. Bu jangda troyaliklar ham yunonlardan qolishmaydilar. Ularning sardori Gektor, ayniqsa mislsiz bahodirliklar ko`rsatadi. Kun bo`yi davom etgan qirg`in oqibatida jang maydoni o`liklarga to`lib ketadi. Murdalarni dafn qilish niyatida har ikkala tomon vaqtincha sulh tuzadilar. Dafndan so`ng jang yana avjiga chiqadi. Dushmanlarning g`azabi shu qadar kuchayib ketadiki, Olimp tog`ining hukmroni ma`budlarning yunonlar bilan troyaliklar mojarosiga aralashishlarini ta`qiqlab qo`yadi. Troyaliklarning mislsiz g`ayrat ko`rsatishlariga qaramay, yunonlar ularning madorini quritib, shahar devorlariga tomon qisib boradilar. Biroq taqdirning amriga, Zevsning Fetidaga bergan va`dasiga ko`ra yunonlarning yengilishi, troyaliklarning g`olib chiqishi lozim edi. Omad birdan Gektor tomoniga og`ib, troyaliklarning qo`li balandlashib ketadi. Yunonlar orqaga chekinib, sarosima ichida o`z kemalari tomon qochadilar; troyaliklar Gektor boshchiligida ularni izma-iz quvib boradilar, kech kirib, qorong`i tushishigina yunonlar joniga oro kiradi. Troyaliklar g`alaba gashtini surib, butun tunni shod-hurramlikda o`tkazadilar. Yunon lashkargohi ahllarining kayfiyati aksincha, juda parishon, juda tushkun. Bu mag`lubiyatlar, nihoyat o`ziga bino qo`ygan mag`rur Agamemnonning ko`zini ochadi. Qilmish xatolarini anglagan sardor, qimmatbaho tortiqlar bilan eng mo``tabar kishilarni Axillga yuboradi. Ammo nafsoniyati qattiq ozor chekkan pahlavonni sardor bilan yarashtirishning aslo iloji yo`qligidan elchilar noiloj orqaga qaytadilar. Yunonlarning ahvoli borgan sari og`irlashadi. Troyaliklar

tinchishni iltijo qiladilar. Biroq or-nomus, erkaklik hamiyati o'lim vahimasini yengib mardonavor kurashga undaydi-yu, ammo yurak bardosh bera olmaydi: ulug' pahlavon bilan yuzma-yuz to'qnash kelganida Gektorni yana dahshat bosadi, raqibining oldiga tushib beixtiyor yana qochadi. Axill uning orqasidan izma-iz quvib ketadi. Shu tariqa ular shahar devorini uch marta aylanib chiqadilar. Olimp tog'i tepasidan bu daxshatli jangni tomosha qilib turgan Zevs har ikkala pahlavonning toleini tarozu pallasiga tashlaydi. Gektorning pallasi bosib tushadi. Apollon sevikli qahramonini taqdirning ixtiyoriga topshirib, jang maydonini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Jangdan bo'yin tovlashga Gektorning endi iloji qolmaydi. Anchagina davom etgan shiddatli kurashdan keyin, Troyaning ulug' bahodiri Axill qo'lida halok bo'ladi. Gektorni o'ldirish bilan yunon pahlavonining yuragi hamon taskin topgan emas, hatto raqibining o'ligini ham xo'rlash, tahqir etish niyatida Axill murdaning oyog'idan o'z aravasiga bog'lab, kun bo'yi jang maydonida sudrab yuradi. Troya devorlaridan qapab turgan Gektorning ota-onasi va butun Troya aholisi bahodirning xo'rlanishini ko'rib qon-qon yig'laydi, ularning faryodi marhumning sevikli rafiqasi Andromaxaning qulog'iga yetadi, u Troya gumbaziga yuguradi va dahshatli fojiani ko'rib behush yiqiladi. O'ziga kelgach erini eslab fig'on qiladi.

Dushmanidan qasos olib ko'ngli tinchigan Axill, birodari Patroklga shohona dafn uyushtiradi, marhumning arvohini tinchitish uchun Troyaning bir necha navqiron yigitlari qurbon keltiriladi, Patrokl sharafiga bazmlar quriladi, tomoshalar o'tkaziladi va har kuni Axillning o'zi Gektorning o'ligini aravasiga bog'lab, Patrokl qabri atrofida aylantirib yuradi. O'g'lining behad tahqir etilishini ko'rgan kekxa Priam xatarli bir ishni jazm qilib, qimmatbaho in'om-ehsonlar bilan kechasi Axillning qarorgohiga keladi va qotilning oyog'iga yiqilib, farzandining qonini to'kkan qo'llaridan o'pib, ko'z yoshlarini to'ka-to'ka, marhumning jasadini qaytarib berishini iltijo qiladi. Keksa g'amguzorning fig'onlari, ohi-zori pahlavonning ko'nglini ham buzib yuboradi, u ham o'z otasini eslab yig'laydi va raqibining o'ligini baxtsiz otaga qaytaradi. Doston Gektorning Troya shahridagi tantanali dafn marosimi bilan tugaydi.

«ODISSEYA»

Gomer nomi bilan bogʻliq boʻlgan ikkinchi asar – «Odisseya» dostonida Troya urushining bosh qahramonlaridan biri, Itaka podshohi Odisseyning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Troya jangi tugagach, Odissey oʻz lashkarlari hamda Troya urushida qatnashgan bahodir hamrohlari bilan birgalikda kemalarga oʻtirib yurtiga qaytadi. Odisseyning dushmani boʻlgan dengiz maʼbudi Poseydon uning yoʻlida dahshatli toʻlqinlar koʻtarib, pahlavonning boshiga koʻp musibatlar soladi. Troya urushi tugagandan keyin yana oʻn yil davomida Odissey oʻz vataniga qaytolmasdan dengiz toʻlqinlarida, begona yurtlarda sarson-sargardon daydib yuradi, uning boshidan bemisl mojarolar kechadi. Dostonning birinchi boblarida biz qahramonni Ogigiya orolida, parizod Kalipso qoʻlida tutqunlikda koʻramiz. Odisseyga oshiq boʻlib qolgan parizod necha yillar mobaynida uning oʻz yurtiga qaytish istaklariga quloq solmay keladi. Bu orada Odisseyning Itaka orolida qolgan rafiqasi Penelopaning boshidan nihoyatda ogʻir kunlar kechadi. Yillar oʻtib, podshoh safardan qaytavermagach, hamma uni oʻldiga chiqarib qoʻygan. Shu sababli Itaka boyvachchalaridan bir nechasi Penelopaning payida Odisseyning saroyiga kirib olib, tun-kun bazm qiladilar, malikaning hol-joniga qoʻymay, oʻzlaridan birontasiga erga chiqishini talab etadilar. Erining muqarrar qaytib kelishiga amin boʻlgan vafodor rafika, turli-tuman vaj-bahonalar bilan jazmanlarini laqillatib, vaqt oʻtkaza boradi. Odisseyning yakka-yu yagona oʻgʻli Telemax hali yosh boʻlganligi tufayli onasini boyvachchalar zoʻravonligidan himoya qila olmaydi. Jazmanlar Telemaxdan qutulish niyatida necha bor uni oʻldirmoqchi ham boʻladilar. Afinaning maslahati bilan otasidan darak izlab, jazmanlardan yashirincha Telemax safarga joʻnaydi. U avval Pilos shahriga, Troya urushining ulugʻ bahodirlaridan biri – keksa Nestorning yurtiga yoʻl oladi. Pilos podshohi birodarining oʻgʻlini sevinch va mamnuniyat bilan kutib oladi-yu, biroq Odissey haqida biron darak aytolmasdan, aziz mehmonni Menelay yurtiga joʻnatadi. Ertasi kun yosh shahzoda Sparta shahriga yetib boradi. Menelay allaqachonlar goʻzal rafiqasi Yelenani olib oʻz yurtiga qaytib kelgan edi. Sparta podshohi ham Telemaxga samimiy iltifot koʻrsatib, uning sharafiga quyuq

ziyofatlar beradi. Telex Menelay og'zidan otasining parizod Kalipso qo'liga asir tushib qolganligi va o'z yurti dardida alam chekib yotganligi to'g'risidagi xabarni eshitadi.

Asarning beshinchi bobidan muallif bevosita Odisseyning sarguzashtlari tasviriga ko'chadi. Dostonning bundan keyingi qismlarida voqealar afsonalar dunyosida, ajoyibot va g'aroyibotlar olamida kechadi. Ma'budlar Olimp tog'ida kengash qurib, Odissey o'z vataniga qaytarishga qapop qiladilar. Ma'budlar jarchisi Germes, Olimp hukmronlarining xohishini parizod Kalipsoga yetkazadi. Ogignya malikasi ma'budlarning ra'yini qaytarolmasdan qon-qon yig'lab Odissey safarga otlantiradi. Odissey kema yasab, yo'lga ravona bo'ladi. Kema bir necha kun dengizda bexatar suzib borgach, dengiz ma'budi Poseydon, nogahon, raqibini payqab qolib, dengizda chunon to'lqin ko'taradiki, Odisseyning kemasi g'arq bo'lib ketadi. Jafokash Itaka podshohi hayqirgan to'lqinlar girdobida uch kechayu uch kunduz suzib, Afinaning ko'magida omon-eson, nihoyat, qirg'oqqa chiqib oladi. Odissey panoh topgan bu yer – Sxeryaya oroli, Alkinoy degan dono podshoh qo'l ostida baxtiyor hayot kechiruvchi feak xalqining yurti edi. To'lqinlar bilan olishib madori qurigan Odissey, xazonlar g'arami ichiga kirib uyquga ketadi. Ertasi kun o'z dugonalari bilan kir yuvish uchun daryo bo'yiga kelgan Alkinoyning qizi Navsikaya bu yerda Odisseyni uchratib uni saroyga boshlab keladi, Alkinoy va uning rafiqasi Areta musofirni izzat-ikrom bilan kutib oladilar, mehmon hurmatiga dasturxon yozilib, turli-tuman nozu ne'matlar to'kiladi, o'yinlar ko'rsatiladi. Shu bazmlarning birida so'qir rapsod Demodok zavqqa to'lib Troya urushi, uning ajoyib pahlavonlari va, ayniqsa, Odisseyning mislsiz qahramonliklari to'g'risida jo'shqin qo'shiqlar aytadi. Bu qo'shiqlarni eshitgan Odissey, jangovar do'stlarini, o'zining sarguzashtlarini eslab, yuragi to'lib ketadi, ko'zlaridan yosh oqadi. Alkinoy mehmonining ahvolini payqab, uning kimligini, ko'z yoshlarining boisini so'raydi va boshidan kechirganlarini so'zlab berishini iltimos qiladi.

Nihoyat, Odissey podshohning va mehmonlarning iltimoslarini bajo kelirib, o'zini tanitadi, Troyadan yo'lga chiqqan kunidan boshlab tortgan kulfatlarini majlis ahliga hikoya qilib beradi.

Odisseyning hikoyasi dostonning to'rt bobida (IX-XII) berilgan. Bu to'rtala bob ham boshdan oxir mislsiz ajoyibotlar bilan to'ladir.

Troya tor-mor keltirilgandan keyin Odissey hamrohlari bilan yo'lga chiqib, bir necha kun dengizda sarson-sargardon suzadi, nihoyat, to'liq ularni latofatlar mamlakati qirg'og'iga olib keladi. Bu mamlakat aholisi lotos (nilufar) bilan tirikchilik o'tkazar ekan. Nilufarning xosiyati shunda ekanki, uni bir marta totib ko'rgan odam bolasi darhol dunyodagi hamma narsani, hatto tug'ilib o'sgan yurtini ham unutib, bir umr shu ajoyib yemishning shaydosi bo'lib qolar ekan. Odisseyning hamrohlaridan ba'zilar sehrli mevani totib qo'yadilar. Sarkarda ularning dod-faryodlariga qaramay arang kemalarga olib chiqib, bu xatarli yerdan uzoqlashishga oshiqadi. Shundan keyin biz Odisseyni bir ko'zli devlar – bahaybat sikloplar yurtida ko'ramiz. Sardor o'z hamrohlarini qirg'oqda qoldirib, o'n ikkita sherigi bilan orolni tomosha qilish uchun ketadi. Yurib-yurib ular kattakon bir g'orga ro'para keladilar. G'or ichiga kirsalar, savat-savat pishloqlar, xumcha-xumcha qatiq-suzmalar turganmish. Bir mahal tashqaridan tapir-tupur tovushlar eshitilib, g'orning ichiga katta-katta qo'y-echkilar kirib kela beradi, ularning ketidan mollarning egasi bahaybat siklop Polifem ham kiradi. Uning manglayida kattakon bittagina ko'zi bor. Qo'rqinchli mahluqni ko'rgan Odissey va uning hamrohlari hang-mang bo'lib qoladilar. Polifem ularga g'azab bilan o'shqiradi, bahaybat qo'llari bilan sayyohlarning ikkitasini tutib oladi-da, gir aylantirganicha yerga urib o'ldiradi, keyin ularni tilimlab qozonga soladi; ovqatlanib bo'lgach, g'orning og'zini kattakon tosh bilan berkitib, bamaylixtir uyquga ketadi. Avtorning ta'biricha, bu tosh shu qadar kattaki, uni yigirma ikkita to'rt g'ildirakli arava ham o'rnidan qo'zg'ata olmaydi. Odissey uxlab yotgan odamxo'rni o'ldirmoqchi bo'ladi-yu, lekin ulkan toshni siljita olmasliklariga ko'zi yetgach, tag'in o'ylanib qoladi. Tong otgach kechagi fojia yana takrorlanadi. Polifem Odisseyning sheriklaridan yana ikkitasini o'ldirib nonushta qiladi-da, haligi tosh bilan g'or og'zini berkitib, mollarini boqishga jo'naydi. Odissey odamxo'r devning qo'lidin qutulish yo'llarini axtaradi. Nihoyat, bu yo'lni o'ylab ham topadi: g'or ichida yotgan uzun bir xodani olib, sayyohlar uning uchini nayza qilib o'tda kuydirishadi-da, so'ngra bir burchakka yashirib qo'yishadi. Kechqurun qo'ylarini haydab g'orga

qaytgan Polifem ikkita odamni o'ldirib, kechki xo'rak tayyorlaydi, ovqatlanib o'rniga yotmoqchi bo'lganida, Odissey o'zi bilan olib kelgan sharobdan unga bir qadah tutadi. Sharob Polifemga juda ma'qul bo'ladi shekilli, u yana bir qadah talab qilib, soqiyning nomini so'raydi. By so'roq Odisseyini o'ylantirib qo'yadi. Qadahni Polifemga uzatarkan:

– Sen nomimni bilishni istamoqchimisan? Mening nomim Hechkim, – deydi.

– Juda soz, Hechkim, – deya javob qaytaradi odamxo'r dev iljayib, – bu yaxshiliging uchun seni hammadan keyin yeyman, bu mening senga ko'rsatgan himmatim bo'lsin.

Polifem yana bir qadah sharob ichadi, kayfi oshib yerga yastanadi va shu onning o'zida uyquga ketadi.

Odissey sheriklariga ishora qiladi, ular xodaning nayza tomonini o'tga tutib siklopning ko'ziga sanchadilar. Og'riq alamidani Polifem chunon baqiradiki, uning ovozi eshitgan oroldagi boshqa sikloplar g'or og'ziga to'planib, sheriklaridan dodlayotganining boisini va uni qanday maxluq xafa qilganini so'rganlarida Polifem, jon holatda:

– Hechkim, Hechkim, – deb javob qaytaradi.

Sikloplar Polifemdan achchiqlanib tarqab ketadilar.

Tong otadi. Polifem alam dardidan oh-voh qilib g'or og'zidagi toshni siljitadi-da, har bir qo'y, har bir echkini sirtini paypaslab bitta-bitta dalaga haydaydi. Polifemning maqsadini anglagan Odissey qo'ylarni uchtadan quchoqlab, o'rtadagisining qorniga bittadan hamrohini bog'lab qo'yadi, o'zi esa eng kattakon serjun qo'yning qorniga osilib oladi. Shu tariqa Odissey va uning qolgan sheriklari eson-omon g'ordan chiqib o'limdan qutuladilar. Sayyohlar o'zlari bilan Polifemning qo'y-echkilarini ham olib ketadilar. Kemaga tushib qirg'oqdan ancha uzoqlashganlaridan keyin Odissey yakka ko'zga qarab:

– Bilib qo'y, Polifem, ko'zingni ko'r qilgan kishi – Itaka podshohi Odissey bo'ladi, – deb qichqiradi.

Alamzada siklop tog'dek katta toshni dengizga otadi, suv shunday to'lqinlanadiki, kemaning g'arq bo'lishiga sal qoladi. Shunday qilib, Odissey dahshatli mahluqning qo'lidan beshikast qutulsa-da, Polifemni ko'r qilgani tufayli keyinchalik uning boshiga

juda ko'p kulfatlar tushadi, chunki Polifemning otasi dengiz ma'budi Poseydon shu-shu Itaka podshohining g'animiga aylanadi.

Bundan keyin Odissey o'z hamrohlari bilan shamollar ma'budi Eolning ko'chma oroli Eoliyaga keladi. Eol sayyohlarni do'stona kutib oladi va bir necha kun quyuq-suyuq qilib yo'lga kuzatadi. Mehmonlarning safari bexatar bo'lsin uchun hamma yovuz shamollarni bir meshga qamab, Eoliya hukmroni uni Odisseyga tortiq qiladi va manzilga yetmaguncha zinhor-bazinhor meshni ochmaslikni, aks holda yo'lovchilar boshiga og'ir kulfatlar tushajagini unga qayta-qayta uqtiradi. Shu sababli Odissey meshni qo'riqlab tun-kunlarni bedor o'tkazishga majbur bo'ladi. Safarning o'ninchi kuni uzoq-uzoqlardan Itaka orolining qorasi ko'rina boshlaydi. Bedorlikdan tinkasi qurigan Odissey nogahon uxlab qoladi. Sardorning hamrohlari, mesh ichida qimmatbaho durgavharlar, oltin-kumushlar bo'lsa kerak, degan xayolga borib, astasekin meshning og'zini bo'shatadilar. Tutqunlikdan qutulgan yovuz shamollar bo'ron ko'tarib, Odisseyning kemalarini vatan qirg'oqlaridan yana uzoqlarga, begona yurtlarga olib ketadi. Ular suza-suza, nihoyat odamxo'r ulkan mahluqlar oroli qirg'og'iga kelib to'xtaydilar. Bularni payqab qolgan yovuz odamxo'rlar tog'dek-tog'dek toshlarni otib, Odisseyning o'n ikkita kemasidan o'n bittasini cho'ktirib, qancha-qancha hamrohlarini qirib yuboradilar. Bir necha sheriklari bilan yakka-yolg'iz kemada qolgan Odissey dengizda yana bir qancha vaqt darbadar suzib, oxiri quyosh ma'budi Geliosning qizi sehrigar parizod Kirkaning oroli sohiliga kelib tushadi.

Ehtiyotkorlik yuzasidan orol ichkarisiga Odissey avval bir guruh hamrohlarini yuboradi. Ular yurib-yurib quyuq daraxtzor ichidagi muhtasham bir qasrga ro'para keladilar. Qasr atrofida qo'lga o'rgangan sher va bo'rilar aylanib yurishardi. Ular begona odamlarni ko'rishlari bilan baayni vafodor it singari yugurib kelib, yo'lovchilarga erkalana boshlaydilar. Shu payt qasr bekasi Kirkaning o'zi mehmonlar istiqboliga chiqib, ularni ichkariga taklif qiladi va har biriga bir qadahdan sharob tutadi. Yo'lovchilar qadahni ko'tarishlari bilan darhol to'ng'izga aylanib qoladilar. Ammo ularning aql-hushlariga putur yetmaydi. Shundan keyin jodugar to'ng'izlarni og'ilxonaga qamab, oxurlariga cho'chqayong'oq to'kib qo'yadi. Bu voqeadan xabar topgan Odissey shu onning o'zida sheriklarini qutqarish uchun qasr tomonga yuguradi. O'rmon oralab

ketayotganida ro`parasida Germes paydo bo`lib, jodugarning amalini qaytaradigan bir giyoh ildizini beradi. Kirka Odisseyini ham xushnud kutib oladi, mehmonini oltin kursiga o` tqazib qo`liga qadah tutadi. Biroq sehgarning amali bahodirga kor qilmaydi. Odissey sapchib o`rnidan turadi-da, qilichini yalang`ochlab Kirkaga otiladi. Bu holni ko`rib o`takasi yorilgan afsungar mehmonning oyog`iga yiqilib, undan afv so`raydi, ma`budlarni o`rtaga qo`yib sheriklarini asl holiga qaytarishni va`da qilganidan keyin Odissey shaxtidan tushib, qilichni qayta qiniga soladi va shundan so`ng Kirka bilan ishrat qilib, bir yil shu orolda qolib ketadi, nihoyat hamrohlarining qistovi bilan ma`shuqasidan ijozat olib yo`lga otlanadi. Biroq shundan oldin, Kirkaning maslahati bilan jahannam ziyoratiga borib keladi. Jahannamda Odissey mo``tabar avliyo Tiresiyning arvohi bilan uchrashadi. Tiresiy Itaka podshohining bundan keyingi taqdiri, rafiqasi Penelopaning musibatlari haqida gapirib, juda ko`p yaxshi maslahatlar beradi. Odissey jahannamda shuningdek onasining arvohi, halok bo`lgan jangovar do`stlari Agamemnon, Axill va boshqa bahodirlarning ruhlari bilan ham so`zlashadi. Yunonlar sardori o`zining shum taqdiri, ya`ni vatanga qaytgan kuni rafiqasi Klitemnestraning o`ynashi Egisf qo`lida shahid bo`lganini aytib, Odisseyini ham ogohlantirib qo`yadi.

Jahannam ziyoratidan qaytib Odissey yana Kirkaning qasriga keladi-da, keyin shu yerdan o`z vataniga qarab safarni davom ettiradi. Biroq mashaqqat ustiga yana mashaqqat: sayyohlarning yo`li Sirenalar oroli sohiliga tushib qoladi. Parizodlar naslidan bo`lgan qush tanali bu mahluqlar chaman-chaman xushmanzara gulzorlarda yashaydilar, ular shunchalar xushohang ashula aytadilarki, bu ashulani eshitgan har bir odam shaydo bo`lib, oroldan ketolmay qolar, sirenalar keyin bu odamni qiynoqda o`ldirishar ekan. Odissey o`z sheriklarini parizodlar domidan saqlash uchun ularniig quloqlariga mum quyib qo`yadi. O`zini esa kema machtasiga mahkam bog`lab qo`yishlarini buyuradi. Orol yonidan o`tayotganlarida parizodlarning navosini eshitib Odisseyning vujudi larzaga keladi, u mast-alast talpinib, oyoq-qo`llarini bo`shatishlarini so`raydi, sheriklari sardorning dod-faryodiga quloq solmay, sirtmoqni qattiqroq tortadilar va shu tariqa kemani jadal haydab, falokatdan arang qutuladilar. Qutuladilar-u, ammo yana bir qancha xavf-xatarlarga yo`liqadilar. «Alpomish» dostonini Itaka xalqlarining

mashhur qahramonnomasi «Iliada» hamda «Odissey» poemalarining bevosita ta'siri ostida maydonga kelgandir, degan fikrni bildirmaydi. Bu asarlar o'rtasidagi yaqinliklarni faqatgina Yunon va O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayotning ma'lum tarixiy sharoitlarda bir-biriga yaqin bo'lganligi bilan izohlash mumkin, xolos. Ma'lumki, «Iliada» va «Odissey» poemalarida qabilachilikdan quldorlik tuzumiga o'tish payti tasvirlangan bo'lsa, «Alpomish» dostonida qabilachilik tuzumining yemirilishi va feodalizm tartiblarining vujudga kelish davrlari haqida hikoya qilinadi. Binobarin, shu paytdagi ikkala xalqning hayot tarzi, ularning tushunchasi, turmushda ishlatiladigan qurol-asboblari, deyarli bir-biriga o'xshash bo'lgan. «Odissey» bilan «Alpomish» o'rtalaridagi ba'zi mazmun yaqinliklari, masalan, ikkala dostondagi qahramonlarning safardan qaytib, boshqa bir kimsa qiyofasida uylariga kelishlari va kamonbozlik vaqtida dushmanlaridan qasos olib, rafiqalari bilan topishishlari masalasiga kelsak, bu mavzu, ya'ni urning o'z xotini yoki mahbubasining to'yi ustiga kelib qolishi – jahon xalqlari og'zaki adabiyotida benihoyat ko'p uchraydigan umumiy bir holat bo'lgan; uslubdagi o'xshashliklar esa ming-ming yillar davom etgan dostonchilik an'alarining ifodasi, bu asarlarning xalq og'zaki adabiyoti zaminida yetilganligi alomatidir.

ATTIKA DAVRI YUNON ADABIYOTI

V-IV ASRLARDA YUNON JAMIYATI VA MADANIYATI

Eramizdan oldingi V asr yunon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan davridir. Bu davrda Eron-Yunon urushlaridan keyin Afina davlatining kuchayishi va demokratiyaga tomon rivojlanib borishi bilan mahkam bog'liq bo'lib, chindan ham yunon elining oltin asri deb atalishga arziydigan buyuk davridir. V asrga qadar yunon tuprog'ining eng ilg'or madaniy markazi Kichik Osiyodagi Ioniya viloyati hisoblanib kelingan bo'lsa, rosa yarim asr (499-449) davom etgan Eron-Yunon urushida yunonlar g'alaba qozonganlaridan keyin ilmu fan, san'at va madaniyat markazi Afina davlatiga ko'chadi. Adabiyot sohasida Afinaning mavqei shu qadar ulug'ki, V-IV asrlar

adabiyoti shu muazzam shahar o`rnashgan Attika viloyatining nomiga nisbat berilib, yunon adabiyotining attika davri deb ataladi.

Eroniylar bilan bo`lgan urushning zahmatlarini ko`proq totgan va dushman ustidan g`alaba qozonish ishiga boshqalardan ko`ra ortiqroq hissa qo`shgan afinaliklar, urushdan keyin yunon tuprog`idagi yuz ellikdan ortiq shahar davlatlari orasida g`alaba imtiyozlarini o`z qo`llarida saqlab qoladilar. Endilikda Yunoniston tuprog`iga tutashgan dengiz suvlarida ularning yolg`iz o`zlari hukmronlik qila boshlaydilar. Bu holat yangidan-yangi savdo bozorlarini qo`lga kiritishga, Qora dengiz sohillaridagi mustamlakalar bilan oldi-sotdi ishlarini rivojlantirishga keng yo`l ochadi va Afinani g`alla bilan uzluksiz ta`minlash masalasini hal etadi.

V asrning o`rtalariga kelib Afina yunon davlatlari orasida eng baquvvat, eng yirik, 150 dan ortiq ayrim davlatlardan tashkil topgan katta ittifoqning tepasida turuvchi, suvda va quruqlikda o`z hukmini yurituvchi zabardast bir davlatga aylanadi, ittifoqchilaridan olinadigan behad-behisob o`lponlar Afina davlatining xazinasini nihoyatda boyitib yuboradi.

Perikl (yashagan vaqti taxminan 500-429 yillar) aristokrat xonadonida tug`ilib, zamonasiga nisbatan juda yaxshi bilim oladi; Eron urushi vaqtida anchagina harbiy mahorat ko`rsatadi, Afina davlati tepasida turganida o`zining sohib tadbirligi bilan keng shuhrat qozonadi; siyosiy faoliyat bobida o`zidan oldin o`tgan do`sti, otashin demokrat Efialtning ishlarini davom ettirib, aristokratlarning qarshiliklarini tamoman yengadi va mamlakatda uzil-kesil demokratiya tuzumini o`rnatadi va 15 yil davomida (445-430) har yili Afina davlatining eng oliy lavozimi – strateglikka saylanadi. Perikl o`z zamonasining nihoyatda ishbilarmon davlat arbobi, otashin notiq, odamlarda tashabbuskorlik ishtiyoqini uyg`otishga mohir, ilmu fan, san`at va adabiyotga qiziqqan bir shaxs edi. U butun yunon olamidan faylasuflar, olimlar, shoirlar va san`at ahllarini Afinaga to`playdi. Periklga yaqin turgan va uning ishlarida ko`maklashgan ulug` zotlar orasida faylasuflardan Anaksagor, Sokrat, «Tarix fanining otasi» Gerodot, ulug` tragik Sofokl, ajoyib haykaltarosh Fidiy va shularga o`xshash umumyunon madaniyatini yuksak pog`onalarga ko`targan yana birmuncha shaxslarni ko`ramiz.

Perikl zamonasida ilmiy-falsafiy ta'limotlar, ayniqsa juda keng rivoj topadi. Olimlar, mutafakkirlar o'z asarlarida tabiat hodisalarini, ijtimoiy qonunlarni ochishga, ularni izohlashga va shu yo'sinda mavjud demokratiya tuzumning to'g'ri va bama'ni ekanligini isbotlashga urinadilar.

Bu davrning ilmiy va falsafiy fikr-g'oyalarini boshqalardan ko'ra to'laroq aks ettirgan, ibtidoiy materializm oqimiga asos solgan ulug' mutafakkir Demokritdir (460-370), Demokrit o'z zamonasida mavjud bo'lgan hamma bilimlar (astronomiya, fizika, matematika, biologiya, geografiya) bobida juda ko'p yirik-yirik asarlar yozdi; uning asarlari orasida, shuningdek poeziya, san'at, tarix, dehqonchilik, harbiy texnika va boshqa turli-tuman masalalarga atalgan kitoblarni ham ko'ramiz.

Demokrit ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan ham chuqur qiziqib, qadimgi yunonlar o'rtasida keng tarqalgan uzoq o'tmishdagi «oltin davr» afsonalarini inkor etadi. V asrning ikkinchi yarmida butun Ellada tuprog'ida ijtimoiy hodisalarni o'rganish ishini o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan yangi ilmiy-falsafiy oqim paydo bo'ladi. Bu oqimning vakillari o'zlarini «solistlar» deb ataganlar.

Solistlar bu davrning har tomonlama bilimdon kishilari bo'lib, o'z zamondoshlari zehniini boyitish, ularni ilmu ma'rifat yutuqlaridan bahramand etish bobida juda katta ishlar qiladilar, bulardan saboq eshitgan yoshlar faqatgina astronomiya, geometriya, muzika va shu kabi ilmlar sohasida tushuncha orttirish bilan cheklanib qolmay, balki odam bolasi hayotni qanday uyushtirishi, davlatni qay tariqa tuzishi va siyosatni qaysi usulda olib borishi to'g'rilarida ham ta'lim oladilar.

Qariyb ellik yil davom etgan qizg'in qurilish ishlarida faqat Afinaning erkin fuqarosi hamda qullargina emas, shuningdek, Yunonistonning hamma yerlaridan to'plangan injenerlar, me'morlar, haykaltaroshlar, rassomlar va boshqa turli-tuman kasb ustalari qatnashadilar. Bu zamonda qad ko'targan eng yirik inshootlardan biri, Afina bilan uning yaqinidagi Pireygavani oraligida bundan ancha burun qurilgan ikkita devor o'rtasida Periklning xohishi bilan solingan uchinchi devor bo'ldi. Yo'l-yo'lakay Pireygavani yangi mudofaa inshootlari bilan mustahkamlandi, natijada Afina bilan Pirey birga qo'shib yagona metin qal'aga aylandi. Misli ko'rilmagan ana shu buyuk qurilish ishlari orasida Periklning

diqqatini ko`proq jalb etgan masala – Afinaning ichkn qal’asi Akropolni bezatish bo`lgan.

Yunon arxitekturasining beqiyos namunalarini yaratgan ajoyib san’atkorlar orasida eng ulug`lari Parfenonni bino etgan Iktin va Kallikrat, Propileyalarni qurgan Mnesikl bo`lgan.

Bu zamonda yaratilgan san’at yodgorliklarining barchasida allaqanday basavlat ulug`vorlik va kishini hayajonga soladigan salobat bor. Mana bu sersavlat, ulug`vor va mahobatli hashamatlar-Afina demokratik respublikasi yengilmas qudratining ramzi bo`lgan. Haykaltaroshlar o`z asarlarida asosan mifologik mavzularni tasvirlaydilar, ammo ular tasvirlagan ma’budlar hamda pahlavonlarning qiyofasida qaddi-qomati kelishgan, baquvvat, basavlat odamlarning siymolari ko`rsatiladi. Chunki bu davrda yunon ideologiyasining boshqa sohalarida bo`lgani kabi insonning go`zalligi va ulug`vorligini namoyish qilish san’atkorlarning ham asosiy maqsadi bo`lgan. Bu davr san’at ahllarining ulug`ligi shundaki, ular insoniyat tarixida birinchi marta o`z ijodlarini qat’iy va aniq ilmiy asosga qurib, odam bolasining tanasidagi hatto eng kichik a’zolari ham juda aniq mutanosib uyg`unlikda tasvirlaganlar, shu bilan abadiy barhayot go`zallik yaratganlar.

Biroq Afinaning gullab-yashnashi uncha uzoqqa cho`zilmadi. Afina davlati bilan Peloponnes ittifoqi o`rtasida boshlangan dahshatli urush (431-404 yillar) faqat bu shaharnigina emas, butun Yunonistonni halokatga surgadi. Peloponnes urushiga deyarli jamiki yunon olami va hatto chet davlatlar (Makedoniya, Eron) ham qatnashadi. Butun Ellada tuprog`i bo`ylab 27 yil davom etgan o`zaro qon to`kishlar natijasida Yunon davlatlarining ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlari nihoyatda keskinlashib, butun mamlakat og`ir inqirozga yuz tutadi.

Peloponnes urushi bir tomondan Yunonistondagi yirik-yirik shahar davlatlari o`rtasida tobora keskinlashib borayotgan iqtisodiy va siyosiy raqobat va yunon tuprog`ida o`z hukmini yurg`izishga intilish, ikkinchi tomondan, polislar o`rtasidagi siyosiy tuzumlar kurashi tufayli yuz beradi. Shuni qayd etib o`tish kerakki, bir necha yillar davomida butun mamlakatda ikkita siyosiy tuzum hukm surardi. Bulardan biri – demokratiya tuzumi, ikkinchisi – aristokratiya tuzumi edi. Demokratik usul-tartibda bo`lgan polislarini Afina davlati qo`llab-quvvatlar, aristokratik tuzum tarafdorlariga

Sparta hukumati ko`maklashar edi. Bu ikkala davlat o`z raqibining kuchayib ketishidan cho`chib, bir-birining siyosiy tuzumini uzluksiz qoralar, turli yo`llar bilan bir-biriga putur yetkazar edi.

V-IV asrlar yunon tarixi chindan ham voqealarga g`oyat boy, benihoyat mazmundordir. Ana shu ulug` o`zgarishlar munosabati bilan Afina shahar davlatida tug`ilgan muhim-muhim siyosiy va axloqiy muammolar adabiyotga behisob mavzular hadya qilib, undan o`zining in`ikosini kutar, turli-tuman masalalarni hal etishda ko`maklashuvini talab qilar edi. Ulug`vor bu hodisalarning endilikda eski lirik qo`shiqlar hajmiga sig`masligi shubhasizdir. Poeziya adabiyotning hamon asosiy turi bo`lib davom etgani bilan, yangi hayot sharoitlarida uning qanoti behad keng yoyiladi, imkoniyatlari mislsiz ulg`ayib ketadi. Ilgarigi poeziya ko`proq yuqori tabaqalarning manfaatlariga qaratilgan, ayrim shaxslarning kayfiyatlarini ifoda etgan bo`lsa, demokratik davr attika adabiyoti Afina fuqarolariga murojaat qilib, zamonaning ijtimoiy va siyosiy talablari bilan taqozo etilgan muhim davlat masalalarini yechishga urinadi. Bu masalalar orasida eng muhimlari-davlat bilan fuqaro o`rtasidagi, ayrim shaxslar bilan kollektiv o`rtasidagi munosabatlar muammolarini hal qilish, mavjud sharoitlarda odam bolasining vazifalari va axloq doiralarini belgilash, unga yo`l-yo`riqlar ko`rsatishdan iborat bo`lgan. Binobarin, xalq ommasi manfaatlariga yaqinlik, aktuallik, zamonaviylik, odamparvarlik-attika adabiyotining asosiy xususiyatidir.

Jamiyatdagi ziddiyatlarni, kurash va to`qnashuvlarni hammadan ko`ra mukammal va mufassal ifoda etishni eplay oladigan birdan-bir adabiy janr-albatta, dramaturgiya bo`lgan. Na epik dostonlar va na lirik asarlar bu vazifalarning, shubhasiz, to`la uddasidan chiqa olmas edi. Harakat, she`riyat va musiqa to`qimasidan tarkib topib, yagona uyg`un shakl kasb etgan drama adabiyoti, poeziyaning imkoniyatlarini juda kengaytirib yuboradi; uning ommabopligi, konfliktlarga boyligi, ta`sirchanligi – butun V asr yunon adabiyotida peshqadamlik qilishini ta`minlaydi.

Gomer dostonlari bilan bir qatorda dramatik adabiyot yunonlarning jahon madaniyatiga qo`shgan bebaho hissalaridir.

DRAMANING PAYDO BO'LISHI

Afsonalarga ko'ra Dionis yiliga faqat ikki marta bayram o'tkazishni taomilga kiritadi. Avval bahorda, tabiatning uyg'onish paytlariga, kuzda uzumlarni uzish yoki yangi hosildan solingan mayni suzish vaqtlariga to'g'ri keladigan bu bayram kunlari, endi, shirin xursandchilik, sho'x-sho'x o'yin-kulgilar bilan o'tkaziladigan bo'ladi.

O'z hamrohlari – satirlar bilan yer yuzini aylanib, odamlarni vaqtixushlikka da'vat etgan jahongashta ma'budning sarguzashtlari, uning boshidan kechgan xavf-xatarlar, dushmanlari ustidan qozongan g'alabalari haqida hikoya qiluvchi difiramb-madhiyalar – badiiy ijod uchun behisob mavzular bag'ishlar, ularni dramatik shaklga solish istaklarini qo'zg'atar edi.

Tragediyaning bevosita Dionis marosimlari bilan bog'liq bo'lganligiga va to'g'ridan-to'g'ri shod-xurramlik ma'budi sha'niga to'qilgan difiramb qasidalaridan o'sib chiqqanligiga Aristotel ham sira shubha qilmaydi va bu to'g'rida «Poetika» asarining to'rtinchi bobida qat'iy fikrlar aytadi. Ulug' faylasufning izohiga qaraganda, hatto «tragediya» iborasining o'zi ham Dionis shaxsi bilan mahkam bog'liqdir. Bu atama *trago* va *oide* degan ikki so'zdan tarkib topgan bo'lib, «taka qo'shig'i» degan ma'noni bildiradi. Juda qadim zamonlarda yunonlar Dionisni taka qiyofasida (totemizm) tasavvur etganlarini va satirlarning taka sifat maxluqlar bo'lganlarini eslasak, Aristotel fikrlarining to'g'riligiga iqror bo'lamiz,

Aristotel komediyaning paydo bo'lish tarixini ham xuddi shu tariqa Dionis marosimlariga bog'laydi. Bahor kezlarida qishloqlarda o'tkaziladigan hosil bayramlarida, ayniqsa, Dionis marosimlarida dehqonlar ma'budlardan baraka tilab, unumdorlikning ramzi o'laroq biron jonivorning tanosil a'zosini savatga solib, ko'chama-ko'cha ashula aytib yurishar ekan. Umuman, bu bayramlar nihoyatda sho'x, xushchaqchaq o'tgan; ashulalarning mazmuni ham ancha qaltis, ba'zan, hatto bir darajada behayo bo'lgan. Sayr paytlarida yo'lovchilarga tegajaklik qilish, ularning sha'niga biron qochiriq gap aytib kulgi qilish, yoinki ko'ngil xushlamagan bironta arbobnimi, boynimi ashulada mazax qilish, bunday bayramlarning taomilida oddiy bir narsa bo'lgan. Shularning hammasi komediyaning dastlabki unsurlari ekanligini Aristotel bu janrning nomi bilan ham

isbotlaydi. Chindan ham «komediya» iborasi «comos» va «oide» degan ikki soʻzdan tarkib topgan boʻlib, «masxarabozlar qoʻshigʻi» degan tushunchani anglatadi.

Aristotelning «tragediya – difiramb peshtalqinlaridan, komediya – fall (tanosil) qoʻshiqlari peshtalqinlaridan boshlangandir», degan qatʼiy daʼvosini ilm ahllari hozirgi kunda toʻla eʼtirof etadilar. Ammo shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, Dionis shaʼniga yozilgan maqtoʻv qoʻshiqlari – difiramblarning tor lirik kuy doirasidan chiqib chinakam dramatik janrga aylangunicha juda uzoq davrlar oʻtgan, qancha-qancha shoirlarning mehnatlari sarflangan. Bu qoʻshiqlar aslida ellik odamdan iborat xor ishtirokida bajarilgan. Ularni ijro etish oldida xordan bitta odam – peshtalqin ajralib chiqib, kuyni boshlab berar, keyin galma-gal: goh xor, goh peshtalqin aytar edi. Bu hodisada dramaning zarur xususiyati hisoblanmish boshlangich dialogni koʻramiz. Difiramblarni badiiy tomondan qayta ishlab, yangi adabiy turga aylantirish bobida qadimgi zamon shoirlari anchagina uringan boʻlsalar ham, bu janr uzoq yillar lirik kuy holicha qola beradi; chunki uning tarkibida harakat, chinakam oʻyin yoʻq edi. By sohadagi eng jiddiy ish – difiramblar ijrosiga birinchi aktyorni kiritish boʻlgan. Shundan soʻng difiramblarning harakat doirasi favqulodda kengayadi, dialoglar miqdori ortadi. Endilikda aktyor bilan peshtalqin yoki aktyor bilan xor oʻrtalarida soʻz yuritish, yo boʻlmasa xor ashula aytib turganida aktyor tashqariga chiqib, sahnadan chetda boʻlayotgan voqealar haqida xorga yangi xabarlar keltirish, yoinki zarur boʻlib qolgan taqdirda, ijro qilinayotgan asarning mazmuniga qarab, boshqacha kiyinib kelish imkoniyati paydo boʻladi. Toʻgʻri, aktyorning oʻyini asarda hozircha juda oz. Ammo shunga qaramay, endi u voqeani harakatga keltiruvchi markaziy kuchga, xorning kayfiyatini idora qiluvchi asosiy shaxsga aylanadi. Xor esa faqat lirik qismlarninggina ijrochisi boʻlib qoladi.

Adabiyot tarixida anʼana tusiga kirib qolgan eʼtiqodga koʻra, difiramnga birinchi aktyorni kiritgan ijodkor deb qadimgi yunonlar Fespid degan shoirni taniganlar. Fespid ishlarini davom ettiruvchi shoirlar keyinchalik asta-sekin Dionis sarguzashtlari bilan bogʻliq boʻlgan mavzular doirasidan chiqib, yunon rivoyatlarining boshqa turli-tuman mavzularidan ham foydalana boshlaydilar. Bora-bora chinakam yer hayoti, inson turmushi bilan bogʻlik boʻlgan

masalalarga ham qoʻl uriladi. Binobarin, difirambning uzviy qismi boʻlgan satirlar xoriga endi ortiq ehtiyoj ham qolmaydi, ular real odamlardan tuzilgan xorlar bilan almashtiriladi. Biroq satirlarning shoʻx oʻyinlarini, qiziq-qiziq ashulalarini chiqarib tashlash orqasida, tragediya ortiq darajada jiddiylashib ketadiki, bu holat aholi oʻrtasida, xususan, dehqonlar orasida anchagina noroziliklar tugʻdiradi. Ular, bu tariqa asarlarning Dionisga hech qanday aloqasi yoʻq deb hatto inobatga olmaydilar ham. Natijada shu tabaqalarning talablariga javob oʻlaroq dramaturgiyaning yangi turi – tragediya bilan komediya oʻrtasida turadigan «Satirlar dramasi» paydo boʻladi. Bu toifa asarlarning xor ishtirokchilari albatta Dionisning hamrohlari-satirlardan iborat boʻlgan. Bu janrning ijodkori VI asrning oxiri, V asrning boshlarida yashagan shoir Pratindir. Biroq uning oʻttizdan ortiq «Satirlar dramasi»dan bironta misra ham yetib kelgan emas. Eslatib oʻtish kerakki, satirlar dramasi, deyarli hech qachon mustaqil ravishda koʻrsatilmagan. Ular uch qismdan iborat tragik asarlarning faqat oxirgi ilova qismi sifatida sahnaga qoʻyilgan va tragediyalar bilan birga yaxlit bir toʻrtlik – uch tragediya, bitta satirlar dramasini tashkil qilgan.

Xullas, shu tariqa yunon dramaturgiyasining uchta asosiy janri – tragediya, komediya hamda satirlar dramasi paydo boʻladi.

YUNON TEATRINING XUSUSIYATLARI

Dramaning barcha turlari diniy marosimlardan tugʻilganligi vajidan, qadimgi yunonlar bularning hammasiga chuqur eʼtiqod bilan qaraganlar. Binobarin, teatr tomoshalari davlat qaramogʻidagi muhim siyosiy va tarbiyaviy tadbir va choralardan biri hisoblangan. Ikkinchidan, dramaning yuzaga kelishi bevosita Dionis marosimlari bilan bogʻliq boʻlganligi tufayli bu tomoshalar shu maʼbudning sharafiga yil sayin uch marotaba oʻtkaziladigan va bir necha kunlab davom etadigan bayram paytlarida namoyish qilingan, Yunonlar mazkur tomoshalarga shunchaki bir ermak deb emas, balki muhim diniy bayram deb qaraganlar va bu bayramlarni mumkin qadar tantanali oʻtkazishga tayyorlanib, deyarli hammalari teatr tomoshalariga kelishga oshiqqanlar. Dastlabki davrlarda teatr tomoshalari bepul koʻrsatilgan. Keyinchalik, chiqimlarning koʻpayib

kettanligi sababli, tomoshalar pullik qilingan, kambag'allarga ma'lum miqdorda hukumat tovon to'laydigan bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda barcha o'yinlar singari, teatr tomoshalari ham musobaqa yo'sinda o'tkazilardi. Bu musobaqalarga qatnashishni istagan har bir tragediyanavis shoir, hukumat ixtiyoriga mazmun jihatidan bir-biri bilan bog'liq uchta tragediya va bitta satirlar dramasi topshirardi. Bularning hammasi birga qo'shilib yaxlit bir to'rtlik – tetralogiyaning tashkil qilgan. Komediyanavis shoirlar esa faqat bitta-bitta asar bilan qatnashganlar. Teatr namoyishlariga tayyorgarlik ko'rish va shoirlar musobaqasiga rahbarlik qilish ishlarini Afina davlatining eng birinchi arbobi – bosh arxont boshqarar edi. Bu odamning yolg'iz o'zi yoki shu sohaning mutaxassislari yordamida uchta tragediyanavis shoirning uchtdan (trilogiya) tragediyasini va uchta komediyanavis shoirning bittadan uchta asarini tanlab olib, keyin faqat shu asarlar yuzasidan ish boshlashga kirishilgan. Har bir shoirning asarini sahnaga qo'yish tadbirlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni mavjud taomilga ko'ra, muhim ijtimoiy vazifa sifatida arxont shaharning badavlat kishilariga topshirgan. Xor rahbarlari – xoreglar o'zlariga birlashtirilgan asarlarga atab, 12-15 kishidan iborat xor qatnashchilarini yollashlari, ularga kiyim-kechak tiktirishlari, xor muallimi chaqirishlari, repetitsiya uchun bino topishlari va shularning barcha chiqimlarini to'lashlari lozim edi. Binobarin, asarning tomoshabinga yoqishi ko'proq xoregning himmatiga bog'liq bo'lgan. Musobaqaga qo'yilgan asarlarning hammasi tomoshadan o'tgach, Afinaning o'nta dahasidan saylangan o'n kishilik komissiya musobaqa yuzasidan yakun chiqarib, teatr ishtirokchilariga mukofotlar belgilardi. Bu mukofotlar alohida-alohida faqat uchta shoir, uchta xoreg va uchta birinchi aktyorlar o'rtasida taqsimlanib, g'oliblik gulchambari yolg'iz birinchi mukofotni olgan kishilar boshiga kiydirilgan, uchinchi mukofot esa mag'lubiyat alomati hisoblanar edi.

Yunon adabiyotining barcha janrlari singari, tragediyaning mavzulari ham asosan mifologik afsonalardan olingandir. Dastlabki davrlarda bu mavzular faqatgina Dionis haqidagi rivoyatlar bilan bog'langan bo'lib, shoirlar keyinchalik boshqa afsonalar turkumiga ham murojaat qila boshlaydilar. Biroq, shu bilan birga, tragediya mualliflari mavzu tanlaganlarida ham, faqat zamona talablariga hamohang miflarnigina olib, iloji bo'lsa ularni bir daraja o'zgartirib,

moslashtirib, shular misolida o`zlari yashab turgan davrning muhim masalalarini hal qilishga intilganlar, mifologik qahramonlarning kurash va to`qnashishlari, ularning xatti-harakatlari o`sha zamon tomoshabinlari uchun axloq va odobning namunasi, ijtimoiy xulqning andazasi sifatida ko`tarolmaydi; hamiyati tahqirlangan kezlarda hech narsadan tap tortmaydi, shafqatsiz qasoskorga aylanadi. Bu ayol sharoitga qarab, turli qiyofaga kirishi mumkin: zarur paytlarda o`zini mag`rur tutadi, esankiramaydi, sabot va ehtiyotkorlik bilan ish ko`radi; xavf-xatar oldida tilyog`lamalik qiladi, hiyla ishlatadi, xushomadga o`tadi. Qahramon tabiatini tadrijiy rivojlanish jarayonida tasvir etish – shoirning eng katta yutug`idir. «Agamemnon» tragediyasida Klitemnestra nihoyatda mag`rur, dadil, oqila va har qanday ishni uddalay oladigan tadbirkor malika qiyofasida ko`rinadi. «Duogo`ylar» tragediyasida u endi tamomila o`zgarib ketgan. Ilgarigi shijoat va mag`rurligi aslo sezilmaydi, qasos vahimasi malikaning tinka-madorini quritgan, qaddini bukkan, kechalari aloq-chaloq tushlar ko`rib chiqadi, xayr-sadaqa, duo-fotiha qilib erining arvochini tinchitishga urinadi, o`g`lining qaytishini dahshat bilan kutadi, shu sababli uning o`lganini eshitganida shodligini yashirmaydi ham, o`z xatosini anglagach, bir nafas ilgarigi jasorati uyg`onib bolta so`raydi, ammo Orest bilan to`qnash kelganida, uni yanada dardu anduh, o`lim tahlikasi bosadi, ortiq qarshilik ko`rsatishga majoli ham qolmaydi, faqat yolboradi, najot tilaydi...

Dramatik holatlardagi murakkablashuvi, voqealarning beto`xtov keskinlashib, tobora fojiali tusga kira borishi jihatidan ham «Oresteya» trilogiyasida kattakon siljish ko`ramiz. Chunonchi, «Agamemnon» tragediyasining boshlanishidanoq tomoshabin podshoh xonadonida mudhish fojia ro`y berishini asta-sekin seza boshlaydi. Bu tahlika posbonning imo-ishoralarida, Klitemnestraning dudmal va mujmal so`zlarida, Agamemnonning ko`ngil g`ashliklarida, Kassandraning sarosimaga tushib besaranjom bo`lishida va nihoyat, podshohning dodlagan ovozi eshitgan xaloyiqning bu dahshatga goh ishonib, goh ishonmasdan ikkilanishida, saroyga bostirib kirib podshohga yordam ko`rsatishni ham, ko`rsatmaslikni ham bilolmay jonsarak bo`lib turishida juda katta san`atkorlik bilan tasvirlangan. Fojiani bu tariqa asta sekin

kuchaytirib, tomoshabinni muttasil hayajonda saqlash – antik dunyo dramaturgiyasida siyrak uchraydigan hodisadir.

ESXIL

Miloddan avvalgi V asrning dastlabki yillarida boshlangan qizg'in ijtimoiy va siyosiy voqealar - Yunon elining eski ibtidoiy tuzumidan asta-sekin sinfiy davlatga aylanib bordi. Barcha yunon adiblari singari, Esxilning hayotiga doir ma'lumotlar ham tarixda juda oz saqlanib qolgan. Binobarin, ulug` dramaturgning hayoti haqida to'laroq mulohaza yuritishning imkoniyati yo`q. Shoir taxminan 525-524-yillarda Elivsin shahrida aslzoda aristoktlar oilasida tug'iladi, o'smirlik chog'laridayoq yirik-yirik ijtimoiy va siyosiy xodisalarning shohida bo'ladi, 15 yoshga etar-etmas afinaliklarning shiddatli kurashlari natijasida tiranlik saltanatining ag'darishi, shundan keyin demokratlar bilan aristokratlar o'rtasida boshlangan keskin janglar va, nihoyat, demokratik tuzumining tantana qozonganini shoir o'z ko'zi bilan ko'radi. Esxil eroniylarga qarshi olib borilgan ulug` muhorabadan ham chetda qolmaydi: Marafon va Plateya shaharlaridagi, Salamin orolidagi qirg'in janglarda faol qatnashdi. Bu urushda demokratik Afinaning mustabid Eron davlati ustidan g'alaba qilishi, Esxilning demokratiya tuzumiga bo'lgan e'tiqodini yana ham mustahkamladi. Biroq Afina davlatida pul munosabatlarining tobora kuchayishi, puldor tabaqalar ta'sirining zo'rayishi bilan, shoir demokratiyaning adolatli tuzumi ekanligiga shubhalana boshlaydi. Shu sababdan bo'lsa kerak, shoir umrining oxirgi yillarini vatanidan uzoqda, Sitsiliyada o'tkazadi va 456-yilda Gela shahrida vafot etadi.

Qadamgi olimlarning aytishlariga qaraganda Esxil nihoyatda mahsuldor yozuvchi bo'lgan. Biroq uning 90 ga yaqin tragediyadan iborat boy adabiy merosidan bizga qadar faqat ettitasi etib kelgan. Bular tubandagilar: "Eroniylar", "Fivaning etti dushmani", "Iltijogo'ylar", "Zanjirband Prometey" va "Oresteya" trilogiyasiga

kiradigan “Agamemnon”, “Xoeforlar” hamda “Evmenidalar” tragediyalari.

Esxil ijodining dastlabki mahsul “Iltijogo`ylar” tradegeyasidir. Asarning voqeasi podshoh Danayning ellikta qizi haqidagi “Danaidalar” afsonasidan olingan. Danaidalarning ellikta amakivachchalari, podshoh Egiptning o`g`illari, ularni zo`rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo`ladilar. Shahzodalarning surbetligidan nafratlangan danaidalar otalari Danay bilan birga panoh axtarib Yunonistonning Agros shahriga, podshoh Pelast yurtiga kelishadi. Pelast alamdiydalarga yordam ko`satishga tayyor-u, ammo fuqarodan bemaslahat ish tutishga andisha qilib, ularning iltimosini Agros aholisiga havola etadi. Xalq danaidalarning iltimosini bajonudil qabul qiladi.

“Iltijogo`ylar” tradegeyasi aslida uch qismdan iborat bo`lib, uning keyingi qismlari bizga qadar etib kelmagan. Ammo qizlar haqidagi afsonaning intihosi ma`lum: yigitlar zo`r bilan nihoyat danaidalarni xotinlikka olishga muyassar bo`ladilar, biroq alamzada qizlar nikoh kechasi qasos olib, kuyovlarni o`ldiradilar. Faqat Gipermestra degan bir danaidagina bunday og`ir jinoyatga jur`at qilolmay erini omon qoldiradi.

“Iltijogo`ylar” tradegeyasi dramatik qurilish jihatidan zaif. Asarda asosiy o`rin faqat danaidalardan tuzilmish xorga berilgandir. Voqeaga ikkinchi aktyor kiritilgan bo`lsa ham, dialoglar hozircha juda ham oz. Lekin shu ilk asardayoq shoirning demokratik kayfiyatlari ko`zga yaqqol tashlanib turadi. Erkinlik g`oyalari asosiga qurilgan Ellada demokratik tuzumi tragediya davomida necha bora Sharq istibdod tuzumiga, mustabidlikka qarama-qarshi qo`yiladi, Agrost podshohi esa o`z fuqarosi bilan bemaslahat ish qiladigan odil podshoh sifatida tasvirlanadi.

“Eroniylar” tradegeyasi bizga qadar etib kelgan shu janrdagi yunon adabiyotining jamiki yodgorliklari orasida, zamona mavzuida yozilgan yakka-yu yagona asardir. Yaqinginda bo`lib o`tgan va shoirning o`zi bevosita qatnashgan Eron-Yunon urushi tragediyaning asosiy mavzusi.

Voqea Eron shahri saroyida kechadi. Taxtning sadoqatli keksalaridan iborat xor to`dasi saltanatining ulug`ligi, podshoh Keksa boshchiligida Yunon urushiga jo`nagan son-sanoqsiz eron lashkarining qudrati haqida kuylagan.

Shundan keyin malika Atossa Doroning qabri ustida qurbonlik so'yib, uning arvohini chaqiradi. Saroy ahli qarshisida namoyon bo'lgan Doro bu falokatlarning hammasi Kserksning takabburligi, mag'rurligi va ota amrini buzib ma'budlarni behurmat qilganligi tufayli yuz berganligini aytadi. Doroning arvohi Plateya shahrida eron lashkarlarining bundan ham og'irroq mag'lubiyatga uchrashlarini va shahidlarning sag'onalari avlod-avlodning nazarida o'zboshimchalik abadiy mash'um xotirasi bo'lib qolajagini karomat qilib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Shu payt saroyga Kserksning o'zi kirib keladi. Uning ustidagi shohona liboslari tilka-tilka yirtilgan, afsus-nadomatlardan tinkasi qurigan, kulfat-mashaqqatlardan qaddi bukilgan... voqea saroy ahlining nolalari, oh-u fig'onlari bilan tugaydi.

“Eroniylar” tradegiyasi shuningdek chuqur vatanparvarlik g'oyalari bilan ham sug'orilgan asar. Shoir Afina davlatini istibdod tartiblari asosiga Eron davlatidan yuqori qo'yadi va dushman ustidan g'alaba qozonishning birdan-bir garovi yunon xalqining erkinligi ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. Eslatib o'tish lozimki, shoir Eron xalqini ham aslo yerga urmaydi, tahqirlamaydi. Bu xalqning ahvolini, aksincha podshoh Kserksning badkirdorliklari oqibati ma'nosida tushunib, ularga allaqanday xayrixohlik ko'rsatadi, taqdirlariga achinadi.

“Fivaning etti dushmani” tragediyalari Edip haqidagi mifdan olinib yozilgan trilogiyaning uchinchi qismi bo'lib, oldingi ikki qismi – “Lay”, “Edip” tragediyalari bizga qadar etib kelmagan. Fiva shahri afsonalarida hikoya qilinishicha, podshoh Lay, kohinlarning karomatidan qo'rqib, o'zining endigina tug'ilgan o'g'li Edipni xizmatkoriga topshiradi va uni o'ldirib, o'ligini yirtqich hayvonlarga tashlashni buyuradi. Ammo xizmatkor chaqaloqqa achinib, uni yashirinch boshqa yurt podshohiga eltib beradi. Trilogiyaning birinchi qismi – “Lay” tagediyasining mazmuni mana shu voqeadan iboratdir.

“Fivaning etti dushmani” tragediyalarida oldingi asarlarga nisbatan dramatik san'atning anchagina murakkablashganini ko'ramiz. Avvalo bu asarda xorning roli birmuncha kamayib, uning o'rmini dialog egallagan, eng muhim voqealarning markazida turib, ularni harakatga keltiruvchi bosh qahramon (Etiokl) paydo bo'lgan, shu bilan birga, muallif birinchi marta qahramonning yorqin

obrazini, insoniy qiyofasini chizadi. Shu xususida “Fivaning etti dushmani” tragediyasi yunon dramaturgiyasining bizga ma’lum bo’lgan asarlari orasida eng birinchisidir. Bundan tashqari tragediyada Esxilning diniy-ma’naviy e’tiqodlari ham chuqurroq ifoda etilgan. Shoirning tushunchasida va umuman, ulug` Yunon tragediyanavislar dunyoqarashlari muhim o`rin tutgan taqdir, qismati mavzulari bu asarda asosiy masala vazifasini ado etadi. Qadimgi Yunon olamida har bir narsadan taqdirni yuqori qo`yishar edi, ularning fikricha butun mavjudot taqdirning izmi bilan yashaydi: taqdir hatto ma`budlar ustidan ham hukum yuritadi; yer yuzidagi biron narsa uning ta`qibidan qochib qutilolmaydi; taqdir gunohkorlarini muqarrar jazolaydi, hatto jinoyatlarning avlod-avlodidan ham qasos oladi. Lay o`z taqdiridan qutilishga qanchalar urinmasin, Edip qismatning oldini olishga nechog`lik tirishmasin – baribir buning uddasidan chiqolmaydilar; taqdir albatta qaror topdi. O`z zamonasining diniy-ma`naviy tushunchalaridan tarbiyalangan Esxil, albatta, ko`pchilikning e`tiqodidan chetda qolmagan. Biroq qizig`i shundaki, Esxilning qahramonlari, o`zlarining qismatlaridan voqib bo`lganlari holda, dunyodan kechib, hech qachon ixtiyorlarini taqdir izmiga topshirib qo`ymaydilar, qismat qo`lida o`yinchoq bo`lmaydilar, irodalarini unga boy bermaydilar. Xullas, Esxil asarlarida taqdir bilan qahramonning irodasining yonma-yon turgani bilan, ularning har ikkalasi o`z holicha mustaqil harakat qiladi.

Trilogiyaning birinchi qismi – “Agamemnon” tragediyasi, asosan Klitemnestraning jinoyatlariga bag`ishlangan. Asarning voqeasi Agros shahrida Agramemnon saroyi oldida boshlanadi. Egey dengizidagi orollarning tog` cho`qqilarida birin-ketin gulxan yoqilib, Troyaning tor-mor qilinganligi to`g`risida Yunonistonga xabar kelganidan keyin, Agros aholisi tantana uchun bu erdagi shod-xurramlik yig`iniga to`pranishgan, Agros keksalaridan tuzilgan xor, ulug` muhorabning sabablari, Torya safarida ro`y bergan mashaqqatlar, Ifigeniyaning qurbon qilinishi va yana bir muncha voqealar haqida gapiradi. Shu payt chopar ham yetib keladi-da, Troya ustidan uzil-kesil g`alaba qozonilganligini aytadi. Xor shodiyoni qo`shiqlarida Zevsning ulug` adolatini, mehmondo`stlik qoidalarini poymol qilgan Paris kabi nobakorlarning muqarrar tanbehini berajagini, haqiqatning hech qachon oyoq osti bo`lmasligini tarannum etadi. Shuncha bahodirliklar ko`rsatib zafar

bilan vataniga qaytgan Agamemnonning bevaqt o'limiga achinib, xor fig'on qiladi va bu qotillik boshqa jinoyatlarni boshlab kelishini o'ylab chuqur iztirob chekadi. Mojaro ustida shu payt Egisf ham kelib qoladi. Hasratga to'lib-toshgan xor, bu mudhish qotillikka bosh qo'shgan razil kimsani ko'rib, o'zining ta'na va nafratlarini to'kib soladi. Xalqning o'rinli sitamlaridan achchiqlangan bu besharm, sipohlari bilan birga qilich yalong'ochlab olomonga tashlanadi. Faqat Klitemnestraning oraga tushishi tufayli bema'ni qon to'kilishi xavfi bartaraf qilinadi. Bir kun kelib, Agamemnonning quvg'inidagi o'g'li Orest qotillaridan otasining xunini muqarror olajagini Klitemnestra bilan Egisfga eslatib xor chiqib ketadi, asar tugaydi.

Trilogiyaning ikkinchi qismi "Xoeforlar" tragediyasi bo'lib, taxminan "duogo'y ayollar" degan ma'noni beradi. Asarda xor vazifasini ado etuvchi bu xotinlar Klitemnestraning topshirig'i bilan Agamenonning qabri ustida duo o'qib, uning arvohiga bag'ishlar edilar. Oldingi asarlarda fojialar yuz bergan vaqtda, Agamemnonning yosh o'g'li Orest ota yurtidan uzoqda, Agrost hukumroniga hayrixoh bo'lgan bir podshohning saroyida uning o'g'li shohzoda Pilad bilan birga tarbiyalanardi. Oradan o'n yil o'tadi, har ikkala shahzoda inoq va ayrilmas do'st bo'lib o'sadilar. Orest ulg'ayib, aql-hushi quyilgach, otasining xunini olish fursati etganini sezadi, biroq qasos yo'lida o'z qo'lini ona qoniga belash uning yuragiga dahshat soladi. Dilidagi andisha va shubhalarni yechish uchun Apollon ibodatxonasining kohiniga maslahatga boradi, kohin farzandlik burchini ado etishning muqaddasligi, bu yo'lda andishaga borib, qo'rqqoqlik qilgan kishining boshiga og'ir kulfat tushishini aytadi. Tragediya voqeasi ana shu erdan boshlanadi.

O'z onasini o'ldirgach, Orestning qalbida qo'zg'algan vijdon azoblari va qotilning gunohi atrofida boshlangan ma'budlar kurashi trilogiyaning uchunchi qismi "Evmenidalar" tragediyasida tasvirlangan. Orest qasos ma'budlari Eriniyalar ta'qibidan qochib, nihoyatda Delfadagi Apollon ibodatxonasiga etib keladi, uning ketidan izma-iz qasos ma'budalari ham bu yerga quvib keladilar. Apollon Arestga Afina shahriga borib ma'buda Afinadan najot tilashni maslahat beradi. Shundan keyin asarninig voqeasi bu shahardagi Akropol qal'asiga ko'chiriladi. Afinaning tashabbusi bilan bu yerda maxsus sud mahkamasi – Areopag ta'sis etiladi va ma'budaning rahbarligida Afinaning mo'tabar kishilaridan tuzilgan

sud hay'ati o'z ishini boshlaydi. Eriniyalar Orestni qoralab, ona qonini to'kkan jinoyatchini qattiq jazolashni talab etadilar. Gunohkor qilmishlarini bo'yniga oladi, ammo bu ishlarining hammasi yolg'iz Apollonning amri va daldasi bilan sodir bo'lganini aytadi. Apollon Orestni o'z himoyasiga oladi va da'vosining isboti uchun qator dalillar keltirib, aybdorning oqlanishini talab qiladi. Har ikkala tomonning dalillari eshitilgach, Afinaning iltimosi bilan sud hay'ati ovoz berishga o'tadi. Ma'budaning o'zi gunohkorni oqlash tarafdori ekanini aytadi va ta'sis etmish yangi mahkamasi Areopag haqida uzoq nutq so'zlab, bu muassasaning muqaddasligini, Afina aholisining umrbod eng ishonchli suyanchig'i bo'lib qolajagini, binobarin, Areopagga chuqur hirmat va ehtirom bilan qarashni, uning huquqlariga sira daxl qilmaslikni o'qitadi. Ovozlarni sanalganda ularning yarimisi jazolash tarafdori, yarimisi oqlash tarafdori ekanligi aniqlanadi, Afinaning ovozi bilan tarozi pallasini Orest tomoniga og'adi. Sudning oqibatidan ayniqsa, Afinaning himmatidan behad shodlangan Orest minnatdorchilik izhor etib, o'z yurti Argos va uning aholisi nomidan o'la-o'lguncha Afina bilan totuv yashashga, hech qachon uning boshiga yarog' ko'tarib kelmaslikka va'da beradi. Biroq sudning natijasi eriniyalarni qanotlantirmaydi, ular o'z huquqlarini poymol etilganligidan qattiq ranjiydilar. Afina eriniyalarga atab Arey tepaligida maxsus ibodatxona solinajagini va bundan keyin qasos – erinid ma'budlari sifatida emas, balki lutf, shafqat, muruvvat – Evmenid ma'budlari sifatida aholi tomanidan yana ortiqroq hurmatlanishlarini va'da qilib ko'ngillarini ko'taradi, tinchlantiradi. Asarga “Evmenidalar” deb nom berilishining ma'nosi ham ana shunda.

Trilogiyaning uchinchi qismi – “Otashbardor Prometey” tragediyasining mazmuni butunlay noma'lum. Olimlar taxmin qiladilarki, bu asarda Prometey, ehtimol, Zevsning halokati sirlarini, ya'ni Olimp hukumroni dengiz ma'budasi Fetidaga uylangudek bo'lsa, saltanatining muqarrar ag'darilajagini aytgandir.

Exsil o'zidan oldin o'tgan yozuvchilarga nisbatan Prometey obraziga tamomila yangicha yondashgan. Chunonchi, Gesiod poemalarida Prometey shunchaki bir o'g'ri, oddiy bir firibgar sifatida tasvir etilgan bo'lsa, Exsil dahosi bilan yaratilmish Prometey, avvalo, ulug' titan, insoniyatning homiysi, odam zotini halokatdan qutqarib qolgan buyuk rahnamo, oddiy odamlarga ilm-u fan sirlarini ochgan,

turli-tuman kasblarni o'rgatgan va shu yo'sin, ularga ongli hayot, baxtiyor turmush yo'llarini ko'rsatgan jonkuyar murabbiydir. Prometey – adolat va haqiqatning tolmas jangchisi; zulm va erkinsizlikka qarshi shafqatsiz kurashuvchi dadil isyonkor, Olimp tog'idagi munofiq ma'budalarning ashaddiy dushmani, hokazo va hokazolar. Bu ulug' titan o'zining yuksak maqsadlari yo'lida hech qanday g'ovlar qarshisida orqaga chekinmaydi, boshiga og'ir mushkulotlar tushishini bilgani xolda, shubha va andishalarni bosib o'tib oldinga qarab qadam tashlaydi. Uning e'tiqodiga ko'ra, yashamoq – yaxshilik qilmoq, mazlumlarga ko'maklashmoqdir. Jasorat va matonatning, adolat va diyonatning beqiyos timsoli bo'lgan bu siymo Zevsga qulluq bajo keltirib beg'am, betashvish yashagandan ko'ra, zanjirband bo'lib, azob-uqubatlarda umr o'tkazishni afzal ko'radi.

Exsil chindan ham “tragediyaning otasi”dir. Uning ijodida ibtidoiy bosqichdan bo'lgan dramatik adabiyot qisqa muddat ichida badiiy barkamollik bosqichiga ko'tariladi. Exsilga qadar tragediya hali o'zining lirik qobig'idan tamoman chiqib ulgarmagan, binobarin, sahna asarlarida hozircha dramatik unsurlar, ayniqsa dramatik konfliktlar ko'rinmas edi. Tragediyaning faqat ikkinchi aktyorni kiritish natijasida chinakam dramatik elementlar hosil bo'ladi. Birinchi marta Exsil tomonidan joriy etilgan bu muhim yangilik, butun dramaturgiya tarixida kattakon o'zgarish yasaydi. Aristotel o'zining “Poetika”sida (4-bob) shoir xizmatini xuddi shu nuqtai nazardan yuksak baholab: “Exsil birinchi marta aktyorning sonini ikkitaga ko'paytirdi, xorning rolini qisqartiradi va shu bilan dialogning rivoj topishiga zamin hozirlandi”, - deydi. Biroq adib o'zi kashf etgan bu yangiliklardan ijodining dastlabki davrlarida juda sust foydalanadi. Chunonchi “Iltijogo'ylar”, “Eroniylar” tragediyalarida voqealar asosan xorning so'zi, mulohaza va harakatlarida ko'rsatiladi, ikkinchi aktyorning roli juda zaif, dialoglar ancha bo'sh, qahramonlarning shaxsiy qiyofasi nihoyatda xiradir. Keyinchalik “Fivaning etti dushmani”, “Prometey” tragediyalarida shoir ijodida bir qadar siljish seziladi. Bu asarda endi qiyofasi aniq chizilgan bosh qahramon paydo bo'lganini, xorning roli birmuncha torayib, uning o'rmini dialog egallab borayotganini ko'ramiz. Nihoyat, Exsil ijodining eng so'nggi bo'lgan “Oresteya” tagediyasida shoirning talanti g'oyat keng qanot yoyadi. Bu asarda aktyorlar soni, avvalo,

ikki kishidan uch kishiga ko'paytiriladi, ikkinchi darajali yana birmuncha personajlar paydo bo'ladi, xor o'z o'rnini bosh qahramonlarga bo'shatib bergan-u, ammo ko'pchilikning tashvish va tahlikalarini izohlovchi kuchli dramatik vosita sifatida tragediyada hamon muhim o'rin tutadi.

SOFOKL

Yunon tragediyasining ikkinchi ulug' namoyandasi Sofokl (496-406) Afinaning yaqinidagi Kolon degan joyda tug'ilgan. Uning otasi qurol-aslaha korxonasining egasi, zamonasining ancha badavlat va boobro' kishisi bo'lgan. Sofokl yoshligidan yaxshi tahsil ko'radi, turli-tuman bilimlarni o'rganadi; uning adabiy faoliyati juda erta boshlanib, 28 yoshida ekan, dramatik adiblar musobaqasida ulug' Esxil ustidan g'alaba qozonadi. Rivoyatlarda hikoya qilinishicha, mag'lubiyatga uchragan Esxil go'yo nomusiga chidolmay Afinani tashlab ketishga majbur bo'lgan. Bu ma'lumotlar yosh yozuvchining obro'-e'tiborini oshirish niyatida to'qilgan mubolag'a bo'lsa kerak. Chunki ba'zi tarixiy hujjatlar Esxil bilan uning kichik zamondoshi Sofokl o'rtasida juda samimiy do'stona munosabat bo'lganligidan darak beradi.

Sofokl Afinaning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham faol qatnashadi, Periklga yaqin bo'lganligi va Afinaning demokratik usulda boshqarilishiga xayrixohlik bilan qaraganligi vajidan bir necha yil davlat xazinachisi bo'lib ishlaydi. 441 yilda hatto Afinaning eng oliy davlat lavozimi – strateglikka saylanadi va Perikl bilan birga Samos urushida qatnashadi. Ba'zi tarixiy manbalarning shahodatiga qaraganda siyosiy rahbar, harbiy arbob sifatida Sofokl unchalik maqtovg'a loyiq odam bo'lgan emas. Uning bu qadar ulug' martabalarga ershuvi sabablarini vatandoshlarining shoirga ko'rsatgan chuqur ehtiromlaridan axtarmoq lozim. Sofokl butun umrini shon-shavkatda, izzat va hurmatda o'z yurtida o'tkazib, 406 yilda vafot etadi. O'limidan keyin yunon elining ulug' zotlari qatori u ham qahramon sanalib, xotirasi uchun katta haykal o'rnatiladi va har yili qabri ustida qurbonlik so'yish taomilga kiritiladi.

Qadimgilarning guvohlik berishlariga ko'ra, Sofokl o'zining oltmish yillik adabiy faoliyati davomida 120 dan ortiq asar yozib, 24 marta dramatik shoirlar musobaqasida yutib chiqqan; biroq mazkur asarlardan bizga qadar yettitasigina yetib kelgan, xolos. Bu asarlarning tavsifiga o'tishdan oldin Sofoklning yunon dramaturgiyasida tutgan o'rnini, bu janrni takomillashtirish bobida qilgan xizmatlari haqida biroz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Sofokl o'z ijodida asosan Esxil boshlagan an'analarni davom ettirib, tragediyani tantanali diniy qo'shiqlar shaklidan chinakam dramaga aylantirish ishini yanada yuqori pog'onalariga ko'taradi. Sofokl asarlarida xor qo'shiqlarining asta-sekin qisqarib borishi orqasida voqealarning sur'ati tezlashadi; qahramonlarning tabiati va ruhiy kechinmalariga ko'proq e'tibor berish natijasida asarning mazmuni hayotiylik kasb eta boradi. Ijodining to'oxirgi kunlariga qadar Sofokl o'z asarlaridan xorni tamomila chiqarib tashlamagan bo'lsa ham, Esxil asarlaridagiga qaraganda uning xizmati endi juda kamayib ketgan: voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmaydi; qahramonlar o'rtasidagi gaplarga qotishmaydi. Sofokl tragediyalaridagi xorning asosiy vazifasi – o'yin jarayonida tug'ilgan taassurotlarni izohlash, muallifning maqsad va g'oyalarini ifoda etish, ba'zi mulohazalarni izhor qilishdan iborat bo'lib qoladi. Xorning vazifasini bu tariqa isloh qilish – ikkinchi aktyorning rolini oshirishga keng imkon beradi va hatto asarga uchinchi aktyorni kiritish zaruriyatini ham tug'diradi. Birinchi marta Sofokl tomonidan joriy etilgan keyingi yangilik dramaturgiya doirasini behad kengaytirib, antik dunyo tragediyasining to'so'nggi davrlariga qadar sahna san'atining asosiy qoidasi bo'lib qoladi. Ijodining oxirgi yillarida Esxil ham bu usuldan foydalanib («Oresteya») juda yirik ijobiy va badiiy natijalarga erishgan edi.

Sofokl tragediyaning faqat tashqi ko'rinishini o'zgartirish bilan cheklanib qolmasdan, uning ichki mazmuniga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu ulug' san'atkor yunon sahnasiga qadam qo'ygan ondan boshlab, dramaturgiya o'zining eski diniy mistik qobig'ini asta-sekin tashlab, chinakam hayotiy tusga kira boradi; ilgari ulug'vor hodisalar bir daraja oddiy voqealar bilan almashib, titanlar, ma'budlar va boshqa ilohiy kuchlar o'rmini odam taxlit qahramonlar egallaydi. Esxil o'z asarlaridagi odamlarning xatti-harakatida ko'pincha ilohlar aksini ko'rgan, odam bolasi ma'budlar o'rtasidagi

to'qnashuvlarda bir sababkor sifatida talqin etilgan bo'lsa (Prometey, Orest), Sofoklning qahramonlari ko'pincha o'z ixtiyorlari bilan mustaqil harakat qiluvchi, sharoitga qarab ish tutuvchi shaxslardir. Binobarin, Sofokl odam bolasining ahvoli, tuyg'u va ehtirolari bilan ko'proq qiziqadi va bu holatlarni turli-tuman bo'yoqlarda ko'rsatadi. Shu xususiyatlar jihatidan uning asarlari yunon adabiyotining taraqqiyot tarixida oldinga qarab tashlangan katta qadamdir.

Jahon adabiyoti tarixiga Sofokl, asosan, Edip haqidagi rivoyatlar mavzuida yozilgan asarlari «Shoh Edip», «Edip Kolonda» va «Antigona» tragediyalari bilan kiradi.

Qadimgi Yunonistonda juda keng tarqalgan Edip afsonasi Sofokldan ilgari o'tgan bir qancha shoirlarning asarlariga ham mavzu bo'lgan, jumladan, shu afsona asosida Esxil maxsus trilogiya yozganini yuqorida ko'rib o'tgan edik.

Fiva siklidagi Edip afsonasining qisqacha mazmuni tubandagicha, Fiva podshohi Lay qo'shni podshoh Pelopning uyida bir necha kun mehmon bo'lib, uning o'g'li Xrisippni olib qochadi. Mehmonning bu tariqa razil ko'rnamakligidan qattiq iztirob chekkan Pelop, ma'budlarga zor-zor yig'lab, dilozorini la'natlaydi. Oradan bir necha yillar o'tadi, Lay bola ko'rmaydi, bu ahvoldan tashvishlangan podshoh Delfadagi Apollon ibodatxonasiga borib, boshiga tushgan baxtsizlik sirlarini so'raganida, ibodatxona kohini Pelopning nola va iltijolari ma'budlar qoshida ijobat bo'lganini aytadi: Lay albatta bola ko'radi-yu, ammo bolasi o'z otasini o'ldirib, onasiga uylanadi...

Darhaqiqat, ko'p o'tmay Layning xotini Iokasta o'g'il tug'adi. Kohinlarning bashoratidan qo'rqqan Lay, chaqaloqning tovoniga nishtar uradi-da, qullaridan biriga topshirib, Kiferon tog'iga eltib tashlashni buyuradi. Podshoh amin ediki, bu yerdagi yirtqich hayvonlar, albatta, bolani omon qoldirmagaylar. Biroq qul go'dakka achinib, uni shu tog' etagida mol boqib yurgan Korinf podshohi Polipning cho'poniga beradi. Cho'pon esa bolani o'z podshohiga tortiq qiladi. Befarand Polip behad sevinib, chaqaloqni o'g'il qilib oladi va unga Edip degan nom beradi. Oradan yillar o'tadi, Edipning o'zi ham Korinf taxtining vorisi, podshoh Polip va uning rafiqasi Meropaning farzandi ekanligiga zarracha shubha qilmasdan o'sadi. Ittifoqo bir bazmgohda jo'ralaridan biri kayf orasida uning asrandi o'g'il ekanligini aytib qo'yadi. Kutilmagan bu sir yosh yigitning dilida alamli shubhalarni uyg'otadi. Podshoh bilan malikaning

soʻzlari ham unga tasalli bermaydi. Boshiga tushgan mushkul masalani yechish niyatida Edip Delfa kohiniga maslahatga joʻnaydi. Kohin Edipning qismati benihoyat ogʻir ekanligini, yaʼni u oʻz otasini oʻldirib, onasiga uylanajagini va bu nikoh natijasida bir qancha oʻgʻil-qizlar dunyoga kelishini, otaning kasofati bolalariga ham urishini aytadi. Biroq kohin mudhish sirni ochadi-yu, baxtiqaro Edipga uning haqiqiy ota-onalari kimligini aytmaydi. Chalkash muammodan Edip dahshatga keladi: endi bu yovuz koʻrgilikdan qanday qilib qutulsa ekan; axir kohin uning ota-onasi kimligini aytmadi-ku, bordi-yu, Polip bilan Meropa chindan ham uning ota-onasi boʻlsalar-chi?.. Nahotki, u ne-ne mehribonliklar koʻrsatgan podshohni oʻldirib, uning rafiqasi, oʻzining sevimli onasiga uylansa! Yoʻq, bundan buyon bewatan, benasl boʻlib dunyoda darbadar kezsa-kezadiki, Korinf tuprogʻiga zinhor bazinhor qadam bosmaydi!.. Shunday mulohazalardan keyin Edip boshi oqqan tomonga qarab yoʻl oladi. Biroq u ogʻir qismat taʼqibidan qochishga qanchalar urinmasin, bari bir taqdir uning izidan qolmaydi: Edip toʻppa-toʻgʻri Fiva shahriga olib boradigan yoʻlga tushadi. Uzoq yurib, ancha dovonlardan oshgandan keyin ikki togʻ oʻrtasidagi chorraha yoʻlda bir aravaga toʻqnash keladi; aravaning ichida ulugʻvor bir moʻysafid oʻtiribdi, orqada besh-olti odam uni kuzatib bormoqda. Aravaning oldidagi jarchi xayolga choʻmib parishonxotir kelayotgan yoʻlovchiga oʻdagʻaylab, qamchi oʻqtaladi. Bu nohaqlikdan gʻazablangan Edip jarchini bir musht bilan agʻdarib, oʻtib ketayotganida arava ichidagi moʻysafid hassa bilan uning boshiga tushirib qoladi. Edip ilgarigidan battarroq tutaqib, qoʻlidagi tayoq bilan cholning kallasiga chunon uradiki, u til tortmay oʻladi. Keyin boshqalarga hamla qilib, ularni ham oʻldiradi, faqat bir odam arang qochib qutuladi. Shunday qilib taqdirning xohishi mustajob boʻladi. Edip bilmasdan oʻz otasi Layni oʻldirib qoʻyadi.

Shu voqeadan keyin Edip yana yoʻlga tushadi. U oʻzini sira aybdor sanamas, hech qanday ruhiy notinchlik sezmas, vijdon azobidan xoli edi: axir, nimaga ham aybdor boʻlsin, birovga oʻdagʻaylamadi, nohaq soʻkmadi, faqat oʻzini himoya qildi, xolos. Edip shu taxlitda hayol surib, Fiva shaxriga yetib keladi va shahar aholisini nihoyatda ogʻir qaygʻu bosganini sezadi: bu yerda odambosh, arslon tana va kattakon ikkita qanotli bir mahluq – Sfinks paydo boʻlibdi. U dengiz boʻyidagi yoʻl ustida uzala yotib

yo'lovchilarga topishmoq aytar, yecholmaganlarni temir changallarida ezg'ilab o'ldirar va keyin dengizga uloqtirar ekan, hozirgacha biron odam bu topishmoqni yecholmabdi, qancha-qancha azamatlar shaharni Sfinks balosidan qutqarmoqchi bo'lishibdi-yu, baribir maqsadlariga yetolmay, ne-ne qiynoqlarda o'lib ketishibdi. Buning ustiga jarchi podshohni, go'yo allaqanday qaroqchilar o'ldirib ketganligi to'g'risida xabar olib keladi. Shahar xalqining iztiroblarini ko'rgan Edip ularni Sfinks balosidan qutqarishga bel bog'lab, bahaybat mahluq huzuriga keladi, Sfinks topishmoqni aytadi:

– Qanday jonivor ertalab to'rt oyoqlab, kunduzi ikki oyoqlab va kechqurun uch oyoqlab yuradi?

Edip darhol javob qaytaradi:

– Odam! Ertalab – odam bolasining go'daklik vaqti – to'rt oyoqlab emaklaydi; kunduzi kuchga to'lgan navqiron payti ikki oyoqlab yuradi; kechqurun – qarib, kuchdan ketgan yillari – hassaga tayanib qoladi.

Shunday qilib, Edip jumboqni topadi; Sfinks o'zini dengizga tashlab ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ma'budlarning amriga ko'ra, kimda kim uning topishmog'ini yechib bersa, Sfinks halok bo'lishi kerak edi. Edip shaharga qaytganida, og'ir ofatdan xalos bo'lgan xalq uni shod-hurramlik bilan qarshi oladi va marhum podshoh Layning tojini haloskorning boshiga kiydiradi. Fiva taxtiga o'tirgan Edip sal o'tmay Layning beva qolgan xotini, o'zining onasi Iokastaga uylanadi va undan ikki qiz (Antigona, Ismena) hamda ikki o'g'il (Eteokl, Polinik) ko'radi. Edip Fiva taxtida mamlakatni bir necha yil odilona idora qiladi, baxt-saodatda, rohatda va hurmat-ehtiromda umr kechiradi. Biroq podshohning osoyishta hayoti uzoqqa cho'zilmaydi. Ittifoqo Fiva shahri boshiga birin-ketin og'ir kulfatlar: ochlik, vabo yog'iladi. Qisqa bir muddat ichida butun shahar baayni go'riston tusiga kiradi, ko'cha-ko'ylardagi, xiyobon va xonadonlardagi o'liklarning son-sanog'i yo'q. Ularni dafn qilib ulgurmaydilar. Tevarak-atrofdan fig'on, nola ovozlari eshitiladi. Mamlakatda ocharchilik, mollar o'rtasida o'lat kezadi. Aholi qanchalar dod-faryod qilmasin, ma'budlarga sig'inib, qancha-qancha qurbonliklar so'yilmasin, baribir befoyda, go'yo ularning quloqlari tom bitgandek; musibatlar tobora kuchayadi.

«Edip shoh» tragediyasi xuddi ana shu yerdan boshlanadi.

Shaharning mo`tabar kishilari, erkak-xotin, yosh-qari maslahat so`rab podshoh saroyiga kelishgan; axir, dono podshoh bir mahallar yurtni Sfinks balosidan qutqargan edi-ku, nahotki ikkinchi marta ofatlarni daf qilish yo`llarini ko`rsatolmasa?.. Podshoh fuqaroning xuzuriga chiqib o`zining ham kecha-kunduz fikri-zikri shu falokatlar bo`lib qolganini, xalqning boshiga tushgan kulfatlar sababini bilib kelish uchun Delfaga, Apollon koiniga qaynag`asi Kreontni yuborganini, betoqatlik bilan uning qaytishini kutayotganini aytdi. Shu orada Kreontning o`zi ham qaytib keladi. Apolloya nomidan karomat qilgan koininning so`ziga qaraganda Fiva aholisining boshiga tushgan bunchalik og`ir vabo va o`latlarning asosiy boisi to shu kunga qadar marhum podshohning xuni olinmaganligida ekan, Fiva fuqarosi qotilni topib jazosini bermaguncha balolardan aslo qutulmas emish. Naqadar og`ir muammo!... Axir, qotilni qanday ham topish mumkin? Mish-mishlarga qaraganda podshohni va uning hamma navkarlarini qaroqchilar o`ldirib ketgan, deydilar-ku!.. Shu fojida o`lmasdan omon qolgan bitta qul hozir uzoq bir tog`ning etagida mol boqib yurar ekan. Edip mazkur podachiga darhol odam yuboradi va qanday mashaqqatlarga duch kelmasin, gunohkorni topishga astoydil bel bog`laydi. Podshohning qonini to`kishga jur`at qilgan qotil hatto o`zining eng yaqin kishisi bo`lsa hamki, uni shafqatsiz jazolashga qaror qiladi. Podshoh shu onning o`zida hamma fuqaroni yig`inga to`plab, qanday yo`l bilan jinoyatkorni izlash to`g`risida maslahat so`raydi. Xalq bir og`izdan bu mushkulotni yechishda faqatgina avliyo Tiresiy yordam berishi mumkinligini aytadi. Keksayib qolgan so`qir avliyoni yig`inga keltiradilar. Edip uni nima sababdan chaqirtirganini aytadi. Tiresiy Layni kim o`ldirganini biladi-yu, lekin Edipning ahvoliga achinib, sirni ochishdan bosh tortadi. Avliyoning taraddudlanishidan shubxalangan Edip unga bir-ikki achchiq-achchiq gapiradi. Nohaqli malomatlardan Tiresiyning hamiyatiga ozor yetib, avliyo butun sirlarini to`kib soladi. Layning qotili – Edipning o`zi! Bunchalik og`ir jinoyatda ayblanish Edipni, shubhasiz, g`azabga keltiradi. Tiresiy tilidan aytilgan bu da`volarda Kreontni bosh aybdor gumon qilib, Edip qattiq shubhaga tushadi, go`yo Kreont podshohni taxtdan ag`darib, uning o`rnini egallash niyatida Tiresiy yordami bilan shunday qabih tuhmat va ig`volarni uyushtirgan. G`azab zo`ridan tutaqib ketgan podshoh avliyoni tuhmatchi, firibgar deb

haqoratlaydi, Kreontga qattiq jazo berilishini talab qiladi. Kreont esa nohaq o`dag`aylashlardan cho`chimasdan, yotig`i bilan podshohga javob qaytaradi. Shu orada janjal ustiga Iokasta kelib qoladi-da eriga taskin berish va Layning qismati haqidagi karomatlarning puchga chiqqanligini isbotlash maqsadida, podshohning qanday sharoitda o`ldirilganligini batafsil so`zlab beradi. Axir, podshohning o`z o`g`li qo`lida shahid bo`lishini karomat qilgan edilar-ku, vaholanki, uni tog` oralig`idagi chorraha yo`lida qaroqchilar o`ldirib ketgan. Binobarin, bema`ni karomatlarga ishonib behuda tashvishlanishganlariga hojat yo`q, biroq Iokastaning hikoyasidan keyin Edipning diliga shubha oralab, tashvish va taxlikalari astasekin zo`raya boradi, chindan ham bir zamonlar Edip bilan bir guruh yo`lovchilar o`rtasida bo`lib o`tgan to`qnashish va buning natijasida bir nechalarning halok bo`lgani, xuddi ana shunday tog` oralig`idagi chorraha yo`lda ro`y bergan emasmidi?.. Keyingi so`roq va tekshirishlar natijasida Layning belgi va alomatlari hamda o`lgan vaqti yana oydinlashib, Edipning ko`ngil g`ashligi, shubha va iztiroblari battar kuchayadi. Edip shu tariqa goh shubhalar taraddudida yonib, goh falokatning bartaraf bo`lishiga umid bog`lab turganida Korinfdan bir odam kelib, Polibning vafot etganini va uning o`rniga xalq Edipni podshoh ko`targanini xabar qiladi. Bu xabar Edipga tasalli beradi, qalbida so`nib borayotgan umidlarni yana uchqunlantiradi. Modomiki, Polib o`z ajali bilan o`lgan bo`lsa Edipning peshanasiga yozilgan qismatlarining ijobat bo`lmaganiga, umuman, karomatlarning yolg`onligiga Fiva shohida endi hech qanday shubha qolmaydi. Ammo, shunga qaramay, karomatda zikr qilingan ikkinchi jinoyatning ijro etilishi, ya`ni beva qolgan onasi Meropaga uylanib qo`yish xavfi hamon Edipni qo`rqitar edi. Elchi shu mudhish shubhalarni Edipning dilidan chiqarib tashlash niyatida o`zi bilgan ba`zi voqealarni aytib beradi. Edip haqiqatda Polib bilan Meropaning bolasi emas, elchining o`zi bundan bir necha yillar muqaddam Kiferon tog`i etaklarida mol boqib yurganida, podshoh Layning bitta cho`ponidan tovoniga nashtar urilgan bolani olib, o`z podshohi Polibga eltib bergan ekan. Edip o`sha bolaning o`zginasidir. Iokastaga hamma narsa ayon bo`ladi, indamasdan saroy ichiga kirib ketadi. Edipni esa endi yangi muammo qiynaydi, axir u kimning bolasi?..

Shu payt Lay o'ldirilganida qochib qolgan cho'ponni olib keladilar. Bu odam bir zamonlar endigina tug'ilgan Edipni Korinf podshohi odamiga topshirgan cho'pon bo'lib chiqadi. Shuningdek, Layni qaroqchilar o'ldirganligi to'g'risida tarqalgan mish-mishlarning noto'g'ri ekanligi aniqlanadi. Endi na Edipning o'zida va na odamlarda hech bir shubha qolmaydi. Edip Layning o'g'li, o'z otasining qotili, onasining eri!.. Naqadar dahshat, naqadar dahshat!..

Xor Edipning g'am-g'ussalarga to'lib-toshgan shum taqdiri, odam bolasining nochorligi va inson baxtining bepandligi haqida g'amgin qo'shiq aytadi. Xuddi shu payt ichkaridan xizmatkor chiqib, bamisoli xorning so'zlarini tasdiqlagandek, yana bir og'ir musibat ro'y berganini xabar qiladi. Iokasta yotog'iga kirib, misli ko'rilmagan bunchalik og'ir dog'u hasratlar alamini ko'tarolmay o'zini osib qo'yibdi.

Ko'rgiliklardan aqli hushini yo'qotayozgan Edip, butun gunohlarining shohidi bo'lgan bu xonaga yuguradi va jon holatda xotining libosidan to'g'nog'ichini yulib olib, ikkala ko'zini sitib tashlaydi. U ortiq quyosh yog'dusini, bolalarini, aziz yurtini, o'zining tubanlashganini ko'rishni istamas edi. Edip yana xaloyiq qarshisida paydo bo'ladi. Uning yuzida, so'qir ko'zlarida, laxta-laxta qon ivib qolgan. Baxtiqaro dilshikastaning so'nggi daqiqalari, qizlari bilan vidolashuvi – tragediya san'ati yaratgan eng dahshatli fojialardan biridir.

Edip afsonasining keyingi voqeasi – «Edip Kolonda» tragediyasida tasvir qilinadi. Shu sababdan bu asarni «Edip shoh» tragediyasining davomi deb hisoblash mumkin.

Edipning boshiga tushgan og'ir falokatlardan so'ng ozgina fursat o'tar-o'tmas, Fiva xalqi la'natining shaharda turishidan xavfsirab, uning badarg'a qilinishini talab etadi. Edipning har ikkala o'g'li – Eteokl bilan Polinik ham bu talabni ma'qul ko'rib, otalarini o'z yurtlaridan quvadilar. Edipning katta qizi Antigona, butun hayotini otasiga bag'ishlab, o'z ixtiyori bilan u ham uzoq va mashaqqatli safarga otlanadi. Ular necha yil, necha zamonlar boshpana topolmasdan yer yuzini kezadilar, qancha-qancha tog'lardan, qalin-qalin o'rmonlardan o'tadilar. Antigona dardu hasratdan qaddi bukchaygan notavon otasining butun mashaqqatlariga hamdam bo'lib, nihoyat, Afina yaqinidagi Kolon degan yerda muruvvat ma'budalari Evmenidalar sharafiga o'stirilgan

bog`-bo`stonga yetib keladilar. Qo`rqinchli jinoyatkorning bu yurtga qadam bosganini bilib qolgan Kolon aholisi quvg`indi izidan og`ir musibatlar ergashib kelishidan qo`rqib, Edipning darhol jo`nab ketishini talab qilishadi. Biroq jafokashlarning ohu zoriga rahm qilib, podshoh Tezey kelguncha sabr qilishga rozi bo`ladilar. Xuddi shu asnoda bu yerga Edipning kichik qizi Ismena ham keladi. Ismena qancha vaqtlardan beri otasini qidira-qidira ko`pdan-ko`p mashaqqatlardan keyin, nihoyat u bilan diydor ko`rishadi. Edip quvg`inga ketganidan so`ng Fiva shahrida bo`lib o`tgan voqealarni otasiga so`zlab beradi: Edipning o`g`illari ota taxtini talashib ancha tortishganlaridan keyin kichik o`g`li Eteokl g`olib chiqib, Polinikni yurtidan haydab yuboribdi, quvg`indi Argos shahrida lashkar to`plab, Fivaga qarshi urush boshlashga tayyorlanib turgan emish. Edip bolalarining xudbinligidan nafratlanib, quvg`inga ketayotgan kuni otaning ahvoliga zarracha achinmaganlarini eslab, ularni qattiq qarg`aydi, la`natlaydi.

Ma`budlarning amriga ko`ra tez orada Afina bilan Fiva o`rtasida urush boshlanishi kerak edi. Edipning jasadi qayerda dafn etilsa, o`sha shaharning urushda g`olib chiqishini ma`budlar karomat qilgan. Noxush qarordan bezovtalangan Eteokl darhol Kreontni otasining huzuriga yuboradi va bechora cholni quvg`in qilib unga ko`p ozor yetkazgani uchun, go`yo dunyo-dunyo pushaymon ekanini izhor qilib, Fivaga qaytishini o`tinib-o`tinib so`raydi. Edip munofiq o`g`lining ayyorliklarini fosh qilib, Fivaga qaytishdan qat`iy bosh tortadi. Misi chiqqan Kreont navkarlariga buyurib, o`jar cholni va uning qizlarini zo`rlik bilan olib ketmoqchi bo`lib turgani ustiga Tezey kelib qoladi. Podshoh benavo misinga nohaq ozor berilayotganini ko`rib, qattiq nafratlanadi va uni o`z himoyasiga oladi. Kreont bo`lmag`ur haqoratlar va do`q-po`pisalar bilan qaytib ketadi. Shundan ozgina vaqt o`tgach, bu yerga Edipning katta o`g`li Polinik keladi-da, ota taxtini Eteokldan qaytarib olish niyatida Fiva shahriga lashkar tortib ketayotganini Edipga aytib, uning ham lashkarlar bilan birga borishini iltimos qiladi. O`zi singari quvg`indi bo`lib yurgan farzandining baxtini istagan ota albatta bu iltijolarni qaytarmasa kerak, chunki kimda-kim Edipni o`z tomoniga og`dira bilsa o`sha tomonning qo`li baland kelishini ma`budlarning o`zlari karomat qilganlar. Edip amin bo`lsin-ki, mehribon o`g`li keyinchalik uning qilgan yaxshiliklarini aslo unutmaydi, Fivaga qaytarib o`la-

o'lguncha otasini boqishga tayyor. Biroq najot axtarib kelgan o'g'il otadan qarg'ish va la'nat olib ketadi. Axir, ota boshiga shuncha musibatlar solgan, begona yurtlarda och-nochor kezdirgan, faqatgina shuhrat va mansab qidirib, shu qabih maqsad yo'lida bir-birining qonini to'kishdan, yurtning kulini ko'kka sovurishdan, fuqaroning qon qaqshatishdan toymagan, beandisha, behayo, xudbin bolalarga otaning qanday ham rahmi kelsin?.. Bunday nobakorlarning nasibasi faqatgina o'lim bo'lishi kerak. Edip ma'budlarga iltijo qilib, ikkala o'g'lini yakkama-yakka jangda halok qilishlarini so'raydi. Polinik ko'zdan g'oyib bo'lar-bo'lmas charaqlab turgan osmonda birdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq guldirdaydi. Bu hodisalar Edipning paymonasi bitganligi to'g'risida ma'budlar tomonidan yuborilgan bashorat edi. Edip mehribon qizlari bilan vidolashadi, keyin Tezeyga behad minnatdorchilik izhor qilib, bundan buyon arvohi hamda qabri Afinaning ko'makdoshi bo'lib qolajagini aytib ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Lay xonadonida ro'y bergan fojialarning xotima qismi «Antigona» tragediyasida tasvir etiladi (Bu asar zotan oldingilardan ilgari yozilgan bo'lsa-da, Edip haqidagi afsonani tasvirlashda muntazam izchillikka rioya qilib, biz uni eng oxirgi o'ringa ko'chirdik). Tragediyaning qisqacha mazmuni tubandagicha: Eteokl bilan Polinik yakkama-yakka jangda halok bo'lganlaridan keyin, Fiva taxti Kreont qo'liga o'tadi. Yangi podshoh vatan mudofaasi yo'lida qurbon bo'lgan Eteoklni katta tantana va izzat-hurmat bilan ko'madi; ammo yurt ustiga qurol ko'tarib kelgan xoin Polinikning o'ligini dafn qilmaslik to'g'risida qat'iy farmon chiqarib, bu farmonni buzgan kishilarni o'lim jazosiga tortajagini bildiradi. Marhumning ustidan chiqarilgan bu og'ir hukm Antigonaaning dilini pora-pora qiladi. Nahotki, yuragi shafqat va muruvvat hislariga to'la bo'lgan qiz bir qorindan talashib tushgan akasining og'ir qismatiga beparvo qarab tursin, axir jasadi dafn etilmagan murdaning arvohi tinchligini yo'qotib bir umr yer yuzida tentirab qolmaydimi?.. Foniylar bandalarga bundan og'ir musibat bormikan?.. Boshiga qanday kulfatlar tushmasin, singillik burchini o'tashga ahd qilgan Antigona, kechasi yashirincha akasining jasadi ustidan tuproq sochib dafn rasmini ado qilib turganida, qo'lga tushib qoladi. Podshohning amrini buzib, bu xilda o'zboshimchalik qilgan qizning jur'ati Kreontni tutaqtiradi, g'azabini qo'zg'atadi. Antigona esa ilohiy

qonunlarning inson hukmidan ulug'ligi, qarindoshlik burchining muqaddasligini o'rtaga qo'yib, o'z xatti-harakatining eng adolatli ish ekanligini dadillik bilan hukmronning yuziga aytadi va singillik vazifasini ado etganidan keyin hech qanday jazodan qo'rqmasligini izhor qiladi. Xor qanchalar nola-fig'on chekmasin Kreontning o'g'li, Antigonaning qallig'i Gemon nechog'lik otasiga yalinib ma'suma qizga shafqat ko'rsatishni iltijo qilmasin, baribir zolim podshoh o'z hukmidan qaytmaydi: Antigonani tiriklayin yer ostidagi maqbaraga qamab o'ldirishni buyuradi. Antigona hayotining so'nggi damlari, soqchilar uni tiriklikning oxirgi maskaniga haydab bormoqdalar, benavo qizning chehrasida dard-alam aks etgani bilan, qilmishidan o'kinish, pushaymon bo'lish sezilmaydi. Antigonani olib ketganlaridan keyin Kreontning huzuriga avliyo Tiresiy kelib, podshohning bu qadar zolimligidan ma'budlarning qahranganini aytadi va dilozorning boshiga og'ir musibatlar yog'ilishini bashorat qiladi. Bu xabardan zahراسi uchgan podshoh, Antigonani ozod qilish uchun maqbaraga yuguradi, biroq vaqt o'tgan edi: bechora qiz ustidagi libosdan sirtmoq yasab, o'zini osib qo'yibdi, ma'shuqasidan ajralgan Gemon uning tepasida yig'lab o'tiribdi. Vafodor yigit otasini ko'radi-yu, yurak alamlariga toqat qilolmay, xanjarini o'zining ko'ksiga uradi-da, qora qonga belanib mahbubasi yoniga yiqiladi. Sevikli o'g'lining halok bo'lganini eshitgan onasi Evridika ham eriga la'natlar o'qib, o'zini o'ldiradi. Tragediya Kreontning befoyda pushaymonlari va xorning «Ma'budlar yomonlarni bejazo qoldirmaydi» degan hikmatli so'zlari bilan tugaydi. Sofoklning bu asarlaridan tashqari, bizga qadar yana to'rtta tragediyasi yetib kelgan. Shulardan uchasi: «Ayaks», «Elektra», «Filoktet» – Troya afsonalari mavzuida va bittasi «Traxinali ayollar» – Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgandir. Bu asarlar ham badiiy mahorat bobida yuqorida ko'rgan tragediyalarimizdan unchalik qolishmaydi.

Antik dunyoda o'tgan dramaturglardan birontasining asari jahon adabiyotida «Edip shoh» tragediyasichalik chuqur iz qoldirmagan. Sofoklning bu asari XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida Yevropa adabiyotida «taqdir tragediyasi» deb atalmish maxsus adabiy oqimning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Bu oqim tarafdorlari, go'yo Sofokl izidan borib, taqdir mavzuida yozgan asarlarida, dunyo bevafo, odam bolalari hayot girdobida beixtiyor oqib yuradigan benavo-bechoralardir, deb da'vo qiladilar. Darhaqiqat

«Edip shoh» tragediyasi ham qadimgi yunonlar e'tiqodida juda muhim o'rin tutgan taqdir masalasiga bag'ishlangan. Ammo bu diniy aqidani talqin qilishda yunon dramaturgi o'zining yangi zamondagi muxlislariga zinhor-zinhor o'xshamaydi. Taqdir haqidagi afsonalar Sofokl ijodida ham xuddi Esxil asarlarida bo'lgani kabi, faqatgina yozuvchining diniy, ma'naviy va axloqiy qarashlarini ifoda etuvchi bir adabiy vosita vazifasini ado etgan, xolos. Yuqorida ko'rganimizdek, Lay bilan Edip ham, Esxil qahramonlari singari ixtiyorlarini taqdir izmiga topshirib qo'yib, ko'r-ko'rona ish qiluvchi odamlar emas, balki peshanalariga yozilgan og'ir qismatlarni bilganlari holda, uning oldini olish uchun astoydil kurashgan va o'zlarining baxt-saodatlari yo'lida ma'budlarning xohishiga qarshi isyon ko'targan kishilardir.

Umuman, qadimgi yunon kishisiga uning va, shaxsan, Sofoklning nazarida qisimat baxt-saodat, adolat hamda zaruriyat kabi tushunchalarning ma'nosi bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Tabiat qonunlarini buzish, insoniy qoidalarga xilof ish qilish – gunohkorlarning taqdiriga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Hozirgi zamon kishilari nuqtai nazarida ota-bobolarning gunohlari uchun bolalarning jabrlanishi – albatta bema'ni va nohaq bir zulmdir; ammo qadimgi yunonlar gunoh doirasini juda keng tasavvur etganlar. Foniylar bandalar ota-bobolarning gunohlari uchun javob berishdan tashqari o'zlarining xatti-harakatlarida ham juda ehtiyot bo'lishlari, dunyoning bevafoqligini, ma'budlarning qudratini, baxt-saodatning bepandligini, taqdirning bebaqoligini unutmasliklari lozim. Bulardan tashqari, birovga nojo'ya ozor berish, noo'rin tutaqish, davlat va mansabga mag'rur bo'lish, baxt shavqiga berilib esankirash va shularga o'xshash inson sha'niga nomunosib yana birmuncha ehtiroslar ham gunohkorning boshiga ko'p kulfatlar keltiradi. Bas, shunday ekan, Sofokl nazarida Edip tamomila pok, shafqatsiz taqdirning begunoh qurboni hisoblanishi aslo mumkin emas. Axir siz Edipning fe'l-atvoriga yaxshilab ko'z tashlasangiz, bu odamning «yomon» xislatlardan mustasnoligiga shubhalanib qolasiz. To'g'ri, Edip nihoyatda dono, odil, sohibtadbir, fuqaroparvar, yurtini sevgan, uning g'ami bilan yashagan bir podshoh. Xalq unga chin ko'ngildan ishonadi, o'zining rahnamosi deb qaraydi, boshiga kulfat tushganida maslahatga keladi. Edipning o'zi ham davlat va xalq oldidagi mas'uliyatini chuqur his etadi. Tragediyaning boshidan to

oxiriga qadar davom etgan voqealar jarayonida Edipning xatti-harakatlarini idora qilgan birdan-bir asosiy masala – Layning qotilini topish, shu yo'sin shaharni halokatdan qutqarish, fuqaroni tinchitishdir. Bu yo'lda hech qanday musibat, hech qanday dahshat podshohni qo'rqitmaydi. Layni o'ldirgan odam uning o'zi ekanligi tobora oydinlashib borayotganida ham axtarishlarini to'xtatmaydi. Hatto Korinf elchisining hikoyasidan keyin hamma narsa aniqlanganida ham, cho'ponni so'roq qilmasdan o'zini qutqarishga intilmaydi. Edip butun haqiqatni bilishi lozim – shahar manfaati, xalq tinchligining taqozosi shu. Ana shu olijanob fazilatlar barobarida, Edip bir talay nuqsonlardan ham mustasno emas: atrofdagilarning itoatkorlik bilan qullik bajo keltirishlariga odatlanib qolgan, barcha mustabidlar singari, e'tirozlarni yoqtirmaydi. Butun aholining izzat-e'tiborini qozongan, yurtga qilgan yaxshi xizmatlari bilan hurmat orttirgan keksa Tiresiy mudhish haqiqatni ochishga taraddudlanib turganida, Edip unga achchiq-achchiq gapirib, qattiq jazolamoqchi bo'ladi; Kreontni xoin gumon qilib, g'azab o'tida tutaqadi va begunoh odamni o'lim jazosiga buyurish lozimligini aytadi. Bir tomondan, Edipning tutaqishi ham o'rinli; axir uni haddan tashqari og'ir jinoyatda, ya'ni otasini o'ldirganlikda aybladilar. Edipning gunohini aniqlash uchun umuman odam bolasiga va, xususan, podshohlarga Sofoklning qanday qaraganligini tushunish zarur. Yozuvchining tasavvur qilishicha, har bir inson, ayniqsa hukmronlar to'la-o'lguncha o'zlarining «odamlklarini» unutmasliklari lozim. Inson sha'n-shavkatda, davlat va saltanatda, hurmat va ehtiromda qanchalik baland ko'tarilmasin, hech qachon manmanlikka berilmasdan, bir nafas ham odam baxtining bepandligini, beqarorligini esdan chiqarmasdan sabr-matonat, idrok va adolat hukmi bilan ish ko'rmog'i darkor. Aks holda bir kun kelib ma'budlar ulug' martabali mas'udlarni ham har qanday yuksaklikdan jahannam azoblariga ulotqirib tashlaydilar. Edipning gunohlari va ko'rgiliklarining boisi ana shunda. Yozuvchi qahramonning obrazini talqin qilar ekan, uning boshiga tushgan musibatlarni faqat taqdirning xohishiga ko'ra sodir bo'lgan oqibatlar tarzida emas, ko'proq Edipning shaxsiy qusurlari natijasida ro'y bergan falokatlar tarzida ko'rsatadi; odam bolasi o'zining ezgu ishlariga mag'rurlanmasligi kerak, o'ziga munosabatida ham shoir asosan shu usuldan foydalanadi.

Sofokl asarlarida aktyorning soni orttirilganligi vajidan dialoglarning hajmi Esxil asarlariga qaraganda allaqancha kengayadi va qahramonlarning xarakteri hamda ahvoli ruhiyasi tavsifida yirik bir vositaga aylanadi. Sofoklning deyarli hamma asarlari qahramonlar o'rtasidagi shiddatli munozaralar, dahanaki janglar asosiga qurilgandir.

Sofokl ijodida yunon tragediyasi yuksak kamolot bosqichiga ko'tarilib, olamshumul ahamiyat kasb etadi. Shoir asarlarining demokratik ruhi, odamparvar mazmuni, noyob badiiy ko'rki – ularning abadiy barhayotligini ta'minladi.

EVRIPID

Qadimgi yunon tragediyasining uchinchi ulug' vakili Evripid, rivoyatlarning naql qilishiga ko'ra, eramizdan oldingi 480 yilda, xuddi yunonlar Eron ustidan g'alaba qozongan kuni Afina yaqinidagi Salamin orolida o'rtahol oilada dunyoga keladi, yaxshigina bilim oladi. Shu davrning atoqli faylasuflari Sokrat, Anaksagor, Arxelay, sofistlardan Protagor hamda Prodik Evripidning yaqin do'stlari bo'lganlar. Zamondoshlarining aytishlariga qaraganda shoir, o'z davridagi kundalik ijtimoiy-siyosiy harakatlarga qotishmasdan, ilm, fan, san'at, adabiyot va falsafa bilan shug'ullanib tinchgina umr kechirishni afzal ko'rgan. Biroq shoirning xilvatnishin tabiati zamonasining ilg'or g'oyalari bilan barobar qadam tashlashiga, asarlarida shu g'oyalarni yorqin aks ettirishiga va demokratiyani mustahkamlash yo'lida qalam bilan astoydil kurashuviga xalaqit bergan emas. Evripidning tragediyalaridagi progressiv fikrlarga, dramaturgiyaga kiritgan yangiliklariga Afina jamiyatining konservativ guruhlar tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatdilar, V asrning oxiridagi komediyanavislar shoirga, ayniqsa ko'proq ta'na va malomatlar yog'diradilar, behayolik bilan uni masxara qiladilar. Masalan, Aristofan, Evripidning otasi chakana boqqol, onasi rezavorchi, xotini buzuq bo'lgan, deb shoirga ko'p dashnom bergan. Ehtimol, ana shu og'ir sharoitlarda Afinada yashashning ortiq iloji qolmaganligidandirki, Evripid o'lmasidan bir oz ilgari Makedoniyaga ko'chib ketadi va 406 yilda shu yerda dunyodan o'tadi. Keyingi vaqtlarda Evripidning tarjimai xolini yozgan ba'zi

kimsalar fikricha, shoirni go`yo itlar talab o`ldirgan, ikkinchilarining fikricha u necha bora teatr musobaqalariga qatnashgan bo`lsa ham, faqat uch martagina birinchi o`rinni egallashga muvassar bo`lgan. Biroq yunon tarixining keyingi asrlari, ellinizm davrida Evripid o`z xalqining eng sevimli tragik shoiriga aylanadi. Hatto Esxil, Sofokl ham uning dovrug`i soyasida qolib ketadilar. Bu ahvol shoirning adabiy merosi taqdiriga ham kuchli ta`sir ko`rsatib, 92 ta asaridan bizga qadar 17 ta tragediya hamda bitta satir dramasi to`la holda yetib kelishini ta`minlaydi. Bular tubandagilar: «Alkestida», «Medeya», «Geraklidlar», «Ipollit», «Gekuba», «Gerakl», «Iltijogo`ylar», «Troyalik ayollar», «Elektra», «Ion», «Ifigeniya Tavridada», «Yelena», «Andromaxa», «Finikiyalik qizlar», «Orest», «Vakx qizlar», «Ifigeniya Avlidada» va «Kiklop» nomli bitta satir dramasi. Bu asarlarning hammasi yunon taomiliga ko`ra Esxil hamda Sofoklning tragediyalari singari mifologik afsonalar mavzuida yozilgan.

Shoir ijodining dastlabki davrlarida yaratilgani «Alkestida» tragediyasi hisoblanadi. Fessaliya podshohi Admet birgunohi uchun ma`buda Artemidaning g`azabiga uchrab, umri qisqartirilgan. Bir mahallar podshohdan yaxshilik ko`rgan Apollon o`rtaga tushib uning gunohini so`rab oladi; Admetning umri bitgan kuni uning o`rniga, basharti, boshqa bironta odam o`limga ko`nsa, podshohning umrini uzaytirishga taqdir ma`budalari rozi bo`ladilar. Nihoyat, Admetning paymonasi to`lib, o`lim soatlari yetib keladi. Hech kimsa, hatto lodshohning keksayib qolgan ota-onalari ham uning o`rniga go`rga kirishni istamaydilar. Bunchalik og`ir fidokorlikka faqat Admetning yoshgina rafiqasi Alkestida rozi bo`ladi. Malika o`lim oldida hamma bilan g`amgin-g`amgin vidolashadi, bolalarini bag`riga bosib-bosib yuzlaridan o`padi, qon-qon yig`laydi, eri bilan rozi-rizolik tilashar ekan, uning baxt-saodati yo`lida beqiyos og`ir qurbonlarga rozi bo`lganini eslatadi: axir Alkestida o`lmasdan omon qolishi, eridan keyin istagan kimsasiga tegib, koshona qasrlarda nash`u namo surishi, farog`atda umr kechirishi mumkin edi-ku!.. Hatto munkillab qolgan, oshini oshab, yoshini yashagan ota-onalari ham qolgan besh kunlik umrlarini bitta-yu bitta navqiron o`g`illariga hadya qilishni istamadilar-ku!.. Ana shu qurbonlar badaliga Alkestida erining bundan keyin uylanmasligini, bolalarini o`gay ona zulmiga giriftor qilmasligini o`tinib-o`tinib so`raydi-da, ohistagina dunyodan o`tadi.

Podshoh sevimli rafiqasidan ayrilib yolg'iz qoladi, iztiroblarining aslo chegarasi yo`q. Huvillagan saroylar, onasidan judo bo`lgan yetimchalarning ko`z yoshlari Admetning dardiga yana dard qo`shadi. Podshoh endi qanday qilib ham odamlarning ko`ziga ko`rinsin!.. O`zining jonini o`ylab xotinini o`limga mahkum qilgan nomard erdan bundan buyon hamma hazar qilmaydimi?.. Admetning boshiga tushgan shunday og`ir musibatlar ustiga uning jonajon do`sti, yunon elining ulug` bahodiri Gerakl kelib qoladi. Birodarining diliga ozor bermaslik uchun oilada ro`y bergan musibatni podshoh mehmondan yashiradi va ochiq chehra bilan uni qarshi olib, quyuq dasturxon yozadi-da, bir bahona bilan xotinini dafn qilishga ketadi. Yolg'iz o`zi may ichib, kayfu safo surib o`tirgan pahlavon tasodifan bu oilada sodir bo`lgan kulfatni payqab qoladi va shunchalik og`ir musibatlarga qaramay, mehmonga ko`rsatilgan iltifotlarga, mezbонning oliy himmatiga tasannolar aytadi va azaxonada qilgan yengiltakliklarini yuvish, do`stidan ko`rgan bu tariqa muruvvat va noyob odamgarchilik qarzlari qaytarish niyatida. darhol o`rnidan turib marhumaning maqbarasiga yuguradi, u yerda ajal ma`budi bilan uzoq olishib, malikani o`lim changalidan qaytarib oladi. Admet xonadoniga yana shodlik kiradi.

By tragediyada Evripid ijodining ba`zi xususiyatlari ko`zga yaqqol tashlanadi. Asarda, avvalo, Esxil hamda Sofokl tragediyalariga xos ko`tarinki salobatni, ma`budvash qahramonlarni ko`rmaymiz. Ko`z oldimizdan o`tadigan shaxslar hayotning ikirchikirlari bilan yashaydigan, xudbin manfaatlar, mayda-chuyda ehtiroslardan holi bo`lmagan, oddiy, to`pori odamlardir. Bu muhitning kishilari odob-ahloq qoidalariga rioya qilib, mehmonga hurmat ko`rsatsalar-da, lekin o`z manfaatlarini yo`lida ota-onalarini va sevikli rafiqalarini qurbon qilishdan qaytmaydilar; o`g`lining o`rniga o`lishni istamagan ota kelini janozasiga hadyalar bilan keladi. Bir o`rinda xor shunday deydi: Elladada qolgandir ortiq, Na nomus, na ahdu paymon. Yurtimizni tark etib insof, Uchib ketmish falakka tomon.

Darhaqiqat, qulchilik asosiga qurilgan demokratiyaning chirib borayotgan davridagi jamiki manfiy xislatlar – aldanchilik, munofiqlik, xoinlik, shuhrat va davlatparastlik kayfiyatlari Yason qiyofasida yuksak mahorat bilan ko`rsatilgan. Bu odam o`zining xudbin maqsadlariga erishish yo`lida inson uchun aziz bo`lgan sevgi,

vafodorlik, himmat, oila baxti, bola-chaqa mehri va shu kabi barcha olijanob tuyg`u va tushunchalarni barbod etadi, o`zining jirkanch va razil manfaatlariga qurbon qiladi. Bu odam, zotan, bir paytlar bahodirlikda nom chiqargan bo`lsa-da, aslida o`taketgan manfur va qallob ta`magirdan uning hech qanday farqi yo`q. Yason xotini yordami bilan shuhrat qozonadi, shu xotin uni necha bora o`limlardan qutqarib qoladi, nihoyat Medeyadan boshqa manfaat ko`rishga ishonchi qolmagach, yangi obro`, yangi davlat orzusida vafodor rafiqasini, bolalarini tashlab, podshohning qiziga uylanmoqchi bo`ladi. Yason bu ishlarining hammasi go`yo, bolalarining baxti, ularning istiqboli yo`lida qilinayotgan bir chora ekanligini aytib, xotinini tinchitmoqchi bo`ladi, ko`z ochib ko`rganini aslo unutmasligini, unga har doim yordam ko`rsatib turajagini aytadi. Behis, besharm bu mahdud bilmaydiki, sevgini bozorda sotmaydilar, diyonatni ayirbosh qilmaydilar.

«Medeya» – xo`rlangan muhabbat va rashk tragediyasi. Shoir bu ehtiroslarning butun kuch va haroratini Medeyaning dardu alamlarida, nafrat va g`azablarida ko`rsatgan. O`sha zamon kishilari ko`zi bilan qaraganda Medeya nihoyatda o`tkir qobiliyatli, temir irodali, serehtiros, sershijoat bir shaxs. Bu ayol na ma`budlar qarshisida va na taqdir oldida bosh egadi. Nodir jasorat, sabot va matonat bilan o`zining insoniy baxti uchun yolg`iz o`zi kurashadi, vafo va sodoqatda ikkilanishni bilmaydi, nomus masalasida hech qanday sulhga ko`nmaydi, buning ustiga u yunon ayollari singari tutqunlikda yashagan, ro`zg`or tashvishlaridan o`zga narsani bilmagan xotin-qizlardan emas, uning yoshligi uzoq mamlakatda, erkin xalqlar orasida o`tgan. Yason bilan birinchi uchrashuvdayoq bu yigitni o`ziga munosib ko`rib, unga ko`ngil bog`laydi, butun hayotini sevgan yorining qadamiga tikib, yurtidan kechadi, og`ir jinoyatlar qiladi. Eridan yomonlik kelishini aslo kutmagan, davlat va mansab ishtiyoqida muhabbatni yakson, oilani vayron qilishini sira o`ylamagan xotinning dilida Yasonning razilliklari chuqur nafrat uyg`otishi, albatta, shubhasiz edi: Dilimni berganim, suyangan tog`im, Sevganim, yolg`izim shu erim edi. Afsus-nadomatki, past murdor chiqdi.

Evripid Medeyaning hasratga to`la alangali monologida xotin kishining og`ir qismati haqida hikoya qiladi. Qahramonning aytishicha koinotda yashaydigan butun maxluqot orasida ayollardan

baxtsiz kimsa yo`q. Xotinlar o`z erlarini oltin barobarida sotib olishga, tanlarini qul o`rnida uning ixtiyoriga topshirishga majburlar. Erining nobop, betavfiq kimsa, uni tashlab ketolmaysan, quvib yuborolmaysan, chunki nikohni buzish – sharmandalik sanaladi. Erkaklarning ahvoli tamoman boshqacha: ular oilada zerikib qolsalar, ko`chaga chiqib ma'shuqalari, yoronlari bilan chaqchaqlashib, ko`ngillarini xushlab keladilar. Xotinning esa birdan-bir ovunchog`i faqatgina eridir. Aytadilarki, erlarimiz qalqon ushlab xotinlarini mudofaa qilar emishlar. Bo`lmag`ur yolg`on gap!.. Bir marta bola tuqqandan ko`ra, o`n marta qilich ko`tarib jangga kirgan o`ng`ay emasmi!..

Binobarin, ayollar o`zlarining sotsial mavqelariga qarab, erkaklarga nisbatan tamomila boshqa tor bir muhitga o`ralashib qolganlar. Bu muhit oila va oila baxti bilan bog`lash mumkin bo`lgan bola-chaqa sevinchi, urning sadoqat va muhabbatidir. Ayollar o`zlarining birdan-bir suyanchiqlari, baxti saodatlarining manbai bo`lgan ana shu oila tinchligini himoya qilishda hech qanday jinoyatdan qaytmasliklarini, sevgida nechog`lik jo`shqin bo`lsalar, qasos olishda ham shunchalik berahm ekanliklarini shoir Medeyaning mulohazalarida ko`rsatadi:

Biz ayollar juda qo`rqqmiz, Qonni ko`rsak vahima bosar, Qilich-xanjar yurak o`ynatar, Ammo, biling, nikoh to`shagi, Xotinlikning aziz huquqi Barbod bo`lib, tahqir egilsa, G`azabimiz yo`qdir davosi, Dahshat, o`lim uning zavoli.

Medeya sevgida qanchalik shijoat, vafodorlik ko`rsatgan bo`lsa, sadoqat o`rnini xiyonat egallar ekan, intiqom olishda ham shunchalik shafqatsizdir. Muhabbat to`g`risida eng oliy tushunchalar bilan yashagan bu ayolning e`tiqodiga ko`ra, mislsiz mashaqqatlar orqasida erishilgan sevgini bulg`amoq – eng mudhish jinoyatdir. Xo`rlangan muhabbatning dog`ini faqat qon bilan yuvmoq darkor.

Xullas, Evripid Medeyaning qonli jinoyatlarini nohaq tahqirlangan alamzada dilning isyoni tarzida tasvir etadi. Biroq shoir Medeyaning qilmishlarini ta`riflaganida uning barcha jinoyatlarini qahramon qonidagi shaxsiy xislatlar ifodasi tarzida emas, balki nobop ijtimoiy sharoitlar oniy burch, erkinlik g`oyalari hozirgi zamon kishilarining tilak va orzulariga hamohangdir; o`zining shaxsiy hayotidan xalq oldidagi burchini, davlat manfaatini qarshi qo`ygan vatanparvarning jasorati, bema`ni taqdirning ta`qibiga

qarshi kurashga bel bog`lagan, zolimlarning zulmiga qarshi isyon ko`targan, insonning erki va baxt-saodati, adolatning tantanasi yo`lida har qanday azob-uqubatlarga bardosh berib, hatto o`limdan ham toymagan jangchining jur`ati bizni ham to`lqinlantirmasdan qolmaydi. Antik dunyo tragediyasining abadiy barhayotligi va so`nmas badiiy go`zalligining asosiy boisi ham ana shu chinakam odamparvarlik mazmunidadir.

KOMEDIYA

Turli-tuman qiziqchiliklar bilan tomoshabinni kuldirish yoki hayotda uchraydigan ba`zi bir manfiy hodisalarni masxaralash – komediyaning asosiy maqsadidir.

O`zining nojo`ya ishlari bilan dehqonlarga ozor yetkazgan biron odamni – boyonlarni, amaldorlarni hajviy qo`shiqlarda mazax qilish Yunoniston qishloqlarida tez-tez uchrab turadigan oddiy hodisa bo`lgan. Mazkur qo`shiqlarni ijro etuvchi kishilar turli hayvonlar, parrandalar va qurt-qumursqalar tusida kiyinib, ko`cha-ko`ylarda yurar ekanlar. Dionis marosimlari bunday rasmlarning yana ham kengroq yoyilishiga katta imkoniyatlar tug`diradi. Komediyaning dastlabki unsurlari hozircha ma`lum bir tartibga tushmagan ana shu oddiy rasm-rusumlaridan unib chiqqandir. Keyinchalik komediyalar dramatik musobaqalar qatoriga kiritilgach, hajviy qo`shiqlar, kulgili hodisalar ma`lum bir mavzuga moslashtirilib, muayyan dramatik shaklga solinadi.

Oldingi boblarda aytganimizdek, eramizdan ilgarigi V–IV asrlar, umuman, butun Yunoniston va, xususan, Afina davlati uchun nihoyatda kuchli ijtimoiy va madaniy taraqqiyot davri bo`lgan. Ammo, shu bilan birga, quldorlik zaminida yaratilgan demokratiya tuzumining ziddiyatlari, ayrim sotsial guruhlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklar kun sayin keskinlashib bormoqda edi. Dastlabki komediyanavis shoirlar o`zlarining asarlarida ana shu nuqsonlarni fosh etishga, kulgi va satira yordami bilan ularni bartaraf etishga intilganlar. Shunday qilib, «Qadimgi attika komediyasi» deb atalmish maxsus adabiy oqim maydonga keladi. O`tkir siyosiy jo`shqinlik, demokratiya dushmanlariga qarshi murosasizlik – qadimgi attika komediyasining asosiy xususiyatidir. Bu komediya ijtimoiy hayotning jamiki sohalariga – siyosiy hodisalarga, ilmiy-

falsafiy, adabiy, tarbiyaviy, axloqiy va boshqa turli-tuman masalalarga taqalgan. Mazkur janrda ijod qilgan ko'pdan-ko'p shoirlar orasida faqat uch kishining nomi bizga ma'lum. Bular – Kratin, Evpolid hamda Aristofandir. Shulardan faqat Aristofanning asarlarigina saqlanib qolgan.

ARISTOFAN

Qadimgi komediyanavis shoirlar orasida asarlari ozmi-ko'pmi miqdorda bizga qadar yetib kelgan birdan-bir shoir Aristofandir. Bu shoirning ijodida komediya mazmun jihatidan benihoyat kengayadi, shakl jihatidan yuksaklikka ko'tariladi. Binobarin, biz uchun bu zot to shu kunga qadar mazkur janrning dastlabki yakkayu yagona vakili va butun jahon miqyosida komediya adabiyotining keksa bobokaloni bo'lib qoladi.

Aristofanning shaxsiy hayoti haqida biz, deyarli hech narsa bilmaymiz, ba'zi manbalarning aytishiga qaraganda shoir taxminan, eramizdan oldingi 445 yilda Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug'ilgan va Afina davlatining fuqarosi bo'lgan. Aristofan o'zining adabiy faoliyatini juda erta boshlaydi va 20 yoshga yetar-etmas komediyanavislar musobaqasida qatnashib ikkinchi o'rinni egallaydi. Qirq yilcha davom etgan adabiy faoliyati davrida shoir hammasi bo'lib, taxminan, qirqdan ortiq asar yozgan. Mazkur asarlardan bizga qadar to'la holda o'n bitta komediya yetib kelgan.

Olimlarning taxminiga ko'ra, shoir 385 yilda dunyodan o'tadi.

Aristofanning bizga qadar yetib kelgan dastlabki asarlaridan biri «Axarnliklar» komediyasidir. Endigina adabiyotga qadam qo'yan yigirma yoshlik shoir shu asaridayoq zamonasining eng aktual masalalaridan biri bo'lgan urush va tinchlik haqida baxs etadi. Peloponnes urushining boshlanganiga olti yil bo'lgan, shu yillar mobaynida afinaliklarning ko'rgan talafotlarining xisobi yo'q: son-sanoqsiz odamlar o'lgan, Attika viloyatining ekinzorlari, bog'lari payhon qilingan, mamlakatda ovqat tanqisligi, vabo kasalliklari boshlangan. Ahvolning ahvoli shu tariqa kundan-kunga og'irlashib borishi natijasida Afina fuqarosi o'rtasida ruhiy tushkunlik, spartaliklarga qarshi g'azab, o'zlarining harbiy rahbarlaridan

norozilik kayfiyatlari borgan sari kuchaymoqda. Aristofan xalqning ahvoli ruxiyasini ifoda etib, «Axarnliklar» komediyasida urush tarafdorlari bo'lgan radikal demokratlarga va ularning boshlig'i, zamonasining qudratli hukmroni Kleonga zahrini sochadi va urush ofatlari faqatgina o'zining manfaatlarini o'ylagan shuhratparast nobop raxbarlarning kasofati orqasida ro'y beradigan bir musibat ekanligini aytib, afinaliklarni tez orada ichki qirg'inlarni to'xtatishga, Sparta bilan sulh tuzishga da'vat qiladi. Yozuvchi o'zining butun tinchliksevar g'oyalarini asarning bosh qahramoni oddiy dehqon Dikeopol («adolatparvar fuqaro») obrazi orqali ko'rsatgan. Urushning mashaqqatlarini torta-torta tinkasi qurigan bu dehqon, Afina aholisini Sparta bilan yarashtirish maqsadida xalq majlisiga keladi. Biroq yig'inda hozir bo'lganlar, urush tarafdorlarining bo'lmag'ur makr-hiylasiga duch keladi.

Aristofanning bizga qadar yetib kelgan asarlari orasida urushning kasofati, osoyishta hayotning go'zalligi haqida hikoya qiluvchi yana ikki komediya bor. Bulardan biri – «Tinchlik», ikkinchisi – «Lisistrata».

«Tinchlik» komediyasi Peloponnes urushining o'ninchi yilida (421) yozilgandir. Uning syujeti unchalik murakkab emas: Trigey degan attikalik oddiy bir dehqon urushni bartaraf qilish niyatida bir go'ng qo'ng'izni boqadi-da, katta bo'lgach, uni minib, Olimp tog'iga, ma'budlar huzuriga arzga jo'naydi. Biroq bu yerda Germesdan o'zga bironta ma'bud yoki ma'budani topolmaydi. Germesning aytishiga qaraganda, hamma ma'budlar odamlarning uzluksiz urushlaridan achchig'lanib osmonga uchib ketishgan emish, Olimp tog'ida esa yakka-yolg'iz hukmron bo'lib faqatgina muhoraba ma'budi Polemos qolibdi, u tinchlik ma'budasi Irinani g'orga qamab, g'or og'zini kattakon xarsang tosh bilan berkitib tashlabdi. Trigey vaqtini o'tkazmasdan butun yunon elidan mehnat ahlini yordamga chaqirib, ularning ko'magida tinchlik ma'budasini tutqunlikdan qutqarishga muyassar bo'ladi, yer yuzida baxtiyor va shodiyona hayot o'rnatiladi.

«Lisistrata» komediyasini Aristofan Peloponnes urushining yigirmanchi yilida (411), butun yunon elining halokat yoqasiga borib qolgan bir paytida yozadi. Asarning bosh qahramoni Lisistrata («urushni to'xtatuvchi») degan sohibtadbir, serfarosaf bu ayol, yunon tuprog'idagi barcha xotin-qizlarni to'plab, ularni o'z erlari hamda

jazmanlari bilan yaqinlik qilmaslikka va shu yo`sin barcha erkaklarni behuda qon to`kishini to`xtatib, bir-birlari bilan sulh tuzishga majbur etishni da`vat qiladi. Ayollarning hammasi Lisistrataning maslahatiga ko`nib, Akropolga yashirinib oladi. Erkaklar ayollarning qarshiligini yengishga juda ko`p uringanlaridan keyin, nihoyat ularning shartlariga ko`nib, chor-nochor urushni to`xtatishga rozi bo`ladilar. Asar yangitdan boshlangan tinch hayotni olqishlovchi o`yin-kulgi, shod-xurramlik ashulalari bilan tugaydi.

Yuqorida ko`rgan asarlarimizning hammasi g`oyaviy jihatdan bir-biriga ancha yaqin. Ularning maqsadi – urush daxshatlari bilan osoyishta hayot baxtu saodatlarini taqqoslashdir. Oldingi ikki komediyaning qahramonlari qiyofasida, ayniqsa, yaqin o`xshashlik bor. Ularning har ikkalasi bir umr dehqonchilik bilan kun kechirgan halol, sodda va hushyor dehqonlardir. Urush ularning ro`zg`orini vayron, yerlarini payhon qilgan, shuning uchun ikkalasining yakkayu yagona orzusi tezroq urush kasofatlaridan qutulish va osoyishta hayotga erishishdir, Dikeopol ham, Trigey ham nihoyatda shijoatli va bag`ayrat kishilar, ular o`zlarining niyatlariga erishish yo`lida astoydil kurashadilar. Biroq bu asarlar o`rtasida umumiy o`xshashlik bo`lgani bilan, ularni bir-birovlaridan ajratadigan birmuncha tafovutlar ham bor. Chunonchi, «Axarnliklar» komediyasida tinch hayotning afzalligini ko`rib, urushga qarshi faqat birgina odam (Dikeopol) bosh ko`taradi, osoyishta turmushning yolg`iz bir oilaga keltirgan baxt-saodati namoyish qilinadi. Voqea davomida Dikeopol so`zdagina emas, balki o`zining amaliy ishlari bilan ham tinch turmushning afzalligini isbotlab, shu yo`l bilan hamqishloqlarining qarshiliklarini yengishga erishadi.

Keyingi ikki asarda esa bir tan-bir jon bo`lib urushga qarshi butun yunon eli ko`tariladi. Chunonchi, Trigey tinchlik ma`budasini tutqunlikdan qutqargani uchun jamiki yunonlarni, ayniqsa, dehqonlarni yordamga chaqiradi: «Dehqonlar, savdogarlar, duradgorlar, meteklar (kelgindilar), ajnabiylar, orolliklar! Hammalaringiz bu yerga kelinglar!..» Trigeyning da`vati bilan butun yunon elidan to`plangan kishilarning g`ayrati tufayli tinchlik ma`budasi g`ordan chiqariladi, mamlakatda osoyishtalik qaror topadi, shod-xurramlik yangraydi.

Bundan tashqari, «Tinchlik» komediyasida urushning sabablari ham batafsil ko`rsatilgan. Shoir butun baxtsizliklarning

asosiy gunohkorlari qatorida Perikl, Kleon hamda boshqa demagoglarning nomlarini tilga oladi, biroq shu bilan cheklanib qolmasdan, hatto ularning orqasida turib, mamlakatni qonga belagan, xalqni xonavayron qilgan ijtimoiy guruhlarining ham basharasini ochib tashlaydi.

Butun Elladani hamjihatlikka va urushga qarshi yalpisiga ko'tarilishga da'vat qilish shiori «Lisistrata» komediyasida yana kuchliroq jaranglaydi. To'g'ri, bu asarning asosiy qahramonlari ayollardir. Bolalarini, erlarini, sevgan yigitlarini jang maydoniga yuborib dog'u hasrat chekib qolgan, o'lganlarga aza tutib, ustlaridan qora liboslari tushmagan, ko'zlaridan yoshlari arimagan butun yunon elining onalari, xotinlari, qizlari urushning razolatlariga qarshi isyon ko'taradilar. Shoir ana shu alamdiyda ayollar nomidan faqat afinaliklargagina emas, balki yunon tuprog'idagi jamiki erkak-xotinlarga, yosh-qarilarga murojaat qilib, ularni odamgarchilikka, adolatga da'vat etadi, butun Elladani halokat tomon sudrab ketayotgan o'zaro qirg'inlarni to'xtatishga chaqiradi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, «Axarnliklar»ga qaraganda «Lisistrata» komediyasida siyosiy mubohasalar ancha kam uchraydi. Chunki asar yozilgan paytlarga kelib Afina davlat siyosatida aristokrat guruhlarining mavqei ancha kuchayib, demokratik erkinliklar birmuncha siqib qo'yilgan edi.

Aristofan ijodining dastlabki davrlarida yozilib, bevosita Afina demokratik idora usulini tasvirlashga bag'ishlangan eng o'tkir siyosiy asar – «Suvoriylar» (424 yil) komediyasidir. Dramaturg bu asarni ham Kleonga qarshi yozadi, biroq «Axarnliklar» komediyasida Afina hukmroniga sal-pal tegib o'tgan bo'lsa, «Suvoriylar»da bu zotni asarning bosh qahramoni qilib oladi va uning kirdikorlarini shafqatsiz fosh etadi. Aristofan Peloponnes urushining hamma kulfatlarini Kleondan ko'rar va shu sababli uni vatanning dushmani deb bilar edi. Xuddi «Suvoriylar» komediyasi yozilgan yili afinaliklarning ba'zi bir harbiy g'alabalari munosabati bilan Kleonning dovrug'i va martabasi haddan ziyoda ortib ketgan bo'lsa-da, shoir uni masxara qilishdan, qallobliklarini ochib tashlashdan hayiqmaydi.

Afinaliklar bir qator muvaffaqiyatsizliklarga uchraganlaridan keyin, Nikiy hamda Demosfen degan ikki sarkarda rahbarligi ostida Peloponnesning janubiy qirg'og'idagi Pilos gavaniga lashkar

tushirishga va gavanga kiraverishdagi kichkinagina Sfekteriya orolini qamal qilishga muyassar bo'ladilar. Biroq sarkardalar ehtiyotkorlik bilan ish ko'rib, orolni tamomila qo'lga kiritishni kechiktirib yuboradilar. Kleon xalq majlisida so'zga chiqib sarkardalarni qoralaydi, shundan keyin xalq majlisi Kleonni Pilos harbiy qismlarining boshlig'i, Demosfen bilan Nikiyni esa uning yordamchilari qilib tayinlaydi. Yangitdan belgilangan sarkarda jiddiy hujum boshlab, tez kunda orolni zabt etadi, dushmanning anchamuncha lashkarini asir oladi. Bu ahvol Kleonning obro'sini oshirib, dimog'ini shishirib yuboradi. Biroq Nikiy bilan Demosfen pishirgan oshga Kleonning bakovul bo'lganligi hech kimga sir emas edi. Aristofanning aytishicha, ta'magir, shuhratparast odamlarning g'irrom yo'llar bilan tobora yuqori ko'tarilishlariga, yurt manfaatini o'ylagan halol kishilarning ro'yobta chiqmasliklariga, asosan, xalqning nodonligi va kaltabinligi sabab bo'ladi. Shoir o'z asarida ana shu fikrlarni ifoda etishga uringan.

«Suvoriylar» komediyasining voqeasi Demos degan nihoyatda laqma, garang, keksalikdan zehni xiralashib qolgan bir cholning eshigi oldida kechadi. Demos yaqinda paflagoniyalik Ko'nchi laqabli bir qulni sotib olgan; yangi qul Demosning xonadoniga qadam qo'ygan kundan boshlab hech kimning halovati qolmaydi. Ko'nchi har xil hiyla-nayranglar, xushomadgo'ylik va tilyog'lamalik yo'llari bilan laqma cholni o'ziga og'dirib olib, uning mol-dunyosini talaydi, qullar ustidan chaqimchilik qilib, ularga aslo kun bermay qo'yadi. Demosning Nikiy hamda Demosfen degan ikki sodiq quli Ko'nchidan, ayniqsa, ko'proq kulfat tortadilar. Paflagoniyalik qul bular pishirgan lazzatli taomlarni o'g'irlab olib, go'yo o'zi tayyorlagandek Demosga tutar va shu tariqa ayyorliklar bilan xo'jayinning mehr-e'tiborini qozonib, kundan-kunga obro'yi ortar edi. Zolimning zulmini torta-torta jonlaridan to'ygan ikkala qul, nihoyat, o'z dushmanlarini yo'qotish payiga tushib, shu maqsad bilan qalloblikda Ko'nchidan ham oshib tushadigan Agorakrit degan chakana savdo qiluvchi Qazifurush laqabli kimsani topadilar, unga behad-behisob boyliklar, ulug' lavozimlar va'da qilib, buning badaliga qanday yo'l bilan bo'lmasin, Demosni o'ziga moyil qilishni va shu yo'sin Ko'nchini siqib chiqarishni talab etadilar. Biroq Qazifurush o'zini oliy mansablarga nomunosib biladi, chunki nasl-nasabi juda past, buning ustiga maktab ham ko'rmagan. Demosfen

Qazifurushga dalda berib, demagog bo'lish uchun halol, ilmlil bo'lishning hech qanday zaruriyati yo'qligini, odamlarga rahbarlik qilishning eng yaxshi usuli g'irromlik, aldamchilik ekanligini, ularni o'z tomoniga og'dirishning eng monand quroli – shirin-shirin so'zlar gapirish, lazizlatli taomlarni va'da qilish ekanligini aytadi. Shu payt ichkaridan Ko'nchining o'zi ham chiqib qoladi, Qazifurush uni ko'rar-ko'rmas kapalagi uchib qochmoqchi bo'lib turganida, shovqin-suron bilan yordamga suvoriylar kelib qoladilar. Ular jangovar qo'shiq aytib, o'g'ri, fitnagar, yeb to'ymas ajdaho – Kleonni ur-kaltak qilishga da'vat etadilar. Shundan keyin Qazifurush bilan Ko'nchi o'rtasida janjal, jiqillashish, mushtlashish boshlanib ketadi. Bu ur-yiqit to'polonda suvoriylar Qazifurushga yon bosadilar. Shallaqilikda, bezbetlikda o'zining raqibidan ham oshib tushadigan Qazifurush, nihoyat, Ko'nchini yengadi. So'nggi marta ular yana Demosning huzurida uchrashib oldingidan ham battarroq talashadilar, mojaro qiladilar. Yozuvchi g'animlarning dahanaki janglari orqali Kleonning siyosat bobidagi jinoyatlarini, chunonchi, cho'zilib ketgan urushning kulfatlarini, dehqonlarning kafangado bo'lganlarini, ittifoqchilarning haddan tashqari talanganini va bularning natijasida faqatgina Kleonning hamyoni qappayayotganini qattiq qoralaydi. Jiddiy tusdagi siyosiy da'volar bilan boshlangan bu sahna, bora-bora ajoyib kulgili ko'rinish kasb etadi. Raqiblar bir-birlaridan o'tkazib Demosga xushomad qiladilar. Maqtovga, laganbardorlikka laqqa uchadigan ovsar chol, nixoyat, o'zining kechagi arzandasidan yuz o'girib, g'alaba nishonasi o'laroq qo'lidagi uzugini hamda muhrini Agorakritga topshiradi. Asarning xotimasida qazifurush Agorakrit Demosni qaynoq suvda pishirib, sehr yo'li bilan yosh yigitga aylantirib qo'yadi. Haftafahm laqma cholning o'rmini endi hushyor, baquvvat, navqiron egallaydi.

Yuqorida aytganimizdek, «Suvoriylar» komediyasi chindan ham Aristofan asarlari orasida siyosiy jihatdan eng o'tkiridir. Shoir o'zining bu pyesasida Afina quldorlik demokratiyasini, uning idora usulini, ichki va tashqi tartiblarini shafqatsiz ravishda hajv qiladi, ular ustidan qattiq kuladi, bu demokratiyaning rahbari bo'lgan Kleonni tasvirlashda har qanday haqoratli so'zlarni ishlatishdan hayiqmaydi. Kleon soddadil xalqning ishonchlariga xiyonat qiladigan va davlat hisobiga hamyonini to'ldirish payida bo'lgan nopok, xaromxo'r bir muttahamdir. Biroq shoir Afina davlat

tuzumidan nechogʻlik kulmasin, uning tartiblarini qanchalar qoralamasin, biron yerda bu tuzumni tamomila tor-mor keltirish, uning ildiziga bolta urish masalasini qoʻymaydi. Aristofanning birdan-bir maqsadi ana shu tuzumning baʼzi bir kamchiliklarini va kundan-kunga chuqurlashib borayotgan nuqsonlarini bartaraf qilish boʻlgan, xolos. Haqiqatan ham pul munosabatlarining tobora kuchayishi, quldorlikning betoʻxtov kengayib borishi, fuqaro orasidagi iqtisodiy tengsizlikning kun sayin chuqurlashishi natijasi oʻlaroq Afina jamiyati arboblari oʻrtasida xushomadgoʻylik, poraxoʻrlik, amal orqasida davlat orttirish, xazinani talash kabi yaramas xolatlarda juda avj olib ketgan edi. Ijtimoiy hodisalarni chuqur tushunib yetmagan Aristofan, butun yaramasliklarning sababini nobop rahbarlardan koʻrib, oʻz satirasining zahrini shularga sochadi va ularning kirdikorlarini fosh qilish orqali aristokrat tuzumini tiklash emas, balki mavjud demokratik idora usulini isloh etishni orzu qiladi.

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, asarda Aristofan tomonidan Kleonga berilgan oʻtaketgan manfiy taʼriflar bilan aslo kelishib boʻlmaydi. Tarixiy manbalarning shahodatiga qaraganda Kleon oʻz zamonasining anchagina isteʼdodli, sergʻayrat va baobroʻ davlat arbobi boʻlgan. Bu odam Afina davlatining qudratini oshirish niyatida Spartaga qarshi olib borilayotgan urushni keskin ravishda kuchaytirishga intiladi. Qulchilik jamiyatining savdo va sanoat doiralari manfaati bilan taqozo etilgan bu xildagi bosqinchilik siyosatini shahar aholisining pastki tabaqalari, koʻpdan-koʻp hunarmandlar va, umuman, dengiz hayoti bilan aloqador boʻlgan barcha zahmatkashlar ham qoʻllab-quvvatlaganlar. Afina aholisining ana shu sarbast fuqarosi oʻrtasida Kleonning shuhrati juda keng yoyilgan edi. Biroq qishloq xoʻjaligini vayronlikka sudrab borayotgan bu siyosat dehqon ommasining manfaatlariga tamomila zid boʻlgan. Shu sababli bu sinfning mafkurachisi Aristofan butun davlat ishlarini urush extiyojlariga moslashtirib, el boshiga mislsiz kulfat va muxtojliklar keltirayotgan Kleonni yurtning ashaddiy dushmani deb biladi va satirasining tigʻini ayamadan unga sanchadi. Umuman aytganda, qadimgi yunon komediyana vislari oʻz asarlaridagi personajlarni tarixiy jihatdan toʻgʻri tasvirlashni asosiy maqsad qilib qoʻygan emaslar. Ular, avvalo, bu personajlar qiyofasida maʼlum gʻoya uchun kurashuvchi kishilarni koʻrib, keyin

shu nuqtai nazardan ularga ta'rif berganlar. Binobarin, Kleon tarixiy jihatdan qanchalik ulug' zot bo'lmasin, o'zining bema'ni siyosati bilan vatan boshiga yog'dirgan musibatlari tufayli Aristofan nazarida hurmatdan qoladi, manfur dushmanga aylanadi.

Aristofan bu asarda suvoriylarni ancha xayrixohlik bilan ta'riflagan, Ko'nchi-Kleonni ag'darishda ularga muxim o'rin ajratgan. Biroq bu bilan yozuvchi zinhor-zinhor demokratiyani tugatib, aristokratiyani tiklash maqsadini ko'zlagan emas. Umuman, biz Aristofan asarlarida aristokrat tuzumiga moyillik kayfiyatini ko'rmaymiz. «Suvoriylar»dan ikki yil keyin yozilgan «Bulutlar» komediyasida shoir aksincha, bir aristokrat sayoqtoyni qattiq kulgi qiladi. Binobarin, Kleon kabi qudratli dushmanga qarshi kurashda Aristofan suvoriylardan, ehtimol, vaqtincha ittifoqdosh sifatida foydalangandir, yoiniki, xatto, aristokratlarning o'zlari ham bu odamdan dodga kelganlar, demoqchi bo'lgandir.

Aristofanning bizga qadar yetib kelgan asarlarining eng keyingisi bo'lgan «Davlat» (388 yil) komediyasi yana ham afsonaviydir. Xremil degan faqir bir chol dehqon ko'chada keta turib, so'qir odamni uchratib qoladi-da, uning holiga achinib uyiga boshlab keladi. Keyin bilsa, bu – davlat ma'budi Plutos ekan. Plutos ko'r bo'lganligidan odamlarning yaxshi-yomonligini ajratolmasdan to'g'ri kelgan kishining eshigiga kira berarkan. Xremil uni shifoat ma'budi Asklepiy ibodatxonasiga olib borib ko'zini davolatadi. Shundan keyin Xremilning o'zi va uning halol, mehnatkash hamqishloqlari qashshoqlik balosidan qutulib, birdan boyib ketadilar; harom yo'llar bilan davlat orttirgan muttahamlar esa bud-shudlaridan ayrilib, abgor bo'lib qoladilar. Faqirlikda ibodatni kanda qilmagan kechagi dehqonlarning davlatmand bo'lgach, hatto Zevsni ham unutib qo'rganliklari ma'budlar xukmronini g'azabga keltiradi. Juldur-juldur kiyingan, badbashara kampir qiyofasidagi Qashshoqlik ham o'zining necha yillik do'stlari – bechorahol dehqonlardan o'pkalanib, davlatmandlikka qaraganda faqirlikning allaqancha afzalligini turli muqomda maqtaydi. Endilikda baxt-saodatga erishgan chinakam insonlar gina-kuduratlarga iltifot qilmasdan, shodiyona qo'shiqlarda davlat ma'budini olqishlab, uning yangi maskani – Akropolga kuzatib ketadilar.

Aristofanning ijodi asosan, salkam o'ttiz yil davom etgan Peloponnes urushi davriga va shu urush oqibatida Afina demokratik

davlatining beto`xtov yemirilib, inqirozga tomon ketayotgan paytiga to`g`ri keladi. Shu yillarda haddan ziyod keskinlashib ketgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar, urush hamda tinchlik masalalari, axloq, tarbiya, falsafa va adabiyot muammolari – Aristofan asarlarida o`zining yorqin ifodasini topgan. Bu asarlar baayni o`z zamonasining eng ravshan bir ko`zgusi bo`lganki, Afina jamiyatining turli-tuman tabaqa kishilari – erkaklar va ayollar, arboblar va sarkardalar, adiblar va faylasuflar, dehqonlar va oqsuyaklar, hunarmandlar va qullar – shu ko`zgudan go`yo sizga tikilib turgandek tuyuladi. Aristofan komediyalarining faqat to`rtidan bir qismigina bizga qadar yetib kelgan bo`lsa-da, shular asosida shoirning dunyoqarashlari, san`at va adabiyot haqidagi fikrlari hamda ijodining xususiyatlari to`g`risida qat`iy xulosalar chiqarish mumkin.

Jahon Tinchlik Kengashining tashabbusi bilan butun progressiv insoniyat 1954 yili Aristofanning 2400 yillik yubileyini o`tkazdi. Bu tantana yunon komediyanavisining jahon madaniyatiga qo`shgan hissalarini taqdirlash va tinchlik kuychisi sifatida qilgan xizmatlarini ulug`lash alomati edi.

ELLINIZM DAVRI YUNON ADABIYOTI DAVRNING IJTIMOIIY VA MADANIY AHVOLI

Eramizdan oldingi 336 yilda Makedoniya podshohi Aleksandr Yunon tuprog`ini zabt etib, ellin xalqidan to`plangan kattakon qo`shin bilan Sharq mamlakatlariga qarshi urush boshlaydi va ko`p o`tmay Hindiston chegaralariga qadar cho`zilib borgan bepoyon buyuk o`lkaning yakka-yu yagona hukmroniga aylanadi. Biroq Aleksandr yaratgan ulkan davlat, uning o`limidan so`ng ag`darilib, sarkardaning noiblari o`rtasida boshlangan qonli urushlardan keyin Misr, Suriya, Makedoniya, Pergam kabi yirik-yirik mustaqil davlatlarga va yana birmuncha kichik-kichik podshohliklarga bo`linib ketadi. Bu davlatlarni Aleksandrning qo`mondonlari idora qilganliklari vajidan, ularning hammasini diadoxlar, ya`ni vorislar davlati deb ataganlar. Chunonchi, Misrni Ptolemey Lngu, Suriyani Selevk, Pergamni Attal va qolgan mayda podshohliklarni boshqa sarkardalar bopqarganlar. Yuqorida nomlari zikr qilingan hukmronlarning o`limidan so`ng, ularning taxtlari avlodlariga o`tib,

har qaysi mamlakat asrlar davomida shularning xususiy mulklariga aylanib qoladi. Masalan, Ptolemeylar sulolasi Misrda qariyb 300 yil hukmronlik qilgan. Makedoniya taxti atrofida boshlangan tortishuvlar juda uzoqqa cho`zilib, mamlakatgoh Aleksandr urug`lariga, goh uning sarkardalari qo`liga o`tib turadi.

Yunonlar ichki ixtiloflardan foydalanib, o`zlarining eski mustaqilliklarini tiklashga necha bora urinib ko`rgan bo`lsalar ham, bu yo`lda ko`tarilgan qo`zg`olonlar har safar bostirilib, yunon xalqi muttasil Makedoniyaga qaram bo`lib qoladi.

Ellin hukmronlari o`zlarining saltanatlarini namoyish qilib, inson ko`zini qamashtiradigan haligi koshonalarda bazmlar quradilar, kunlarini ishratda o`tkazadilar. Go`yo ilmu fan, san`at va madaniyatning homiylari ekanliklarini ko`z-ko`z qilish orzusida zamonasining ulamo va hukamolarini, adabiyot va san`at ahllarini saroylariga to`playdilar. Bular esa o`z navbatida valine`matlaridan ko`rgan muruvvatlari badaliga ularning fazilatlarini, qudrat va saltanatlarini doston qiladilar.

Yunon olamida boshlangan ijtimoiy o`zgarishlar va bular natijasida tug`ilgan siyosiy loqaydlik, beparvolik va umidsizlik kayfiyatlari birmuncha falsafiy ta`limotlarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Mazkur oqimlarning eng muhimlari – kiniklar, stoiklar va epikurchilar falsafasidir.

Ellinizm asrining birmuncha sohalarida ilgarigi davrlarga nisbatan allaqancha oldinga ketganligini ham qayd etib o`tish zarur. Bu taraqqiyotning eng muhim sohasi, umuman, ilmu fanda va ayniqsa, tadqiqot ishlarida erishilgan katta-katta yutuqlar bo`lgan. Yunonlarning ilk bor Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishlari, ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Shu davrlarda ijod qilgan olimlardan Evklid, Arximed – matematika ilmini; Aristarx, gipparx-astronomiyani, Eratosfen – geografiyani benihoyat yuksak darajaga ko`tarib, jahon ilm-fanining kelgusi taraqqiyotiga keng yo`l ochadilar. Bulardan tashqari, mexanika, optika meditsina, botanika va yana birmuncha ilmlar sohasida ham yirik-yirik yutuqlarga erishiladi.

Olimlar, shoirlar va san`at ahllarining ishlari uchun qulay sharoitlar tug`dirish maqsadida Misrning dastlabki Ptolemey xoqonlari Aleksandriya shahrida hozirgi zamon fanlar akademiyasiga o`xshagan maxsus muassasa – «muzey», ya`ni muzalar koshonasi

ochadilar. Yunonistonning turli yerlaridan chaqirilgan olimlar muzey darsxonalarida leksiylar o`qiydilar, laboratoriyalarida har xil tajriba ishlari o`tkazadilar. Muzey qoshidagi kutubxona ayniqsa eng muhim bilim o`chog`i bo`lgan. Shu paytga qadar saqlanib qolgan yunon adabiyotining eng mo`tabar nusxalari mazkur kutubxonaga to`planadi. Qadimgi manbalarning shahodatiga qaraganda, eramizdan oldingi III asrning o`rtalarida muzey qiroatxonasida yarim millionga yaqin papirus o`ramlari saqlangan.

Ikkinchi asrning boshlarida tashkil etilgan Pergam qiroatxonasining kitob boyliklari ham Aleksandriya kutubxonasinikidan qolishgan emas. Iqtisodiy raqobat orqasida Ptolemeylar hukumati Misrdan Pergamga papirus chiqarishni taqiqlab qo`yganlarida pergamlklar teridan ishlangan va «pergament» deb ataluvchi maxsus yozuv materiali kashf etadilarki, bu kashfiyot kitob madaniyatini yana ham rivojlantirib yuboradi.

Ellinizm zamonasida ilm-fan, ma`rifat, madaniyat, san`at va adabiyot ishlari tamomila ellin hukmronlari tasarrufida bo`lgan. Aleksandriya muzeyining xodimlari davlatdan maosh olib, maxsus binolarda yashaganlar, kutubxona boshliqlari odat bo`yicha podshohlarning valiahdlariga tarbiyachi bo`lganlar. Shu sababli, bu vazifaga har doim istibdod tuzumiga sodiq odamlar tayinlangan. Ellinizm zamonasida keng yoyilgan falsafiy ta`limotlar Misr hukmronlarining manfaatlariga tamomila zid bo`lganligi vajidan Aleksandriya muzeyida falsafiy bilimlar bilan shug`ullanish qattiq taqiqlangan. Binobarin, Afina shahri hamon yunon olamining falsafiy markazi bo`lib qoladi, yangi-yangi ta`limotlar shu yerda tug`ilib keyin boshqa tomonlarga tarqalar edi.

Ellinizm davlatlaridagi keskin ijtimoiy munosabatlar aksini san`at va adabiyotda yana ham yaqqolroq ko`rish mumkin. Bu davrga kelib adabiyot ham mazmun, ham shakl jihatidan butunlay o`zgarib ketadi. Ilgarigi zamonlarda badiiy ijodda juda muhim o`rin tutgan siyosiy mavzular tamomila yo`qolib yoki sayozlashib, adabiyot saroy hayotini va xoqonlarning fazilatlarini kuylovchi maddohlikka aylanadi, jamiyatdagi aktual ijtimoiy masalalar o`rnini oilaviy munosabatlar, turmush ikir-chikirlari, ishq-muhabbat mojarolari, ayrim kishilarning shaxsiy kechirmalari egallaydi, san`at va adabiyotning hamma janrlarida «sof san`at» nazariyasi avj olib, adiblar o`z asarlarini «avom» uchun emas, balki «mo`tabar»

zotlarga atab yozadilar. Shu sababli asl san'atkorlik o'rnini tumtaroqli so'zlar, jimjimador bezaklar, chinakam mahorat va poetik iste'dod o'rnini kitobiy iboralar, olimona fikrlar, mavhum tushunchalar ishg'ol qiladi. Bu davrning ko'pchilik adabiyotshunoslari Aleksandriya muzeyidagi ilmiy ishlar qatori badiiy ijod bilan ham shug'ullanib, she'riyatning yangi janri – «ilmiy» poeziyani yaratadilar. Bularning asarlari asosan jamiyatning ziyoli kishilari talabiga moslangan bo'lib, bu ahvol adabiyotning xalq manfaatlaridan qanchalik uzoqlashib ketganligini ochiq ko'rsatadi.

«Olim» shoirlar eskirib qolgan qadimgi adabiy janrlarni qayta tiklab, ularni yangi sharoitlarga moslashtirishni ko'zlagan bo'lsalar ham, bu urinishlar muvaffaqiyatli natija bermaydi. Ellinizm davrida, asosan kichik hajmdagi adabiy asarlar: epilliya (kichik doston), elegiya, epigramma va idilliyalar ko'proq avj oladi. Katta shaharlarning jonsarak shovqin-suronlaridan, ig'vo va fitnalaridan tinkasi qurigan inson hayotning g'alvalaridan bosh olib tabiat quchog'iga ketishni va oddiy dehqonlar, soddadil cho'ponlar singari osuda kun kechirishni orzu qilar edilar. Bu kayfiyatlar yangi poetik janr-idilliya hamda bukolika, ya'ni cho'pon poeziyasini tug'diradi. Kundalik hayotdan bu tariqa yuz o'girish – mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatlarining ifodasi bo'lgan. Umuman aytganda, ellinizm adabiyotining hamma sohalarida siyosiy tematika susayib, qalam ahllarining asosiy diqqati shaxsiy hayot doirasida yashovchi insonning yurak dardlari, sevinch va orzularini tasvirlashga va kitobxon dilida har bir odamga nisbatan mehr-shafqat, muruvvat hislarini uyg'otishga qaratiladi. Bu esa ellinizm adabiyotiga xos insonparvarlik tuyg'ularining in'ikosidir.

Yangi adabiy harakatning shakli ellin davlatining har birida har xil bo'lgan. Masalan, asl Yunoniston, xususan, uning madaniy markazi Afina shahrida eski adabiy an'analar boshqa yerlarga qaraganda uzoqroq davom etadi, zotan birmuncha zaif tusda bo'lsa ham, mazmundorlikka intilish bu yerda kuchliroq edi. Attika davrida ko'rganimizdek, tarixiy va falsafiy proza, ayniqsa, dramaturgiya Afina adabiyotining hamon peshqadam janri bo'lib qoladi. Biroq dramaturgiya sohasida endi katta o'zgarishlar yuz berib, ilgarigi tragediya va «qadimgi» komediya o'rnini «yangi» komediya egallaydi.

YANGI ATTIKA KOMEDIYASI

Ellinizm davrining jahon adabiyotiga qo`shgan eng muhim hissasi – «yangi» komediyadir. «Yangi» komediya atamasi adabiy iste'molga juda eski zamonlarda kiritilgan bo`lib, ellinizm davrida paydo bo`lgan komediyaning yangi turini attika davridagi «qadimgi» komediyadan hamda IV asrdagi «o`rta» komediyadan ajratish maqsadida ishlatilgan. Yunonistonda Makedoniya hukmronligi o`rnatilgandan keyin ellin xalqi mustaqilligining barbod etilishi, o`tmishdagi siyosiy g`oyalarning tobora so`nib borishi va bularning natijasi o`laroq shaxsiy manfaatlarining kuchayishi – «yangi» komediyaning paydo bo`lish jarayonidagi asosiy omillardandir. Evripid tomonidan dramaturgiyaga kiritilgan qator yangiliklar va «o`rta» komediyaning ijodiy usullari esa yangi oqimning shakllanishi va taraqqiy etishida adabiy maktab vazifasini ado etadi.

«Qadimgi» komediyaga va shaxsan Aristofan asarlariga xos bo`lgan afsonaviy holatlarni va siyosiy tanqidni, shuningdek, zamonasining atoqli kishilari shaxsiyatiga daxl qilish hodisalarini «yangi» komediyada mutlaqo uchratmaymiz. Ellinizm adabiyotining barcha sohalarida bo`lgani kabi, «yangi» komediya ham, asosan, oddiy tirikchilikda uchraydigan kundalik voqealarni, chunonchi, ishq-muhabbat, oilaviy munosabat masalalarini muhokama qiladi. Aristofan komediyalari aksar Afinaning siyosiy hayotiga doir masalalarga bag`ishlab yozilar, faqatgina shu yerning kishilari uchun tushunarli bo`lar va keyinchalik vaqtlar o`tib, muallifga mavzu bergan voqealar o`zgargach, asarning o`zi ham tez kunda eskirib qolar edi. «Yangi» komediya esa umuminsoniy masalalar haqida hikoya qilar, binobarin, bu masalalar keng tomoshabinlar ommasi tushunchasiga yaqin bo`lib, yangi komediya asarlari sahna hayotining uzoqqa cho`zilishini ta'minlar edi.

Aristofan asarlarida juda muhim o`rin tutgan xor qo`shiqlari «yangi» komediya uchun mutlaqo keraksiz bo`lib qoladi, hatto ko`p o`rinlarda hayotiy voqealarni to`g`ri tasvirlashga xalal ham beradi. Biroq, shunga qaramasdan eski taomilga ko`ra xorni qoldirganlaru, ammo uning vazifasi juda ham torayib ketgan.

«Yangi» komediyaning asosiy mavzui sevgi ekanligini yuqorida aytib o`tgan edik.

Ellinizm davrida ijod qilgan yangi komediyaning vakillari nihoyatda ko'p bo'lgan, biroq shunga qaramay, ularning asarlarida mazmun jihatidan bir-biriga yaqinlik, qahramonlar o'rtasida umumiy o'xshashlik bor. Bu asarlarning deyarli hammasida bosh qahramon rolini ishq dardiga muhtalo bo'lib qolgan yengiltak, maishatparast yoinki odobli, serfikir yigit o'ynaydi, ammo oshiq yigit o'zining ma'shuqasi bilan topishish yo'lida bir talay qiyinchiliklarga duch keladi: ba'zi asarlarda mahbuba qiz maqtanchoq harbiy kishining asirasi, yana bir xillari-ochko'z va beandisha qo'shmachining cho'risi bo'ladi: ular qizning badaliga juda katta pul so'raydilar. Yigitning otasi badavlat kishi bo'lsa ham, o'g'lining shubhali qiz bilan aloqa tutishini istamasdan, unga aqcha bermaydi. Bunchalik katta mablag'ni to'plashga qurbi yetmagan yigit muhabbat ko'yida og'ir iztiroblar chekadi. Bunday paytlarda oshiq yigitni musibatlardan qutqaruvchi xaloskor vazifasini ularning qullari ado etadilar. Epchil, uddaburon bu qullar turli hiyla-nayranglar bilan yigitlarning otalaridan pul undirib, qo'shmachini laqillatib, butun g'ovlarni bartaraf qiladilar, oshiq-ma'shuqlarni qovushtiradilar. Bordi-yu, yozuvchi o'z asarini faqat sevgining tantanasi bilan emas, balki yoshlarning abadiy xushnudligi bilan tugatishni ko'zlagan bo'lsa, komediya oxirida voqealar bexosdan o'zgarib, cho'ri qiz haqiqatda badavlat va mo'tabar xonadonning farzandi ekanligi, qandaydir sabablar bilan ota-onalari bir mahallar undan ayrilib, dog'u hasratda yurganliklari, o'shandan buyon og'ir mashaqqatlarga qaramay, qiz o'zining iffat-nomusini saqlab qolganligi aniqlanadi, asar hammaning shod-quvonchi, yoshlarning to'y-tomoshasi bilan tugaydi.

Yosh yigitlarning ishqiy sarguzashtlarida goho ularga parazitlar, ya'ni aldamchi tekintomoqlar hamrohlik qiladilar; xushtordan biron narsa undirish niyatida ular eng razil xushomad, shilqimlik va pastkashliklardan ham qaytmaydilar. Ma'shuqa qizga ham rahnamolik ko'rsatuvchi sirdosh dugonasi, ishongan cho'risi yoki mehribon enagasi bo'ladi. Yangi komediyalarda tez-tez uchrab turadigan qahramonlardan yana biri – maqtanchoq askardir. Ellinizm davridagi uzluksiz urushlar sababidan Yunonistonda va barcha Sharq mamlakatlarida askarlarni yollab ishlatish harakati juda avj olib ketgan edi. Shu urushlarda g'irrom yo'llar bilan boyib ketgan yollanma askarlar o'zlarining bo'lmag'ur qahramonliklari,

xushbichimliklari va ayollarni rom qiladigan jozibadorliklari bilan maqtanishni juda yaxshi ko'radilar, shu tariqa quruq kerilish orqasida ko'pincha masxara bo'ladilar. Turli yo'llar bilan yosh qizlarni zo'rlab qo'yish, buning natijasida bolalarini tashlab ketish va keyinchalik qandaydir biron buyum yoki nishona yordami bilan ularni yana topib olish voqealari ham yangi komediyada juda ko'p uchraydi.

Yangi komediyaning mazmuni va qahramonlari haqida aytilgan bu umumiy xarakteristika, mazkur janrning mavzu jihatidan ancha chegaralanganligini ko'rsatadi. Chindan ham shunday. Biroq bu o'rinda shu narsani qayd etib o'tish lozimki, «yangi» komediyaning xususiyati, faqat uning mazmuni va qahramonlarning bir-birlariga o'xshashliklari bilan emas, balki voqealarni talqin etish, qahramonlarni tavsiflash usullari bilan belgilanadi. Yuqorida aytganimizdek, ellinizm davrida ijtimoiy hayotning so'nishi natijasida, insonning shaxsiy turmushini tasvirlash adabiyotning asosiy mavzui bo'lib qoladi. Shu sababli yangi komediyaning vakillari o'z asarlarida odam bolasining kundalik tirikchilik jarayonidagi oddiy hayotini, shu hayotda uchraydigan turli-tuman toifadagi kishilarning fe'l-atvorini pealistik lavhalarda ko'rsatishga intiladilar. Qahramonlarning yurak dardlari, ruhiy alamlari va psixologik kechirmalarini tasvirlash ham yangi komediyada muhim o'rin tutadi. Binobarin, yangi komediyaga nisbatan «xarakterlar komediyasi» degan iborani qo'llasak, xato qilmagan bo'lamiz.

Asar voqealarini katta san'atkorlik bilan bir-biriga bog'lash, kutilmagan favqulodda hodisalar bilan tomoshabinni mahliyo qilish ham yangi komediya vakillarining dramaturgiyaga qo'shgan muhim hissalaridir. «Yangi» komediya vakillarining eng muhim xususiyatlari shundaki, ular o'z asarlarida insonparvarlik g'oyalarini tashviq etib, jamiyatdagi adolatsizliklarni, chunonchi, tarbiya ishlaridagi kamchiliklarni, oila, ishq-muhabbat sohasidagi eski tushunchalarni, ayollarga nisbatan noo'rin munosabatlarni, qullarni xo'rlash va shuning kabi yana birmuncha yaramas hodisalarni bartaraf qilishga urinadilar.

Ellinizm olamida yangi komediya qariyb ikki yuz yil (eramizdan oldingi IV asrning ikkinchi yarmi, II asrning birinchi yarmi) umr ko'radi. Manbalarning shahodatiga qaraganda, shu davr ichida bu janrda ijod qilgan shoirlarning soni bir yuz oltmish

kishidan ortiqroq bo'lgan, bularning ko'pchiligi butun yunon tuprog'i bo'ylab keng shuhrat yoyadi. Shular orasida qadimgilar uchta shoirni: Filemon (taxminan 361-263 yillar), Difil (taxminan 350-263 yillar) va ayniqsa, Menandrni chuqur hurmat bilan tilga oladilar. Biroq shu qadar uzoq umr kechirgan yirik adabiy oqimning aqalli bitta namunasi arzigudek yaxlit holda bizga qadar yetib kelgan emas. Mavjud parchalar asosida, aqalli biron komediyaning voqealarini bir-biriga bog'lab, uning xususiyatlarini to'la tasavvur qilishning aslo iloji yuq.

Yunon yangi komediyasi vakillarining ijodi va umuman, bu komediyaning xarakteri haqidagi ma'lumotlarni yaqin yillarga qadar biz faqat Rim shoirlari Plavt hamda Terensiy asarlaridan olar edik. Eramizdan oldingi II asrning oxirlarida o'tgan mazkur komediyanavislar Menandr, Filemon va Difilning pyesalarini Rim hayotiga moslashtirib birmuncha asarlar yozganlar. Yangi komediya haqida aytilgan mulohazalarda olimlar faqat shularning asarlariga suyanganlar. 1905 yili Misrda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida ittifoqo Menandr komediyalarining yaxlit-yaxlit parchalardan iborat papiirus qo'lyozmasi topiladi. Qimmatbaho qo'lyozmaning topilishi, umuman, yangi komediyaning xususiyatlarini va shaxsan, uning eng yirik namoyandasi bo'lgan Menandrning ijodini o'rganish borasida birmuncha imkoniyat tug'dirdi. Ammo, shu bilan birga, yangi komediya sohasidagi tadqiqot ishlarida Rim shoirlarining asarlari hamon asosiy manba bo'lib qoladi.

Menandr (taxminan 343-292 yillar) Afina shahrining badavlat xonadonlaridan birida tug'iladi. O'rta komediyaning mashhur vakili Aleksid Menandrning amakisi va shuningdek, adabiy faoliyatga rag'batlantirgan dastlabki ustoz ham bo'lgan. Shoir yoshligida juda porloq falsafiy va ritorik bilim oladi. Zamonasining birmuncha fozil kishilari, masalan, ulug' faylasuf Epikur hamda Aristotelning shogirdi, mashhur mutafakkir olim Feofrast bilan oshnalik qilgan. Erkinlikni har narsadan ortiq ko'rgan Menandr, siyosiy ishlarga aralashmasdan, qizg'in adabiy faoliyatda butun umrini sevimli shahri Afinada o'tkazadi. Ana shu erkinlik ishtiyoqi, tug'ilib o'sgan yurtining mehri tufayli bo'lsa kerak, Menandr Misr podshohi Ptolemeyning Aleksandriyaga chaqirib, necha bora yuborgan takliflarini ham rad qiladi.

Menandr hammasi bo`lib yuzdan ortiqroq komediya yozgan. Shoirning ijodi bilan bir qadar mufasssal tanishish uchun «Hakam sudi» komediyasi boshqa asarlarga qaraganda ko`proq imkoniyat beradi, chunki Misrda topilgan qo`lyozmadagi komediyalar orasida yolg`iz ana shu asar birmuncha to`laroq saqlanib qolgandir. Komediyaning qisqacha mazmuni tubandagicha: Xarisiy degan badavlat bir yigit shaharning yirik boyonlaridan bo`lgan keksa Smikrinning Pamfila ismli kiziga uylanadi va yosh xotinini qoldirib zarur ish bilan tez kunda uzoq safarga jo`naydi. To`ydan so`ng oradan besh oy o`tar-o`tmas Pamfila tug`ib qo`yadi va o`zining sharmandaligini yashirish maqsadida bolani sirdosh enagasiga topshirib, kishi bilmas o`rmonga tashlab kelishini buyuradi. Xarisiy safardan qaytib kelgach, vafodor quli Onisim oilada bo`lib o`tgan sirlarni xo`jayiniga aytib beradi. Bu xabardan qattiq ozor chekkan Xarisiy xotini bilan birga turishni o`ziga op bilib, qadrdon bir oshnasining uyiga ko`chib ketadi. Bu yerdagabrotonon degango`zal qul qizni katta pul badaliga yollab, alamzadalikdan tun-kunlarini maishatda, mastbozlikda o`tkazadi. Biroq jo`ralari bilan birgalikda quriladigan ulfatchiliklar, yosh kanizakning ashulalari, g`amza va karashmalari Xarisiyning dardlarini tarqatolmaydi: qisqa. vaqt birgalikda yashash davrida ko`nglini chog`lagan, muhabbatini uyg`otgan Pamfila bir nafas ham xayolidan nari ketmaydi: nahotki shu qadar latofatli ma`suma qiz unga bu tariqa razil xiyonatni ravo ko`rsa? Kuyovining maishatbozliklaridan, isrofgarchiliklaridan tashvishlangan Smikrin uni bu tariqa nojo`ya yurish-turishlardan qaytarishga, qizini eridan ajratib o`z uyiga olib ketishga ko`p urinadi; ammo Smikrinning harakatlari biron natija bermaydi. Xafalikdan nima qilishini bilmay qaytib ketayotgan qaynata ittifoqo ko`chada janjallashib turgan ikki qulga duch kelib qoladi. Ma`lum bo`lishicha, bulardan biri – Dav yaqinda o`rmondan ota-onalari tashlab ketgan o`g`il bolani topib olib, uni ikkinchi qul – Siriskka bergan ekan. Keyinchalik Sirisk bola bilan birga Dav anchagina qimmatbaho buyumlarni ham topib olganini eshitib, shularni ham berishni talab qiladi. Chunki bu buyumlar bolaning tarbiyasiga sarflanishi lozim. Bundan tashqari va eng muhimi, chaqaloqning ota-onalari keyinchalik shu buyumlar yordami bilan o`z bolalarini topib olishlari ham mumkin. Har ikkala qul Smikrindan mana shu mojaroni bartaraf etishda hakam bo`lishni iltimos qiladi. Smikrin tashlandi

chaqaloqning manfaatlarini himoya qilgan tomonning talablarini o`rinli topib, hamma buyumlarni Siriskka hukm qiladi. Siriek bilan xotini Davdan olgan buyumlarini birma-bir ko`zdan kechirib o`tirganlarida ittifoqo ko`chadan o`tib ketayotgan Onisim shu buyumlar orasida xo`jayinning qimmatbaho uzugini ko`rib qoladi. Bu uzukni qanday qilib tashlandi bola bilan birga topilganligini o`ylab, turli xayol va shubhalardan boshi qotib turgan Onisim, tasodifangabrotononga duch kelib, uzukni unga ko`rsatadi. Tashlandi bola Xarisiyning o`g`li ekanligigabrotononda hech qanday shubha qolmaydi. Darvoqe, bundan bir yilcha muqaddam, kechasi o`rmonda o`tkaziladigan qizlar bayramida noma'lum yigit bir qizni zo`rlab qo`yganinigabrotonon o`z ko`zi bilan ko`rgan edi. O`sha yigit Xarisiyning o`zi emasmikan? Chindan ham Xarisiy qilmishlariga iqror bo`ladi va o`sha tunda uzugini tushirib qo`yganini aytib, bolani tan oladi. Ammo zo`rlangan qiz kimligini Xarisiy mutlaqo bilmaydi, kechasi yuz bergan yovuzlikdan keyin zor-zor yig`lagan sho`rlik qizning basharasigabrotononning sal-pal esida qolganu, ro`para kelsa, tanib olish uncha qiyin emas! Shu kuni bolani ko`tarib ko`chaga chivdangabrotonon sekin-sekin qadam bosib kelayotgan g`amgin Pamfilani uchratib qolib, darhol uni taniydi: o`rmonda zo`rlangan mazluma qiz shuning o`zginasi edi. Xullas, gabrotononning tashabbusi bilan chalkash muammolar bartaraf qilinib, er-xotin yana topishadilar, oila baxti yana eski holiga qaytadi. Gabrotonon esa bu yaxshiliklari evaziga qullikdan qutulib erkinlikka chiqadi.

Misr qo`l yozmasidagi asarlarning yana biri «Qir qilgan soch» komediyasidir. Uning faqat yarmi saklanib qolgan bo`lsa ham, yetishmagan o`rinlarini, iloji boricha, boshqa manbalardan olingan parchalar bilan to`ldirib, olimlar asarning mazmunini taxminan tiklashga muvassar bo`lganlar. Bu komediyaning voqeasi ham «Hakam sudi» komediyasining voqeasiga bir qadar o`xshashib ketadi.

Polemon degan sarboz yigit ancha vaqtdan beriglikera degan kambag`al qiz bilan birga turadi. Ular bir-birlarini yaxshi ko`radilar, Bir kun Polemon uyiga qaytganida boyvuchcha qo`shni xotin Mirrinaning asrandi o`g`li Mosxion bilanglikeraning o`pishib turganini ko`rib qoladi. Mahbubasining bu tariqa xiyonati va beandishaligidan nafratga kelgan Polemon rashk alamiga chidolmay,

qilichi bilan uning sochini qirqib tashlaydi va bundan so'ng bevafo qiz bilan birga turishni istamasdan qishloqqa jo'nab ketadi. Polemonning bu ishiqlikera uchun juda og'ir haqorat va sharmandalik edi, chunki sarboz o'zining shu harakati bilan qizni buzuq ayollar qatoriga qo'shib qo'yadi. Polemonning qilmishlaridan qattiq ranjiganglikera, uning uyini tashlab Mirrinanikiga ko'chib chiqadi va shu yerda panoh topadi. Polemon esa qishloqqa kelib, ma'shuqasidan ko'rgan oqibatsizlik alamiga muttasil ichkilikka berilib, tun-kun maishat qiladi. Biroqqlikeradan qanchalik achchig'lanmasin, yurak dardlarini tarqatishga nechog'li urinmasin, sevimli qizni aslo unutmaydi. Glikera o'zining harakati, ya'ni Polemonni butunlay tashlab ketishi, ayniqsa, barcha iztiroblarining asosiy aybdori bo'lgan raqibi Mosxionning uyida boshpana topishi, oshiq yigitning alamiga yana alam qo'shadi va nihoyat, biroq dardiga chidolmasdanglikera zo'r bilan qaytarib kelishga qasd qiladi. Polemonning ulkan oshnasi Patek o'zining bama'ni maslahatlari bilan ishq vasvasasida aqlini yo'qotgan yigitni nojo'ya harakatlardan qaytarib, oshiq-ma'shuqlarni totuvlik bilan yarashtirib qo'yish vazifasini o'zgardaniga oladi. Shu maqsad bilanglikera huzuriga kelgan Patek, qizning o'tmishi haqidagi hikoyalarni eshitib, onasidan qolgan ba'zi buyumlarni ko'rib, glikera bilan Mosxion o'zining bolalari ekanligiga iqrar bo'ladi. Bir zamonlar Patek juda badavlat hayot kechirgan bo'lsa ham, to'satdan og'ir falokatga uchrab, buning ustiga endigina egizak bolalardan ko'zi yorigan xotinidan judo bo'lib, abgorlikka tushib qolgan va shu sababli bolalarini ham boqa olishga ko'zi yetmay, ularni o'rmonga tashlab ketgan ekan. Keyinchalik ishlari yana yurishib, ahvoli tuzalib ketgan bo'lsa ham, farzandlari dog'ida kuyib yurar ekan. Ota-bolalarning topishishi bular uchun juda baxtiyor shodlik kuni bo'ladi. Endiglikera Polemonning qonuniy xotini sifatida u bilan yana qovushadi. Polemon bundan buyon sira-sira qo'pollik qilmaslikka, xulqini tuzatishga va'da beradi.

Yuqorida mazmunlari bayon qilingan asarlardan tashqari, Misrda topilgan qo'lyozmada «Qahramon» hamda «Samoslik ayol» degan yana ikki komediya bor. Biroq bu komediyalarning parchalari shu qadar kamki, ularga qarab komediyalarning to'la mazmunini aniqlash ancha qiyinlik tug'diradi.

Biz hikoya qilib o'tgan va nomlarini aytish bilan cheklangan asarlarimiz o'rtasida juda yaqin o'xshashlik bor. Bularning deyarli hammasida faqat uchta motiv takrorlanadi: yashirincha tug'ib qo'yish, bolani tashlab ketish va bu bolalarni biron buyum yordami bilan yana topib olish.

Bu masalalar zohirdan qaraganda qandaydir bosmaqolil bir hodisaga o'xshab ko'rinsa-da, Menandr, aslida ularni turli-tuman shakllarda beradi: tug'ilgan bolalar ba'zan qonuniy er-xotinlarning farzandlari bo'lib, ular muhtojlikdan chaqaloqni tashlab ketadilar, ba'zan esa bola razil zo'rlikning oqibatida tug'ilgan bo'lib, ona sharmandalikdan qo'rqib o'z bolasini yo'q qiladi. Bundan tashqari, tashlandi bolalarni bizgoh chaqaloqlik vaqtlarida yo bo'lmasa ulg'ayib, voyaga yetib qolgan paytlarida ko'ramiz: shuningdek go'daklar ba'zan yolg'iz, ba'zan egizak bo'ladilar. Binobarin, Menandr asarlarining motivlari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, mazmunda, voqealarni talqin qilishda ular o'rtasida juda kattakon tafovut bor. Shuni ham eslatib o'tish lozimki, yangi komediyaning boshqa vakillari ham yuqorida aytib o'tilgan motivlarni turli-tuman variantlarda aytganlar. Biroq, shunga qaramay, Menandr o'zining hamkasblaridan tubdan farq qiladi.

Ellinizm davridagi komediyanavis shoirlarning bizga qadar yetib kelgan asarlari parchalaridan va qadimgilarning bergan shahodatlaridan ochiq ko'rinib turadiki, bu shoirlarning ko'pchiligi tomoshabinga manzur bo'lish maqsadida o'zlarining butun kuch va e'tiborlarini komediyaning tashqi ta'sirchanligiga berganlar. Shu sababdan hayotda bo'lmaydigan sun'iy hodisalar, bir-biriga yopishmagan yasama voqealar, uyatgaplar va bemaza masxarabozliklar bilan tomoshabinni kuldirishga zo'r berish holatlarini ularning asarlarida tez-tez uchratib turamiz.

Menandrga kelganimizda ahvol tamomila boshqacha: shoir avvalo komediyaqa faqat tomoshabinni kuldirib, vaqtini chog' qiladigan shunchaki bir masxarabozlik deb emas, balki insonni ma'naviy va axloqiy tomondan tarbiya qiladigan muhim bir vosita deb qaraydi. Binobarin, shoir o'z asarlaridagi hamma voqealarning hayotga monand bo'lishiga, barcha holatlarning to'g'ri va tadrijiy suratda rivojlanib borishiga katta e'tibor beradi. Menandr qo'li bilan yozilgan komediyalarning birontasida siz o'ng'ay usullarga intilish, uyatgaplarni iste'mol qilishga moyillik, tashqi harakatlarga aldanish

alamatlarini ko`rmaysiz. Komediyaning tashqi ko`rinishiga sayqal berish emas, balki qahramonlarning ichki dunyosiga chuqurroq kirish, ularning dardu alamlarini, sevinch va shodliklarini to`laroq ochish Menandrni hammadan ko`ra ko`proq qiziqtiradi. Shoirni o`z zamonasidagi komediyanavislardan ajratadigan asosiy tafovut ham ana shundadir. Yangi komediyaning ko`pdan-ko`p namoyandalari orasida xarakterlar komediyasini yaratish sharafiga faqatgina Menandr musharraf bo`lgan. Shoir ba`zi o`rinlarda qahramonlarning ahvol ruhiyasini, rashk va sevgi ehtirolarini shu qadar fojiali tarzda ko`rsatadiki, natijada asar komediya tusini yo`qotib, hatto tragediyaga ham o`xshashib ketadi. Yuqorida tahlildan o`tkazgan asarlarimizning bosh qahramonlari Xarisiy hamda Polemonlarning firoq ko`yida chekkan azoblari fikrimizning yorqin dalili bo`lishi mumkin.

Yozuvchi Xarisiyning ruhiy alamlarini, ayniqsa, ustalik bilan tasvirlaydi. O`zini odobli, halol va to`g`ri odam deb yurgan Xarisiy, butun sirlari ochilib hamma iztiroblarninggunohkori o`zi ekanligini bilgach, chuqur vijdon qiyvog`iga tushadi. Axir, bokira bir qizni yovuzlarcha zo`rlab, uning butun musibatlariga sabab bo`lgani holda, nima vajdan xuddi shundaygunohlar uchun tag`in boshqalarni ayblaydi? Axir, bu – benomuslik, vahshiylik emasmi? Menandr bu o`rinda bir tomondan qahramonning chuqur ruhiy alamlarini ochib tashlasa, ikkinchi tomondan uning yonib aytgan alangali so`zlari orqali erkaklar bilan ayollar o`rtasidagi ma`naviy va axloqiy tengsizlikka qarshi norozilik bildiradi.

Yangi komediyaning barcha vakillari singari Menandr ham o`z asarlarida zamonasining ijtimoiy va siyosiy masalalariga mutlaqo taqilmagan. Biroq, shunga qaramay, shoir bu davrning ilg`or progressiv falsafiy ta`limotlari pozitsiyasida turib hamma komediyalarida nikoh, tarbiya, er-xotinlik, ayollar, qullar va boshqa hayotiy masalalarga doir tamomila yangi fikrlarni aytadiki, bu fikrlar yozuvchining odam bolasiga nisbatan chuqur muhabbat tuyg`ulari bilan yashaganligi va shularning baxt-saodati yo`lida qalam tebratganligini ko`rsatadi; bu esa o`z navbatida Menandr komediyalarining ijtimoiy qimmatini oshiradi va o`sha davr hayotida ularning qanchalik muhim o`rin tutganligidan dalolat beradi. Menandrning komediyalarida qatnashuvchi jafokash qullar hayvon o`rnida jabrlanishlariga, xo`rlik va haqoratlarda yashashlariga

qaramay, aql, idrok va ma'naviyat jihatidan ko'p mahal o'zlarining xo'jalaridan yuqori turadilar va fahm-farosatlari, tadbirkorliklari bilan ularni og'ir kulfatlardan qutqaradilar. Sehrli jilvalar va makr-hiylalar yo'li bilan erkaklarni buzib, er-xotinlar o'rtasiga ixtilof soluvchi salbiy qahramon sifatida yangi komediyada mustahkam o'rnatilib qolgan satang kanizaklar dilida ham yozuvchi ezgu hislarni topishga harakat qiladi. «Hakam sudi» komediyasida Menandr ana shunday ayolni, hatto butun boshli bir asarning markaziy qahramoni qilib oladi va uning qiyofasida xotin kishining dilrabo obrazini chizadi. Boshqalarga ro'shnolik tilab jon kuydirgangabrotonon chindan ham naqadar sof, naqadar dildor! Menandrning asarlarida talqin etilgan fikrlarning hammasi, masalan, qullarga xayrixohlik bilan qarash, er-xotinlarni barobar huquqli bo'lishga da'vat etish – antik dunyo kishilarining ko'pchiligi uchun tamomila yangi va ularning tushunchasiga mutlaqo zid fikrlar edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, dramatik shoirlarning musobaqasida Menandr birinchi mukofotni olishga kamdan-kam muvaffaq bo'ldi.

Menandr asarlarining shakl va g'oyalari shu davrning kishilari uchun bir qadar jiddiy va murakkab bo'lganidan, shoir o'z zamondoshlari nazdida unchalik hurmat qozonolmaydi. Faqat keyingi avlodlarga uning san'atiga va hayotni tasvir qilishdagi ajoyib mahoratiga tan berib, yangi komediyaning yirik vakili sifatida ulug'laydilar. «Menandr va hayot, sizlarning qaysi biringiz qaysi biringizga taqlid etasiz?» – deb xitob qiladi Aleksandriyaning mashhur adabiyotshunosi Vizantiyalik Aristofan (eramizdan oldingi III asr). Qadimgilar Menandr asarlarining realistik hayotiy kuchini, xarakterlarni chizishdagi san'atini, she'r to'qishdagi mohirligini, dag'al iboralardan xoli bo'lgan nafis va sof tilini, har bir qahramonning yoshiga, ahvoli ruhiyatiga, kasbi koriga qarabgapirtirish mahoratini, ayniqsa, yuksak qadrlaganlar.

O'rta asrlarda yangi komediyaning namunalari, va shular qatori, Menandrning asarlari butunlay yo'qolib ketgan bo'lsa ham, ularning ulug' taqlidchilari bo'lmish Rim komediyanavislari Plavt hamda Terensiyning asarlari orqali bu yirik adabiy harakat yangi dunyo yevropa dramatisiga va hatto butun yevropa adabiyotiga nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yirik-yirik yevropa dramaturglari, chunonchi, Shekspir, Molyer, goldoni, Lope de Vega, Lessing, Filding va yana bir qanchalarning asarlari, hattoki ulug' rus

dramaturgi Ostrovskiyning komediyalari-ma'lum darajada yangi komedyaning an'analari asosida va xususan, uning buyuk namoyandasi Menandrning ta'sirida yozilgandir.

ALEKSANDRIYA POEZIYASI

Ellinizm poeziyasining ko'zga ko'ringan tipik vakili Kallimaxdir (taxminan 310-240 yillar). Kallimaxning hayotiga doir ozgina ma'lumotlarga qaraganda, shoir Afrikaning shimoliy qirg'og'idagi Kirena shahrida tug'iladi. Ibtidoiy ma'lumotni o'zining shahrida olib, keyingi tahsilni Afinada tugallagan bo'lsa kerak. Har sohada yuksak bilim orttirgan Kallimaxni Misr podshohi Ptolemey chaqirtirib, Aleksandriya muzeyi qoshidagi kutubxonaga boshliq qilib tayinlaydi. Bu ahvol Kallimaxning saroy doiralarga yaqinlashuviga va martabasining ortishiga keng yo'l ochadi. Uning o'zi ham umrbod Misr sultonlarining saltanatini kuylovchi saroy shoiriga aylanadi.

Kallimax nihoyatda sermahsul yozuvchi bo'lgan; qadimgilar bu shoirning sakkiz yuzdan ortiq ilmiy va badiiy asarlar yozganligi haqida ma'lumot beradilar. Shu asarlar orasida «Jadvallar» deb atalgan yirik bibliografik qo'llanma Kallimaxning ilmiy faoliyatida alohida muhim o'rinni egallaydi. 120 jildidan iborat bo'lgan bu tazkirada yozuvchi o'zidan oldin o'tgan olimlar va adiblar to'g'risida ma'lumotlar beradi va asarlarining qisqacha mazmunini bayon qiladi. Adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarda Kallimaxning bu asari keyinchalik nihoyatda muhim amaliy va nazariy manba bo'lib xizmat etgan. Kallimax ellinizm zamonasida nihoyatda keng shuhrat yoygan sohib qalamlardan biri bo'lishiga qaramay, adabiy merosining muhim qismlari keyinchalik yo'qolib ketgan. Biroq so'nggi yillarda topilayotgan papirus qo'lyozmalar shoir ijodining xususiyatlarini to'laroq aniqlash imkoniyatini beradi.

Kallimax she'riyatning juda ko'p janrlarida ijod qilgan shoirdir. Uning dovrug'ini ellinizm olamiga birinchi marta keng tarqatgan asar – «Sabablar» to'plami bo'lgan. To'rt jildidan iborat bu to'plamdagi kichik-kichik qissalarda shoir turli-tuman bayramlar va

udumlarning kelib chiqishi, shaharlar va ibodatxonalarning barpo etilishi haqidagi rivoyatlarni hikoya qiladi. To'plamdagi asarlar orasida «Akontiy va Kidippa» qissasi qadimgilarni ko'proq maftun etgan. Akontiy degango'zal bir yigit ma'buda Artemida bayramida Kidippa degan sohibjamol qizni uchratib, unga oshiq bo'lib qoladi. Qiz bilan yigit boshqa-boshqa jamoaning kishilari bo'lganliklari uchun, taomilga ko'ra, ularni bir-birlariga nikohlash mumkin emas edi. Shu sababli Akontiy hiyla ishlatishga majbur bo'ladi. U bitta olmaga «Artemida nomiga qasamyod etib aytamanki, albatta Akontiyga tegaman» degan so'zni yozadi-da, bildirmasdan Kidippaning oyog'i ostiga tashlaydi. Qiz olmani olib yozuvni beixtiyor baland ovoz bilan o'qiganida, uning ovozi Artemidaga yetib, qasami qabul bo'ladi. Shu voqeadan so'ng qiz bilan yigit o'z yurtlariga qaytadilar va uzoq vaqt bir-birlarini ko'rmaydilar. Shu orada qizning ota-onalari Kidippa boshqa bir yigitga unashtiradilar. Biroq nikoh arafasida kelinchak bexosdan qattik og'rib qoladi-yu, ota-onalari to'yni orqaga surishga majbur bo'ladilar. Qiz tuzalgach, yana to'y taraddudi boshlanadi. Ammo kelinni bu safar ilgarigidan ham og'irroq kasal yiqitadi. Uchinchi marta ham shu ahvol takrorlangach qizning otasi tashvishlanib, Delfa kohinlariga murojaat qilganida, ular bu sinoatlarning hammasi qasamdan qaytgan qizga ma'budlar tomonidan yuborilgan ofat ekanligini aytadilar. Ma'budlarning izmini buzishdan qo'rqqan ota, shundan so'ng qizini Akontiyga beradi.

«Sabablar» to'plamiga kirgan qissalar orasida ba'zan istibdod tuzumiga chuqur sadoqat ruhi bilan sug'orilgan asarlarni ham uchratamiz. Bu jihatdan «Berenikaning kokili» degan poema juda xarakterlidir. Bu asar yaqin yillarga qadar fakat rim shoiri Katullning tarjimasida ma'lum va mashhur bo'lgan. So'nggi vaqtlarda topilgan parchalar Katull tarjimasining asl nusxaga juda yaqin ekanligini ko'rsatadi. Poemaning yozilish tarixi ham juda qiziq. Ptolemey III Everget Misr taxtiga o'tirganidan keyin sal vaqt o'tar-o'tmas yosh xotini Berenikani qoldirib urushga jo'naydi. G'amu anduh chekib yolg'iz qolgan malika urush muzaffariyat bilan tugab, eri eson-omon qaytib kelsa, o'z kokilini ma'budlar yo'liga hadya qilishni ko'nglidan o'tkazadi. Ptolemey sog'-salomat safardan kaytgach, Berenika ma'budlar oldida ichgan qasamini bajo keltirib, kokilini mukaddas bir ibodatxonaga nazir qiladi. Ertasi kun Berenikaning

kokili ibodatxona mehrobidan yo`qoladi. Saroy munajjimi Konon malikaning ko`nligiga tasalli berish maqsadida, go`yo osmonda yangi yulduz paydo bo`lganini, bu esa, muqarrar, ma`budlar izmi bilan fazoga ko`tarilgan Berenikaning kokili ekanligini aytadi (Mazkur yulduz hamon «Berenikaning kokili» nomi bilan yuritiladi). Saroy shoiri Kallimax shu «voqea»dan foydalanib, malikaning vasfini qilishga oshiqadi. Asar kokilning monologi shaklida yozilgandir. U malikaning boshidan ayrilib, hijron dardida qolganini, yer yuziga nur sohib falakda yashaganidan ko`ra, yana malikasiga qaytib, uning boshini bezash, husnini barkamol qilish orzusida ekanligini hikoya qiladi.

Kallimax ijodida ma`budlar sha`niga yozilgan qo`shiqlar – gimnlar ham anchagina muhim o`rin tutadi. «Sabablar» to`plamiga kirgan qissalarning bizga qadar faqatgina kichik-kichik parchalari yetib kelgan bo`lsa, shoirning oltita qo`shig`i, deyarli to`la holda saqlanib qolgan. Bular ma`budlardan Zevs, Apollon, Artemida, Demetra hamda Afinaga va bittasi Delos oroliga bag`ishlangandir. Bu qo`shiqlar mazmun va she`riy o`lchov (ularning deyarli hammasigekzametrdan yozilgan) jihatidangomergimnlariga o`xshab ketsa ham, voqealarni talqin qilishda ulug` shoirning asarlaridan tamomila ajralib turadi. To`g`ri, Kallimaxning qo`shiqlari ham xuddigomer ko`shiqlari singari ma`lum diniy bayram va marosimlarga atalib yozilgan, biroq bu holat ham quruq rasmiyatdan boshqa narsa emas; Kallimax eski mifologik aqidalarni faqatgina urfodat deb tushunadi, xolos, shu sababli uning qo`shiqlarida hech qanday diniy e`tiqodlarga ishonish sezilmaydi. Umuman olganda, Kallimax ham barcha Aleksandriya shoirlari singari mifologik mavzulardan yolg`iz adabiy vosita sifatida foydalanadi va shu mavzular orqali hayotiy voqealarni tasvirlaydi. Binobarin, shoir tasvir qilgan Olimp hukmronlari qiyofasida biz mahobatli ma`bud va ma`budalarni emas, balki yer hayotining ikir-chikir mashmashalari bilan yashaydigan oddiy insonlarni ko`ramiz. Masalan, ma`budlar sha`niga aytilgan madhiyalarning birida Olimp hukmroni Zevs endigina to`qqiz yoshga qadam qo`ygan qizi Artemidani tizzasiga olib o`tiribdi, jajjigina ma`buda otasining soqolini o`ynab, erkanib undan o`yinchoq so`raydi, injiklik qiladi, bijildoq qizchasi bilan bir oz o`ynashib o`tirish Zevsning o`ziga ham yoqadi. Artemidaga qo`shilib boshqa ma`budachalar ham sho`xlik qila boshlaganlarida,

ularning onalari – Olimp ma'budalari olabo'ji kikloplarni chaqirib bolalarni qo'rqitadilar, shu payt basharasiga qorakuya surib eshikdangermes kirib keladi, qizchalar bag'ir-bug'ur qilib onalarining pinjiga yashirinadilar. Kallimax shu yerda ma'budlar dargohiga qabul qilingangeraklning yeb to'ymasligini ham mazah qilib o'tadi.

Ellinizm davrida paydo bo'lgan yangi adabiy harakatning bosh rahbari va yirik namoyandasi sifatida Kallimax ijodining xususan muhim ahamiyati bor. Shoir o'zining uzoq yillik adabiy faoliyati davomida poetik mahorat bobidagi eski tushunchalarga qarshi keskin kurash olib boradi. Uning yozuvchilar oldiga qo'ygan talabi, asosan, uch bobdan iborat: kichik hajmdagi asarlarni tashviq etish, chaynalgan siyqa usullardan qochish va mayda detallarga ko'proq e'tibor berishdir. Kallimaxgarchigomer poemalarini rad etmasa ham, «Iliada» hamda «Odissey»ga o'xshash katta asarlar yozishni davom ettirishga qat'iy e'tiroz bildirib, sikl dostonlarni yoqtirmasligini va bu tariqa asarlarni qayta tiriltirish borasidagi urinishlarning hammasi befoyda ekanligini, to'lib-toshib oqadigan, ammo suvi loyqa va iflos yevfrat (Firot) daryosidan ko'ra zilol suvli kichkina ariqchani afzal ko'rganligini; toptalgan keng yo'llardan emas, balki mashaqqatli bo'lsa ham iz tushmagan so'qmoqlardan borishni ma'qul bilganligini izhor qiladi. Katta epik asarlar yozishni qattiq qoralagan Kallimax, ularning o'rniga kichik dostonlar, ya'ni «epilliylar» yozishni tavsiya etadi va o'zi ham yangi doston shaklining birmuncha namunalarini yaratadi. Shu epilliylar orasida eng mashhuri «Gekala» dostoni bo'lgan. Bu asarning syujeti Tezey haqidagi afsonadan olingan. Yosh shahzoda Tezey kechqurun o'z otasi, Afina podshohi Egeyning uyidan chiqib, xatarli safarga – Marafon yerlarini payhon qilib, aholini qirayotgan yirtqich buqani ushlashga jo'naydi. Kechasi bexosdan bo'ron ko'tarilib, sel boshlanganligidan, gekala degan bir kampirning g'aribona kulbasida qo'nishga majbur bo'ladi. Kampir yosh pahlavonni samimiyat bilan qarshi olib, bor-yo'g'ini dasturxonga to'kadi, ertalab Tezey yo'lga otlanganida unga fотиha berib, shikastlanmasdan sog'salomat qaytib kelsa, ma'budlarga qurbon so'yajagini aytadi. Tezey muvaffaqiyat bilan buqani ushlab uyiga qaytayotganida, yo'lakaygekalaning kulbasiga kiradi. Biroq bu safar Tezey kampirning samimiy chehrasini ko'rishga muyassar bo'lolmasdan, uning o'ligi ustidan chiqib qoladi. Bu musibatdan

qattiq qayg`urgan Tezeygekala sharafiga bir buqa so`yib qurbonlik qiladi va har yili kampir xotirasi uchun bayram o`tkazishni taomilga kiritadi.

Bu hikoya Afinada o`tkaziladigan «Geka lisiy» bayramining kelib chiqishini izohlaydigan bir asar bo`lib, o`zining mazmuni va adabiy usuli bilan «Sabablar» to`plamiga kirgan qissalarga o`xshab ketadi. Poema qadimgi afsonalar mavzuidan olingan eski epik dostonlar shaklida yozilgan bo`lsa ham, hajmi va mazmuni jihatidan ularga sira o`xshamaydi. Chunki asar eposga nisbatan allaqancha kichik, mazmunida esa Tezey haqidagi kattakon mifologik rivoyatning kichkinagina bir voqeasi hikoya qilinadi, xolos. Yozuvchi rasmiy ravishda qadimgi zamon epik dostonlari an`anasini davom ettirib, kitobxonni uzoq o`tmishdagi mifologik zamonlarga ergashtirib ketgandek bo`lib ko`rinsa ham, aslida biz afsonaviy qahramonlar qiyofasida shoirning o`z zamonasidagi kishilarning qiyofasi va ahvol-ruhiyasini ko`ramiz. Shunisi xarakterliki, Kallimax ham barcha ellinizm shoirlari singari kitobxonning diqqatini muttasil asarning bosh qahramoniga bog`lab qo`ymasdan, bayonot davomida uzoq-uzoq chekinishlar yasab, hayotiy detallarni – uyg`onib kelayotgan shaharning g`ovur-g`uvurlarini, uy anjomlari, taom tayyorlash taraddudini, ikkinchi darajali qahramonlarni, shuningdek, ba`zi bir qo`shimcha voqealarni ham tasvirlaydi.

Biz Kallimaxning deyarli hamma asarlarida she`riyatning tashqi tomondan nafis bo`lishiga ortiq darajada e`tibor bergan nodir va noyob san`atkor mehnatining mevalarini ko`ramiz. Misralarning rango-rangligi, o`ynoqiligi, silliqiligi, kichkinagina voqealarni ajoyib ustalik bilan hikoya qilish mahorati bobida ellinizm davrining unchamuncha shoirlari Kallimax bilan tenglasha olmaydilar. U daqiqa sayin bayonotning ohangini o`zgartirib, oddiy iboralardan kinoya, jiddiy tavsifdan hazil-mutoyibaga, shodlikdan g`azabga ko`chib turadi. Kallimax hatto asarning voqeasini ham turli-tuman shakllarda bayon etadi. «Sabablar» to`plamidagi qissalarni shoirgoho o`zining tushidagelikon tog`ining muzalari bilan bo`lgan suhbat tarzida, goho biron bazmgohda chetdan kelgan sayyoh bilan dilkashlik qilib o`tirganida o`shandan eshitgan voqealari shaklida beradi. Xullas, bayonot davomida shoirning o`zi ham voqealarga aralashib, ayrim masalalarga qanday qaraganligini izhor etib boradi, bu esa voqeaning jonli bo`lishiga kuchli ta`sir ko`rsatadi.

Kallimaxning deyarli hamma asarlari, Aleksandriya poeziyasining boshqa shoirlari asarlarida bo'lgani kabi, olimona iboralar bilan to'lib toshgandir. Bu holat aniq ko'rsatadiki, shoir o'z ijodini bevosita yuqori saroy ahllari talablariga moslashtirgandir.

Kallimaxning o'z zamondoshlariga, antik dunyoda o'tgan ke-yingi nasllarga va ayniqsa, rim shoirlari Katull, Propersi hamda Ovidiyga ta'siri juda kuchli bo'lgan.

Bu davrdagomer poemasi shaklida kattakon epik dostonlar yozishga moyillik ham seziladi. Mazkur janrda ijod qilgan ko'pgina adiblar orasida eng mashhuri Rodoslik Apolloniydir (taxminan 295-215 yillar). Apolloniy Aleksandriya shahrida tug'ilib, Kallimaxning iste'dodli shogirdi sifatida shu yerda tahsil ko'radi, bir necha vaqt Aleksandriya kutubxonasiga rahbarlik qiladi, shahzoda Ptolemey Evergyotning tarbiyachisi bo'ladi. Apolloniy ham o'zining ustozi singari ilmiy ishlar qatori poeziya bilan ham shug'ullanadi. Shoirga shuhrat keltirgan yirik asari – «Argonavtika» poemasidir. Asar atrofida ko'tarilgan qizg'in munozaralar va bu munozaralarda Kallimaxning muallifga qattiq qarshi chiqishi natijasida Apolloniy Aleksandriyani tashlab, Rodos oroliga ko'chib ketadi, umrining oxiriga qadar hurmat va ehtirom bilan shu yerda yashaydi. Rodos aholisiga bo'lgan samimiy ehtirom tufayli shoir orol nomini o'ziga laqab qilib oladi.

Poema Yunon pahlavoni Yazonning Kolxidaga borib oltin junli qo'chqor terisini olib kelishi, u yerda malika Medeyaning Yazonga oshiq bo'lib qolishi haqidagi afsona mavzuida yozilgan. «Argonavtika» poemasida muallifning qadimgi jangnomalarga taqlid etganligi, masalan, epik dostonlarning she'riy vaznigekzametrdan hamda epiteta, tashbih va, hatto, takrorlardan keng foydalanganligi ko'zga ochiq tashlanib turadi. Biroq, shunga qaramay, davrning taqozosi va yangi zamon adabiyotining talablariga ko'ra, asar tamomila boshqa bir usulda yozilgandir. Avvalo poema hajm jihatidagomer dostonlariga nisbatan ancha kichkina bo'lib, aqalli «Odissey» ning yarmisicha ham kelmaydi. Afsonaviy qahramonlarni ta'rif qilishdagomerga xos soddalik va samimiyligni «Argonavtika» poemasida ko'rmaymiz. Asarda chinakam badiiy lavhalar o'rnini ko'proq olimona mushohadalar egallagan. Shoir, hatto, ortiq darajada ezmalik qilibgeografik tushunchalar, mifologik voqealar, ba'zi bir rasm-rusum va bayramlarga uzundan-uzoq tafsir

beradi, bu esa kitobxonning fikrini tarqatib, asarning qimmatiga ancha putur yetkazadi. Lekin shoir bayonotni ajoyib manzaralar, chiroyli tashbihlar bilan boyitish qobiliyatidan ham mahrum emas. Xuddi Kallimax singari Apolloniy ham mifologik obrazlarga zamona nuqtai nazaridan yondashib, ularga diniy e'tiqod yuzasidan emas, balki eskidan saqlanib qolgan va endilikda faqat adabiy an'anaga aylanib ketgan bir vosita, deb qaraydi. Bu jihatdan poemaning III jildida Olimp tog'ining uchta ma'budasi o'rtalarida bo'lib o'tgan suhbatni tasvirlash xarakterlidir.

Gera bilan Afina Afroditaning huzuriga kelib, Yazonga nisbatan Medeyaning dilida muhabbat uyg'otishni o'z o'gli Erot dan iltimos qilishini so'raydilar. Afrodita singari yengiltak ma'budga iltimos bilan kelish, mag'rur ma'budalarni, ayniqsa bokira Afinani birmuncha xijolat qiladi. Sevgi ma'budasi esa o'g'lining zumrashligini, onaning so'zlarini nazar-pisand qilmasligini aytib, gera bilan Afinaga zorlanadi. Shu payt Erot o'zining tengdoshiganimed bilan baqay o'ynab, g'irrom yo'llar bilan uni yutib turgan edi. Uyinga qiziqib ketgan Erot injiqlik qilib, onasininggaplariga quloq solmaydi. Afrodita o'g'lini aldab-suldab, Zevs bola-Yaigida o'ynaydigan ajoyib koptokni unga olib berishni va'da qiladi. Shundan keyin Erot baqaylarini sanab, onasining etagiga tashlaydi-da, iltimosni bajarish uchun uchib ketadi.

Bu asardagi chinakam hayotiy lavhalar, qahramonlarning xatti-harakatlarigomer poemalarida tasvirlanadigan ilohiy qahramonlarga sira o'xshamaydi. Asarning shu bobini o'qirkansiz, xayolingizga Olimp tog'ining ulug'vor ma'budalari va bequsur Erot emas, balki yer hayotining kundalik sevinch va tashvishlari bilan yashaydigan oddiy xonadonninggalvalari, uch-to'rtta xotinning birga to'planib, ro'zgor va o'zlarining g'am-g'ussalari haqida kuydi-pishdi bo'lib suhbatlashib turganlari va erkato'y bir bolaning tantiqliklari keladi.

Poemada yuksak badiiy mahorat va chuqur ruhiy tasvirlarda bayon etilgan voqea, shubhasiz, Medeyaning Yazonga bo'lgan muhabbatidir. Biz Apolloniya qadar yunon epik dostonlarida sevgi ehtiroslarini tasvirlagan bironta asarni ko'rmaymiz. «Argonavtika»ning avtori esa odam bolasining shu hissiyotini o'z asarining asosiy mavzui qilib olgan. Biroq sevgini tasvirlashda Apolloniy Aleksandriyaning jamiki shoirlaridan ajralib turadi.

Ularning asarlarida muhabbat tushunchasi bir ko'rishda, to'satdan hosil bo'ladigan sezgi tarzida tavsif qilinar edi. To'g'ri, Apolloniy ham sevgining bosh sababchisi qilib Erotni ko'rsatadi, biroq bu holat eski an'analarning shoir ijodida saqlanib qolgan yolg'iz poetik ifodasi, xolos. Biz uchun qizig'i shundaki, Medeyaning qalbida uyg'ongan muhabbat tuyg'ularining keyinchalik tobora kuchayib, qarama-qarshi ehtiroslar qarshisidagoh so'nib, goh yana alanga olib borishini yozuvchi Aleksandriya shoirlarining birontasiga muyassar bo'lmagan nodir san'atkorlik bilan tasvirlaydi. Medeya chetdan kelgan xushbichim, pahlavon yigitni birinchi marta ko'rganida noaniq sezgilar uning dilini bir oz bezovta qiladi; qiz Yazonni o'ziga nomunosib bilib, bu sezgilarni shunchaki o'tkinchi bir qiziqish deb tushunadi. Biroq hayolini o'g'irlab, halovatini buzgan yigit ko'z oldidan sira nari ketmaydi, hatto tushida ham Yazonni ko'rib, shirin orzular zavqida betoqat bo'ladi. Yo'q, a'zoyi badanini o'rtab, ko'nglini vayron qilayotgan bu alamlar yengil-elpi bir havas emas, balki chinakam muhabbat ekan! Endi u nima qilsin? Yovuz niyat bilan begona yurtdan kelgan kishini sevish, unga yordam ko'rsatish jinoyat emasmi, axir? Bordi-yu, Yazon halok bo'lsa-chi, o'shanda ayriliq dardini ko'tarolmay o'zining hayotini ham barbod etmaydimi, yo bo'lmasa zahar ichib o'lsamikan?

Medeyaning qalbini alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan sevgi ehtirosining bu tariqa rivojlanib borishini shu qadar noyob ustalik bilan tasvirlash – muhabbat tuyg'ularini psixologik tomondan tahlil qilish borasida uchraydigan eng birinchi urinishdir. Jahon adabiyoti uchun «Argonavtika» dostonining asosiy mohiyati ham ana shunda.

Kichik hajmdagi poetik asarlarni targ'ib qilgan Aleksandriya shoirlari orasida eng mashhuri va iste'dodligi Feokritdir. Uning hayotiga doir ma'lumotlar juda oz. Shoir eramizdan oldingi 300-250 yillar o'rtasida yashagan bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. Feokritning tug'ilgan yeri Sisiliyadagi Sirakuz shahri bo'lsa ham, adabiy faoliyati ellinizm olamining turli yerlarida va ijodining enggullagan davri Aleksandriyada, Kallimaxguruhiga mansub shoirlar doirasida o'tadi.

Ellinizm adabiyoti yaratgan butun yangiliklar – tabiat zavqi, sevgi ehtiroslarini kuylash, insonning shaxsiy hayotiga, ayniqsa oddiy kishilarning turmushiga ko'proq qiziqish, mayda detallarga e'tibor berish, umuman, she'rninggo'zal va nafis bo'lishiga intilish –

hamma Aleksandriya shoirlariga qaraganda Feokrit ijodida yorqinroq ifoda etilgandir.

Ellinizm olamida Feokrit she'rlarining juda keng tarqalganligi to'g'risida anchagina ma'lumotlar bor. Biroq shoirning nihoyatda boy va rango-rang adabiy merosidan bizga qadar atigi kichik bir to'plam yetib kelgan, xolos. «Idilliyalar» deb atalgan bu to'plamga hammasi bo'lib o'ttizta she'r, yigirma beshta epigrama kiradi. «Idilliya» atamasi yunon tilidagi eidos (ko'rinish, manzara) so'zining kichraytirilgan *eidyllion* formasidan olingan bo'lib, «kichkina manzaralar», «kichkina ko'rinishlar» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu so'zga yangi ma'no berilib, tashvishlardan xoli bo'lgan osoyishta oddiy hayotni tasvirlovchi asarlarni «Idilliya» deb yuritish qoidaga kirib ketadi. Mazkur atamaning adabiyotga kirib kelishi va uning hayotda mustahkam o'rinish qolishining asosiy sababkori, shubhasiz, Feokritning to'plami bo'lgan, chunki bu to'plamdagi she'rlarning ko'pchiligi shunday sokin hayotni tasvirlaydigan asarlardir.

Feokritning idilliyalari mazmun jihatidan juda xilma-xil. Shoir ijodining shakl va mazmun boyligi bizga qadar yetib kelgan she'rlarda ham aniq ko'rinish turadi. Ana shu rango-rang she'rlar orasida eng muhim o'rinni «bukolikalar», ya'ni cho'ponlar qo'shigi (dikolos – podachi) deb ataluvchi idilliyalar egallaydi. Bukolika qo'shiqlari yunon folklorida uchraydigan janrlardan biridir. Manbalarda aytilishiga qaraganda, chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan har xil tadbir-choralar, rasm va udumlar paytida, masalan, hayvonlar ma'budasi Artemidaning bayramlari, ko'klamda podani dalaga haydash yoki qishda qo'tonga qamash munosabatlari bilan Yunonistonda maxsus marosimlar o'tkazilar, bu marosimlarda cho'ponlar nag'ma chalib, o'yin tushib, bir-birlari bilan basma-basiga qo'shiq aytishib, vaqtichog'lik qilishar edi. Bukolika qo'shiqlari, asosan, ishq va hijron haqida hikoya qiladi.

Folklor adabiyotining mazkur janri o'zining shakli hamda mazmuni bilan Aleksandriya shoirlarining tabiatiga va, shular jumlasida, Feokritning didiga juda yaqin bo'lganligi vajidan, ular bu janrdan keng miqyosda foydalanganlar. Bu davrdagi katta-katta shaharlarning g'ovur-g'uvurlari, fitna va g'alvalari odam bolasining tinka-madorini quritib, shu hayotdan qochish va shirin xayollar osmonida yashash, yo bo'lmasa, musaffo tabiat bag'rida oddiy va

sodda cho`ponlar singari beg`alva, betashvish umr kechirish kayfiyatlarini uyg`otar edi. Ellinizm olamida shahar bilan qishloq o`rtasidagi munosabatlarning haddan tashqari keskinlashib ketishi natijasida ro`y bergan ana shunday ruhiy parokandalik holatlarini ifoda etishda adabiyotning boshqa turlariga qaraganda ko`proq qo`l keladigan janri bukolikalar bo`lgan.

Feokritning bukolikalari, asosan, cho`ponlar o`rtasidagi suhbatlar, dahanaki janglar, basma-basiga aytiladigan qo`shiqlar, sevgi nolalari, afsonaviy cho`ponlar haqidagi navolar tarzida yozilgandir. Hayotda uchraydigan oddiy cho`ponlardan qiyos etilgan bu qahramonlarni shoir beg`araz kulgi va hazil-istehzo bilan tasvirlaydi. Masalan, III idilliyada xunuk, tentaknamo bir cho`pon yigit o`zining sevgisini izhor qilib, Amarillida degango`zal cho`pon qiz sha`niga qo`shiq aytadi, sitamgar ma`shuqaning istig`nolaridan toqati toq bo`lgan yigit hatto o`zini o`ldirmoqchi ham bo`ladi; IV idilliyada bir to`da cho`ponlarning podalar to`g`risida va o`tgan-ketganlar haqida hangomalashib o`tirganlari tasvirlanadi; V idilliyada bir-birini yoktirmagan yosh cho`pon bilan keksa cho`pon uchrashib qolib, oralaridan achchiq-tizziq ran qochadi; keyin janjal qasdma-qasdlikka aytilgan qo`shiq bilan tugaydi. Shoirning istehzoli kulgisini XI idilliyada juda aniq sezish mumkin. Bu idilliyaning qahramoni – badbashara kiklop Polifem parizodgalateyaning sevgisiga muhtalo bo`lib qolgan. Firoq o`tida kuygan kiklop o`z mahbubasining vasfini kuylab dengiz bo`yida ashula aytish bilan ko`nglini bo`shatadi. Badburush odamxo`ming ishq kuyida fig`on chekishi, albatta, kitobxonga juda g`alati tuyuladigan bir holdir. Biroq yozuvchi qahramonning raftoriga monand shunday tavsiflarni topadiki, siz asarni o`qir ekansiz, bu maxluqning nolalari chindan ham uning yurak dardlarining sadosi ekanligiga aslo shubha qilmaysiz.

Cho`ponlarning kundalik oddiy hayotidan olinib yozilgan bu toifa istehzoli idilliyalar bilan bir qatorda, mifologik afsonalardan ko`chirilgan mungli qo`shiqlar ham Feokrit ijodida muhim o`rin tutadi. Shu mazmundagi she`rlarning eng ajoyib namunasi sifatida «Farsis» deb ataluvchi birinchi idilliyaning ko`rsatishimiz mumkin. Farsis degan cho`pon yigit bir echkiboqar bilan uchrashib qolib, undan nay chalib berishini so`raydi. Echkiboqar tush paytida nay chalib, ovdan keyin orom olib yotgan o`rmonlar ma`budi va

podachilar homiysi Panni bezovta qilishdan qo`rqib, Farsisning iltimosini qaytaradi va uning o`zidan ishq dardiga uchragan, ammo undan yengilishni istamasdan o`limga rozi bo`lgan podachi Dafnis haqidagi qo`shiqni kuylab berishini o`tinadi. Farsis nihoyat Dafnis haqidagi g`amgin ko`shiqni boshlaydi. Xushnavo cho`ponning o`lim yostig`ida yotganini eshitgan jamiki hayvonlar: qashqirlar, bo`rilar, yo`lbars va qoplonlar uning boshiga kelib qon-qon yig`laydilar. Buqa va novvoslar, sigir va g`unajinlar, echki va qo`ylar sevimli cho`ponning oyoqlariga surkanib fig`on qiladilar. Afrodita Dafnisning qoshiga kelib, muhabbatni rad qilganligi uchun undan qattiq o`pkalanadi. Dafnis sevgi ma`budasiga achchiq-achchiqgaplar aytib, shartta yuzini o`girib oladi va, nihoyat, tog`lar, daryolar, o`rmonlar va barcha jonivorlar bilan vidolashib, xushnavoz nayini cho`ponlar rahnamosi Panga vasiyat qilib, dunyodan o`tadi.

Feokritning to`plamidagi she`rlar ichida shahar fuqarosining o`rtamiyona tabaqalariga mansub kishilar haqida hikoya qiluvchi asarlar ham bor. Shu toifa asarlar qatoriga kiradigan «Afsungar» idilliyasi o`zining pealistik mazmuni va ajoyib badiiyo`zalligi bilan shoirning boshqa asarlaridan tamomila ajralib turadi. Asarning asosiy maqsadi – firoq ko`yida vayron bo`lgan dilning alamlarini ko`rsatishdir. Bir necha kun bo`ladiki, Semefa degan soddagina yosh qiz o`z yoridan ayrilib qolgan: hijron dardida halovatini yo`qotgan ma`shuqa bevafo yigitni yana o`ziga rom qilish maqsadida tun kechasi kanizagi bilan birgalikda qaytariq qilib o`tiribdi, amal qilingangiyohlarni sevganining ostonasiga sochib kelish uchun kanizakni yuboradi-da, keyin yolg`iz o`zi yorning sitamlari, mash`um sevgining dog`u hasratlarini aytib, afsun ma`budasi oyga nola qiladi. Ishq dardiga muftalo bo`lgan ayol kishining ruhiy holatlarini bu tariqa ustalik bilan tasvirlash – yunon adabiyotida kamdan-kam uchraydigan bir hodisadir, desak mubolag`a bo`lmaydi.

Shahar hayotiga bag`ishlangan asarlar orasida eng mashhuri – «Sirakuzlik xotinlar yoki Adonis bayramidagi ayollar» idilliyasidir. Ajoyib realistik kuch va noyob yumor bilan yozilgan bu asar ham bamisoli kundalik oddiy hayot voqealaridan olingan yorqin bir lavhaga o`xshaydi. Asarning bosh qahramonlari sirakuzlikgorgo hamda Praksinoya degan ikki ayoldir. Ko`pdan beri Aleksandriyada yashovchi hamshahar dugonalar shu kuni saroyda o`tkaziladigan Adonis bayramiga birgalashib borishga va`dalashganlar. Bular

Praksinoyaning uyida uchrashadilar. Hali o'tlanib ulgurmagan Praksinoya bilangorgo o'rtalarida valdirvoqi suhbat, erlari haqida shikvaga'pllar boshlanadi. Keyin Praksinoya bo'lar-bo'lmasga tajanglik silib, cho'ri qizning yordamida yuz-qo'lini yuvadi, kiyimlarini kiyadi, gorgo uning yangi ko'ylagiga suqlanib qaraydi, qanchaga olganini surishtiradi. Ular nihoyat ko'chaga chiqadilar. Tirband odamlar orasidan o'tishar ekan, birovni turtib, birovni urishib, otlardan jonsarak bo'lib, yo'lakay bir nafas ham valdirashdan to'xtamasdan arang katta yo'lga chiqib oladilar. Saroyning serhasham zebu ziynatlari, Adonisning surati ularni hayratda qoldiradi, tillarini yana biyron qiladi. Bir mahal mashhur ashulachi ayolning Adonis sha'niga aytgan yoqimli ashulasi eshitilib qoladi. Shu paytgorgo injiq erining nonushta qilmaganini, hoynahoy, hozir diqqat bo'lib o'tirganini qo'qqisdan eslaydi-da, uyaqaytishga shoshiladi.

Kitobxon bu asarni o'qir ekan, qahramonlarning har bir so'zi qulog'iga eshitingandek, har bir harakati ko'ziga ko'ringandek va o'zi ham shu sergap xotinlarga hamroh bo'lib kattakon shaharning olag'ovur bayram ko'chalarida kezgandek bo'ladi; yozuvchi qahramonlarni tasvirlaganida mo'tadillikka rioya qilib ularning ezmiligini ortiqcha oshirib yubormaydi, kitobxonga manzur bo'lishni o'ylab, yumor bobida uncha saxiylik qilmaydi. Shu sababli kitobxon nazarida kundalik hayot voqealari qog'oz betiga aynan ko'chirilgandek tuyuladi.

Feokritga shuhrat keltirgan asarlar, asosan, yuqorida ko'rganlarimiz toifasidagi she'rlar bo'lgan. Uning to'plamida Kallimaxning epilliyalariga o'xshagan kichkina epik dostonlar, epigrammalar, podshohlarga atab yozilgan martov qo'shiqlari ham bor. Ammo bular bukolika hamda mimlarga qaraganda ancha zaifdir. Masalan, Ptolemeyga bag'ishlangan she'rda shoirning ijodiga xos samimiylik, beg'uborlik mutlaqo ko'rinmaydi; avvalo asar benihoyat cho'zilib ketgan, mifologik obrazlar haddan tashqari ko'p ishlatiladi, shoirning hukmronlarga xushomad qilgani, mutavozelik ko'rsatgani har misrada sezilib turadi.

Feokritning shoirlik talanti nihoyatda boy va rango-rang bo'lgan. U ham o'z zamonasining shoirlari singari davrning ijtimoiy va siyosiy masalalariga juda kam taqilsa-da, poetik mahorat bobida ularning hammasidan yuqori turadi. Feokrit ijodining asosiy

xususiyati hammadan burun turli-tuman adabiy usullardan g'oyat darajada ustalik bilan foydalanishidir. Shoir dialog to'qishda ham, lirik qo'shiqlar yaratishda ham, muallif nomidan yoki asarning biron qahramoni tilidan hikoya qilishda ham, tabiat manzaralarini tasvirlashda ham bir tekisda mohir, bir tekisda ulug'vor; nihoyat, o'z nomidan bir og'iz ham so'z aytmasdan, qahramonlarnigapirtirish orqali, ularning tabiatini ochish borasida, ayniqsa, juda usta, juda omildir.

Xalq og'zida aytilib yuriladigan cho'ponlar qo'shig'ini yuksak badiiy darajaga ko'tarib, alohida janr sifatida adabiyotga kiritgan kishi Feokrit bo'lgan. Uning asarlari keyingi shoirlarga (Vergiliy) kuchli ta'sir ko'rsatadi va o'zi ham shu oqimning eng birinchi yirik namoyandasi sifatida jahon adabiyotida abadiy qoladi.

Ellinizm olamida keng tarqalgan she'riy adabiyot janrlaridan yana biri mimlardir. Mimlar aslida xalq ijodiga mansub kichkina dramatik sahnalardan iborat janr bo'lib, taxminan muqallid (taqlid qilish) degan ma'noni anglatadi. Bu davrlarda adabiyot oldiga qo'yilgan yangi vazifalar, ya'ni hayotni to'g'ri va haqqoniy tasvirlash, odamlarni kun sayin bo'lib turadigan oddiy tirikchilik jarayonida ko'rsatish talablari, xalq adabiyotining eng qadimgi turlaridan bo'lgan mim janrini qayta ishlash, uni badiiy jihatdan rivojlantirish ishtiyoqini tug'diradi. Mimlar dramatik asarlar singari dialoglar shaklida yozilgan bo'lsalar ham, ularni faqat sahnada emas, balki ko'cha maydonlarida, bazmgohlarda, to'y-hashamlarda ham ko'rsatish mumkin bo'lgan. Mimlarni ijro etuvchi aktyorlar, odatda, niqobsiz o'ynaganlar, chunki ularning asosiy vazifasi yuz va boshqa a'zolarining harakati, so'z vositasi bilan biron narsaga yoki biron kimsaga taqlid qilib uning qilig'ini ko'rsatish, odamlarni kuldirishdan iborat edi. Mimlar shakl jihatidan asosan personajlarning suhbatlari, ashula va o'yin tarzida bajarilib, ularning mazmunida mifologik qahramonlarning sarguzashtlari, atoqli tragediyanavis hamda komediya yozuvchi shoirlarning asarlari, oddiy hayotdan olingan qiziq voqealar va turmushda uchraydigan turli-tuman kishilarning xulqlari kulgi qilinadi. Qisqasi, shakl va mazmun jihatidan nihoyatda rango-rang bo'lgan mimlar, antik dunyoda hozirgi zamon ma'nosidagi estrada tomoshalari o'rnida xizmat qilganlar.

Mim janrining tug'ilish tarixi juda qorong'idir. Eramizdan oldingi V asrda sirakuz shoiri Sofron adabiyotning shu yangi turini yaratganligi va o'zining asarlari bilan keng shuhrat qozonganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. IV-III asrlarda adabiyotning bu shakli badiiy ijodning eng ko'p tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, ellinizm poeziyasining yirik vakili Feokritning ijodiga ham ta'sir etadi.

1891 yili Misrda topilgan qo'lyozma mimlar haqidagi tasavvurimizii bir qadar kengaytirish imkoniyatini berdi. Bu qo'l yozmadagi sakkizta mimning avtorigerod degan shoir bo'lgan. Uning asarlari o'z zamonasida anchagina keng tarqalgan bo'lsa ham, shoirning hayotiga doir hech qanday ma'lumot saqlanib qolgan emasgerodning asarlaridagi ba'zi ma'lumotlarga ko'ra shoirning eramizdan oldingi III asr o'rtalarida yashab, ijod qilganini aniqlaymiz.

Gerod o'zining kichik dramatik parchalardan iborat she'riy asarlarida, asosan, shahar hayotiga doir kundalik voqealarni tasvir qiladi. Masalan, «Qo'shmachi» deb nom berilgan birinchi mimning qahramoni qiyofasida ellinizm olamining tipik vakili – qo'shmachi kampirning yorqin basharasini ko'ramiz. Bir qancha vaqt bo'ladiki, Metrixa degan xushbichim yosh ayolning o'ynashi Mandris uzoq safarga jo'nab ketgan. O'shandan beri yorini sog'inib, uning yo'liga ko'z tikib o'tirgan ma'shuqaning uyiga, ittifoqo, gillida degan qo'shmachi kampir kirib keladi. Mo'ltoni kampir Metrixa bilan apoq-chapoq ko'rishib, yasama samimiyat bilan uning hol-ahvolini so'ragach, suhbat orasida erkaklarning vafosizligi haqidagi uzundan-uzoq daromaddan so'ng xotin kishi husnga to'lganida umrni bekorga o'tkazmasdan, behudaga o'zini so'ldirmasdan, ishrat surib qolgani g'animat ekanliginigapga qistirma qiladi-da, suhbatning oxirida, go'yo Metrixaning ko'yida kuyib, devona bo'lib yurgangrill degan chiroyli boyvachcha yigitning ajoyib fazilatlarini maqtashga kirishadi. Metrixa kampirning qabihligidan qanchalik nafratlanmasin, bu toifa besharmlarni o'chakishtirib qo'yishdan qo'rqib, o'zini bosadi va quyuq-suyuq mehmon qilib, yotig'i bilan jo'natib yuboradi.

Shoir birinchi mimda qo'shmachi ayolni ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi mimda shu kasb bilan shug'ullanuvchi erkakni tasvirilaydi. Asar fohishaxona xo'jayini Battarning monologi tarzida yozilgandir. Battar sud hay'ati oldida so'zga chiqib, kechasi fohishaxonaga

bostirib kirgan va to`polon ko`tarib bitta fohishani olib qochib ketgan savdogar Fales ustidan shikoyat qiladi. Battar nutqining kulgili o`rni shundaki, bu qo`shmachilarning sudlardagapiriladigan jiddiy nutqlarga taqlid etib, bamiyoli juda muhim masala ustida munozara yuritayotgan notiq singari, bo`lib o`tgan mojaroning mayda-chuyda tafsilotlarini ham qoldirmay bayon qiladi va shu yo`sin beixtiyor o`zining razil basharasini ochib tashlaganini sezmaydi,

Uchinchi mimda shoir o`z zamonasidagi maktablarning hayoti va muallimlarning tabiatini tasvirlaydi. Metrotima degan bechorahol bir ayol o`zining xushyoqmas va bebosh o`g`li Kattalni maktabga olib keladi va muallim Lampriskning haqiga duo qilib, badkirdor bolani savalab, epaqaga keltirib berishni so`raydi. Muallim ham Metrotimaning iltimosini bajonu dil ado etadi. Beshinchi mimda ham jinsiy buzuvchilik hodisalari fosh etiladi. Yoshi bir qadar o`tib qolgan boyvuchcha xotin o`zining jazman quli, chiroyli, navqirongastorning boshqa bir cho`ri qiz bilan topishib, bekasiga xiyonat qilganini sezib qoladi-da, uni qattiq jazoga buyuradi. Keyin, bu qulning juda qimmatga tushganini o`ylab, yana shaxtidan qaytadi. yettinchi mimning voqeasi etikdo`z Kerdonning do`konida kechadi.

Kerdon o`zining mollarini xaridorlarga haddan ziyoda maqtab, har bir poyabzalning narxini oshirishga urinadi.

Yuqorida ko`rib o`tgan asarlarimizning hammasidagerod muttasil shahar fuqarosining hayotidagi ikir-chikirlarni va, inchunin, yaramas holatlarni kulgi kiladi. Shoir bu toifa kishilarning qilmishlari va kirdikorlarini tasvirlaganida, hayotiylikka intilib, mayda-chuyda detallarni ham ko`zdan qochirmasdan shu qadar mufassal va to`la-to`kis ko`rsatadiki, nazaringizda kundalik turmushning barcha sarqitlari birin-ketin ko`z oldingizdan o`tayotgandek seziladi. Biroq hayotiy tafsilotlarga bu tariqa berilish va, shu bilan birga, uning asarlarida juda ko`p uchraydigan qaltis holatlar, uyatsimongaplar, shoir ijodining realistik kuchini ancha susaytirib, naturalizm pozitsiyasiga yaqinlashtirib qo`yadi.

Ellinizm davri yunon adabiyotida she`riyatning epigramma deb ataluvchi maxsus janri ham keng rivoj topadi. Bu so`zning asl ma`nosi «bitik xat» bo`lib, qadimgi zamonlarda biron buyumga, masalan, surat, haykal, qabrtosh va ma`budlarga nazir qilingan ba`zi narsalarga bitib qo`yilgan xatlar epigramma deb atalgan. Keyingi davrlarda bu ibora asta-sekin asl ma`nosini yo`qotib, biron buyum,

biron shaxs yoki biron voqeaga atalib yozilgan kichkina va ixcham she'riy asarlarni epigramma nomi bilan yuritish taomilga kirib ketadi.

Ellinizm zamonasida ijod qilgan ko'pdan-ko'p epigrammanavis shoirlar orasida eng atoqlisi – Tarentlik Leonid (eramizdan oldingi III asr) bo'lgan. Leonid o'z shahri Tarentni (Janubiy Italiya) rimliklardan mudofaa qilish ishida aktiv qatnashadi; 272 yili dushman Tarentni zabt etgach, shoir ona yurtini tashlab ketib, shundan keyin butun umrini darbadarlikda o'tkazadi. Muhtojlikdan ellinizm olami bo'ylab shaharma-shahar sarson-sargardon kezzgan Leonid, mehnat ahllari – cho'ponlar, baliqchilar, dehqonlar, kosiblar va boshqa turli-tuman zahmatkashlarning og'ir hayoti bilan tanishadi va o'zining asarlarida shularning nochor va qashshoq turmushini tasvirlaydi. Leonidning chinakam realizm ruhida yozilgan epigrammalari mehnatkash xalqning ohu nolalari sadosidan iboratdir.

Ellinizm davri yunon poeziyasining rivojlangan payti, asosan, eramizdan oldingi III asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Yuqorida ko'rib o'tgan shoirlarimiz antik dunyo adabiyoti xazinasiga ma'lum darajada yangiliklar kiritib, uning shakli va mazmunini birmuncha boyitadilar. III asrdan keyingi zamonlarda ham badiiy ijodning hamma sohalarida qizg'in ijodkorlik ishlarining davom etishiga qaramay, bu davrning qalam ahllari eski adabiy an'analar doirasida o'ralashib, yunon adabiyotini ortiq ilgariga siljitolmaydilar.

RIM ADABIYOTI

RESPUBLIKA DAVRIDA RIM ADABIYOTI

ERAMIZDAN OLDINGI III VA II ASRNING

BIRINCHI YARMIDA RIM JAMIYATI

Eramizdan oldingi IV asrning oxiri – III asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, xuddi Yunonistonda bo'lgani kabi, qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etadi. III asrning o'rtalarida rimliklarning jahongirlik siyosati tobora kuchayib, ular birin-ketin Italiya tuprog'ining qolmish qismlarini ham zabt etishga kirishadilar. Italiyaning janubiy qirg'oqlarini va Sitsiliya orolini egallash, Rim

jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqea bo'lgan. «Ulug' Yunoniston» nomi bilan shuhrat taratgan bu yerlar qadim zamonlarda ellinlar qo'liga o'tib, ularning mustamlakasi bo'lib qolgan edi. Bosqinchilar ilk marta xuddi shu yerda yuksak yunon madaniyatining shohidi bo'ladilar. Italiya tuprog'ini o'zlariga itoat ettirish ishini batamom tugallagan rimliklar, bora-bora bosqinchilik siyosatini o'rta dengiz havzasiga ko'chirib, Afrikaning shimoliy qirg'og'idagi Karfagen davlatiga (hozirgi Tunis shahri yaqinida) qarshi birin-ketin uch marta ochilgan qirg'in urushdan so'ng, bu azim davlatni ham zabt etadilar va, nihoyat, II asr davomida oldinma-keyin Makedoniyani (148), Yunonistonni (146), Ispaniyaning bir qismini o'zlariga tobe qiladilar va Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'oqlarida mustahkam o'rtnashib oladilar. Shunday qilib, II asr o'rtalarida Rim yer yuzining eng qudratli davlatiga, O'rta dengizning zabardast hukmroniga aylanadi.

G'olibona urushlar, qo'lga kiritilgan mustamlakalarni talash natijasida behisob boyliklar, son-sanoqsiz qullar Rimga qarab oqa boshlaydi. Eski patriarxal odatlar barbod etilib, jamiyatning hamma tabaqalari pulparastlik, maishatbozlik va zeb-ziynat hissiga beriladi; boyib ketgan ziyoli doiralar endilikda o'zlarining iqtisodiy boyliklariga va uning samaralariga qanoat qilmasdan, nozik va nafis madaniyat matlubi bo'ladilar.

Xullas, yuqorida bayon etilgan urushlar va ularning oqibati o'laroq paydo bo'lgan qator o'zgarishlar natijasida yunon madaniyatining keng miqyosda Rim hayotiga kirib kelish xarakati boshlanadi. III asrning o'rtalarida o'z xohishi bilan Rimga ko'chib kelib muqimlashib qolgan yunonlarning soni anchagina bo'lgan. «Ulug' Yunoniston» Rim ixtiyoriga o'tgandan keyin va ikkinchi Pun (Karfagen) urushidan so'ng bularning nufuzi yana ortadi (keyingilarning ko'pchiligi qul qilingaya asirlar edi).

Rimga kelgan yunonlar o'zlari bilan birga asrlar davomida yetishtirgan ulug' madaniyatlari mahsullarini ham olib keladilar va Rim hayotining hamma sohalarida bab-baravar ta'sir ko'rsatadilar. Yunonlarning odat-taomillari, asbob-anjomlari, kiyim-kechaklari rimliklarning turmushiga juda tez kira boshlaydi. Yunon tiliga qiziqish deyarli umumiy bir hodisa bo'lgan. Yunon alifbesini, yunon dinidagi ba'zi ma'budlarni rimliklar hatto ancha ilgari qabul qilgan edilar. Qisqasini aytganda, Rimning madaniy hayotida yunonlarning

xizmati singmagan deyarli hech qanday soha bo`lmagan desak xato qilmaymiz. Ular badavlat xonadonlarda bolalarni tarbiya qiluvchi murabbiy, davlat arboblari qo`lida mirza bo`lib xizmat qiladilar; falsafa, notiqlik bobida saboq beradilar, yangidan rasmga kirayotgan teatrlarda aktyor bo`lib ishlaydilar. Hattoki Yunonistonda yaratilgan Eney haqidagi afsonani ham Rim davlati rasmiy ravishda qabul qiladi. Bu afsonada Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi va (Rim shahrini barpo etgan Romul bilan Remning ajdodlari shaxsan Troya qahramoni Eney ekanligi haqida hikoya qilinar edi. Yangi g`oyalarni yoyuvchi eng muhim omillardan biri bu davrlarda adabiyot bo`lgan, albatta. Kelgusidagullab-yashnagan va ajoyib mevalar yetishtirgan ulug` Rim adabiyoti bog`ining dastlabki nihollarini latin tuprog`iga yana shu yunonlar tikkan.

Yuqorida aytilganlardan, Rim xalqining o`z milliy adabiyoti yo`q, uning bu sohadagi faoliyati faqatgina taqlidchilikdan nariga o`tmagan ekan, degan fikrga kelish noto`g`ri, albatta. Bizgacha yetib kelgan hujjatlar hatto eramizdan oldingi V-IV asrlarda Rimning o`zida badiiy adabiyot va maxsus she`riy o`lchov bo`lganligidan darak beradi. Tarix betida ba`zi bir yozuvchilarning (Appiy Klavdiy) nomlari ham saqlanib qolgan. Bundan tashqari, yozma adabiyot yaratilishidan ancha ilgari, Italiya tuprog`ida yashovchi qabilalarning ham, barcha xalqlar singari, boy og`zaki adabiyotlari bo`lganligi shubhasizdir. Biroq yangitdan kirib kelayotgan jozibador yunon adabiyoti tazyiqi ostida mahalliy og`zaki adabiyot e`tibordan qolib, bizga uning juda kamdan-kam namunalari yetib keladi.

Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, Rimning o`zi madaniyat bobida unchalik yetilmaganida, yunon adabiyoti bu yerda shu qadar katta e`tibor qozonmagan bo`lar edi.

Shu bilan biz «asl» Rim adabiyoti ustida ortiq to`xtalib o`tirmasdan, yozma badiiy ijodning dastlabki davrlari bayoniga kirishamiz.

DASTLABKI RIM SHOIRLARI

Birinchi Rim shoiri yunonistonlik Liviy Andronik (284-204) bo`lgan. Rimliklar janubiy Italiyadagi Tarent shahrini ishg`ol etganlarida uni asir olib, Rimga keltiradilar. Keyinchalik qullikdan ozod qilingan Andronik shu yerda qolib, Rim maktablarida yunon va

latin tillaridan muallim bo'lib xizmat etadi. Ma'lumki, yunon maktablarida qo'llaniladigan asosiy darslik sifatidagomer poemalari o'qitilgan. Latin tilida bunday asarlarning yo'qligi vajidan Andronik qadimgi saturn vaznida «Odisseya» dostonini latin tiliga tarjima qiladi. Bu asarning bizga yetib kelgan parchalaridan uni nihoyatda erkin tarjima qilinganligi ochiq sezilib turadi. Ko'p o'rinlarda misralar qisqartiriladi, ba'zan tashlab ketiladi, hatto obrazlarni o'zgartirish, yunon mifologiyasidagi ma'budlarning nomlarini latin ma'budlari nomi bilan almashtirish hodisalariga ham duch kelamiz. Umuman aytganda, Andronikdan keyin o'tgan tarjimonlar ham bu sohada uning izidan borib, tarjima ishiga originalning butun xususiyatlarini saqlab qolish prinsipi nuqtai nazaridan emas, balki shu asarni Rim davlatining madaniy ehtiyojiga moslashtirish, begona xalqning ma'naviy merosi yordamida o'zlarining adabiyotlari va milliy tillarini boyitish nuqtai nazaridan yondashadilar.

«Latin Odisseya»sining qariyb ikki asr davomida Rim maktablarida asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilishi, bu tarjimaning Rim xalqi tarixida qanchalik muhim g'oyaviy hodisa bo'lganligidan darak beradi.

Liviy Andronik tarjimonlikdan tashqari, bevosita latin tilida sahna asarlari – tragediya va komediyalar ham yozgan. Shoirning bu sohadagi ijodiy mahsullari ham bizga qadar juda kamdan-kam yetib kelgandir. Saqlanib qolgan parchalardan shoir o'z tragediyalari mavzuini Evripid asarlaridan, komediyalar mavzuini Menandr, Filemon hamda Dofilning asarlaridan olganligi ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Liviy Andronik Rim adabiyoti bahorini boshlab kelgan birinchi qaldirg'ochdir. Undan so'ng ko'p o'tmay yangi badiiy ijod bog'ida boshqa qushlarning navolari eshitila boshladi. Shulardan dastlabkisigney Neviydir (taxminan 270–200 yillar o'rtasida yashagan). Bu shoir avvalo, Andronik singari «kelgindi» bo'lmasdan, o'z xalqining turmushini yaxshi bilgan, shu xalqning dard va orzulari bilan yashagan chinakam Rim tabaasi, ikkinchi Pun urushining ishtirokchisi edi. Biz uning hayotida Rim kishisining haqiqiy qiyofasini, adabiy faoliyatida mustaqil ijodning birinchi kurtaklarini ko'ramiz. Neviyning ijodida dramatik asarlar – tragediya va komediya asosiy o'rin tutadi. Bu shoir ham xuddi Andronik singari o'zining tragik asarlari mavzuini yunon yozuvchilari

asarlardan olgan, ammo, shu bilan birga, o'z vatani hayotidan olingan mavzularda tragediyalar yaratish kabi sharaflı ulug' vazifa Rim tarixida birinchi marta Nevıy zimmasiga tushadi. Millıy mavzuda yozilgan bu xildagi tragediyalarning qahramonlari saxnaga Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos, ya'ni proteksta kiyib chiqardilar. Shu sababli mazkur asarlarni protekstata deb ataganlar. Nevıy yozgan protekstatalardan biz, faqat ikkitasining nominigina bilamiz. Bulardan biri – «Romul», ikkinchisi – shoirning zamondoshi Klavdiy Marselning Klastidiy shahri yaqinidagallar bilan bo'lgan jangi haqidagi «Klastidiy» tragediyasidir.

Nevıy tragediyaga qaraganda komediya sohasida kengroq shuhrat qozonadi. Biroq bu borada ham shoir o'zining hamkasbi Andronik kabi yunon komediyalarini Rim sahnasiga ko'chirib qo'ya qolmasdan, birinchi marta Rim adabiyoti tarixida kontaminatsiya, ya'ni ikkita yunon komediyasidan bitta Rim komediyasi yaratish usulini qo'llaydi. Plavt hamda Terensiy kabi mashhur komedıyanavis shoirlar keyinchalik bu usuldan keng miqyosda foydalandilar. Bundan tashqari, Nevıy, asosan, yangi komediya vakillariga ergashsa ham, qadimgi attika komediyasi izidan borib, o'z asarlarida Rim davlatining yirik-yirik arboblariğa til tegizishdan, zamonasining zo'ravonlarini masxara qilishdan cho'chimaydi. Umuman, uning komediyalarida o'tkir siyosiy satira, Rim hayotining milliy nafasi sezilib turadi.

Nevıy talantining eng yuqori cho'qqisi – «Pun urushi» dostonidir. Rim milliy dostonchiligiga asos solish jihatidan bu asar latin adabiyoti tarixida alohida muhim o'rin tutadi. Doston yaqinda bo'lib o'tgan birinchi Karfagen urushi voqealariga bag'ishlangan. Biroq asarda xuddigomer dostonlarida bo'lgani kabi, real tarixiy hodisalar mifologik afsonalar bilan chatishgan holda tasvir etiladi. Biz jangnomaning boshlanishida o't ichida qolgan va halokatga mahkum etilgan Troya shahrini ko'ramiz. Ulug' qahramon Eney ma'budlarning amri bilan o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Dengiz safarining og'ir mashaqqatlarini yengib, qahramonning Karfagen shahriga, malika Didona huzuriga yetib kelishi, bundan so'ng troyaliklarning Italiya qirg'oqlariga qarab yo'l olishlari va, nihoyat, Eneyning avlodi Romul tomonidan Rimning barpo etilishi – asar davomida mufassal tasvirlanadi. Shunday qilib, Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi haqidagi rivoyatga birinchi marta badiiy

tus bergan shoirgney Neviydir. Neviyning tragediya va komediyalari singari, «Pun urushi» dostonidan ham juda ozgina parchalar saqlanib qolgan. Shu sababli uning fazilatlari to'g'risida to'laroq fikr yuritish imkoni yo'q. Asrlar davomida dostonning Rim xalqi o'rtasida eng sevimli kitob bo'lib qolishi – asarning badiiy jihatdan birmuncha puxta yozilganligidan dalolat bersa kerak.

Dastlabki Rim shoirlari orasida eng yirigi, albatta Kvint Enniy (239-169) bo'lgan. Uning ona yurti Italiyaning janubidagi Kalabriya viloyatida yunon madaniyati qadim zamonlardan beri juda keng yoyilgan bo'lib, shoir ilk bolaligidan ellin falsafasi va adabiyoti ta'sirida tarbiyalanadi, keyin Rimga ko'chib kelib, bu yerning tabaasi sifatida ikkinchi Pun urushida ishtirok etadi va, nihoyat, Rimga qaytib, latin va yunon tillaridan dars o'qitadi, adabiy faoliyat bilan kun kechiradi.

Enniy o'z ijodining boshlang'ich davrlarida Liviy Andronik hamda Neviy yo'llarini davom ettirib, asosan, yunon komediyasi va tragediyalarini latin sharoitiga moslashtirish bilan shug'ullangan. Zamondoshlarining shahodatiga qaraganda, komediyanavislik sohasida ancha zaif bo'lgan Enniy, tomoshabinlar nazarida e'tibor qozonolmaydi. Ammo uning tragediyalari Rim teatri sahnalarida uzoq yillar umr kechiradi. Yunon tragediyanavislari orasida Enniyni ham ko'proq qiziqtirgan shoir Evripid bo'lgan. Rim shoirining Italiya sharoitiga moslashtirib qayta ishlagan variantlari orqali tomoshabin ulug' yunon adibining qator asarlari – «Gekuba», «Ifigeniya», «Aleksandr», «Medeya» va boshqa tragediyalari bilan tanishadi. Bizga qadar yetib kelgan ba'zi parchalardan tragediya sohasida Enniyning nihoyatda mohir san'atkor bo'lganligi, qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, aynshqsa, ularning ehtirosli jo'shqin holatlarini ko'rsatishda oldingi shoirlardan allaqancha yuqoriligi yaqqol sezilib turadi.

Enniy o'zining o'tkir poetik mahoratini «Annallar» («Solnomalar») dostonida yana ham kengroq namoyish qilgan. 60 ming misradan iborat 18 bobli (bizga qadar uning 1200 misrasi yetib kelgan) salmoqdor bu asar Enniyning Troyani tashlab qochishidan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun Rim tarixini o'z ichiga oladi. Enniy «Annallar»ni yozishga kirishar ekan, Rim ma'budlariga sig'inib, mashaqqatli ishda ulardan madad tilamasdan, yolg'iz ulug'gomerning poetik ko'magiga suyanadi.

Asarning debochasida hikoya qilinshicha, Enniygo`yo, bir tush ko`radi-yu, shu tushida muzalar unigelikon tog`iga olib chiqadilar, bu yerda uning huzurigagomer kelib, o`z ruhining Enniy tanasiga ko`chganligini aytadi.

«Annallar»ning avtori mazkur debocha bilan «Iliada» hamda «Odissey» usulida doston yozmoqchi bo`lganini, yunon shoiri izidan borib Rim elining ikkinchigomeri bo`lish orzusida ekanligini izhor qiladi. Enniy, darhaqiqat, gomer dostonlari usulidan – epitetlar, o`xshatishlar va boshqa poetik vositalardan katta ustalik bilan foydalanib, ko`zlagan maqsadlariga erishishda ajoyib muvaffaqiyatlar qozonadi

PLAVT

Ulug` Rim komediyanavisi Tit Makk Plavt (taxminan 250-184 yil) Italiyaning Umbriya viloyatida tug`iladi. Uning hayotiga doir ma`lumotlar juda oz. Borlari ham unchalik inobatga molik emas. Olimlarning fikricha, Plavt, har nechuk, teatr ishlariga yaqin kishi bo`lgan. Qadim zamonlarda yuzdan ortiq komediyaning Plavt nomi bilan bog`lab kelganlar. Ammo eramizdan oldingi I asrda mashhur Rim olimi va adabiyotshunosi Varron shulardan faqat yigirma bittasigina Plavt qo`li bilan yozilganligini aniqlaydi. Ularning deyarli hammasi to`la holda va faqat bittasi ayrim parchalarda bizgacha yetib kelgan.

Plavt ham oldingi shoirlarning (Andronik, Nevii, Enniy) usullarini davom ettirib, o`z ijodida muttasil yangi yunon komediyasi vakillarining (Felimon, Difil, Menandr) asarlarini Rim sahnasiga moslashtirish bilan shug`ullangan. III-II asrlardagi ijtimoiy tuzum sharoitlarida bevosita Italiya hayotidan olingan mavzularda asar yozib, turmushdagi nojo`yaliklarni qoralash, arboblarning sirlarini ochish ancha xavfli edi. Shu sababli yunon komediyalari, xuddi Nevii singari Plavt uchun ham chalg`ituvchi bir niqob vazifasini ado etgan. To`g`ri, Plavt qaysi bir ellin komediyanavisining asarini Rim sahnasiga monand qayta ishlamasin, asl nusxadagi holatlarni, masalan, shaharlarning nomi, qahramonlarning ismi, yunon odatlari, kiyim-kechaklari va boshqa shuning kabilarni o`zgartirmasdan aynan qoldiradi. Ammo, shu bilan birga, faqatgina Rim idora tartiblariga,

Rim sud tuzumi, Rim madaniyati va, umuman, Rim hayotining turli-tuman sohalariga xos milliy holat va alomatlarni ham original ruhiga singdirib yuborish – Plavt ijodining asosiy xususiyatidir. Biroq shoir ijodining muhim xislati, uning asarlarida benihoya ko'p uchraydigan bu kabi milliy nishonalar bilan emas, balki komediyana-visning originalga qanday yondashuvi bilan belgilanadi. Plavt yunon shoirlari asarlarini tanlar ekan, ularning Rim hayoti talablariga monand kelishiga, zamona bilan hamohang bo'lishiga katta e'tibor beradi va shular vositasida o'z vatanining muhim problemalarini hal qiladi. Bundan tashqari, yunon komediyalarini Rim jamiyatining keng ommasini didiga moslashtirish maqsadida Plavt kontaminatsiya usulidan ham keng foydalanib, mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita pyesani birlashtirib yuboradi va yo'l-yo'lakay asar to'qimasiga o'zidan qiziq-qiziq iboralar, maroqli hodisalar kiritib, dramatik holatlarning keskin, voqealarning o'ynoqi bo'lishiga erishadi. Umuman aytganda, faqatgina Rim fuqarosining quyi tabaqalari manfaatini ko'zda tutgan Plavt, o'z komediyalarida avvalo shular uchun zarur bo'lgan muhim masalalarni ko'taradi va, binobarin, maqsadlarini soddadil tomoshabinga yetkazish niyatida, sahnadan turib ular bilan o'zlari tushunadigan oddiy avom tilidagaplashadi. Plavt qahramonlarining so'zlariga diqqat bilan quloq solinsa, ularning og'zidan chiqqan ajoyib qochiriqlar, hazil-mutoyibalar, so'z o'yinlari, hattoki uyatnamo iboralar kishini hayratda qoldiradi, ichagini uzib kuldiradi. Xalq ijodi xazinalarida to'plangan va nodir iste'dod bilan Plavt komediyalariga ko'chirilgan mana bu so'z boyliklari, Rim shoirining asarlariga allaqanday o'ynoqilik, milliy ruh bag'ishlaydi. «Basavlat» va «boadab» yunon yangi komediyasiga tamomila begona bo'lgan bu jo'shqinlik va serzavqlikning eng birinchi ijodkori Plavt ekanligiga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

Plavtning eng o'tkir va maroqli asarlaridan biri «Maqtanchoq jangchi» komediyasidir. Asarning boshlanishidayoq biz bosh qahramon Pirgopolinik bilan tanishamiz. Bu harbiy amaldor egniga alvon kamzul, boshiga jig'ali dubulg'a kiyib, bahaybat shamshir, yaltiroq qo'lqop ko'tarib, jingalak sochlarini selkillatib navkarlari bilan ko'chalarda savlat to'kib yurar ekan, har doim o'zining jang maydonida ko'rsatgan mislsiz bahodirliklari, go'zal xonimlar bazmida surgan ishratlarini doston qiladi. Biroq bu oliftaning turish-

turmushi, hammagaplari quruq maqtanchoqlik, xolos. Haqiqatda u hech qachon jang maydoniga kirmagan, o`zi ham o`lgunday qo`rqq, ayollar bilan qurgan bazmlari esa – g`irt yolg`on. Pirgopolinikning atrofidagi baloxo`r oshnalari, ayniksa Artotrog degan shilqim og`aynisi uning qo`ltig`iga suv purkab battar chirantiradi. Artotrogning aytishicha, bamisoli shamol daraxt barglarini yoki tomdagi xaslarni uchirib ketganidek Pirgopolinik hamgo`yo o`zining nafasi bilan lak-lak lashkarlarni uchirib yuborar ekan. Pirgopolinikning husni jamoli ne-nego`zallarni shaydo qilganligi haqidagi uydirmagaplar unga ayniqsa juda yoqadi. Shunday maqtovlarni eshitganida «go`zal bo`lish dahshatli ofat», deb hatto kerilib ham qo`yadi.

Shoir o`z qahramonining bu tariqa kerilmachogligidan kulib, uning tabiatiga monand dabdabali nom bergan. (Pirgopo-linik «shaharlar va minoralar zavoli» demakdir.)

Asarning hamma voqeasi ana shu xotinbozning ishqiy sarguzashtlaridan iboratdir.

Afinalik ikki yosh – Filokomasiya hamda Plevsikl bir-birlarini qattiq sevadilar. Plevsikl uzoq safarga ketganida, Pirgopolinik bir qo`shmachil xotin orqali Filokomasiyani yo`ldan urib kemada o`z shahri Efesga olib qochadi. Yigitniyag sodiq quli Palestriion ko`ngilsiz bu xabarni Plevsiklga yetkazish maqsadida shoshilinch yo`lga chiqqanida, qaroqchilar kemani bosib, uni Pirgopolinikka tortiq qiladilar. Yangi xo`jasining uyida Palestriion ittifoqo Filokomasiyani uchratib bu haqda tezlik bilan Plevsiklga xabar yuboradi. Oshiq yigit yashirincha Efesga kelib, Pirgopolinikning qo`shnisi keksa Periplektomenning uyiga qo`nadi. Hiylagar Palestriion oshiq-ma`shuqlar uyi o`rtasida xufiya tuynuk ochib, ularning tez-tez uchrashib turishlariga ham ko`maklashadi. Plevsikl to`xtagan qo`shxonaning egasi Periplektomen bir tomondan bu yigitga tanish, ikkinchidan o`zi ham nihoyatda muruvvatli, kulfatda qolgan kishilardan yordamini ayamaydigan so`qqabosh odam edi. Tadbirkor Palestriion shu cholning ko`magida Pirgopolinikning sharmandasini chiqarishga ahd qiladi. Sodiq qulning maslahati bilan Periplektomenning rafiqasi sifatida bir yosh ayolni yasantirib, uning nomidan cho`ri qiz orqali Pirgopolinikni xilvat bazmiga chaqirtiradilar. Laqma Pirgopolinikning quvonchi ichiga sig`maydi. Ammo bu ishning chatoq bir tomoni bor-ku, mabodo, Filokomasiya

sezib qolgudek bo'lsa, oshiq yigitning kayfu safosi qayg'uga aylanmashkan! Pirgopolinik shunday andishalar qiynog'ida turganida ustomon Palestriongo'yo uning holiga achingan kishidek, tezlik bilan Filokomasiyadan qutulishni maslahat beradi. Palestriinning «vafodorligi»dan g'oyat mamnun bo'lgan Pirgopolinik Filokomasiyaning qimmatbaho buyumlarini ham qo'lga tutqazib shu onning o'zida Afinaga jo'natadi, hattoki sadoqatli qulining ham bahridan o'tadi, uni «sevikli ma'shuqasi»ga hadya qiladi. Shundan so'ng tashvishlardan qutulgan oshiq yasantusanib dorilamon yor vasliga jo'naydi. Ammo u yerda maishat o'rniga Periplektomenning qullaridan o'lası kaltak yeb sharmandayu sharmisor bo'ladi.

Bu asar, umuman, Plavtning hamma asarlari singari yunon tilidan ko'chirilgan. Undagi barcha voqealar yunon yerida sodir bo'ladi, qahramonlari ham shu elning kishilaridir. Shunga qaramay, Plavt zamonasidagi uzluksiz urushlar sharoitida mazkur komediyaning Rim hayoti uchun ham ahamiyati zo'r bo'lganligi shubhasizdir. Italiya fuqarosi asarni Rim sahnasida ko'rganida xandon urib kular ekan, hech qanday shak yo'qki, u albatta o'zining Pirgopoliniklaridan, ya'ni og'ir urushlar paytida chetga qochib, urush tugagach, bo'lmag'ur bahodirliklari bilan maqtanib yurgan ko'pdan-ko'p harbiylardan kulgan.

«Maqtanchoq jangchi» – Plavtning eng yaxshi komediyalaridan biri hisoblanadi. Ammo, shunga qaramay, uning kompozitsiyasida pishib yetmagan ba'zi o'rinlari bor. Modomiki, ikki uy o'rtasida yashirin tuynuk ochib, oshiq-ma'shuqlar bir-birovlari bilan uchrashib turishga muyassar bo'lgan ekanlar, nima uchun ular shu imkoniyatdan foydalanib darhol qochib ketmadilar, nima sababdan qutulishning murakkab yo'llarini qidirishga majbur bo'ldilar? Asarni sahnada ko'rgan yoinki o'qigan har bir kishida shunday savol tug'ilishi muqarrardir. Olimlar Plavt o'z asarida ikkita yunon komediyasidan foydalanganligi orqasida bu xilda yasama holatlar sodir bo'lgandir, debgumon qiladilar.

Plavtning «Xumcha» komediyasi ham o'zining badiiyligi va sotsial mohiyati jihatidan «Maqtanchoq jangchi» asaridan qolishmaydi. Bu komediyaning asosiy mavzui boylikning inson xulqini buzadigan yaramas ta'sirini ko'rsatishdan iborat. Ayni zamonda Rim jamiyati uchun bu masala ham juda muhim bo'lgan.

Evklion degan bechorahol odam o`choq ichidan bir xumcha tilla topib oladi. Bexosdan qo`lga kirgan bunchalik katta g`animat uni esankiratib qo`yadi, huzur-halovatini, tinchligini buzadi. Soddadil bu odam xumchasini poylab kechalari uxlamaydi, goh u yerga, goh bu yerga yashiradi, kunduzlari ko`chaga chiqmasdan uyda o`tiradi, odamlar, xuddi, uning g`animatini sezib qolgandek, hammadan hadiksiraydi, boyib ketganini boshqalar bilib qolmasliklari uchun hech narsaga pul sarflamaydi.

Shu orada Evklionning o`rta yoshli badavlat ko`shnisi Megador uning qizi Fedraga og`iz solib qoladi. Kutilmagan bu sovchilik bechora cholning tashvish va shubhalarini yana orttirib yuboradi:go`yo Megador oltinning hidini bilib qolganu shu sababli kuyov bo`lishga oshiqmoqda. Axir bir balosi bo`lmasa, shunday davlatmand odam Evkliondek qashshoqning qiziga uylanarmidi?

Vaholanki, Evklionning topib olgan xazinasidan Megador tamomila bexabar. Fedraga uylanishda ham uning hech qanday g`arazi yo`q. Bo`lg`usi kuyov to`y chiqimlarining hammasini o`z ustiga olishni va sep-sarpolardan kechishni va`da qilgach, shu kuniyoq nikoh bo`lishiga Evklion rozilik beradi. Ziyofat taraddudida to`yxonaga begona odamlar keladilar. Shunday to`polon paytida xumchaning uyda turishidan xavfsiragan Evklion uni bir chakalakzorga yashirib qo`yadi. Megadorning jiyani Likonidga qarashli qul Evklionning iziga tushib, xumchani o`g`irlab qochadi. Xuddi shu mojarolar ustiga Evklion bexabar, pishib turgan to`y ham buzilib ketadi. Ma`lum bo`lishicha, bundan sakkiz-to`qqiz oy ilgari bir bayram kechasida Likonid Fedrani zo`rlab qo`ygan va shu kecha-kunduzda uning tug`ish soatlari yaqinlashib qolgan ekan. Likonid o`z jinoyatining qurboni kim ekanligini biladi-yu, ammo Fedra esa dilozeni mutlaqo tanimaydi. Tog`asining Fedraga uylanishini eshitgan Likonid chuqur iztirobga tushib, butun vokeani, chor-nochor, unga aytadi, Megador qizdan ayniydi. Likonid begunoh bir qizni badnom qilganligidan, uning otasiga qattiq ozor berganligidan pushaymon bo`lib, endi bu shum xabarni alamdida Evklionga qanday qilib yetkazish yo`lini topolmasdangangib yurganida dunyosidan ayrilib faryod chekib turgan cholga duch keladi va uning bezovtaliklarini qizining sharmanda bo`lganligini sezib qolish oqibatigumon qilib, Evkliondan uzr so`rashga oshiqadi.

«Biri bog`dan kelsa, biri tog`dan keladi» degandek, shu yo`sinda ularning o`rtalarida anchagacha munozara boradi. Nihoyat bir-birlarining asl maqsadlarini tushunib, dilgirlik bilan ajralishib ketadilar.

Asar shu yerda uziladi: uning oxiri bizga qadar yetib kelmagan. Qadimgi manbalardan birida bayon qilinishicha va «Xumcha»ning prologida aytilishicha hamma oltin komediya pirovardida Evklionga qaytariladi, u esa qizini Likonidga uzatib, «Na kechasi, na kunduzi halovatim bo`ldi, endi tinchgina uxlayman», degan so`z bilan hamma oltinni mahr tariqasida kuyoviga beradi.

Ko`p olimlar «Xumcha» komediyasini, xasislik haqida hikoya qiladigan asar, deb baholaydilar. Nafsilamri, Evklion qiyofasida shu toifa kishilarga xos juda ko`p alomatlar bor: u hatto mo`ridan chiqib ketayotgan tutunni ham qizg`anadi, nafasim bekor ketmasin, deb boshini burkab yotadi, yuvingani suvni ham ko`zi qiymaydi va hokazo. Biroq qahramonning asar oxiridagi ikki og`izgapi, bu odamni xasislar qatoriga qo`shish istaklarini tamomila puchga chiqaradi. Agar u chindan ham ziqna bo`lganida hech qachon o`z davlatini ikki qo`llab kuyoviga tutmas edi. Uning «xasis»ligi bir umr yirikroq pul ushlamagan kambag`alning bexosdan qo`lga kiritilgan kattakon davlat qarshisida sarosimalanib qolishdan boshqa narsa emas.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, Plavt qanday yunon komediyasidan foydalanganligi bizga noma`lum. «Xumcha»dagi voqealarning rivojlanib borishi, qahramonning tabiati, ayniqsa bu odamning kambag`allarguruhiga mansubligi shu narsani ko`rsatadiki, Plavt foydalangan yunon komediyasining avtori, har holda, ellinizm zamonasida g`oyat keng tarqalgan kiniklar va stoiklar falsafasi pozitsiyasida turib, xalq ichida nihoyatda keng tarqalgan ertaklar tarzida, davlatmandlikning tashvishlariga qaraganda betashvish kambag`allik yaxshi, degan fikrni oldinga surmoqchi bo`lgan. Evklion obraziga omuxta qilingan xasislik belgilari yunon originaliga, har qalay, Plavt tomonidan kiritilgan bo`lsa kerak. Evklion obrazi Rim shoiri qo`lidan olgan ana shu yangi – «xasislik mandati» bilan keyinchalik jahon adabiyotini kezib, shu toifa kishilarning badiiy adabiyotdagi eng birinchi vakili sifatida yangi zamon yevropa yozuvchilari (Molyer – «Xasis») ijodiga g`oyat kuchli ta`sir ko`rsatadi.

Plavt o'z faoliyatini faqatgina komediya doirasi bilan chegaralagan va, eng muhimi, asarlarining deyarli hammasi bizga qadar yetib kelgan birinchi Rim komediyana shoiridir. Bundan tashqari, uning asarlari yunon yangi komediyasi vakillarining ijodiga doir juda ko'p masalalarni aniqlashda ham asosiy manba vazifasini ado etadi. Xuddi yangi komediya vakillarining asarlarida bo'lganidek, biz Plavt komediyalarida ham muttasil bir toifa qahramonlarini-keksa otalar, ularning o'g'illari, ma'shuqa qizlari, qo'shmachilar, sudxo'rlar, askarlar, baloxo'rlar (parasitlar) va qullarni uchratamiz. Bu shaxslar orasida shoir diqqatini o'ziga ko'proq jalb etgan qahramon, albatta quldir. Plavt hamma personajlarga nisbatan qullarni allaqanday samimiyat va ishq muhabbat bilan har tomonlama mufassal va turli-tuman qiyofada ko'rsatishga urinadi. Shu sababli uning asarlarida qullar toifasiga mansub odamlarning xilma-xil vakillarini uchratish mumkin. Biroq yozuvchi hammadan ko'ra epchil, uddaburo, serzavq, bir kadar quv, yomonga pand berib ketadigan ayyor va, eng muhimi, aql va farosatda, ishbilarmonlikda o'z xo'jasidan allaqancha yuqori turadigan qullarni ayniqsa ko'proq yoqtiradi. Plavt asarlaridagi qullar, haqiqatan ham komediyaning yuragi, voqealarni harakatga keltiradigan asosiy kuch; qo'shmachilarni, sudxo'rlarni, maqtanchoq jangchilarni, ziqna otalarni laqillatib ketadigan ayyor, makkor; hech qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan va har qanaqa og'ir holatlardan omon chiqadigan baayni bir sarkarda; har narsaning xonasiga qarab ish ko'radigan omilkor;goh askiyabozlik, goh qiziqchilik qilib, kezi kelganda hatto uyatgaplarni ham ishlatib tomoshabinni xandon kuldiradigan masxaraboz va hokazolar.

Umuman aytganda, Plavt komediyalaridagi jamiki kulgili holatlarning yakkayu yagona ijodkori quldir.

Biroq Rim shoiri o'zining butun mehr-muhabbatini, badiiy mahoratini faqatgina qullar tavsifiga sarflab, boshqa qahramonlarni e'tibordan chetda qoldirmaydi. Masalan, u «Psevdol» komediyasidagi qo'shmachi Ballion obrazini shu qadar nodir iste'dod bilan chizganki, keyinchalik bu qahramon Rim kishilari nazarida eng razil, o'taketgan pastkash va besharm bir maxluqning timsoliga aylanib ketadi. Plavt Rim jamiyatining quyi tabaqalariga mansub bo'lmaganida, shular orasida yurmaganida, qullarning qismatini his qilmaganida, baloxo'rlar, sudxo'rlar, chayqovchilar va

shular kabi yaramas quzg'unlarga ishi tushmaganida-uning qahramonlari bu qadar hayotiy bo'lmas edi, albatta.

Plavtning she'riyat bobidagi mahorati ham yuksak taqdir va tahsinga sazovor. Biz uning asarlarida hech qachon bir vazndagi she'riy o'lchovni uchratmaymiz. Ikki qul bir-biri bilan janjallashib, turibdimi, er-xotinlar o'rtasida ran qochadimi, oshiq yigit yor vaslida fig'on chekmoqdami, ma'shuqa qiz judolik hasratiga tushib qoldimi, bir to'da yoronlar kayf-safo surmoqdami-ana shu paytlardagi kayfiyatlarni ifoda etish uchun shoir turli-tuman she'riy vaznlarni qo'llaydi.

Sahna sirlarini nihoyatda chuqur bilish ham Plavtning eng muhim fazilatlaridandir. Yuqorida aytib o'tilgan ijobiy xususiyatlar bilan bir qatorda shoir o'zining ana shu qobiliyati tufayli tomoshabinni beto'xtov kuldirishga, uning diqqatini muttasil sahnaga tortib turishga muyassar bo'ladi.

Plavtning nodir poetik mahorati uning asarlarini kattakon tekis yo'ldan yevropa sahnasiga olib chiqdi. Yangi dunyoning Shekspir, Molyer, goldoni, Lope de Vega, Bomarshe, Lessing kabi dramaturglari Plavt komediyalariga qayta-qayta murojaat qilganlar. Bu hayotiylik qahramonlarning tilida, inchunin, juda yaqqol seziladi. Shoir asarlarining birinchi betidan to oxirgi sahifalariga qadar sochilib yotgan ajoyib xalq iboralari, asrlar o'tishiga qaramay, bizni hamon maftun etadi. Plavtdan keyin yashagan mashhur Rim olimlaridan biri: «Mabodo muzalar latin tilida so'zlashishni istasalar, ular muqarrar Plavt tilini tanlashar edi», deb bejiz aytmagan. Rim shoirining so'z san'atkorligi haqida izhor qilingan bu tariqa yuksak bahoning to'g'riligiga aslo shubha yo'q.

TERENSIY

Qadimgi zamonlardan yetib kelgan ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Publiy Terensiy (taxminan 195-159 yillar) Afrikaning Karfagen shahrida tug'iladi. Bolalik chog'larida uni Rimga keltirib sotadilar. Yangi xo'jayin senator Terensiy Lukan qulbachchaning hushyor, serzehn bola ekanligini sezib, zamonasiga nisbatan unga yaxshi bilim beradi va keyinchalik o'z oilasining a'zosi sifatida Terensiy nomi bilan qullikdan ozod qiladi. Zodagonlar xonadoniga

mansubligi tufayli, Terensiy mo`tabar a`yonlar, madaniyat ahllari doirasiga yaqinlashadi va o`z davrining mashhur ma`rifatparvari, yunon madaniyatining otashin muxlisi, Karfagenning bo`lgusi fotihi Kichik Ssipion hamda uning do`stigay Leliy bilan birodar tutinadi. Yunon madaniyatini benihoyat sevgan Terensiy Afina sayohatiga jo`naydi va u yerdan qayta turib, yo`lda halok bo`ladi.

Terensiy ham xuddi o`zining ulkan zamondoshi Plavt singari faqatgina komediya yozish bilan cheklangan. Shoirning adabiy faoliyati atigi olti yil davom etadi. Shu qisqa muddat ichida Terensiy oltita komediya yozgan. Bularning barchasi bizga to`la holda yetib kelgan.

Madaniyatli aristokrat doiralarida tarbiya olgan va shularning hayoti bilan yashagan Terensiy, o`zining adabiy faoliyatida shubhasiz ushbuguruhning g`oya va maslaklarini ifoda etgan. Plavtning hamma asarlari, asosan, Rim aholisining quyi tabaqa kishilari talabiga moslanib yozilgan bo`lsa, Terensiy asarlarida ko`proq aristokrat tomoshabinlarning ehtiyojlari ko`zda tutiladi. Shu sababli Terensiy yunon yangi komediyasdaing vakillari ijodiga murojaat qilar ekan, uning diqqati, avvalo, o`zi kabi aristokrat sinf kuychisi Menandrning jiddiy, boadab komediyalarida to`xtaydi va ularni andaza bilib Rim sahnasiga ko`chiradi. Bu sohada Terensiy ham Plavt izidan borganu, lekin har ikkala shoirning yunon komediyanaavlari asarlariga yondashuvida jiddiy tafovut bor. Chunonchi, Plavt Menandr asarlaridan deyarli tamomila foydalangan emas. Boshqa shoirlarning komediyalarini tanlaganda ham, ularni istaganicha o`zgartirib, o`zidan qiziq-qiziq voqealar, g`alati hodisalar, kulgiligaplar qo`shib, ba`zan, hatto asl nusxaga tamomila o`xshamagan, ammo Rim tomoshabini tabiatiga monand butunlay yangi va mustaqil asar yaratadi. Shu sababli teatr shinavandalari sevimli shoirning asarlarini zavq bilan tomosha qilganlar.

Bu jihatdan Terensiy mutlaqo boshqa yo`ldan boradi. To`g`ri, bu shoirda ham yunon komediyalarini Rim sahnasiga moslashtirish mayli bor, lekin u mumkin qadar asl nusxa g`oyasini, badiiy xususiyatlarini, kompozitsion tuzilishini, qahramonlar qiyofasini, ayniqsa originalning jiddiy ruhini o`zgartirmaslikka harakat qiladi. Shu xusudan Plavtning masxarabozliklarga to`la maroqli asarlariga odatlanib qolgan Rim tomoshabiniga Terensiyning komediyalari ancha sovuq, ruhsiz tuyulgan, shoir ularga manzur bo`lmagan.

Masalan, Terensiyning eng yaxshi asarlaridan biri hisoblanmish «Qaynana» komediyasi ikki marta muvaffaqiyatsizlikka uchraydi: asar birinchi marta 165 yili sahnaga qo'yilganida, tomosha tugamasdan odamlar dorbozni ko'rgani ketib qoladilar, 161 yili yana shu ahvol ro'y beradi: bu safar tomoshabin teatrni tashlab, gladiatorlar jangiga yuguradi.

Terensiy ijodining xususiyatlarini ko'rsatish uchun ana shu «Qaynana» komediyasini ko'zdan kechiramiz.

Pamfil ismli bir yigit Vakxida degan satang xotinni g'oyat qattiq sevadi. Ular umrbod bir-birlaridan ajralmaslik to'grisida ahdu paymon qilganlar. Biroq Pamfilning otasi Laxet qo'yarda-qo'ymay o'z o'g'lini yonlaridagi kekxa Fidipning qizi Filumenaga uylantiradi. Otasining yuzidan o'tolmasdan sevmagan qizni olishga majbur bo'lgan Pamfil, to'ydan keyin ham ma'shuqasidan ayrilmaydi, nafsoniyati ozor topsa zora ketib qolar, degan niyatda hatto rafiqasiga iltifot ham qilmaydi. Ammo Filumena eridan ko'rgan xo'rliklarga bardosh beradi. Filumenaning beozor, yuvosh tabiatini, vafodorligini ko'rgan yigitning ko'ngli asta-sekin o'zgarib, bora-bora xotini bilan totuvlashib ketadi, ma'shuqasini unutadi. Xuddi shu asnoda Pamfilning bir qarindoshi vafot etib, yigit bir necha kun Afinadan ketishga majbur bo'ladi. Eri jo'nagandan keyin ozgina vaqt o'tar-o'tmas, Filumena ham, go'yo qaynanasi Sostrataning dastidan bu uyda turolmasligini bahona qilib, otasinikiga ketib qoladi. Vaholanki Sostratada hech qanday ayb yo'q. Aksincha, u nihoyatda yaxshi, keliniga mehribon bir xotin edi. Filumenaning qilmishidan g'oyat og'ir aziyat chekkan va o'g'lining turmushi buzilib ketishidan xavotirlangan qaynana, kelinini qaytarib kelish niyatida, qudasinikiga boradi. Biroq Filumena kampirni uyiga kiritmaydi ham.

Safardan kaytgan Pamfil voqeani eshitib, darhol qaynatasinikiga yuguradi va bexosdan xotinini to'lg'oq tutib turgani ustidan chiqib qoladi.

Ma'lum bo'lishicha, to'ydan bir oz ilgari noma'lum bir yigit Filumenani zo'rlab qo'rgan. Qizning onasi Mirrina bu musibatni hammadan yashirgan, hatto eriga ham aytmagan. U endi kuyoviga yolborib, Filumenaning boshiga tushgan sharmandalikni ovoza qilmasligini, xotini bilan ajralib ketsa hamki, bechora qizni sharmisor etmasligini o'tinib so'raydi. Pamfil, qaynanasini tinchitish niyatida sirlarni xufiya saqlashga rozi bo'ladi-yu, ammo rafiqasi bilan qayta

topishish xayolini miyasidan tamoman chiqarib tashlaydi. Pamfil haqiqatan ham or-nomusli, shafqatli odam. Yozuvchi kahramonning ayni soatdagi ruhiy alamlarini – vijdon bilan g`azab, sevgi bilan xiyonat o`rtasidagi tortishuvlarni-g`oyat ustalik bilan tasvir etadi. Yigit xotinining oqibatsizligidan qanchalik ranjimasin, lekin uning qilmishini, hattoki onasidan ham yashirib, hamma mojaroni, yolg`ondan, kelin bilan qaynananing chiqisha olmaganliklariga yo`yadi. O`g`lidan bugapni eshitgan beozor kampir, bordiyu kelini shunday degan bo`lsa, yoshlarga xalaqit bermaslik uchun ularni xoli qoldirib eri bilan qishloqqa ko`chib ketishga ham tayyor. Pamfil xotin deb onadan yuz o`girishni o`ziga op bilgandek, bu taklifni rad etadi va rafiqasi bilan uzil-kesil orani ochiq qilib kelganini onasiga bildiradi. Har ikkala erkak quda ham barcha aybni xotinlariga qo`yib, ularni rosa koyiydilar. Shu bilan birga er-xotin o`rtasiga sovuqchilik solgan asosiy aybdor Pamfilning eski o`ynashi Vakxida satang bo`lsa kerak, debgumon ham qiladilar, har qalay, Pamfil hanuz o`sha bilan aloqani uzmaganu, bu sirdan xabardor bo`lib qolgan Filumena nomusiga chidolmasdan, xoynahoy, otasinikiga ketib qolgan. Ikkala chol shu qarorga kelib, Vakxidani chaqirtirishadi va yoshlarning baxt-saodatini o`rtaga qo`yib, bundan buyon Pamfil bilan uchrashmasligini iltimos qiladilar. Vakxida, keksalarning talablariga javoban, to`ydan keyin eski munosabatlarning butunlay uzilib ketganligini aytadi. Bu xushxabarni sobiq mahbubaning o`z og`zidan eshitib, xotinlar ham, zora murosaga kelsalar, degan umid bilan ikkala quda Vakxidani Filumena huzuriga kiritadilar. Vakxida ayollar bilan suhbatlashib, ularning Pamfil haqidagi hamma shubhalari noo`rin ekanliginigapirib o`tirganida, Mirrinaning ko`zi bexosdan satang xotinning qo`lidagi uzukka tushib qoladi. Ajabo, qiziq zo`rlangan kechasi nobakor yigit tortib olgan uzukning o`zginasi-ku! Taajjubda qolgan Mirrina hayajonini sezdirmasdan, yotig`i bilan bu uzuk qanday qilib Vakxidaning qo`liga tushib qolganini so`raydi. Keyingi savol-javoblardan ma`lum bo`lishicha, Pamfil bir kun, shirakayf paytida uzukni Vakxidaga hadya etgan va uni qay yo`sinda qo`lga kiritganligini ham aytib bergan ekan. Shunday qilib, Filumenani zo`rlagan yigit Pamfilning o`zi ekanligi, bola ham uning o`zidan tug`ilganligi aniqlanadi, er-xotin yana topishadilar, sir-asror oshkor bo`lmaydi.

«Qaynana» komediyasi mazmun jihatidan Menandrning «Hakam sudi» pyesasiga oʻxshaydi. Bu yerda ham oʻzining boʻlgʻusi rafiqasini zoʻrlab qoʻygan yigitni, er-xotin oʻrtasidagi sovuqchilikni koʻrib kulfat chekkan ota-onalarni, bevaqt tugʻilgan bolaning kimniki ekanligini aniqlashda halol xizmat qilgan olijanob satang xotinni koʻramiz. Asardagi qahramonlarning hammasi oddiy odamlardir. Bularning xulqida gʻayri insoniy hech qanday xislatlar yoʻq: ularning yaxshiliklari ham, yomonliklari ham turmushda har qanday shaxsning boshidan kechishi mumkin boʻlgan hodisalardir. Chunonchi, Pamfilning tabiatida, xatti-harakatlarida yoshlik beboshliklari bilan bir qatorda chinakam sevgi, odamgarchilik, vafodorlik, or-nomus, shafqat tuygʻulari ham bor; jamiyat kishilari nazarida yaramas xislatlarning timsoli boʻlib qolgan Vakxida kabi satanglarning dili eng yuksak ezgu hislardan mahrum emas. Aslida oʻzlari yaxshi, ammo nojoʻya ishlari bilan ogʻir vaziyatga tushib qolgan ana shunday odamlarga nisbatan tomoshabin dilida xayrixohlik tuygʻularini uygʻotish yozuvchining asosiy maqsadidir.

Asar mazmuni bayonida biz hech qanday maroqli qiziq voqealarga duch kelmaymiz, keskin intrigalarni uchratmaymiz. Komediya Psevdolga oʻxshagan abjir, gapdon, masxaraboz qullar, laqma otalar, maqtanchoq askarlar, tumshugʻidan ilinadigan qoʻshmachilar ham yoʻq. Binobarin bu asar komediya emas, balki koʻproq dramaga oʻxshab ketadi. Plavtga odatlanib qolgan va uning asarlarini koʻrganda betoʻxtov kulgan tomoshabin «Qaynana» komediyasidan mamnun boʻlmas edi, albatta. Bas, shunday ekan, pyesani koʻrmay, dorbozlikni tomosha qilgani ketib qolgan tomoshabinni ham ayblab boʻlmaydi.

Yoshlarning ishq-muhabbat savdolari natijasida otalar bilan bolalar oʻrtasida sodir boʻladigan ixtilof va nizolar, umuman, yangi komediya vakillarining ijodida va, xususan, Menandr asarlarida juda muhim oʻrin tutgan. Menandr mazkur ixtiloflarni koʻpincha yirik problemalar darajasiga koʻtarib, shular atrofida turli-tuman oilaviy, tarbiyaviy masalalarni yechadi. Bu masalalar keyinchalik Terensiy ijodiga ham aynan koʻchib, Rim shoiri asarlarida keng muhokama qilinadi. Tarbiya muammolariga bagʻishlangan shunday asarlardan biri – «Ogʻa-inilar» komediyasidir.

Demeya ismli badavlat bir dehqonning Esxin hamda Ktesifon degan ikkita oʻgʻli bor. Demeyaning shaharda istiqomat qiluvchi,

uylanmagan kekxa savdogar akasi Mikion, inisining to`ng`ichi Esxinni o`g`il qilib oladi. Anchagina rejali, ehtiyotkor va birmuncha qattiq qo`l Demeya Ktesifonni eskicha, qo`rqituv, tergov usullari bilan tarbiya qiladi, uni erkalatmaydi, taltaytirmaydi, pulga o`rgatmaydi. Tarbiya ishlarida odamparvarlik g`oyalariga amal qilgan Mikion esa, aksincha, o`z asrandisini erkin ushlaydi; uning dilida hamiyat, diyonat tuyg`ularini uyg`otishga harakat qiladi; samimiyatga, rostgo`ylikka o`rgatadi, hattoki, ba`zi bir sho`xliklari uchun koyimaydi ham. Bolani bu tariqa bo`sh tutish orqasida uning yomon yo`lga kirib ketishi muqarrar ekanligini aytib, Demeya tez-tez akasini g`azablab turar edi. Demeya Ktesifonni qanchalik qattiq ushlamasin, nechog`li kutkilamasin, bola otasining ko`zini chalgitib, oshnalari bilan vaktichog`lik qiladi, shu kezlarda, hatto, bir qo`shmachini qo`lidagi qizni sevib ham qolgan. Oshiq yigit o`z ma`shuqasini sotib olib, uni tutqunlikdan qutqarishni istaydi-yu, ammo pul topishning aslo iloji yo`q. Qo`shmachini yaqin fursatda qizni boshka uzoq shaharga jo`natishi kerak. Yigit ham uning orqasidan yo`lga chiqishga qaror qilgan. Bu xabarni eshitgan Esxin ukasini og`ir ahvoldan qutqarish maqsadida qizni o`g`irlab qochadi. Uning qaltis sho`xligi katta shov-shuvlarga sabab bo`ladi. Demeyaning qulog`iga ham borib yetadi, bolaning nojo`ya harakatlarini bo`sh va noto`g`ri tarbiyaning oqibati deb tushungan Demeya, akasini qattiq urishadi. Biroq Esxin satang qizni ukasi uchun o`g`irlab ketganini eshitgach, o`zining tarbiya usullari yaxshi natija bermaganligiga iqrar bo`ladi.

Qizni o`g`irlab ketish natijasida yana bir ko`ngilsizlik ro`y beradi. Gap shundaki, Esxin bilan Pamfila degan bir kambag`al qiz ko`pdan beri bir-birlarini sevishardi. Pamfila hatto homilador, yaqin kunda bola ko`rishi kerak. Esxin o`zining ma`shuqasiga uylanish to`grisida qat`iy bir qarorga kelib qo`ygan bo`lsa-da, uyalganidan to shu kunga qadar bu sirni otasiga aytolmagan. Esxinning fohishaxonadagi to`polonlari Pamfilaning qulog`iga ham yetadi. Ma`shuqa qiz, sevganim meni tashlab boshqani topibdi, degan hayolga borib, qattik qayg`uradi. Bu voqea uning oilasini ham tashvishga solib qo`yadi. Keyingi sirlardan xabardor bo`lib qolgan Mikion, kiz kambag`al bo`lishiga qaramay darhol to`yga rozilik beradi. Shunday silib, Mikionning odamparvarlik g`oyalari asosiga

qurilgan tarbiya usuli tantana qiladi, hammaning mushkulini osonlashtiradi. Demeyaning usuli esa barbod bo'ladi.

Biroq asarning oxirida Demeya bilan Mikionning vaziyatlari to'satdan keskin o'zgarib ketadi: Demeya akasini kalaka qilib, qo'yarda-qo'ymay, keksayib qolgan yangi qudag'ayiga uylantiradi va shu harakati bilan, Mikion o'zining bo'shangligiga, ko'ngilchangligiga va irodasining sustligiga ko'ra tarbiya sohasida shunday beozor usulni qo'llagan, demoqchi bo'ladi va boshqalar nazarida matonatli kishi sifatida bir qadar mavqe orttiradi. Umuman, salbiy qiyofadagi Demeyani asar pirovardida bunchalik ijobiylashtirib yuborish, Terensiy foydalangan Menandr asarining g'oyasiga butunlay teskaridir. Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, Menandrning «Og'a-inilar» komediyasidagi odamparvarlik g'oyalarga asoslangan erkin tarbiya prinsiplarini konservativ kayfiyatlardan qutulib ulgurmagan Rim tomoshabini hozircha yaxshi tushunmas va bolani bu tariqa tarbiya qilish usuliga shubha bilan qarar edi. Shu sababli Terensiy Rim kishisining saviyasini nazarda tutib, originalning oxirini birmuncha o'zgartiradi va tarbiya ishlarida har ikkala usulni, ya'ni qattiqqo'llikni ham, erkinlikni ham me'yorida qo'llash ma'qulroqdir, degan g'oyani oldinga suradi.

Yuqorida tahlil qilingan har ikkala komediyada Terensiy ijodining barcha xususiyatlarini yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun qolgan to'rtta asarni-«Androsli qizlar», «Jafokash», «Axta qul» va «Formion»ni tekshirib o'tirmasdan, shoir ijodining umumiy tavsifiga ko'chamiz.

Terensiy o'zining ulug' ustози Menandr izidan borib, barcha asarlarida avvalogumanizm g'oyalarini talqin etadi. Ota-bolalar, er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi, odamlarga shafqat, ayollarga himmat, gumrohlarga muruvvat ko'rsatish g'oyalari-shoir ijodining asosiy mavzuidir. Rim adabiyotiga endigina kirib kelayotgan mana bu muhim masalalar, buning ustiga Terensiy asarlarining jiddiy tusi, Rim aholisining ko'pchilik qismiga ancha murakkab tuyuladi, binobarin, shoir o'z zamondoshlari qoshida Plavt darajasida e'tibor qozonolmaydi. Biroq, yunon madaniyatiga hurmat bilan qaragan o'qimishli aristokrat doiralarda Terensiyning martabasi ancha baland bo'lgan, keyinchalik imperiya zamonlarida uning shuhrati yana ham kengroq yoyiladi. Yirik-yirik qalam ahllari shoirdan ilhom oladilar, ko'pgina adabiyotshunos olimlar uning

asarlarini har tomonlama tekshiradilar, sharhlaydilar, tafsir etadilar. Terensiy asarlarining to'la holda bizga qadar yetib kelganligining boisi ham shundadir.

Shoir ijodiga bo'lgan munosabatlarni bu tariqa o'zgartirib yuborgan ko'pgina sabablar bor. Yuqorida aytganimizdek, Terensiy ba'zi jihatlardan Plavtga qaraganda ancha «zaif» bo'lsa ham, birmuncha tomondan ulug' zamondoshiga nisbatan bir qadar «baland» turadi. Bu holat Terensiy asarlarining kompozitsion qurilishida, qahramonlarning tavsifida, ularning tilida juda yaqqol seziladi. Shoir o'z komediyalarining ayrim qismlarini bir-biriga juda katta ustalik bilan bog'laydi, asarlaridagi voqealarning tadrijida puxta izchillik, intrigalarning rivojida chinakam haqiqat bor. U hech qachon asarning maroqli bo'lishini ko'zlab Plavt singari, optiqcha pardalar kiritmaydi, biron qiziqgap yoki bachkana nayrangbozlik bilan tomoshabinni kuldirish niyatida asarning voqeasiga aloqador bo'lmagan keraksiz qahramonni qo'shmaydi; dag'al, qo'pol, ayniqsa uyatligaplardan o'zini ehtiyot tutadi; umuman, jiddiylikka, bama'nilikka katta e'tibor beradi. Qahramonlarning xarakterini ochish mahorati, barcha voqealarni badiiy jihatdan ishonarli qilib tasvirlash, jamiki asarlarga xos bo'lgan ajoyib ichki uyg'unlik va, nihoyat, uslub bobidagi nodir san'atkorlik, tilning nafisligi, sofligi-Terensiy ijodining asosiy fazilatlaridandir.

Rim kishisining axloqini ko'tarishda, oila munosabatlarini yaxshilashda, badiiy didning shakllanishida, adabiy tilning rivojida-Terensiy komediyalari shubhasiz katta rol o'ynagan.

AVGUST DAVRI RIM ADABIYOTI DAVRNING IJTIMOIIY VA MADANIY AHVOLI

Eramizdan oldingi 31 yilda Yunonistonning g'arbi-janub qirg'og'idagi Aksium jangida Oktavian qo'shinlarining Antoniy qo'shinlari ustidan g'alaba qozonishi natijasida eski respublika tuzumi tamomila yemirilib, Rim tarixining yangi davri – yakka hukmronlikka asoslangan imperatorlik saltanati boshlanadi. Oktavian joriy qilgan yangi idora usuli Rim quldorlarini harbiy diktatura asosida jipslashtirish va mavjud ijtimoiy tuzumni halokatdan saqlab qolish talablari bilan taqozo etilgan eng so'nggi choradir. Bu

diktaturaning tig'i faqat dahshatli qullar qo'zg'oloni, demokratik guruhlarining noroziliklarigagina emas, shuningdek, shuhrat va mansab yo'lida ichki ixtiloflarni qo'zg'atuvchi ayrim aristokratlarning fitnalariga ham qarshi qaratilgan edi. Quyi tabaqalarning ko'magida va, go'yo, shuguruhning manfaatlarini ko'zlovchi bir jonkuyar sifatida ish boshlagan Oktavian ham, o'zidan oldin o'tgan Sulla, Pompey, Sezar va boshqalar kabi hokimiyat tepasiga chiqib olgach, ilgari va'dalarini unutilib, tez kunda yirik quldorlar va senat aristokratlari tomoniga og'ib ketadi, biroq Rim jamiyatidagi turli ijtimoiyguruhlarini cho'chitib yubormaslik uchun mo'tadil siyosat qo'llaydi: to'satdan diktatorlik yo'lga o'tib, barcha idora ishlarini o'z qo'lga olmaydi, respublika sistemasini o'zgartirmasdan eski ma'muriy muassasalarni aslicha qoldiradi. O'zini esa faqat prinsipe, ya'ni birinchigrajdandin deb atash bilan qanoatlanadi. Oktavian tomonidan joriy etilgan bu tadbirlar yolg'iz ehtiyotkorlik yuzasidan qilinayotgan rasmiy choralar edi, xolos. Haqiqatda nomiga saqlab qolingan respublika idoralari har sohada yakka hukmronning istak va manfaatlariga monand ish tutadi: senat unga ulug' ehtiromlar ko'rsatadi, yangidan-yangi mansab va lavozimlar hadya qiladi. Chunonchi, Oktavianning tug'ilgan kuni, harbiy g'alabalari tarixi butun mamlakat bo'ylab bayram namoyishlariga aylantiriladi; Senat binosida uning ishlarini bayon qiluvchi oltin lavhalar o'rnatiladi; o'ziga birin-ketin konsul, imperator, xalq tribuni unvonlari beriladi; Italiyaning turli shaharlarida va viloyatlarida unga muhtasham haykallar o'rnatiladi va, nihoyat, senatning qarori bilan Oktavianga shu paytga qadar hali tarixda ko'rilmagan Avgust, ya'ni muqaddas, ma'budvash degan nom beriladi. Ichki urushlarga xotima berib, mamlakatda osoyishtalik o'rnatgan xaloskor, xalq turmushini farovonlashtirgan g'amxo'r «yurt otasi», respublika tartiblarini tiklagan hurriyatparvar sifatida Rim jamiyatining oliy tabaqalari Oktavianni ko'klarga ko'taradilar.

Rasmiy ravishda respublika tuzumini joriy etgan Avgust, eski urf-odatlarini, diniy aqidalarni, axloq va odob normalarini ham qayta tiklashga harakat qiladi, hatto Rim kishisining shaxsiy hayotiga ham daxl qilib, oilaning sog'lom, er-xotinlarning bir-birlariga halol bo'lishlariga katta e'tibor beradi. Oktavian Avgust o'zining saltanatini eski respublika tartiblariga, ota-bobolarning rasm-

udumlariga qaytishning aynan o`zginasi ekanligini isbotlashga nechog`li urinmasin, Rim jamiyatining ko`pchiligi bu siyosatning boshdan oyoq respublikachilikka qaraganda ko`proq Sezarning hokimi mutlaqlik siyosatiga yaqin turganligini yaxshi tushunar edi. Biroq qariyb yuz yil davom etgan ichki urushlardan tinka-madori qurigan barcha Rim xalqi, ayniqsa dehqon ommasi, mamlakatda o`rnatilgan osoyishtalik vajidan Avgustning diktatorlik siyosatiga ko`nikib ketadi. Hatto uning asriga «oltin davr» deb nom beriladi.

Zamonasining anchagina o`qimishli kishisi va san`at ishlariga bir daraja yaqin turgan Avgust, adabiyotning kattakon targ`ibotchilik imkoniyatlarini yaxshi tushunadi va hokimiyatni qo`lga olgan kunlaridan boshlab, o`zining idora usullarini xalq ommasiga ma`qul qilish maqsadida shu imkoniyatlardan keng suratda foydalanishga kirishadi. Bundan tashqari hukmronning ba`zi bir yaqin amaldorlari ham shu davrning yirik adiblarini o`zlariga jalb etib, ularning qalamlarini yangi tartiblar tomon yo`naltirishga harakat qiladilar. San`at va adabiyot ishlarini uyushtirishda mehnatlari singgan va shu yo`lda Avgustga juda katta xizmat ko`rsatgan kishilar orasida eng mashhurlari Korvin Massala, Asiniy Pollion hamdagay Silniy Metsenatdir. Bulardan imperatorning eng yaqin maslahatchisi va adabiy ko`makdoshi albatta Metsenat bo`lgan. Nomi keyinchalik san`at va adabiyot homiysi timsoliga aylanib ketgan bu odamning o`zi ham uncha-muncha she`r yozar, adabiy harakatlarga yaqindan qatnashar edi. Metsenat Vergiliy hamdagoratsiy kabi shoirlarning ulug` talantini payqab, shular ishtirokida maxsus yozuvchilar to`garagi tashkil qiladi. Rim hayotining badiiy ijod markazi hisoblangan bu to`garak yangi imperiya adabiyotining shakllanishi va rivoj topishida benihoyat muhim rol o`ynaydi. Umuman aytganda, bu davrdagi shoirlarning deyarli hammasi o`z asarlarida Avgust tomonidan o`rnatilgan yangi tartiblarni olqishlaydilar. Binobarin, respublika tuzumidan imperatorlik sistemasiga o`tish paytidagi adabiyotning asosiy xususiyati madhiyabozlikdan iboratdir. Ammo, shunga qaramay, Oktavian zamonasi, Rim poeziyasining badiiy jihatdan bemsil yuksak darajalarga ko`tarilgan «oltin davri» bo`lgan. Darhaqiqat Avgust saltanati yillarida ijod qilgan Vergiliy, goratsiy, Ovidiy kabi ulug` shoirlar o`zlarining asarlari bilan Rim poeziyasining klassik davr yunon adabiyotidan qolishmaydigan va keyinchalik jahon adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta`sir o`tkazishga

qodir bo'lgan kamolot bosqichiga olib chiqadilar. Imperatorlik tuzumining dastlabki davrlaridagi Rim poeziyasi badiiy mahorat bobida nechog'ligurkiragan bo'lmasin, biroq masalaga ma'no va mazmun jihatidan, siyosiy aktuallik, zamonaviylik va xalqchillik nuqtai nazaridan qaraganimizda, Rim adabiyoti yunon ada-biyoti bilan va, xususan, V asr yunon dramaturgiyasi bilan zindor-zinhor tenglasha olmaydi. Bundan tashqari, imperiya davrida so'z erkinligiga xotima berilishi natijasida adabiyotning birmuncha turlari kundan-kunga susayib, keyinchalik tamomila oyoqdan qoladi. Bu sohada notiqlik san'ati, ayniqsa mavqeini yo'qotadi. Respublika yillaridagi siyosiy kurashlar paytida benihoyatgurillab ketgan bu janr o'zining o'tmish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib, quruq bir safsatabozlikka, maktab mashqiga aylanib qoladi. Shuningdek, adabiyotning eng ommabop turi hisoblangan dramaturgiya ham Avgust zamonasida ortiq taraqqiy eta olmaydi. Xullas, Oktavian saltanati yillaridagi adabiyotga nisbatan qo'llaniladigan «oltin davr» iborasini poeziyadan boshqa janrlarga tatbiq etish aslo mumkin emas. Bordi-yu, xuddi respublika yillarida bo'lgani kabi, imperatorlik davrida ham adabiyotga birmuncha erkinlik berilganida, Avgust siyosatini qoralovchi asarlarning paydo bo'lishi shubhasiz edi. Ehtimol, bunday asarlar bo'lgandir, afsuski, ular bizga qadar yetib kelmagan.

VERGILIY

Imperatorlik davrining bayroqdori, Rimning eng ulug' shoiri Publiy Vergiliy Maron eramizdan oldingi 70-yilda Italiyaning shimoliy chismidagi Mantuya shahri yaqinida tug'iladi. Shoirning ota-onalari haqida aniq ma'lumot yo'q. Har holda ularning sarbast faqir kishilar bo'lganliklari, keyinchalik ro'zg'orlarini birmuncha ko'tarib, bemalolroq hayot kechira boshlaganliklari shubhasizdir. Shu sababli bo'lsa kerak, Vergiliy oldin Kremonda, so'ngra Milan, Rim shaharlarida durustgina tahsil oladi; zamonasining yoshlari singari ritorika, falsafa bilimlarini, ayniqsa adabiyotni har tomonlama mufassal o'rganadi. Biroq tabiatining yumshoqligi, uyatchanligi, shahar hayotini yoqtirmasligi va, eng muhimi, notiqlikka hech qanday qiziqish va iste'dodning bo'lmaganligi

vajidan faqat bir marta sud ishida qatnashib tez kunda o'z yurtiga qaytib keladi-da, xoli vaqtlarini adabiyotga bag'ishlab, otasidan qolgan bir parchagina yerda dehqonchilik bilan kun kechira boshlaydi. Ammo shoirning sokin hayoti uzoqqa cho'zilmaydi. 41 yili Oktavian Avgust o'zining muzaffar qo'shinlarini Italiyaning shimoliy viloyatlaridagi yerlarga joylashtirganida Vergiliyning mulki ham musodara qilinadi. Bu paytlarga kelib she'riyat olamida ancha ko'zga ko'rinib qolgan Vergiliyning ba'zi mansabdor muxlislari (Pollion, Metsenat) shoirga iltifot ko'rsatib, turli-tuman in'om va ehsonlar bilan uning ko'nglini oladilar. Shular vositasida Vergiliy Oktavian bilan tanishadi, zamonasining baobro' va badavlat kishisiga aylanadi. Haddan ziyoda kamtar, beg'ubor qishloq hayotini benihoyat sevgan, mansab va shavkatni yoqtirmagan Vergiliy, Rimning serhasham va sertakalluf hayotidan qochib, ko'proq Italiyaning janubiy qirg'oqlarida, Sitsiliyada yashaydi. Shoir Avgust saltanatiga, shubhasiz, chuqur samimiyat va xayrxohlik bilan qaragan. Uzoq yillik ichki qirg'inlarga xotima bergan, mamlakatda osoyishta hayot o'rnatgan va, buning ustiga, eski udum va odatlarni tiklashga, axloq va odobni ko'tarishga uringan Avgust, patriarxal-konservativ ruhdagi Vergiliyning dilida, shubhasiz, hurmat va ehtirom tuyg'ularini uyg'otar edi. Binobarin, Vergiliy bundan buyon o'z asarlarida Avgust saltanatini kuylovchi, uning ishlarini tarannum etuvchi ulug' saroy shoiri darajasiga ko'tariladi.

Vergiliy hammasi bo'lib uchta asar yozgan. Bulardan birinchisi «Bukolikalar» (cho'pon she'rlari), ikkinchisi «Georgikalar» (dehqon she'rlari) va uchinchisi «Eneida» dostonidir. Mazkur asarlardan tashqari Vergiliy nomi ostida bizga qadar «catalepta», ya'ni «mayda-chuyda she'rlar» deb ataluvchi yana bir to'plam ham yetib kelgan. Bu to'plamga kirgan she'rlarning ko'pchiligi neoteriklar, ayniqsa, Katull usulida yozilgan turli-tuman vazndagi she'riy asarlardan iboratdir. Biroq «catalepta» to'plamining avtori chindan ham Vergiliy bo'lganligini aniqlash juda qiyin. Bundan qat'iy nazar, Vergiliy o'zining ulug' shuhratiga, shon-shavkatiga faqat oldingi uchta asar tufayli erishadi. Uning jahon poeziyasida abadiy barhayot qolishini shular ta'minlaydi.

«Eneida» dostonining voqealari bo'lib o'tgan yerlar bilan tanishish maqsadida eramizdan oldingi 19 yilda Vergiliy Yunoniston hamda Kichik Osiyo safariga jo'naydi. Biroq salomatliginiig

zaifligidan yo`l mashaqqatlarini ko`tarolmay, Afinada og`rib qoladi va tezlik bilan orqasiga qaytib, arang yurtiga yetib keladi va tez kunda dunyodan o`tadi.

Vergiliyning birinchi yirik asari «Bukolikalar» o`nta she`rdan iborat to`plamdir. Bu to`plamga kiritilgan she`rlarni ko`pincha eklogalar, ya`ni she`riy parchalar deb ham ataydilar. Biz bularning deyarli hammasida ellinizm davrining atoqli shoiri, cho`ponlar hayotining ulug` kuychisi Feokritning kuchli ta`sirini sezamiz.

Rim shoiri ko`pchilik eklogalarning mazmunini, tematikasini, ayrim obrazlarni, hatto alohida misralarni ham Feokrit idilliyalaridan ko`chiradi. Uning cho`ponlari ham xuddi Aleksandriya shoirining cho`ponlari singari shaharlarning sertashvish g`alvalaridan uzoqda yashovchi, sayroqi qushlarning navosiga jo`r bo`lib, mahbubalari bilan muhabbat zavqini suruvchi, bir-birlari bilan mushoira aytishib, quyuq o`rmonlarda, yam-yashil o`tloqlarda, chashmalar bo`yida dorilamon hayot kechiruvchi oddiy odamlardir. Siz Vergiliyning aksariyat cho`ponlari og`zidan na o`zlarining ahvollaridan nolish va na zamona tartiblaridan zorlanish sadolarini eshitasiz. Ularning tuni kunlari, aksincha, xushmanzara tabiat quchog`ida, rohat va farog`atda o`tadi.

Biroq Vergiliy cho`ponlarining betashvish, osuda hayotlari osmonini ahyon-ahyonda qopa bulutlar bosadigan, ularning rohatiga vaqt-vaqti bilan kulfat va musibat oralab turadigan paytlar ham bo`ladi. Masalan, Italiyaning shimoliy qismlaridagi yerlarni Oktavian qo`shinlari foydasiga musodara qilish munosabati bilan dehqon ommasi boshiga tushgan og`ir kunlarni ba`zi eklogalarda aniq ko`rishimiz mumkin. Ma`lumki, mazkur voqealar vaqtida Vergiliyning mulki ham musodara qilingan edi. Shoir keyinchalik Avgustning iltifoti bilan o`z yerini qaytarib olishga muyassar bo`ladi. Xuddi shu masala yuzasidan yozilgan I eklogada, kekxa cho`pon Titir nomidan avtor Oktavianni olqishlaydi, xaloskor sharafiga oy sayin qurbon so`yajagini aytadi. Molibey degan ikkinchi cho`pon qo`shinlarning zulmidan va aholining noittifoqligi kasridan o`z yerini tashlab, begona yurtlarga ketayotganligi xaqida shikoyat qiladi.

«Bukolikalar» to`plamining IV eklogasi ham zamonaning aktual masalalariga bag`ishlangandir. Bu eklogada shoir tez kunda ma`budvash ajoyib bir bolaning dunyoga kelishi va shu munosabat bilan yer yuzida tinchlik, osoyishtalik va farovon hayot o`rnatilishi

haqida karomat qiladi. Bola shu qadar noyob oliy xislatlar bilan tug'iladiki, uning sharofati bilan qonli urushlar tugatilib, faqat odamlar o'rtasida emas, hatto yirtqich hayvonlar o'rtasida ham totuvlik, ahillik qaror topadi; zaharli ilonlar, gazanda hasharotlar va og'u taratuvchi yaramas o'simliklar qirilib ketadi; qaytadan boshlangan bu oltin davr odam bolasini mehnat mashaqqatlaridan ozod qiladi, butun noz-ne'matlarni tabiatning sahovatli qo'llari yetishtirib beradi: daryolarda suv o'rnida sut va sharbat oqdi, haydalmagan yerlardan g'aram-g'aram g'alla unadi, daraxtlardan oltindek xushbo'y bollar tomadi.

Bu ekloganing kimga bag'ishlanganligi yuzasidan antik dunyoda boshlangan munozaralar to shu kunga qadar tugagan emas. Ba'zi olimlar, shoir o'z asarida Asiniy Polliionning endigina tug'ilgan o'g'lini ko'zda tutgan, desalar, ikkinchilari Oktavianning homilador xotinidan tug'ilishi lozim bo'lgan bolaga bag'ishlanganligini isbotlashga urinadilar. Xristian dinining paydo bo'lishi va keyinchalik tez sur'atlar bilan yoyilishi natijasida, Vergiliy o'zining mazkur eklogasida Isoning tug'ilishini karomat qiladi, degan fikr, ayniqsa juda keng tarqalgan. Biroq bu haqda yozilgan tadqiqotlarning benihoyat ko'p bo'lishiga qaramay, masala hamon yechilmagan. To'g'risini aytganda, bu masala adabiyot tarixi uchun u qadar katta ahamiyatga ega emas. Asar kimga atalib yozilgan bo'lmasin, shoir bu yerda ham, xuddi I eklogada bo'lgani kabi o'zining eng ezgu istaklarini ifoda etadi. Ma'lumki, quldorlik jamiyatining tanglikka yuz tutishi natijasida turli-tuman diniy e'tiqodlar, taassub va afsonalar juda avj olib ketgan edi. Zamonasining iqtisodiy tangliklaridan, bema'ni urushlaridan bezor bo'lgan Rim Aishisi, rivoyatlarda hikoya qilinadigan oltin davrni uzoq o'tmishdan kelgusi yillarga ko'chirib, xayolotda ovunchoq axtaradi. Masalaning muhimligi shundaki, shoir o'zining butun orzularini bu asarda ham, asosan, yer bilan bog'lagan. Yirik quldor xo'jaliklarning tobora kengayib borishi orqasida mulkidan ayrilib xonavayron bo'lgan dehqon ommasi yana yerga qaytish, dehqonchilik bilan kun kechirish umidida yashar edi. Bu xildagi orzular shu sinfning manfaatgo'yi bo'lgan Vergiliyning asarida ham o'z ifodasini topadi. Biroq quldorlik jamiyati sharoitlarida shoirning xohishlari afsonaviy shirin xayollardan nariga o'ta olmaydi.

Umuman aytganda, «Bukolikalar» avtorining diqqat markazida turadigan asosiy masala – dehqonchilik ishlarining boshqa kasblarga nisbatan aʼloliqini, oddiy qishloq hayotininggoʻzalliklarini madh qilishdan va shu yoʻsin mayda yer egalarining manfaatlarini himoya etishdan iboratdir.

Vergiliyning birinchi asariga Feokrit idilliyalarining kuchli taʼsir koʻrsatganligini yuqorida aytib oʻtgan edik. Bu daʼvolardan xulosa chiqarib, Rim shoirining eklogalariga koʻchirma asarlar deb qarash va ularning badiiy qimmatidan koʻz yumish xato.

Vergiliy Aleksandriya shoirining ijodiga taqlid etar ekan, uning mavzularidan, adabiy usulidan oʻzicha foydalanib, Rim kishisining ahvol-ruhiyasi, kayfiyati bilan sugʻorilgan tamomila yangi asar yaratadi. Biz Rim shoirining eklogalarida Feokritning idilliyalarida boʻlgani kabi, choʻponlarning sevgi tuygʻulariga istehzo nazari bilan qarash, ularning xarakterini kinoyali tasvirlarda koʻrsatish holatlarini uchratmaymiz. Qahramonlarning muhabbat ehtiroslarini, his va tuygʻularini chuqur va keskin dramatik shaklda taʼriflash – choʻpon qoʻshigʻi janriga Vergiliy tomonidan qoʻshilgan yangi bir hissadir. Bundan tashqari Vergiliyning eklogalariga xos ajoyib mayinlik, chuqur samimiyat, tabiat manzaralari bayonidagi nafis dilbarlik va, eng muhimi, bir maromda tekis oqadigan va kishi koʻngliga orom bagʻishlaydigan ravon va ixcham misralar – Rim shoirini Aleksandriya adibidan mutlaqo ajratib turadi. Katull va Lukretsiy kabi ulugʻ shoirlardan keyin Vergiliy qalami ostida yana ham yuksak darajaga koʻtarilgan latin tili bundan buyon Rim poeziyasining benuqson klassik namunasiga aylanadi. «Bukolikalar»ning jahon adabiyoti tarixidagi asosiy mohiyati ham ana shundadir.

Vergiliyning dehqonchilik haqida yozilgan ikkinchi asari – «Georgikalar» poemasi ham mazmun jihatidan birinchi toʻplamga juda yaqin turadi. Necha oʻn yillab davom etgan ichki urushlar oqibatini tugatish, vayron boʻlgan mayda va oʻrta hol dehqon xoʻjaliklarini qayta tiklash va, umuman, dehqonchilikni rivojlantirish masalalari – yurtning osoyishtaligi, xalqning tinchligi yoʻlida qaygʻurgan chinakam vatanparvar shoirni juda qiziqtirar edi. Zamonasining dolzarb muammolaridan biri hisoblangan mazkur masalani Avgustning oʻzi ham qoʻllab-quvvatlagan, uni amalga oshirish yoʻlida koʻpgina uringan. Binobarin, Vergiliyning maqsadi

ham, yerlarini tashlab ketgan kechagi dehqonlarni yana qishloqlarga qaytarib, dehqonchilik ishlariga tortish siyosatini o`tkazayotgan Oktavian Avgustning tadbirlariga ko`maklashishdan, to`rrirog`i, bu siyosatning adabiyotdagi in`ikosidan iborat bo`lgan. Nihoyat, asarning Metsenat toshpirig`i bilan boshlanishi va shu odam bilan Oktavianga bag`ishlanishining o`zi ham, shoir bilan uning lutfikorlari o`rtasida g`oyaviy birdamlik bo`lganligidan dalolat beradi. Didaktik mazmundagi «Georgikalar» poemasi yirik-yirik to`rt qismdan iborat kattagina asardir. Bu qismlardan birinchisi g`allakorlikka, ikkinchisi bog`dorchilik hamda tokchilikka, uchinchisi chorvachilikka va to`rtinchisi asalarichilikka bag`ishlanadi. Bu asarni yozishda shoirning ko`zda tutgan asosiy maqsadi, qishloq xo`jaligining barcha sohaları bo`yicha dehqonga mukammal amaliy maslahat berish, uni mavjud agronomiya bilimlari bilan mufassal tanishtirish emas, balki qishloq hayotininggo`zalliklarini ko`rsatish, boshqa kasblarga nisbatan dehqonchilikning ma`naviy afzalligini targ`ib etishdir.

Vergiliyning jo`shqin yurak harorati bilan sug`orilgan misralarida shahar g`alvalaridan, siyosat mojarolaridan, urush tashvishlaridan uzoqda kechadigan oddiy dehqon hayoti, darhaqiqat, ajoyibgo`zallik kasb etadi. Tabiatning endigina jonlanib kelayotgan erta bahor chog`laridagi yurak nash`alarini, kurtak yozibgullarga bezanayotgan, barg chiqarib husnga to`layotgan daraxtlarni ko`rganda dillarda qo`zgaladigan latif sezgilarni nimalar bilan ham tenglashtirish mumkin! Axir, bugo`zalliklarning hammasi olihimmat, sersaxovat tabiatning dehqonga ko`rsatgan muruvvati emasmi?.. Har bir niholni ardoqlab o`stirish, ulardan noz-ne`matlar yetishtirib, rizqi ro`zingni dehqonchilik bilan terib yeyishdan ortiq baxt-saodat bormikan? Yam-yashil vodiylarda, tog` etaklaridagala-gala o`tlab, ma`rab yurgan qo`y-qo`zilarni, yelinlari tirsillab, daraxtlarning salqinida mudroq kavsh qaytarib yotgangovmish sigirlarni ko`rganda ko`zing naqadar quvonadi! Yo bo`lmasa, o`z qo`ling bilan yetishtirilgan shirin-shakar mevalarni avaylab terishgashtiga, qiyg`os pishgan yoqutdek uzumlardan tayyorlangan sharob va shinnilarning lazzatiga nimalar yetsin!

Vergiliy o`z vatanining ko`l va daryolarini, dengiz va tog`larini, har yili ikki marta hosil beradigan saxiy va yumshoq iqlimini, ayniqsa, xushmanzara bahor ayyomlarini yurak to`la

jo'shqin zavq bilan sevadi; ularni iliq muhabbat bilan tasvir etadi. Axir, dehqonchilikning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan eng monand sharoitlar shular emasmi! Nafsilamrini aytganda, yer yuzida dehqonchilikdan a'lo qanday kasb bor? Qishloq – elning chinakam boyligi, yurtning xalol tayanchidir. Butun mamlakat zahmatkash dehqonning mehnati bilan kun ko'radi; vatanni qo'riqlovchi, uning istiqbolini himoya qiluvchi sog'lom va bag'ayrat yigitlar ham qishloqda yetishadi. Biroq, afsuski, mamlakat mo'l-ko'lchiligining asosiy manbai bo'lgan dehqonchilikka bema'ni urushlar tufayli putur yetadigan, yerlarning egasiz qoladigan vaqtlari ham bo'ladi.

Asar davomida shoir necha bora Avgustni tilga olib, uning g'alabalarini, oliy fazilatlarini tarannum qilar ekan, dehqonchilik ishlarini e'tibordan qochirmasligini eslatib o'tadi.

«Georgikalar» poemasini yozishda Vergiliy o'zidan avval o'tgan yunon, Rim, ayniqsa ellinizm shoirlari va olimlari asarlaridan keng suratda foydalangan. Bu boradagesiodning alalxusus, katta ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir. Dehqonning mehnatini ulug'lash jihatidan ham har ikkala shoir bir-birlariga juda yaqin turadilar. Ammo, shu bilan birga, ular o'rtasida katta tafovut ham bor. «Mehnat va kunlar» poemasining avtori dehqon ommasining kulfat va mashaqqatlarga to'la hayotini, zolimlarning zulmidan tortgan azoblarini realistik bo'yoqlarda tasvirlagan bo'lsa, Rim shoiri qishloq hayotini afsonaviy manzaralarga bo'yab, dehqonlarni baayni rohat va farog'atda umr kechiruvchi kishilar qilib ko'rsatadi. yerlaridan ayrilib xonavayron bo'lgan dehqonlarni, og'ir mehnatda bukchaygan qullarni «Georgikalar» asarida mutlaqo ko'rmaymiz. Poemada uchraydigan bu tariqa g'oyaviy kamchiliklar, shubhasiz, shoirning dunyoqarashlaridagi nuqsonlar natijasida sodir bo'lgandir. Vergiliy vatanning boshidan kechayotgan butun musibatlarni, ayniqsa dehqonning fojiaaviy hayotini muqarrar ko'rgan-u, biroq yurtning birdan-bir xaloskori deb yolg'iz Oktavianga sig'inadi, faqatgina shundan najot kutadi. Asardagi betashvish idillik lavhalar, albatta, real hayotdan ko'chirilgan chinakam manzaralar emas, balki shoirning kelgusi haqidagi shirin xayollaridir.

Ana shu kamchiliklarga qaramay, «Georgikalar» poemasi avtorining otashin vatanparvarligi, qishloq hayotiga bo'lgan jo'shqin muhabbati, ayniqsa, dehqon ommasiga samimiy xayrixohlik bilan qarashi – asarning yuksak badiiy mahorat bilan yozilishini

ta'minlagan. Hatto boshqalarning dostonga ko'rsatgan ta'siri ham xuddi «Bukolikalar» to'plamida bo'lgani kabi, shoirning ajoyib uslubi, nafis misralari va beg'ubor tili soyasida diqqatga chalinmaydi.

Vergiliyni Rim poeziyasining cho'qqiga ko'targan, uning shuhratini yer yuziga taratgan ulug' asari «Eneida» dostonidir. Qadimgi manbalarning shahodatiga qaraganda, «Eneida» dostoni ustida Vergiliy o'n yil ishlab, asarni eramizdan oldingi 19 yilda asosan tugatadi. Poemani butunlay qo'ldan chiqarish uchun shoir yana uch yil bosim o'tirishni mo'ljallagan edi. Biroq adibning maqsadlari ushalmasdan qoladi: Yunoniston safaridan qaytib kelayotgan Vergiliy o'z ahvolining nochorligini sezib, pishib yetmagan dostonni kuydirib tashlamoqchi ham bo'lgan. Bemor tirikligida nashr qildirmagan asarlarini vafotidan keyin ham chiqarilmasligini vasiyat qilib, dunyodan o'tadi. Marhumning iltimosiga qaramay, Avgustning toshpirig'iga ko'ra, shoirning do'stlari dostonni uncha-muncha tahrir qilib chiqaradilar. Shu sababli biz poemada ba'zi bir yopishmagan o'rinlarni, vazn soxtaliklarini, qarama-qarshi holatlarni uchratishimiz mumkin. Umuman aytganda, bu kamchiliklarning unchalik ahamiyati ham yo'q. Ularning bir-ikkitasigina sezgir va sinchkov kitobxon ko'ziga tashlansa tashlanadi-yu, ammo ko'pchiligi asarning ajoyib kompozitsion uyg'unligi, voqealar bayonidagi muntazamlilik va, eng muhimi, nafis badiiy tasvirlar, go'zal misralar orasida sezilmay ketadi.

«Eneida» dostonining butun voqeasi Troya shahri tor-mor qilinganidan so'ng bosh qahramon Eneyning o'z hamrohlari bilan birga Italiyaga qarab yo'lga chiqishi, uning dengizda tortgan og'ir mashaqqatlari, nihoyat manzilga yetib kelishi, Rim davlatini barpo qilish yo'lida olib borgan kurashlari tasvirlaridan iboratdir. Asar har biri olti bobdan (qo'shiqdan) iborat ikki qismga ajratib yozilgan. Birinchi olti bob qahramonning Troyadan chiqib Italiyaga yetib kelish davrida kechirgan sarguzashtlariga, keyingisi Italiya tuprog'idagi janglariga tegishli bo'lsa kerak, deb taxmin qiladilar.

OVIDIY

Avgust zamonasining oxirgi ulug' shoiri, elegiyanavis shoirlarning eng so'nggi buyuk vakili Publiy Ovidiy Nazondir. Uning hayotiga doir ozmi-ko'pmi ma'lumotlarni biz faqat shoirning asarlaridan olamiz. Shu manbalardan ma'lum bo'lishicha, Ovidiy eramizdan oldingi 43 yilda Sulmon shahrida, qadimgi suvoriylar urug'iga mansub badavlat xonadonda tug'iladi. Ovidiy va uning akasi bolalik chog'larida Rimga kelib, davlat mansablariga tayyorlanish maqsadida barcha zodagonlarning farzandlari singari notiqlik ilmini o'rganishga kirishadilar. Biroq bu davrda so'z san'atining mohiyati tamomila o'zgarib ketgan zdi. Respublika zamonlarida atoqli davlat arboblari senat kengashlari, sud yiginlari, xalq majlislari minbaridan turib, o'zlarining maslak va g'oyalarini tashviq etgan bo'lsalar, Avgustning yakka hukmronlik siyosati sharoitlarida notiqlik hunari o'zining o'tmishdagi siyosiy va ijtimoiy qimmatini tamomila yo'qotib, faqat maxsus maktablarda o'tkaziladigan oddiy bir mashqqa aylanib qolgan edi. Bu maktablarning talabalari falsafa, tarix, adabiyot va boshqa fanlar bilan bir qatorda muallim tomonidan tavsiya etilgan turli-tuman mavzularda so'z to'qishni ham o'rganganlar. Ammo mazkur mashqlar davrning kundalik ijtimoiy masalalaridan emas, balki uzoq o'tmishdagi tarixiy voqealardan olinib yoziladigan, yo bo'lmasa yolg'onaki biron sud protsessi haqida to'qiladigan adabiy mashg'ulot bo'lgan, xolos. Shunday mavzular tajribasida ko'zi pishgan Ovidiy ilk bolalikdan tortib ritorika qoidalarini chuqur o'zlashtiradi, aforizmlardan, murakkab adabiy vositalardan foydalanish, favqulodda iboralarni ishlatish usullarini yaxshi o'rganadi va ularni o'zining kelgusi ijodida, ayniqsa, dastlabki asarlarida keng suratda iste'mol qiladi. O'qimishli Rim kishilari uchun taomil tusiga kirib qolgan madaniy an'anaga amal qilib, Ovidiy ham o'spirinlik chog'larida Yunonistonni, Kichik Osiyoni sayohat qilib qaytadi.

Shoirning aytishicha, adabiyot ishtiyoqi uning ruhida nihoyatda erta uyg'ongan bo'lsa kerak, hatto oddiy so'zlar ham yosh bolaning qalami ostida beixtiyor she'r bo'lib quyilaverarkan. Shu sababli otasi o'g'lini yozuvchilik havasidan qaytarishga nechog'li urinmasin, Ovidiy davlat mansablaridan batamom kechib, hali suyagi qotib ulgurmasdan hayotini uzil-kesil poeziyaga bag'ishlaydi va adabiyot doiralarida tez kunda ko'zga ko'rinib, Messala to'garagiga yaqinlashadi. Metsenat atrofidagi shoirlar bilan tanishadi.

Ovidiyning adabiy faoliyati uch qismdan iborat «Amores» («Ishqiy elegiyalar») to'plami bilan boshlanadi, Shu janrning taomillariga ko'ra, to'plamning bir qancha she'rlari shoirning Korinna degan ma'shuqasiga bag'ishlangandir. Korinna kim, umuman bunday ayol bo'lganmi, bo'lmaganmi – bu masalani aniqlashning aslo iloji yo'q. Ishqiy elegiyada o'rnanib qolgan taomilga amal qilib, shoir o'zining xayolida shu obrazni yaratgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emas. Ovidiy ham o'zining elegiyalarida, asosan, sevgining g'am-g'ussalari, qayg'u-hasratlari, sevinch va shodliklari haqida. Gapirib, ko'p jihatdan Tibull hamda Propertsiyning mavzularini takrorlaydi. Biroq, Ovidiyning, umuman sevgi ehtiroslariga, hayot voqealariga qarashi, shuningdek adabiy usuli tamomila boshqachadir. Ma'lumki, Ovidiydan oldin o'tgan ko'pchilik Rim shoirlari – Vergiliy, Goratsiy, Katull, Tibull, Propertsiy va boshqalar o'z asarlarida yashab turgan davrlarining bir qator nuqsonlaridan (ichki urushlar, axloqiy buzuvchiliklar) norozi bo'lib, chinakam baxt-saodatni Rim tarixining uzoq o'tmishlaridagi «oltin davr» pallalarida axtarar, o'sha «baxtiyor» kunlarning qaytib kelishini qo'msab, zamondoshlarini tabiat bag'riga chaqirar, osuda hayot makoni bo'lgan qishloq sharoitlarida umr kechirishga da'vat qilar edilar. Mana bu kayfiyatlar Ovidiy uchun tamomila begona. Shoir Rimning «baxtiyor o'tmish» tushunchalariga, Avgust tomonidan keng suratda targ'ib va tashviq qilinayotgan qadimgi patriarxal axloq va odob g'oyalariga shubha va ishonchsizlik bilan qaraydi. «Oltin davr» paytlarini shonli yillar emas, balki insoniyatning vahshiylik asri, deb ta'riflaydi va o'sha zamonlarda tug'ilmaganligi uchun o'zini baxtiyor hisoblaydi. Binobarin, Ovidiyning sevgi sarguzashtlari Tibullning muhabbati singari beg'ubor xayol osmonida, afsonalarga chulg'angan sokin tabiat bag'rida emas, aksincha Rimning kundalik hayoti, olag'ovur shahar sharoitida kechadi. Shuningdek Ovidiyning elegiyalarida Tibull hamda Propertsiy asarlarida bo'lgani kabi chuqur muhabbat tuyg'ularini, og'ir iztirob alamlarini, sevgi yo'lida fidoyilik va samimiylilikni axtarish ham befoyda. Shoirning o'z tili bilan aytganda, u faqat «Hurram muhabbatning xushchaqchaq kuychisi» bo'lgan. Ovidiyning oldingi shoirlardan yana bir katta farqi shundaki, bu adib Vergiliy ijodida boshlangan usulni davom ettirib, o'zining ijodida notiqlik san'ati qoidalaridan benihoyat keng foydalanadi va shu

yo'sin Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yo'lida yangi davrni boshlaydi.

Sevgi masalalariga yuzaki qarash, hodisalarni talqin qilish borasida oldingi shoirlardan g'oyat uzoqlashib ketish holatlariga qaramasdan, Ovidiy hech qachon o'zining hamkasb salaflariga yomon ko'z bilan qaragan emas. Aksincha, ularning mavzularidan, fikr va g'oyalaridan, hatto, alohida iboralaridan keng suratda foydalanadi. Beistisno ularning hammasini maqtaydi. Hazin tuyg'ular bilan yozilgan ajoyib bir elegiyada Tibullning bevaqt o'limi munosabati bilan shoir o'zining chuqur qayg'ularini izhor qiladi.

Ovidiy talantining barcha fazilatları – ruhiy mushohadalarning o'tkirligi, manzaralarning hayotiyliğı, tilning nafisliğı, misralarning silliqliğı, butun to'plam bo'ylab sochilib ketgan ajoyib qochiriqgaplar, hazil-mutoyibalar shu birinchi to'plamdayoq ro'yiost namoyish qilinadi, ular kitobxonni maftun etadi, avtorning nomini muhabbatning ulug' kuychisi darajasiga ko'taradi.

«Qahramon ayollar» yoki «Maktublar» deb ataluvchi ikkinchi asar ham Ovidiy ijodining ilk mahsullaridan bo'lib, mashhur-mashhur afsonaviy xotinlarning o'z oshiqclariga yozgan nomalari to'plamidan iboratdir. «Qahramon ayollar» bilan «Ishqiy elegiyalar» o'rtasida ko'p jihatdan yaqin o'xshashlik bor. Birinchi asarda muhabbat masalalarini shoir o'z tilidan bayon etgan bo'lsa, ikkinchi asarda turli sabablarga ko'ra yorlaridan ayrilib qolgan mifologik ayollar nomidan hikoya qiladi. Shu bilan birga notiqlik san'atining ta'siri yangi to'plamda yana bir daraja kuchaytirilgandir. Ba'zi manbalarningguvohlik berishicha, Ovidiy talabalik chog'laridayoq ulug' tarixiy zotlar, buyuk bahodirlar yoyinki biron uydirma shaxs tilidan so'z to'qishga juda qiziqar va bu vazifani nodir mahorat bilan bajarar ekan. Yoshlikdan shoir talantiga xos bo'lgan ana shu xususiyatning yorqin ifodasini «Qahramon ayollar» kitobida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Qahramonlarning maktubi shaklida asar yozish usuli antik dunyo poeziyasiga Ovidiy tomonidan kiritilgan yangi kashfiyot emas. Evripid tragediyasining qahramoni Fedra ham o'zining sevgisini izhor qilib, xuddi shu yo'sinda Ippolitga xat yozgan edi. Keyinchalik bu usulni Rim shoirlari Plavt, Katull, Propersiyy ham qo'llaydilar. Oshiq-ma'shuqlarning xat orqali bir-birlari bilan

soʻzlashish hodisalari, darhaqiqat, antik adabiyot tarixida ilgari ham boʻlgan-u, lekin bi-ronta shoir bu sohada oʻzining talant va mahoratini Ovidiy darajasida keng va porloq namoyish qila olgan emas. Axir, asarda yigirma bitta maktub bor. Shulardan oʻn sakkiztasi ayollar tilidan, uchta – erkaklar tilidan yozilgan. Erkaklar nomidan bitilgan xatlarni hisobga olmaganimizda, oʻn sakkizta maktubning hammasi mazmun jihatidan bir-biriga nihoyatda yaqindir. Bu nomalarning maʼshuqa mualliflari, asosan, oʻzlarining hijron dardida, rashk alamida kuyganliklari xaqida figʻon chekadilar; muhabbatning dastlabki saodatli damlarini, ahdu paymonlarini eslatib, ayriliqda ortiq toqat qolmaganligidan zorlanadilar, yor vasliga intizor ekanliklarini aytib, iltijolar qiladilar. Har bir maktub sevgining shu mazmundagi doimiy nolalari va dardu ahlamlari bilan toʻlib-toshgandir. Biroq Ovidiy iqtidorining oʻtkirliigi shundaki, bosmaqolip tusiga kirib qolgan bu tariqa sevgi nidolari uning qalami ostida har safar yangidan-yangi taronalar bilan jaranglaydi. Qahramonlarning muhabbat va ayriliq borasidagi vaziyatlari koʻp jihatdan, zotan bir-biriga oʻxshasa ham, shu qahramonlarning shaxsiy xislati, tabiati, oshiqlikning xarakteri va judolikning sabablariga qarab, shoir har qaysi maktubga yangicha maʼno, alohida ohang va oʻzgacha pardo beradi. Agar biz alamdida maʼshuqalarning xatlarini bir boshdan oʻqib chiqsak, ne-ne insoniy feʼl-atvorlar, qancha-qancha xarakterlar koʻz oldimizdan oʻtmaydi. Troya urushi tufayli oʻz eri Odisseydan ayrilib qolgan vafodor Penelopa, Ippolitning ishqida toqati toq boʻlgan serextiros Fedra, Yazondan oʻch olish qasdida yongan alamzada Medeya, sevgan yori Axilldan nohaq ajratilgan mushtipar Briseida, Eneyga koʻngil berib, soʻngra bevafoqlik dogʻida kuygan magʻrur Didona hokazo va hokazolar. Ayriliq dardini bularning hammasi har xil kechiradilar, ularning ahvoli ruhiyasi, hasrat va nadomatlar har bir xatda turlicha yangraydi. Shoirning yangi asarida jamiki vositalar – notiqlik usuli, tabiat tasvirlari, voqealarni tavsif etish tartiblari – asosan qahramonlarning ruhiy xolatlarini ochish, sevgining iztiroblarini koʻrsatish maqsadlariga xizmat ettirilgandir. Xotin kishining yuragida javlon urgan muhabbat ehtiroslarini ajoyib ustalik bilan ochish, shu ehtirosning xilma-xil ziddiyatlarini koʻrsatish borasida Ovidiy talantining aslo chegarasi yoʻq. «Qahramon ayollar» asarining soʻnmas husni, mohiyati ham shunda.

Pirovardida aytib o'tish lozimki, shoir o'z qahramonlarinigarchi qadimgi mifologik voqealardan olgan bo'lsa ham, bu davrlarda eski diniy e'tiqodlarga na avtorning o'zi va na uning zamondoshlari ishongan. Binobarin, Ovidiy bu afsonalardan faqat adabiy an'ana sifatida foydalanib, mashhur mifologik ma'shuqalar va rafiqlar niqobi ostida o'z zamonasi ayollarining qiyofasini ko'rsatish maqsadlarini ko'zda tutadi. Bu jihatdan ham asarning muhim ahamiyati bor.

Turli-tuman mavzularga, masalan, mehmon kutish, taom tayyorlash, har xil o'yinlarni uyushtirish, pardozi qilish, yasanish, hatto ba'zi kasalliklardan davolanish va boshqa masalalarga atab she'riy asarlar yozish ellinizm zamonasida keng yoyilgan edi. Odamlarga ta'lim berish maqsadlarini ko'zlagan didaktik mazmundagi bu tariqa asarlarga taqlidan Ovidiy ham o'zining «Ars amatoria» («Sevgi san'ati») poemasini yaratadi.

Avtorning aytishicha, muhabbat ma'budasi Veneraning o'zigo'yo Ovidiyini sevgi ustozini saylab, shu sohada yoshlarga ishq saboqlari o'rgatishni uning zimmasiga yuklagan emish. «Sevgi san'ati» poemasini shoir, zotan didaktik dostonlar qabilida yozgan bo'lsa ham, haqiqatda poeziyaning shu turdagi namunalarini mazax qiladi, ularning jiddiy mazmunidan kuladi.

Poema uch qismdan iborat. Oldingi ikki qismida ma'shuqalarni qaelarda axtarish va qay tartibda ularning iltifotini qozonish to'g'risida erkaklarga maslahatlar beriladi, uchinchi qismida xuddi shu masalalar yuzasidan ayollarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Shoirning aytishicha, jamoat to'planadigan turli joylar – tomoshagohlar, to'y-hashamlar, qolaversa, ibodatxonalar – mahbubalarni uchratish mumkin bo'lgan eng qulay yerlardir. Masalan, sirkka kirganda ko'ngil tusagan biron xushbichim jononning yaqiniga o'tirib, unga ozmi-ko'pmi iltifot ko'rsatish, chunonchi, etagiga tekkan changni qoqib qo'yish, bordi-yu, chang o'tirmagan bo'lsa hamki, baribir shunday qilish kerak.

Mahbuba bilan tanishishdan ko'ra, uning ko'nglini ovlash, Ovidiyning aytishicha, ancha mashaqqatlidir. Biroq bu masalada ham unchalik tashvish tortmaslik, g'alabani muqarrarligiga aslo shubha qilmaslik, ikkilanmaslik lozim: eplagan odam har yo'l bilan sevganining iltifotini qozonishi mumkin. Nozaninlar, aksar,

oqsochlaridan sir yashirmaydilar. Shu sababli ko`ngilga yoqib qolgan xotinlar bilan shular orqali topishish ham zng qulay usullardandir. Bordi-yu, oqsochlardan foyda chiqmasa, to`g`ridan-to`g`ri ma`shuqaning o`ziga xat yozmoq darkor. Bu xatning tili qanchalik nafis, iboralari qanchalik yoqimli bo`lsa, uning ta`siri ham shunchalik kuchli bo`ladi. Mabodo, xatga javob qaytarilmasa noumid bo`lmasdan, bir-biridan shirin xatlarni qayta-qayta yozaverish kerak, ma`shuqa bora-bora albatta yengiladi. Har holda bag`ayrat, sershijoat bo`lishning juda katta nafi bor. Xotinlar sipo bo`lganlari bilan erkaklarning iltijo qilishini, sabotli, matonatli bo`lishini yoqtiradilar. Axir, Yupiterning o`zi ham biron ayolga ishi tushib qolgudek bo`lsa, yalinmasdan murodga yetolmas edi. Agar tez orada yor vasliga yetishning iloji bo`lmasa, erkak kishi vaqtincha o`zini tortmog`i kerak, chunki ba`zi xotinlarning qo`ldan chiqib ketayotgan g`animatga yuragi achishadi, biz ularga qanchalik beparvo bo`lsak, ularning muhabbati shunchalik zo`rayadi.

Umuman aytganda, xotinlarning tabiati, ehtirosi turlicha bo`lishini va shu holatlarga monand ish tutishni esdan chiqarmaslik lozim.

Ulfatchiliklar, umuman, har xil bazmgohlar ham jononlar bilan aloqani mustahkamlash ishiga ko`maklashadigan eng qulay o`rinlardir. Quyilib turgan ichkiliklar tilingizni biyron, o`zingizni dadil qiladi, o`yin-kulgi aralash sevgi haqida dilkashlik qilish uchun eng monand sharoitlar tug`diradi. Biroq aljib qolmaslik uchun qadahlarni birin-ketin sipqiraverish yaramaydi. Mast bo`lgandan ko`ra, o`zingni shi-rakayf tutgan yaxshi. Ovidiy qayta-qayta uqtiradiki, ishqiy munosabatlardagi eng yomon narsa maqtanchoqlikdir. Bordi-yu, g`alabalarni hikoya qilib chiranilsa, bu – ablahlikka qo`shiladi. Xotin kishi bilan tutilgan aloqalar haqida hech kimga, hatto ishonchli do`stga ham, yaqin qarindoshga ham sir aytma. Aks holda ma`shuqangni badnom qilasan, uning muhabbatidan ayrilib qolasan.

Itifot va matonat bilan yor vasliga yetib, murod hosil bo`lgandan keyin qay yo`sinda uni muttasil o`zingga jazman qilib olish masalalari – «Sevgi san`ati»ning ikkinchi bo`limida hikoya qilinadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, har xil sehr-jodular, ilm-amal va issiq-sovuqlar bilan ish boshlash erkak kishiga yarashmaydi.

Jononlar ko`nglini ilitishning asosiy siri – xushmuomalada, nazokat va sulukatdadir. Oshiqning qaddi-basti, husn-jamoli qanchalar barkamol bo`lmasin, agarda ular shirin suhbatlar, yoqimli so`zlar bilan ma`shuqaning yuragini qitiqlab, zavqini qo`zg`atib turishga no`noqlik qilsalar, tez kunda yorlaridan ayrilib qolishlari mumkin. Ba`zan ma`shuqaning zeboligini, kiyimlarining bichimini, sochlarini did bilan o`rganini, qadam tashlashda, o`yin tushishda, ashula aytishda latifligi va boshqa jozibalarini maqtab qo`yishning ham katta foydasi bor. Lekin bu so`zlarni shunday aytish kerakki, zero ularning samimiyligi shubha tug`dirmasin. Mabodo ma`shuqang betob bo`lib qolsa, siljimasdan boshida o`tirib, mehribonlik bilan parvarish qil. Umuman shunday yo`lgutish kerakki, jazmaning har doim seni ko`rib turishga, so`zlaringni eshitishga mushtok bo`lsin, odatlanib qolsin. Mahbubaning muhabbatini zo`raytirish uchun o`zingni aziz qilib, ahyon-ahyonda atayin biron yerga ketilsa ham yomon bo`lmaydi. Biroq safarni uzoqqa cho`zib yubormaslik lozim, aks holda mahbubaning ko`ngli sovib, boshqaga moyil bo`lib qolishi ham ehtimoldan uzoq emas. Axir, Menelayning uzoq vaqt uyda bo`lmaganligi kasriga xotini Paris bilan topishib olgan edi-ku. Bu mojaroning aybdori yelena emas, Menelayning o`zi bo`lgan. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, bir xil ayollar juda ham yuvosh, mo`min va beozor erkaklarni yoqtirmaydilar, raqiblarni uchratmasalar, sevgi sarguzashtlarida jonsaraklik, bezovtalik his qilmasalar, muhabbatlari susayib, so`nib qoladi. Shunday xotinlarning yuragida vaqt-vaqti bilan shubha o`tini yoqib turish kerak. Rashk orqasida boshlangan achchiq-tizziqqaplardan yig`i-sig`ilardan keyin yana totuvlik, shirin kayf-safo boshlanib ketadi.

Ma`shuqaning ba`zi bir kamchiliklarini yuziga aytish, uning yoshini surishtirish eng yaramas odatlardandir. Latofatning sirini, muhabbatning chin ma`nosini tushungan odam, xotin kishining ziynat va fazilatlarini uning husnida emas, dilida axtarmog`i darkor.

Muhabbat sarguzashtlari haqida birovga sir aytmaslikni Ovidiy asarning bu qismida ham eslatib o`tadi.

Kitobda ishq ahllariga yana ancha-muncha maslahatlar berilgan, lekin ba`zilari bir qadar behayo bo`lganligidan ularga to`xtalolmaymiz.

«Sevgi san`ati» poemasi uchinchisi qismida, yuqorida aytganimizdek, muhabbat masalalari yuzasidan xotin-qizlarga yo`l-

yo`riqlar ko`rsatiladi. Bu bobni yozishda ham Ovidiygago`yo Veneraning o`zi dalda bergan. Ishq bobida erkaklarni bilimdon qilib, ayollarni iltifotsiz qoldirish adolatdan emas-ku, axir!

Avvalo shu narsani unutmaslik kerakki, chinakam husn hammaga nasib bo`lavermaydi. Shu sababli xotin kishi erkaklarning ko`ziga zinhor-zinhor bepardoz ko`rinmasin. Ayollarning yuzi ayniqsa juda ham pardoz talab bo`ladi. Ranging toza, yuzing qirmizi bo`lmasa, upa-elik surtmoq darkor. Qoshni payvasta, ko`zni xumor qiladigan pardozlarning ham katta foydasi bor. Soching kalta va siyrak bo`lsa, ulama yoki yasama soch bilan bu kamchiliklarni ham bartaraf etish mumkin. Har qanday pardoz-andozni xushtorlarga ko`rsatmasdan yashirinch qilishni aslo esdan chiqarma. Xotinlarning jasadida pardoz bilan ham epaqaga keltirib bo`lmaydigan nuqsonlar (qiyshiq oyoq, yassi ko`krak) bo`ladiki, ularni ham mumkin qadar xushtorga sezdirmaslikka, uning ko`zidan yashirishga harakat qilmoq lozim. Bundan tashqari, og`izni, tishni toza tutishga, ayniqsa qo`ltiqdan tarqaladigan badbo`y hidlarni yo`qotishga alohida e`tibor berilsin. Latofatning, jozibadorlikning asosiy siri qaddi-qomatga, rangi-ro`yga qarab did bilan kiyinishdadir. Juda ham olachipor bo`lib ketsang, tustovuvdan farqing qolmaydi.

Savlat to`kib, xiromon qadam bosishning, g`amza bilangapirishning, sehrli ko`z suzishning, chiroyli kulishning, hatto yoqimli yig`lashning ham jozibasi juda o`tkir bo`ladi. Umuman, har borada so`lim, zebo va yoqimli ko`rinishga tirishmoq lozim. Ortiqcha serzarda, serjahl, baland dimog`, badqovoq bo`lish mutlaqo yaramaydi. Chunki bu holatlarning hammasi ayol kishining husnini buzib, xunugini chiqaradi, erkaklarning ko`nglini sovitadi.

Bazm va ulfatchiliklarga xotin-qizlarning bir oz hayallab kelgani durust. Ovqatni orqa-o`ngiga qaramasdan apir-shapir yeyish ham odobdan emas. Ichkilikni ichilsin-u, lekin me`yoridan oshirilmasin, negaki mastlik ham ba`zi xonimlarni juda badbashara qilib yuboradi.

Ashula aytishni, paqc tushishni, biron asbobda mashq qilishni, turli o`yinlarda qatnashishni bilish – nozaninlar fazilatini orttiradigan asosiy shartlardandir. Mahbubalar ishqiy poeziyaning ulug` namoyandalari – Kallimax, Anakreont, Sapfo, Katull, Tibull, Propersiy va, shuningdek, Ovidiyning asarlari bilan tanish bo`lsalar, tag`in ham yaxshi.

Ayollar mudom uyda o'tiravermasdan sirk, teatr, ibodatxona va olomon to'planadigan boshqa yerlarga tez-tez borib, o'zlarini jamoatga ko'rsatib turishlari zarur. Biroq biron erkak bilan tanishishda g'oyat ehtiyotlik shart. Tag'in, zohiran juda muloyim, batartib ko'ringan, ammo haqiqatda makkor odamning qo'lga tushib qolib sharmanda bo'linmasin. Shuningdek xotinbozlik, firibgarlik va xiyonatkorlikda nom chiqargan olg'irlardan ham ehtiyot bo'lish darkor.

Birovdan ishqiy maktub olib qolgudek bo'lsang, yozgan kishining qanchalik samimiy ekanligini bilish uchun har so'z va har jumlani diqqat bilan o'qib chiq. Xat egasining muhabbati yana zo'raysin desang, shoshib-pishib darrov javob qaytarma, bir oz paysalga solib javob yuborganda ham, ortiqcha va'dalar berma, shuningdek iltimosini uzil-kesil rad ham etma. Ishq yo'lga kirgan har bir ayol, yozuv-chizuv ishlarida juda mohir bo'lmog'i zarur. Xatni hashamatli, jimjimador iboralarda emas, balki til qoidalariga rioya qilib, oddiy va sodda mazmunda, ammo chiroyli badiiy shaklda yozmoq darkor, zeroki uning ichidagi uslub dag'alliklari, imlo xatolari tag'in xushtorni sovitib qo'ymasini. Xatni egasiga yetkazib berishning o'zi ham juda qiyin masala. Uning bironta begona qo'lga tushib qolmasligi uchun va buning orqasida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olib, maktubni nihoyatda ishonchli qul yoki sadoqatli xizmatkor orqali yubormoq lozim. Bu ishda yaqin dugonalar yordamidan foydalanilsa ham bo'ladi. Lekin dugonalarga ortiq darajada ishonish ham unchalik to'g'ri emas. Yaxshisi, muhabbat sirlarini ulardan pinhon tutgan ma'qul: ehtimol, seni dog'da qoldirib, xushtoringni o'ziga og'dirib olar!

Ma'shuqa jazmanlarning holiga qarab muomala qilsin: tortiq va sovg'alarni puldorlardan olish ayb emas-u, ammo muhabbatning sodiq qullari hisoblanmish shoirlarga himmat va muruvvat ko'zi bilan qaramoq darkor; ma'shuqalarnigo'zal g'azallarda faqat shular doston qiladilar.

Xushtorga haddan ziyoda shaydoyi bo'lgandan ko'ra, orachora o'zingni tortib tursang yomon bo'lmaydi. Go'yo boshqa bilan topishgandek, uning ko'ngliga g'ulg'ula solish yana ham yaxshiroqdir. Jazmaning betoqat bo'lib, diydor ko'rishni iltijo qilaversa, darrov ko'nib qo'ya qolmasdan, xuddi xavf-xatarlar paydo

bo`lib qolgandek, bu iltimosni bajarish qiyin ekanligini aytib, yolborishlariga quloq solmaslik kerak.

Muhabbatning rostligiga, sadoqatning samimiyligiga jazmanlarni astoydil ishontirishning ahamiyati ham juda zo`r. Sevganingning xiyonat qilganini sezib qolsang, ortiqcha janjal, to`polon ko`tarmasdan, yotig`i bilangapirib uning dilida armon va pushaymon uyg`otsang – bama`niroq ish qilgan bo`lasan.

Ovidiyning boshlang`ich davr ijodiga kiradigan yana ikkita asarini ko`rsatib o`tamiz. Bular «Pardoz malhamlari» hamda «Sevgi davosi» poemalaridir.

Muhabbat mojaralaridan zerikib, ma`shuqalardan qutulish payiga tushib qolgan oshiqqlarning dardiga darmon bo`lish niyatida shoirning «Sevgi davosi» dostoniga qo`l urganligi asarning nomidan ham ko`rinib turibdi. Yangi asar ham, yuqorida tanishib o`tganimiz, «Sevgi san`ati» poemasi singari hazil-mutoyiba ruhida yozilgan; shakl va mazmun jihatidan ham ular o`rtasida yaqin o`xshashlik bor. Keyingi asarning o`zi ham, aftidan «Sevgi san`ati» poemasi mazmunidan norozi taqvodor va «boadab» kitobxonlarga javoban yozilgan bo`lsa ham ajab emas.

Ovidiyning ishqiy poeziyasiga, ayniqsa uning «Sevgi san`ati» dostoniga batafsil to`xtashimizning muhim sabablari bor: avvalo, «Sevgi san`ati» – Ovidiyning muhabbat mavzuida yozilgan asarlari orasida eng yorqinidir. Ikkinchidan, Avgustning axloq bobidagi tadbirlarini masxaralash, umuman, adibning «sho`xliklari», «hazilkashliklari», Rim shoirlarining birontasiga nasib bo`lmagan nodir yumoristik mahrati, misralardagi yengil va latif o`ynoqilik – ana shu poemada bo`lgani kabi hech qachon bunchalik ravshan va oshkor jaranglamagan.

«Sevgi san`ati» bundan tashqari faqat maishat bandalarini minnatdor qilish niyatida shunchaki bir havoyi sho`xlik bilan boshlangan asar ham emas, albatta. Poemani o`qir ekansiz, Rimning g`ala-g`ovur hayoti – uning sirklari, teatrlari, gladiator janglari, badavlat xonadonlarda quriladigan maishatbozliklar va bularda qatnashuvchi ishratparastlar beto`xtov ko`z oldingizdan o`taveradi. Yangi asr boshlanishida azim shaharning manzaralari haqiqatan ham shunday jo`shqin va besaranjom bo`lgan, yuqori tabaqalarning hayoti muttasil surur bilan o`tgan.

Yakka hukmronlik tartiblarining tobora kuchayishi natijasida siyosiy-ijtimoiy hayotdan hafsalasi sovigan Rim kishisi, ayniqsa uning badavlat tabaqalari faqat ishqiy sarguzashtlarida ovunchoq axtaradilar. Bundan tashqari, Rim davlati qudratining ortishi, madaniyatning tobora noziklashishi, zeb-ziynat ehtirosining beto'xtov avjga minishi va, eng muhimi, oltin to'plash, boylik orttirish istaklarining benihoyat zo'rayib ketishi, o'z navbatida, shubhasiz, maishatbozlik, ishratparastlik hirsalarini qo'zg'atar edi.

Ma'lumki, Rim fuqarosini ajdodlarning qadimgi oddiy hayotiga qaytarish, oilani sog'aytirish, nikoh masalalarini mustahkamlash, buzuqchiliklarni yo'qotish yuzasidan Oktavian Avgust jiddiy choralar ko'rib, bu borada hatto qator qonunlar chiqaradi. Shu qonunlarga asosan nikoh qoidalarini buzgan er-xotinlar davlat jinoyatchilari bilan bab-baravar qattiq jazolanganlar. Biroq bu tariqa keskin choralarga qaramay, Rim jamiyatining yuqori tabaqalarida boshlangan oilaviy mojarolar, qo'ydi-chiqdilar, axloqiy va ma'naviy buzuqliklar tobora kuchayib bormokda edi. Rimning hamma doiralari yoyilgan safolat marazi bora-bora, hatto, Oktavian xonadoniga ham kiradi. Avgustning qizi bilan nabirasi (ikkalovining ham nomi – Yuliya) shu qadar shaloq yuradilar-ki, nomusiga chidayolmagan imperator, chor-nochor, ularni Rimdan badarg'a qilishga majbur bo'ladi.

Ana shunday bir paytda Avgustning axloq masalalariga doir tadbir va choralarini Ovidiy ochiqdan-ochiq mazax qiladi, pulparastlik, maishatbozlik avj olgan bu zamonda eski udumlarni tiklash, oilani mustahkamlash, axloqni tuzatish mumkinligiga shoir ishonmaydi. Bas, shunday ekan, «Sevgi san'ati» shoirning miyasida to'qilgan mavhum xayollar yig'indisidan to'plangan quruq safsatalar emas, balki zamonaning kundalik voqealaridan ko'chirilgan hayotiy lavhalarning aynan o'zginasidir. Darhaqiqat, hazil bilan boshlangan bu asar, shoirning o'zi o'ylamagani holda, Rim jamiyati yuqoriguruhlarining qay daraja bulg'anganligini va beto'xtov ma'naviy inqirozga ketayotganligini isbotlovchi dahshatli bir hukmnomaga aylanadi va ko'p o'tmay bu hukmga yo'l qo'ygan Ovidiyning boshiga og'ir kulfatlar keltiradi.

Ishqiy mazmundagi «didaktik» poemalar bilan Ovidiy ijodining birinchi davri tugab, yetuklikda, barkamollikda alohida o'rin tutgan ikkinchi davr boshlanadi. Shoirning dastlabki asarlariga

xos bo'lgan sho'x va o'ynoqi mazmun, rasmiy doiralarga, shubhasiz, aslo yoqmas, Oktavianni, inchunin, qattiq g'azablantirar, zardasini qaynatar edi. Avgustga manzur bo'lish maqsadida Ovidiy bir daraja ilmiy mazmundagi jiddiy mavzularga qo'l urib, «Metamorfozalar» («Turlanish») hamda «Fasta» («Oynoma») degan katta-katta ikki dostonni birdan boshlaydi.

«Metamorfozalar» Ovidiy ijodining cho'qqisi, Rim adabiyotining ulug' yodgorliklaridan biridir. Yirik-yirik 15 bobdan, gekzometr vaznidagi 12 ming misradan iborat salmoqdor bu dostonda Yunon va Rim mifologiyalarida benihoyat ko'p uchraydigan afsonaviy turlanishlar – ma'bud va ma'budalarning, suv va o'rmon parilarining, ayniqsa odamlarning jonivorlarga, o'simliklarga, tosh va tog'larga, hatto yulduzlarga aylanib qolishlari haqidagi rivoyatlar hikoya qilinadi. Poemaning ichiga ana shunday rivoyatlardan qariyb 250 tasi kirgan.

Oxirgi turlanish bilan tamomlanadigan afsonalarni qalamga olgan shoirlarni Yunon va Rim adabiyotlarida, ayniqsa ellinizm davri poeziyasida ko'plab uchratishimiz mumkin. Biroq ularning birontasi shu mavzudagi rivoyatlarga Ovidiy singari nafis badiiy sayqal berib, ularning har birini uzviy suratda bir-biri bilan bog'lab, «Metamorfozalar» singarigo'zal va yaxlit epik doston yarata olgan emas.

«Metamorfozalar»dagi barcha afsonalarni bir chekkadan aytib chiqishning hech kanday iloji yo'q. Shu sababli eng muhimlarini ko'rsatish bilan kifoyalanamiz.

Shoir o'z asarini dunyoning yaratilishi, mavjudotning paydo bo'lishi, insonning bunyodga kelishi va dastlabki odamlarning ajoyib hayotlari bayonidan boshlab, keyin to'rt davr (oltin, kumush, mis, temir) tasviriga o'tadi. Ovidiy o'zining oldingi asarlarida, xususan, «Ishqiy elegiyalar» to'plamida «Oltin davr» rivoyatlarini masxaralab, o'sha davrlarni in-soniyatning vaxshiylik asri deb atagan bo'lsa, yangi asarda Rim elegiyanavis shoirlari izidan borib, insoniyatning boshlang'ich tarixini chinakam baxt, rohat va farog'at asri deb ta'riflaydi. Biroq oltin davrdan keyin boshlangan kumush hamda mis davrlariga kelib, yer yuzidan to'qlik, ma'murchilik ko'tariladi; odamlar o'rtasida himmat, muruvvat, diyonat yo'qoladi, ularning o'rnini makr, firibgarlik, benomuslik, shakkoklik egallaydi. Odam bolasining qilmishlaridan qahrlangan Yupiter inson zotini

tamomila quritib tashlash maqsadida yer yuziga dahshatli to'fon yuboradi. To'fon balosidan omon qolgan yolg'iz ikki kishi – Prometeyning o'g'li Devkalion hamda uning rafiqasi Pirra – koinotda yana odamzod urug'ini tarqatadilar.

Eng qadimgi turlanishlar silsilasiga kiradigan miflardan biri, quyosh ma'budining o'g'li Faeton afsonalaridir. Yosh Faeton o'zining chindan hamgeliosning o'g'li ekanligini bilmoq uchun uning saroyiga keladi. Shoir shu yerda ulug' Vulkanning qo'li bilan oltin-kumushlardan, dur-gavharlardan yasalmish bu muazzam qasrning ajoyib tasvirini bergan. Gelios Faetonning haqiqatdan o'z o'g'li ekanligini tasdiqlab, so'zining isboti uchun bola nimaniki talab qilsa, albatta bajarajagini aytadi. Samimiy va'dalardan, ma'budlar jinsiga mansubligidan behad quvongan Faeton, uchar otlar qo'shilgan quyosh aravaga minib, otasining o'rnida bir marta fazoni aylanib chiqishga ijozat so'raydi. O'g'lining bunchalik og'ir talab qo'yishini aslo xayoliga keltirmagangelios, bu istakning naqadar dahshatli fojialarga olib kelishi mumkinligini sezib, uni ra'yidan qaytarishga harakat qiladi. Ammo urinishlari hech qanday natija bermagach, chor-nochor rozi bo'ladi. Asarning asosiy mazmuni feodalizmga qarshi qaratilgan harakat edi. Bogumillar eski tartiblar, shuningdek, Vizantiya istibdodi va cherkov zulmiga qarshi xalq ozodlik kurashining aktiv ishtirokchilari ham edilar. XIII asrda Bolgariya va Vizantiyada keng yoyilgan bu harakat qattiq ta'qibga uchragan sari o'zining jangovar xarakterini yo'qota borib, oddiy diniy sektaga aylanib qolgan va u turklar Bolgariyani bosib olgandan so'ng (XV asr) tarqalib ketgan.

O`RTA ASRLAR ADABIYOTI

QADIMGI DAVRLARDAGI QAHRAMONLIK EPOSLARI

FRANSUZ QAHRAMONLIK EPOSI

Qadimgi fransuz poeziyasining ilk namunalari mehnat, janpovar yurish, maishiy eposinng xalqchilligi, hayot, diniy urf-odat va nikoh masalalariga bag'ishlangan qo'shiqlar shaklida bunyodga kelgan. Xalq hayotidagi alohida voqealarni gavdalantirilgan. Bunday Qo'shiqlardan epik dostonlar tarkib topgan. Kollektiv ijodning samarasi bo'lgan va sevgi sarguzashtlari, qahramonona kurashlarni

aks ettirgan bunday dostonlarda xalqning hayoti, orzu-umidlari o`z ifodasini topgan.

Epik poeziyaning ijobiy qahramonlari favqulodda mard, jasur va sog`lom, saxiy, mazlumlarga yordam berish va vatan uchun jonini fido qilishga tayyor turgan ideal kishilar qilib ko`rsatilgan.

Og`zaki adabiyot an`analarini rivojlantirib, ularni avloddan-avlodga yetkazish yo`lida katta xizmat qilgan xalq kuychilari davr o`tishi bilan qiziqchilar va qo`shiqchilarga bo`linganlar. Xalq baxshilarining satirik va realistik ruhdagi ijodi feodal tartiblari va din taassublariga zid edi. Shu sababli cherkov epik poeziyaga dushmanlik nazari bilan qarab, uning mazmunidan xalqchil g`oyani chiqarib tashlashga urinib keldi. Qahramonlik eposining g`oyasi va mazmuniga ba`zi bir o`zgarishlar kiritildi. Unga o`rta asrlarda hukmron bo`lgan feodal-cherkov ideologiyasi tazyiqi ostida xristian dini ta`siri o`tkazildi.

Feodalizm davridagi fransuz xalq og`zaki ijodida epik asarlar keng tarqalgan edi. Fransuz qahramonlik eposi Shanson de Jest (voqealar haqida qo`shiqlar) deb ataluvchi poemalar shaklida rivojlangan. Bu qo`shiqlar mazmun e`tibori bilan asosan uch siklga bo`linadi. Birinchi – karolinglar siklidagi qo`shiqlarda mamlakatning tashqi va ichki dushmanlariga qarshi kurashgan qirol obrazi namoyon bo`ladi. Ikkinchi – gilyom d'Oranj haqidagi poemalar siklida vatanga sadoqat xissi bilan to`lgan, lekin mamlakatning birligini caqlashda ojizlik qilayotgan monarx (qirol)ga yordam berishga tayyor turgan qobiliyatli vassal-qahramon obrazi aks etadi. Doona de Mayans nomi bilan yuritiladigan uchinchi sikl («Raul de Katabre», «Lotaringlar» deb ataladigan poemalar)da esa bir-birlari bilan qonli urushlar olib boruvchi, shuningdek, qirolga qarshi kurashuvchi isyonkor feodallar tasvirlanadi, ularning xatti-harakatlari qoralanadi.

Karolinglar siklidagi qo`shiqlarda va umuman butun fransuz qahramonlik eposhda «Roland haqida qo`shiq» juda katta o`rin egallaydi.

QO'SHIQNING YARATILISH TARIXI

Xalq badiiy ijodining ajoyib namunasi qahramoni Roland halq qahramoni sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan. «Roland haqida qo'shiq» 4002 misradan iboratdir. Poemaning dastlabki duxxasi Oksford teksti hisoblanadi. U Angliyada 1170 yillarda yozib olingan. Poemaning o'zi XI asr oxiri va XII asr boshlarida yaratilib, asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan, u so'nggi davrlarda badiiy tomondan mukammallashtirilib ixcham shaklga keltirilgan.

«Qo'shiq»da franklar qiroli Karlning mavr-saratsinlar bilan olib borgan jangi, dushman tomonidan o'ldirilgan qahramon Roland uchun qacoc olish hikoya qilinadi. Poemaning g'oyaviy maemuni uning negizida yotgan tarixiy voqealar tavsifida ravshanlashadi. Bag'dod xalifasi tarafdorlari Karlga murojaat qilib, Ispaniyada mustaqil musulmon davlati o'rnatgan Abdurahmonga qarshi kurashda undan madad so'raydilar. Ispaniya mavrlarining o'zaro janjaliga aralashgan Karl 778 yilda Pireney tog'laridan o'tib, ko'p yerlarni egallaydi. Saratas shahrini bir necha hafta qamal qilib turadi, lekin u orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Pireneydan o'tib ketayotgan vaqtida o'z yerlarining toptalganidan g'azablangan basklar kechasi Ronsetsal darasida qo'shinning orqa qismiga qo'qqisdan hujum qiladilar. Karlning zamondoshi tarixchi Eginxard bu voqea haqida shunday deb yozgan edi: «...basklar tog'ning eng cho'qqisida pistirma o'rnatib... yuqoridan hujum qilib, yuk ortilgan aravalar va oldindagi qismlarni himoya qilib borayotgan aryergarddagilarni pastlikka uloqtirib tashladilar. So'ngra jangga kirishib, ularning birortasini ham qoldirmay qirib yubordilar, o'zlari esa yuk aravalarni talab, kech qorong'iligidan foydalanib, tezlik bilan turli tomonga qochib ketdilar. Bu jangda boshqa ko'p kishilar bilan bir qatorda qirol xizmatchisi Eggard, graf Anselm, Brechyun markasining boshlig'i Xruodland ham o'ldirilgan edi». Xruodland chegara markasi (jamoasi)ning yetakchisi – poemaning qahramoni Rolandning o'zidir.

Karlning shimoliy Ispaniyaga muvaffakiyatsiz yurishi diniy kurash bilan sira aloqador bo'lmaganligiga qaramay, qo'shiqchi-hikoyachilar bu voqeani g'ayridin arablar bilan bo'lgan yetti yillik pyyshga bog'laydilar. Karl qo'shinining Vonseval darasidagi

halokatini ham bask xristianlarning xiyonati emas, balki ispan arablarining yovuz dushmanligi, deb ko'rsatadilar.

Poemadagi voqea VIII asrga oid bo'lsa ham, lekin uning mazkur asarda badiiy ifodalanishi og'izdan-og'izga o'tib mukammallashishi ikki-uch asr yuzini ko'radi, bu davrlarda esa yevropa feodallarining ispan Mavrlariga qarshi kurashi, fransuz monaxlarining g'ayridinlarga qarshi salb yurishi davom etayotgan edi. Poemadagi vatanparvarlik g'oyasining diniy qobiqqa kirib qolishi ham shu bilan izohlanadi. Asosiy obrazlar qo'shiqda Fransiya yagona bir davlat sifatida qadrlanadi, uning imperatori Karl «aziz Fransiya» uchun jon fido qilgan qahramon Roland ulug'lanadi. Feodal tarqoqlik hamda o'zboshimchalik hukm surgan bir vaqtda mamlakatning birligini tiklash uchun jafokash ommaning markazlashgan hukumat atrofiga uyushtirilishi ijobiy hodisa edi.

Qo'shiqda voqealar xalq eposiga xos tarzda mubolag'a bilan beriladi, qahramonlar (Roland, Oliver, Karl) favqulodda qudratli, zabardast qilib ko'rsatiladi.

Roland o'z syuzerniga sodiq vassal, har qanday og'ir vaziyatda ham vatanini himoya qilishdan qaytmaydigan, qahraton sovuqqa ham, jazirama issiqqa ham bardosh beradigan mard va jasur jangchidir. Rolandning jo'shqin vatanparvarligi sotqin feodalganelonning munofiqligiga qarama-qarshi qo'yiladi.

«Qo'shiq»da muhim o'rin tutganganelon obrazida zamonning siyosiy ziddiyatlari va feodal o'zboshimchaliklari qopalanadi. U qandaydir tasodifiy yoki o'z shaxsiy manfaati yo'lida harakat qiluvchi munofiqqina emas, balki insoniy fazilatlardan mahrum yovuz feodal sifatida gavdalangan bir tipdir. «Qo'shiq»daganelon obrazi katta badiiy umumlashma darajasiga ko'tarilgan. U qo'rqq jangchi emas, balki jasur va salobatli kishidir, Roland uni Saragos sultoni Marsiliy huzuriga Karl tomonidan vakil bo'lib borsin, deb taklif qilganida, u bunday topshiriqning xavfli ekanini bilsa ham, bo'yin tovlamaydi. Lekin Rolandning bu taklifini o'zini halokat yoqasiga sudrovchi zimdan qilingan adovat belgisi, deb tushunadi, binobarin, undan o'ch olmoqchi bo'lganini yashirmaydi. Karl huzuriga kelgan Marsiliyning vakili Blankandrin bilan yo'lda keta turib, u bilan o'zining qopa niyati haqida kelishib oladi. Biroq sulton bilan uchrashganida o'z maqsadini bildirmaydi, balkiya Capagoc hokimiga do'q uradi. Karlning xristian dinini qabul qilish haqidagi

talabini aytib, uni g`azablantiradi va o`z hayotini xavf ostida qoldiradi. Marsiliy bilan til biriktirayotgan vaqtda ham sarosimaga tushmaydi. Karl huzuriga qaytgangelon dushman bilan sulh shartnomasi tuzilganini bildiradi. Aryergardda kimning otryadini qoldirish masalasi qo`yilganda, u Roland drujinasini qoldirish to`g`risida taklif kiritadi.

Shunday qilib, Roland askarlari qo`shin ketidan boradi, Saratsinlar bu vaziyatdan foydalanib, aryergardga hujum boshlaydilar. Ronseval dasida yuz bergan bu dahshatli jangda dushman tashlagan katta kuch bilan mardonavor olishgan Roland va Karlning boshqa bahodirlari halok bo`ladilar. Bu fojining sababchisiganelon xoin sifatida sudga berilganida ham, u o`zini yo`qotib qo`ymaydi. Karlga xiyonat qilmagani va faqat xaqorat etgan Rolanddan o`ch olganini e`tirof etadi.

Ganelon qarindosh-urug`laridan o`zini o`limdan saqlab qolish uchun chora ko`rishlarini so`raydi. Dahshatli Pinabel unga yordam berishga tayyor ekanini bildiradi, Rolandni endi tiriltirish mumkin emas, shu sababli baronlar qioldanganelonninggunohini kechirishni so`raydilar. Lekin bunday noo`rin iltimosga ritsar Tyerri qarshi chiqadi, xoin va sotqinganelon o`limga mahkum etilishi kerak deb, uning xomiylari bilan jang qilishga tayyor turadi. Tyerri yakka jang («xudo sudi»)da Pinabelni o`ldiradi. Buganelonning nohaq zkaniga yana bir dalil bo`ladi.

Shuningdek, asarda Roland bilan uning do`sti Oliviyening obrazlari ham bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladi, ikki ijobiy qahramonning xususiyatlari qiyos qilinadi. Rolandning o`z kuchiga ortiqcha ishonishi, mardligini Oliviyening donoligi bilan taqqoslash fonida poema kahramonlarining individual xususiyatlari va vatanparvarligi yanada bo`rttiriladi.

Ronosval dasida yuz bergan dahshatli voqea, Roland drujinasining fojiali halokati, grafganelonning xoinligi Karl qo`shiniga katta talafot yetkazadi. Shuning uchun ham voqea Rolandning o`limi bilan tugamaydi, balki Karlning o`z dushmanlaridan o`ch olishini bayon etish bilan yakunlanadi. Fojia xabarini eshitgan Karl askarlari bilan orqaga qaytib, Roland va boshqa xalok bo`lgan jangchilari uchun o`ch olib, «majusiy» dushmanlarni tor-mor etadi, so`ngra munofiqqanelonni qattiq jazolab o`ldiradi. Ganelon o`z manfaatini mamlakat manfaatidan ustun

qo'yg'an va o'sha jamiyatning yaramasliklarini mujassamlantirgan xudbin, egoist bir shaxsdir. Ganelon obrazi orqali xalq ommasi boshiga san-sanoqsiz kulfatlar keltirgan, mamlakat qudratiga putur yetkazgan feodal fitnachiligi qoralanadi.

G'arb feodallarining Ispaniyadan arab istilochilarini haydash uchun olib borgan kurashlarini Sharq mamlakatlariga qarshi uyushtirgan salb yurishlari tarzida ko'rsatishga urinishlar asarda o'z ta'sirini qoldirishi tabiiy bir hol edi. Tarixiy faktlarning buzib ko'rsatilishi xalq kahramonligi bilan feodal-cherkov ideologiyasining ziddiyatlari tufayli sodir bo'lgan edi. «Qo'shiq to'quvchi»lar keng ma'lumotga ega bo'lmaganlari va, xususan, xristian ruhoniylarining targ'ibotlari ta'siriga berilishi natijasida o'zlarining dushmanlari – mavrlar (arablar)ni kup xudoli majusiylar deb ayblaydilar. Poemada Saragosning sultoni Marsiliyni Muhammad Apollin va Tyorvaganga sig'inuvchi «la'natlangan» o'tparast deyiladi. Bu narsa qo'shiq ijodchilari musulmon dinining mohiyati nimadan iborat ekanini bilmasliklaridan va uni xristian dini asoslariga o'xshatib tasvirlashlaridan kelib chiqqan bir holdir. Cherkov, xristian dinidagilarning soddaligidan foydalanib, saratsin(Arabistonda yashagan qadimgi ko'chmanchi xalq)larga dahshatli yirtqichlar deb qarar edi. Vaholanki, arab mamlakatlari madaniy taraqqiyot sohasida o'sha vaqtdagi G'arbiy yevropa mamlakatlaridan ustun turar edi. yevropada fan asosan injilii o'qish va uning ma'nosini izohlashdan nariga o'tmagan bir vaqtda, arablar antik madaniyatning ulug' donishmand namoyandalari ijodi bilan tanishgan Aristotel va Arximed kabi faylasuf va olimlarning asarlarini tarjima qilib o'rganayotgan edilar.

Salb yurishining qatnashchilari Sharq mamlakatlaridan yevropaga qadimgi madaniyat yodgorliklari, antik davr olimlarining qo'lyozmalarini keltiradilar, bu yevropada haqiqiy fanning kurtak yoyishiga madad beradi, cherkovning obro'yiga esa qattiq putur yetkazadi.

«Qo'shiq»da arablarni yovuz, «majusiy» deb atash kabi diniy tendensiyalar o'zgalar yerini bosib olish uchun bir baxona edi. Arxiepiskop Turin askarlari orasida yurib, ularni kofirlarga qarshi muqaddas jangga undar, bu urushda o'lganlar uchun «jannat eshiklari» ochiq deb e'lon qilar va shu bilan bosqinchilik yurishlariga

diniy tus berar edi. «Qo`shiq»dagi bu zpizodlarda dinning dunyoviy hokimiyatga qaramligi ochilgan.

«Roland haqida qo`shiq» chuqur insoniy tuyg`ular, do`stlik, jangovar vatanlarvarlik ruhi bilan sugorilgan ajoyib badiiy yodgorlikdir. Elin rivoyat va she`riy jo`shqinlik asargago`zallik va salmoqdorlik baxsh etadi. Qo`shiqning tili, tasvirlari yorqin va rang-barangdir. Iboralar ixcham va soddaligi bilan tasvirning xalqchilligini orttiradi. Shuning uchun ham u ming yillik davr sinovidan o`tib, hozir ham estetik ta`sir kuchini yo`qotgan emas. «Qo`shiq»da hayajonli epizodlar ko`p: kuchi va soni jihatidan tengsiz dushman qo`shiniga katta talafot yetkazib, oxirida najot topolmay qolgan Rolandning Karlga yordam so`rab murojaat qilishi va xiyonat qilinganini payqagan Karlning orqaga qaytishi, Roland bilan Olivyening og`ir yarador bo`lib vatan uchun jon berishlari, Karlning Ronseval urushida halok bo`lgan bahodirlar tepasida turib ko`z yoshi to`kish, sevgilisining o`limini eshitgango`zal Aldaning g`am bilan dunyodan ko`z yumishi tasvir etilgan epizodlar kitobxon qalbida chuqur iz qoldiradi. Rolanddagi vatanparvarlik ruhi uning so`zi, ishi va harakatlarida namoyon bo`ladi. Qahramon uchun «aziz Fransiya» dan ko`ra muqaddasroq so`z yo`q. Roland ana shu muqaddas vatani uchun jang qilib jon beradi.

Roland feodal ritsarlariga xos bo`lgan xususiyatlar – mahdudlik, egoizm, yovuzlik va tamagirlikdan xolidir. Unda vatanga muhabbat, xalqqa xizmat qilish muddaosi, o`z burchiga sodiqlik, mardlik tuyg`usi va boshqa olijanob insoniy xislatlar mujassamlangan. Bu fazilatlar ritsar Rolandni xalqqa yaqinlashtirib, sevimli qahramon darajasiga ko`taradi.

ISPAN QAHRAMONLIK EPOSI

VIII asrda Ispaniyani bosib olgan mavrlar Ispaniyada qudratli davlat barpo etadilar. Ispaniyaning zabt qilinmagan shimoliy qismida VIII-IX asrlar davomida Asturiya va Navarra davlatlari mustahkamlana boshlaydi. X asrdan boshlab bunday mayda davlatlar birlashib, mustaqillik uchun arab istilochilariga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Bu harakat tarixda rekonkista harakati deb atalgan edi.

XI-XII asrlar mobaynida tashkil topgan uch qirollik – Kastiliya, Aragon va Portugaliya ozodlik urushida ayniqsa katta rol o`ynadilar.

Mazkur feodal-xristian davlatlari, ayniqsa Kastiliya bilan Aragon o`rtasida o`zaro janjallar davom etayotganiga qaramay, ular umumiy dushmanga qarshi birlashib, 1212 yilda Las-Navas de Tolos yaqinida mavrlarga qattiq zarba beradilar. So`ng ispanlar dushman qo`lidagi yerlarni ketma-ket tortib ola boshlaydilar. XIII asrning oxirlariga borganda Ispaniyaning janubidagigranada amirligidan boshqa hamma viloyatlar ozod etilgan edi.

Rekonkista harakatida turli ijtimoiy qatlamlar, ayniqsa dehqonlar katta hissa qo`shadilar. Xalq ommasidagi vatanparvarlik xissi pomeschiklarga qaramlikdan ozod bo`lish yo`lidagi harakat bilan qo`shilib ketadi. Dehqon, kosib va mayda ritsarlar hamma vaqt jangovar vaziyatda turadilar. Dushmandan ozod etilgan viloyatlarning chegaralarini qo`riklaydilar. Biroq ozod etilgan yerlardan olingan o`ljalar asosan feodal va ruhoniylar qo`lida edi.

Kastiliya janubga siljib borishda tayanch punkt vazifasini bajarar, uning aholisi esa harbiy xizmatni o`tar edi. Shaharlar o`z kuchlari bilan harbiy operatsiyalar o`tkazar, bahamjihat harakat qilish uchun o`zaro ittifoq ham tuzardilar. «Ana shu janglarda xalq qonunlari va odatlari bunyodga keldi». Shaharlar o`zlari yaratgan qoida va huquqlarni qattiq turib himoya qilardilar.

Kastiliya territoriyasidagi dehqonlar krepostnoylikda nihoyatda og`ir kun kechirardilar. Arablar bilan urushib olingan yerlardagi dehqonlarning ahvoli boshqacha edi. Kastiliyayaing bo`sh qolgan yerlarini saqlash va uni ishga solish uchun boshqa yerlardan kishilar ko`chirilib keltirilgan va ularga turli imtiyozlar, xususan, shaxsiy zrkinlik berilgan edi. Dehqonlarga ba`zi bir yengilliklar berilishi va ularning o`z obshinalarini tuzishlari krepostnoy dehqonlarga ta`sir etmay qolmadi. Shahar yoki erkin dehqon jamoalariga qochib borgan krepostnoylar u yerda shunday imtiyozlardan foydalana boshlaydilar.

Biroq mavrlar uzil-kesil zarbaga uchratilgach, feodallar dehqonlar bilan hisoblashmay qo`yadilar, yana ularni o`zlariga qaram qila boshlaydilar. Bunga qarshi Kataloniyada ezilgan mehnatkashlarning qo`zg`olonlari kelib chiqadi. Hukmronlar bunday g`alayonlarni bostirishlariga qaramay, xalq harakatlari to`xtovsiz davom etadi. Nihoyat, qirol va feodallar krepyustnoy huquqni bekor

qilishga majbur bo'ladilar. Shunday bo'lsa ham, rekonkistada ishtirok etgan va o'z vatani uchun uzoq kurash olib borgan dehqonlar ozodlikka erishmay, yana feodallar zulmi ostida qola beradilar.

Ispaniyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, feodallar o'rtasidagi o'zaro janjallar, arablarga qarshi rekonrista harakati ispan qahramonlik eposida o'z ifodasini topadi. Sid haqidagi romanslar va poema («Mening Sidim haqida qo'shiq») qadimgi ispan xalq poeziyasining ajoyib namunalari.

Sid tarixiy shaxs bo'lib, uning asl ismi Rodrigo (Ruy) Dias. Sid esa uning laqabidir. O'z qaramog'ida mavrlar bo'lgan ispan sinyorlariga shunday nom berilgan. Sid 1040 yilda Kastiliya zodagonlari oilasida tug'ilgan. U qirol Ferdinand I ning o'g'li Sancho II saroyida xizmat qilgan. Sid qirolning yaqin a'yon va qo'shin boshlig'i sifatida mavrlarga qarshi kurashida qatnashgan.

Butun Ispaniyani dushmandan ozod etish janglarida ko'p kahramonliklar ko'rsatgan Sid 1099 yilda vafot etadi.

Sid rekonkista harakatining yirik arbobi, Ispaniyaning mustaqilligi uchun kurashgan milliy qahramon sifatida mashxurdir.

Bu «Qo'shiq» 1140 yillarda bunyodga kelgan bo'lib, uning XIX asr boshlarida yozib olingan qo'lyozma nusxasi saqlangan. «Qo'shiq» tadqiqotchilar tomonidan uch qismga bo'lingan.

Birinchisi – «Quvilish haqida qo'shiq», unda qirol Alfons bilan janjallashib qolgan Sidning quvilishi tasvirlanadi. Lekin asarning bu voqeaning sabablari bayon etilgan qismi saqlanmagan.

Mamlakatni tashlab ketishga majbur etilgan Sid o'zining bir necha sodiq kishilari bilan yo'lga chiqadi. Qirolning Sidga boshpana bermaslik haqidagi farmonidan xabardor bo'lgan xalq ajoyib bahodir Sidga achinadi, lekin yordam berishga botina olmaydi. Sid va uning kishilarini hatto bozorlarga ham qo'ymaydilar. Biroq shunday og'ir vaziyatda Martin Antolines do'sti Sid va uning drujinasiga joy beradi. Sid quvlik bilan bo'lsa ham, o'z askarlarini boqish tadbirlarini ko'radi: ichiga qum to'ldirilgan va qattiq berkitilgan sandiqlarni, ichida qimmatli ziynat asboblari bor deb, ikki yahudiy savdogarga omonatga qo'yadi, evaziga ulardan zarur miqdorda pul oladi va o'zining harbiy yurishlari uchun iqtisodiy zamin tayyorlaydi. Sid 60 jangchidan iborat otryad tuzib, San-Pedro de Kardenya monastiriga boradi, u yerda yashayotgan xotini va ikki qizi bilan xayrlashgach, mavrlar yeriga qarab yo'l oladi. Turli toifadagi

oddiy kishilar yoʻlda Sidning otryadiga qoʻshiladilar. Mavrlardan olgan oʻljalaridan bir qismini Sid Alfonsga tortiq qilib yuborib turadi, qolganini esa jangchilarga ulashib beradi.

«Toʻy haqida qoʻshiq» deb ataladigan ikkinchi qismda Sidning Valensiya viloyatini qoʻlga kiritishi va mustaqil xokim sifatida ish koʻrishi bayon etiladi. Tortiqlardan xursand boʻlgan qirol Alfons Sidning xotini va qizlari bilan uchrashuviga ruxsat etadi. Shundan keyin qirol bilan Sid uchrashib, bir-birlari bilan yarashadilar. Sidning katta boyliklarni qoʻlga kiritayotgani va qirolning unga yaxshi munosabatini bilgan graf de Karrionning vorislari qirol orqali Sidning qizlarini soʻratadilar. Qirolning soʻzini rad eta olmagan Sid qizlarini katta mol-mulk bilan uzatadi, kuyovlarini hurmatlab, ikki qilich ham taqdim etadi.

Poamaning «Kornes haqida qoʻshiq» degan uchinchi qismida Karrion vorislarining razilligi tasvirlanadi. Shu oʻrtada koʻngilsiz bir voqea yuz beradi. Qafasdan qochgan yoʻlbarsga duch kelgan kuyovlardan biri stol tagiga yashirinadi, ikkinchisi daraxt tepasiga chiqib ketadi. Dushmanga roʻpara boʻlganda ham ularning qoʻrquvga tushib orqaga chekinishlari turgan ran edi. Sid va uning jangchilari kuyovlarni mazax qiladilar. Graf de Karrionning vorislari bunga chidayolmay qasos olish yoʻlini qidiradilar. Ular oʻz yurtlarini koʻrsatish bahonasi bilan xotinlarini Kornes oʻrmonzoriga olib chiqadilar-da, ularni urib, qamchi bilan savalab, daraxtga bogʻlab ketadilar. Kuyovlarning munofiqligidan dargʻazab boʻlgan Sid qirol huzuriga vakil yuborib, voqeani bildiradi va kortes chaqirib, gunohkorlarni jazolashni talab qiladi. Kortesda graf de Karrion vorislari va ularning himoyachilari oʻzlarining nasl-nasablarini pesh qilib, Sidga qarshi xuruj kiladilar. Sid ham dadil va bamaylixtir puxta reja tuzib, ular bilan olishishga tayyorgarlik koʻradi. Kortess har ikki tomondan uchmadan vakil olib, shular oʻrtasida jang oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qiladi. Olishuvda Sidning bahodirlarigraf de Karrion vorislarini magʻlubiyatga uchratib tantana qiladilar. Shu vaqtda Navarra va Aragon shahzodalaridan Sid qizlariga sovchilar keladi.

«Qoʻshik» Sidning uzil-kesil gʻalabasini madh etish bilan tugaydi.

Poemada Sid xalq qahramoni sifatida gavdalanadi. Rekonkistaning keng xalq harakatiga aylanib ketishi qoʻshiqning demokratik xarakterini kuchaytiradi. Shuning uchun ham asarda

ba'zi bir tarixiy faktlar chetlab o'tilgan. Pozmaning qahramoni tipik feodal sifatida o'z maifaati uchun kurashgan, mustaqil hukmronlikka intilgan tarixiy Siddan o'zining xalqchil xususiyatlari, bilan farq qiladi. Sid jangchi sifatida butun kuchini mavrlarga karshi kurashga bag'ishlagan otashin vatanparvardir. Uning dushman bilan hayot-mamot urushi ketayotgan bir paytda Ispaniyaning milliy birligi uchun intilishi va bu ishda kirol Alfonsga sodiq vassal sifatida xizmat kilishi vatanparvarlikning ifodasi edi. Tarixiy Sid feodal a'yonlari tabaqasiga mansubdir. «Qo'shiq»ning qahramoni esa aristokratiyaga mansub bo'lmagan oddiy ritsar qilib tasvirlanadi va u feodal-zodagonlarga karama-qarshi qo'yiladi.

Tarixiy Sidning drujinasi o'z vassallaridan emas edi, chunki ular oila va mol-mulkdan judo bo'lishdan qo'rqib, Sid bilan birga ketmagan edilar, «Qo'shiq»da tilga olingan jangchilar, asosan, noroziguruhlar – «har xil toifadan» va yo'l-yo'lakay kelib qo'shilgan oddiy kishilardan iboratdir. Bu «qurama» jangchilar o'z mol-mulkalaridan ajralishlarini bila turib, Sidning otryadiga qo'shiladilar. Qirol Alfons bunday kishilarni darhol bor-yo'g'idan mahrum etar edi. Shuning uchun ham Sid, biringizni ikki qilib qaytaraman, deb ularga va'da beradi. Sid hammadan oldin tinch turmush o'rnatuvchi kishi sifatida tasvirlanadi, u bo'lar-bo'lmasga qon to'kavermaydi, zarur bo'lgandagina hamla qiladi. Sid obrazining qimmatini uning o'ylab ish qilishida, xushchaqchaqligida, saxiy va adolatlilikidadir. Sid dushmanga nisbatan shafqatsiz va ayni zamonda olijanob hamda mard kishidir. Graf Raymund Berenger askar to'plab o'z territoriyasidan o'tib ketayotgan «sayoq» Siddan o'ch olmoqchi bo'lganida, Sid uning qo'shinlarini tor-mor etib, maqtanchog'rafning o'zini asir oladi, keyin yana uyiga qo'yib yuboradi.

Sid qizlarini, shuningdak, o'zini xam tahqir etgan de Karrion vorislari bilan qanday muomala qilishni yaxshi biladi. Dastlab u kuyovlariga taqdim etgan qilichlari va boshqa tuhfalarini qaytarib oladi. Shundan keyingina ulardan o'z nomusi uchun qasos olish payiga tushadi.

Pozmada maishiy va oilaviy tafsilotlar realistik badiiy bo'yoqlarda aks ettiriladi. Qirol bilan kelisholmay o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan Sidning oilasidagilar bilan xayrlashuvi, yot o'lkalarda dushmanga zarba berib, o'z pozitsiyasini mustahkamlab olishi bilanoq ularni olib kelishga harakat qilishi va,

nihiyat, qizlarining baxti uchun kurashib, ularni tahqir etgan de Karrion vorislaridan o`ch olishi lavhalari bunga yorqin misol bo`la oladi.

Agar tarixiy Sidning quvg`in qilingungacha bo`lgan hayoti feodal ixtiloflar bilan o`tgan bo`lsa, undan keyingi faoliyati arablarga qarshi kurashlardan iboratdir. «Qo`shiq» qahramoni Sid esa feodal-zodagonlarga qarshi ko`tarilgan rekonkista harakatiga aktiv qatnashgan Ispaniyaning chinakam xalqchil milliy qahramoni sifatida keng shuhrat qozonadi. «Qo`shiq» qahramonlari mard, matonatli, boshqa obrazlar do`stlik va birdamlik ruhi bilan sug`orilgan kishilardir. Bir oz ayyor va beg`am, qirolni ham qadrlamaydigan Martin Antolines jangda oldingi qatorda turadigan mohir diplomat, ayollarni hurmat qiladigan, hammaning mehp-shafqatini qozongan Alvar Anyes hamda kamgap va sipo, mardlikda Kampeodordan ham ustun turadigan Pedro Bermudes Sidning eng yaqin hamrohlaridir. Bular, avvalo, Sidning do`stlari, so`ngra vassallaridir. De Karriinning vorislari yovuz, munofiq bo`lib, ular ochiq jangda «qo`rqqoq va yuzsiz» kishilar sifatida fosh etiladi. Ularning razilligi o`z xotinlariga munosabatida yaxshi ochilgan. Pedro Bermudes Sid farzandlari, ayol bo`lishiga qaramay, hamma joyda va har jihatdan maqtanchoq va yovuz niyatli shahzodalardan yuqori turadi, deydi.

Poemadagi oddiy jangchilarning xatti-harakatida feodal aristokratiyasiga qarshi tendensiya ochiq ko`rinadi. Bu kishilarning olijanob his-tuyg`ulari ispan zodagonlari Barsiloniyagrafi Berengyer va leonlik de Karrion vorislarining mag`rur va maqtanchoqligi, qo`rqqoq va pastkashligi, ikki yuzlama va zolimligiga qarshi qo`yiladi. Avtor poemadagi obrazlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ham realistik bo`yoqlarda tasvirlaydi. Kuyovlar Ferrando va Diegogonselaslar kelishgan chavandoz, lekin qo`rqqoq va surbet kishilardir. Zodagonlar bilan oddiy kishilarning hayotiy manfaatlari bir xil bo`lmaganidan ular o`rtasida to`qnashuv kelib chiqadi.

Ayollar obrazi ham ma`naviy boyligi bilan ajralib turadi. Poemada Sidning xotini donya Ximena o`z eriga sodiq, qiyinchiliklarga bardosh beradigan ayol obrazidir. Uning farzandlari sodda va sofdil qizlar sifatida tasvirlanadi. Sidning qizi donya Sol erining razilona harakatlarini la`natlaydi. Biz haqoratlanishdan ko`ra o`limni afzal ko`ramiz, lekin sizning bu kabi jinoyatingizdan

xristianlar ham, musulmonlar ham nafratlanadilar, deydi. «Qo`shiq» avtori ayollarga xayrixohlik bilan qaraydi, ularni haqorat qilganlarning jazoga tortilishi muqarrar, deb xulosa chiqaradi.

Ispan xalqining qahramonlik eposi, shu «Qo`shiq»ning jumladan «Sid haqida qo`shiq» o`rta asrlardagi G`arbiy yevropa qahramonlik eposidan bir qator o`ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Chunonchi, fransuz yoki nemis eposida qahramonona fojiaiviylik kuchli, ispan eposida esa qahramonona xushchaqchqlik ustun turadi. «Sid haqida qo`shiq»da ritsarlarga xos jangovar bahodirlik kulti, vassallarcha sadoqat hissi, manmanlik va mag`rurlik kayfiyati sezilmaydi. Sid kabi uning yordamchilari ham o`z xatti-harakatlari bilan oddiy kishilarga yaqin turadilar. Shuning uchun voqealar ko`tarinki ruh va ideal tarzda emas, balki real turmush hodisalariga bog`liq ravishda rivojlanadi. Sid drujinasining ta`minoti masalasi poemada markaziy o`rinda turadi. «Qo`shiq»da odamlarning «o`lja» olish, uni o`zaro taqsimlash, moddiy axvolni yaxshilash uchun intilishlari ham qayd etiladi. Unda epik asarlarga xos mubolag`a ko`p uchramaydi.

Arablar bilan xristianlar o`rtasida davom etgan uzoq urush tasvirlangan «Qo`shiq»da dinning ta`siri ko`rinadi. yepiskop de Jerame dushmanga qarshi jangda mardona kurashib o`lgan kishininggunohi to`kiladi, deb va`zxonlik qiladi. Lekin fransuz eposidagi kabi diniy jaholat ruhi sezilmaydi.

Ispan qahramonlik eposi ham, o`rta asr fransuz eposi kabi, dastlab, drujina muhitida jangovar epizodlarni ifodalagan kichik liro-epik qo`shiq shaklida og`zaki tarzda yuzaga kelgan. U X asrlarda ispan feodalizmi shakllanayotgan va mamlakatning milliy birligi uchun kurash tuyg`usi kuchayib borayotgan bir paytda yaratilgan hamda xalq ijodchilari – xug (baxshi)lar sozining jo`rligida badiiy takomillashib borgan.

Ispan qahramonlik eposi, shu jumladan, «Sid haqida qo`shiq» o`z shakli va aytilish usuli bilan fransuz eposiga o`xshab ketadi. Farqi shu yerdaki, qo`shiq notekis vazn deb ataladigan xalq vaznida, ya`ni 8-16 xijoli she`riy satrlardan tuzilgan. U uslub jihatidan ham ajralib turadi, chunonchi, maishiy masalalar tasviriga ko`p o`rin berilishi, jang epizodlarida mubolag`a va metaforaning deyarli yo`qligi, g`ayri tabiiy afsonalarning, ayniqsa xristian fantastikasining kiritilmaganligi yaqqol ko`zga tashlanadi. Sidning fantaziyaga boy

yoshlik yillaridagi xatti-harakatlari «Rodrigo» poemasida aks etgan. Bu poema «Sid haqida qo'shiq»dan keyinroq (XIV asr) yaratilgan bo'lib, unda tasvirlangan voqea qirol Alfons VI hukmronligi davrida emas, balki uning otasi qirol Ferdinand I vaqtida ro'y beradi. Poemada Rodrigoning otasi oddiy savdogar Diego Laynes bilangrafomes degormas o'rtasida o'tgan mojaro taovirlanadi.

Grafomes savdogar Diegoning cho'ponlarini qirib tashlab, uning mollarini xaydab ketadi. Diego bunga javoban, grafning mulkini talaydi. Bu ish yakkama-yakka jang bilan hal etilishi kerak edi. O'n uch yoshli Rodrigo keksa otasi uchun qasos olibgrafni o'ldiradi va o'g'illarini asir oladi. Grafning qizi Ximena otasi uchun o'ch olish maqsadida qirolga shikoyat qiladi. Qiyin ahvolga tushib qolgan qirol bu janjalni bartaraf etish maqsadida Rodrigoni chaqirib, uning Ximenaga uylanishi zarurligini uqtiradi. Garchi yigit qirolidan shubhalansa ham, bu taklifni noiloj qabul qiladi. Keyin Rodrigo mavrlarga qarshi kurashda katta g'alabalarni qo'lga kiritadi va olingan o'ljadan qirolga ulush to'lashdan bosh tortadi, bu ulushni katta xizmat ko'rsatgan kambag'allarga berishni ma'qul deb biladi.

Aragonning qiroli Kastiliyaga urush ochib, janjalni ikki ritsar o'rtasidagi jang xal qisin, deydi. Rodrigo otilib chiqib, Aragokning paxlavon ritsarini o'ldiradi. Nihoyat, Kastiliyaga qarshi fransuz qirol, german imperatori, patriarx va papadan iborat kuchli ittifoq tuziladi. Ular «Kastiliya fransuz qirolligiga itoat kilib, har yili 15 qiz, 10 ot, 30 marka kumush va bir qancha shunqor va lochindan iborat xiroj to'lab tursin», degan talabni qo'yadilar. Qirol Fernando Rodrigoni o'z armiyasining boshlig'i etib tayinlaydi va uni o'zi bilan hamma narsada teng huquqli deb taniydi. Rodrigo dushmani tormor keltirib, Parijni qurshab oladi: fransuzlar va uning ittifoqdoshlari sulh so'rashga majbur bo'ladilar. Shu tariqa Rodrigo Kastiliyaga to'la g'alaba keltiradi.

Qahramonning hayoti va faoliyati tavsifida fantaziya kuchli bo'lib, tarixiy voqelikdan ancha uzoqday ko'rinsa ham, lekin poema o'sha davr ruhini chuqur aks ettirgan, ya'ni unda rekonkistada qatnashgan keng xalq ommasining vatanparvarlik ruhi sezilib turadi. Bu ularning faqat mavrlarga qarshi kurashidagina emas, tashqaridan bo'ladigan har qanday tazyiqlar, fransuz hukmronlarining Ispaniyada feodal tartiblarini o'rnatishi va shu orqali eng yaxshi yerlarni qo'lga kiritishga qarshi noroziliklarida ham o'z ifodasini topadi.

Shuningdek, bu ruh kuchsiz va ta'magir qiroлга shubha bilan qarashda ham yaqqol ko`rinadi. Oddiy kishilarga samimiy munosabat, g'amxo`rlik, mardlik va qahramonlik Rodrigoda ritsarlik intilishlaridan ko`ra kuchliroqdir. Shuning uchun ham uning laqabi arablar bilan munosabatni ko`rsatadigan Sid ham emas, bahodirligini bildiradigan Kampeodor ham emas, balki oddiy kastiliyalikdir.

Italyan olim va yozuvchilari, shu jumladan, birinchigumanist Bokkachcho unutib yuborilgan qadimgi qo`lyozmalarni qidirib topishga kirishadilar. Xristian dini ma'nosini atayin buzib ko`rsatgan asarlarning asl tekstini tiklab, ularning mazmunini izohlaydilar. Konstantinopol yemirilganidan (XV asr) so`ng, u yerdan qochgangrek olimlari Italiyaga juda ko`p noyob antik qo`l yozmalarini keltirganlar. XV asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qadimgigrek va Rim shoirlari Vergiliy vagomer, Aristotel va Platonning asarlarini nashr eta boshlaydilar. G'arbiy yevropa shaharlarida ochilgan universitetlarda qadimgi tillar (latin, grek, yahudiy tillari) bilan shug`ullanuvchi maxsus kafedralar tashkil etiladi. Antik madaniyat va san'atni o`rganish feodal tartiblari, xristian dini va ideologiyasiga qarshi kurashda ijobiy rol o`ynadi.

UYG`ONISH davrining o`ziga xos xususiyatlaridan yana birigumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistik mazmunda ekanligidir. Ilg`or yozuvchilar teran g`oyaviy izchillik, mukammal va ixcham shaklga e'tibor beradilar, o'tmish merosga qiziqadilar. O'rta asrlar xalq poeziyasi va antik adabiyot an'analari bu davrning turli badiiy yodgorliklariga o`z ta'sirini ko`rsatdi. Yirikgumanistlar antik adabiyot namunalarida ifoda etishning xalq usullarini ko`radilar.

Uyg`onish davri realizmi din va cherkov asketizmidan, xoli bo`lgan fantastikadan ham ijodiy foydalanadi. Binobarin, voqealar qanday bo`lsa, shunday tasvirlanmay, balki real obrazlar fantastik bo`yoqlarda aks ettiriladi.

EVROPA UYG`ONISH DAVRI ADABIYOTI ITALIYADA UYG`ONISH DAVRI ADABIYOTI

Evropa Uyg`onish harakatining ilk vatani – Italiyada kapitalistik sanoatning dastlabki shakli – manufaktura yuzaga keladi.

Mamlakatning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Venetsiya vagenuya savdo bilan mashhur bo'lgan bir vaqtda Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozonadi. Bu yerda jun va ipakchilik sanoati avj oladi. Ishchilar bir korxonaga birlash-tiriladi va ularni ekspluatatsiya qilish kuchayadi. Binobarin, bu davr dastlabki kapital to'plash davri edi. Italiyada shahar-raspublika tartiblarining g'alaba qilishi, hunarmandchilikning va savdo-sotiqning tez rivojlanishi Renessans harakatining hammadan oldin shu mamlakatda yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Renessansning alohida belgilari Dante ijodida namoyon bo'lsa ham, lekin Uyg'onish davri to'la ma'noda XIV asrning ikkinchi choragidan boshlanadi va XVII asrgacha davom etadi. Italiyada Uyg'onish harakati avj olayotgan XIV asrda boy tabaqalar hamda ezilgan kambag'alguruhlar o'rtasida kurash keskinlashib ketadi.

Uyg'onish davridagi Italiya yozuvchilari antik madaniyat yodgorliklari bilan tanishishga kirishgan birinchi bosqichda latin tilidagi asarlarni o'rganadilar. Grek yozuvchilarining kitoblari bilan tanishish esa ikkinchi bosqichdan boshlanadi. 1453 yilda turklar mashhur shahar Konstantinopolni bosib olgach, Vizantiya imperiyasi yemiriladi, uning madaniy yodgorliklariga ham katta zarar yetadi, san'at va adabiyot ahli quvg'in qilinadi. Juda ko'p olimlar Italiyadan boshpana topadilar. Muhojirlargrek tilidan dars beradilar. Bu tilni bilib olgan italyangumanist olimlarigrek yozuvchilarining asarlarini asl nusxa holida o'rgana boshlaydilar. Bu madaniy aloqa italyan adabiyotining bundan so'nggi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunkigumanistlar xristian dini aqidalaridan xoli va hayotiy masalalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan antik dunyo falsafasi, adabiyoti va san'atida demokratik ruhdagi ijtimoiy tuzumni ko'radilar. Bular cherkovga qarshi kurashdagumanistlar qo'lida kuchli kurash qurol bo'ladi. Biroq antik adabiyotni o'rganishda ikki xil munosabat mavjud edi. Birinchi toifa kishilari unga shunday berilib ketgan edilarki, ular hatto o'z milliy tillarini ham unutib qo'yadilar. Bunday munosabat formal xarakterda bo'lib, antik madaniyat mohiyatini tushunib yetmaslikka olib kelar edi. Ikkinchi toifadagigumanistlar antik madaniyat namunalarini o'zlashtirib, undan yemirilib borayotgan feodal-cherkov axloqini fosh etishda foydalanadilar va o'z davri talabiga muvofiqgumanistik negizga

aooslangan yangi axloqni yaratishga intiladilar. Bu toifa ichidan Politsiana, Makiavelli, Ariosto kabi o`z davrining ko`zga ko`ringan yozuvchilari yetishib chiqdi.

Italyan Renessansi yevropaning boshqa mamlakatlaridagi ijtimoiy harakatga ham katta ta`sir ko`rsatadi. Fransuz, nemis va ispan gumanistlari antik madaniy merosni bevosita o`rganishlari bilan bir qatorda, uni italyan mutafakkirlarining asarlarini o`qish orqali ham o`zlashtiradilar.

Gumanistlar maktabda tarbiya ishlarini qayta qurish bilan birga oliy ta`limni ham isloh qilishga kirishadilar. Boshqa mamlakatlardan ancha oldin Italiya shaharlarida oliy yuridik maktablarning paydo bo`lishi diqqatga sazovordir. XII asrda mashhur Bolonya universiteti tashkil ztiladi. Uning yuristlari Rim huquqshunosligini o`rganib, uni G`arbning yakkayu yagona qonuni deb e`tirof qiladilar. Rim qonunshunosligi haqidagi bu qarashlar Uyg`onish davrini tayyorlashda muhim omillardan biri bo`lgan edi.

Mamlakat madaniy hayotida misli ko`rilmagan yangiliklar yuz bera boshlaydi. XIII-XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 universitet ochiladi; ularda ilohiyot ilmi emas, balki huquqshunoslik, meditsina fanlari o`rgatiladi. Antik tarix, adabiyot va san`atni o`rganish dunyoviy fanlarning rivojiga, shubhasiz, jiddiy ta`sir ko`rsatadi. Bu o`zgarishlar XV-XVI asrlarda buyukgeografik kashfiyotlarni keltirib chiqaradi fanlari sohasida yutuqlar erishiladi.

Uyg`onish davrida italyan tasviriy san`atida ham jiddiy burilish sodir bo`ladi. Shaharlarning taraqqiy etishi natijasida arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik san`ati, badiiy adabiyot kamol topadi. Italyangumanist yozuvchilari klerikal ruxdagi adabiyotdan foydalanib, dnniy syujetlarni real voqelik bilan bog`lashga intiladilar. Yangi tematikaga murojaat etish badiiy tasvir usullarini ham o`zgartiradi. Bu hol, shubhasiz, o`rta asr adabiyotidagi allegorizmdan realizmga qarab yo`l ochadi. Garchi yangi zamonning birinchi shoiri Dante ijodida hali simvolistik tasvirlar mavjud bo`lsa ham, lekin u asta-sekin kamayib boradi. Dastlabkigumanistlar – Petrarka va Bokkachcho asarlarida mavjud simvolik iboralar ikkinchi o`ringa qo`yilib, realizm esa, birinchi o`ringa chiqariladi, voqelikni tipik ravishda, xarakterli detallar bilan aks ettirishga kirishiladi.

Uyg`onish davri adabiyotida tabiat manzarasini tasvirlash ham yangi ma`no kasb etadi. Bunday manzara Dante ijodidagi singari

shoirning ruhiy xolatini simvallashtirmaydi, balki o`zining cheksizgo`zalligi bilan inson his-tuyg`usini qo`zg`atuvchi va unga orom beruvchi manbaga aylanadi.

Uyg`onish davri yozuvchilari ijodida inson va uni o`rab olgan muhit, kishining cheksiz imkoniyatlari va qizg`in ehtiroslarini atroflicha aks ettirish muhim o`rin tutadi. Insonning xis-tuyg`ulari yangi sharoitda o`rta asr asketik hayotiga qarshi kuchli isyon ko`taradi. Petrarkaning sonetlari, typmush quvonchlari bilan to`la Bokkachcho hikoyalari shunday ruh bilan sug`orilgan asarlardandir.

Uyg`onish davri ryalizmining ijobiy qahramonlari xarakterida beqiyos jasorat va mardlik mujassamlanadi. Shaxs erkini himoya qilgan yirikgumanistlar o`z kuch-qudratiga, haq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok olijanob obrazlarni yaratish orqali Uyg`onish davrining hayotbaxsh ruhini ham aks ettiradilar.

DANTE ALIGYERI (1265-1321)

Italiya uyg`onish davri adabiyoti o`rta asrlarning so`nggi yirik vakili va Renessansning jarchisi Dante Aligyeri adabiy faoliyatini o`rganishdan boshlanadi. Ikki katta tarixiy davr chegarasida yashab ijod etgan bu ulug` siymo haqida keyingi davrlar olimlari ko`p iliqgaplar aytganlar.

Italiya shaharlari tez o`sib, feodal hukmronlar zulmidan ham ozod bo`la boshlaydi. Mustaqillikka erishgan shahar-davlatlarda respublikachilik tartiblari hukmron edi. Erkin shaharlar savdo-sotiq xo`jaligining markaziga aylandi. Lekin burjua munosabatlar erta yuzaga kelgan shaharlarning hammasi bir tekisda emas edi. Papaga bo`ysungan ba`zi viloyatlarda feodal tartiblari mutlaq ustunlik qilardi.

Markazlashgan hokimiyatni yuzaga keltirish uchun kurashgan dvoryanlar partiyasi –gibellinlargerman imperatoriga tayanadilar. Savdo-hunar partiyasigvelflar esa papa boshchiligida milliy davlat tuzishga urinadilar. Papa bilan imperator o`rtasidagi ko`p asrlardan beri davom etib kelgan nizolar XIII asrga kelgandagibellinlar bilangvelflar partiyasi o`rtasidagi to`qnashuvlarda yana ochiq ko`rinadi.

Siyosiy kurash Dantening vatani – savdo-sanoat markazi boʻlgan Florensiyada keskin tus oladi. XIII asrda Florensiya kommunalarigvelflar qoʻlida edi, lekingibellinlarning ham maʼlum taʼsiri sezilar edi. Shuning uchun ulargvelflarning boshliqlarini shahardan haydab chiqarib, hokimiyatni bir necha bor qoʻlga kiritgan edilar. Lekingvelflar papa yordamida dvoryan –gibellinlarni davlat tepasidan uzil-kesil tushirib yuboradilar.

Dantening ijodi va ijtimoiy-falsafiy qarashlari mana shunday siyosiy kurashlar jarayonida shakllandi va rivoj topdi. Dante Aligyeri Florensiyada eski dvoryan urugʻiga mansub oilada tugʻiladi. Lekin oilasi aristokratik imtiyozlarni yoʻqotganligi sababli uning otasigvelflar partiyasi safida edi. 1283 yilda Dante aptekachi va vrachlar kasabasiga yoziladi. Bu kasaba kitob sotuvchi va rassomlarni ham birlashtirgan edi. Yosh Dante oʻrta asr maktabida oʻqiydi. Bilimini takomillashtirish uchun fransuz va provans tillarini oʻrganadi. Boshqalar kabi u ham antik adabiyotga qiziqadi, xususan, Vergiliyning ijodini katta qiziqish bilan oʻrganadi. Dante poeziyaga juda erta berilib, lirik sheʼrlar yozishga kirishadi.

Dante Florensiya kammunasi tamonida turib, dvoryanlar partiyasigibellinlarga qarshi kurashadi. 1301 yilda u shahar idorasiga saylanadi. Oqgvelflar qatorida turib, oʻz shahrini mansabparast papa Bonifatsiy VIII ning sirtmogʻidan ozod qilish uchun butun kuchini sarf etadi. Biroq papa partiyasi gʻalaba qilgach, 1302 yilning boshida Florensiyadan kuivilgan Dante darbadarlikda yashaydi. U Veronada, Mantuya va Parijda boʻladi. Umrining soʻnggi yillarini Lukka va Ravennada oʻtkazadi.

Darbadarlik Dantening siyosiy qarashlariga kuchli taʼsir etadi. U faqat imperator hokimiyatigina papa hokimiyatiga zarba berib, Italiyada tinchlik va birlik oʻrnata oladi, degan fikrga keladi.

Dante 1310 yilda Italiyada «tartib» oʻrnatmoqchi boʻlib kelgangerman imperatorigenrix VIIga katta umid bogʻlaydi. Biroqgenrix Florensiyani ishgʻol qilishga ulgurmasdan, kasal boʻlib, 1313 yilda vafot etadi. Dantening vatani Florensiyaning ozod etilishi va unga qaytib borish haqidagi soʻnggi orzulari roʻyobga chiqmaydi.

Dante oʻz adabiy faoliyatini lirik shoir sifatida boshladi. Oʻsha vaqtlarda Florensiyada Averroes va materializmga yaqin shakkoklik ruhidagi arab falsafasi keng tarqalgan edi. Dantaning yaqin doʻsti florensiyalik shoirgvido Kavalkanti (1259-1300) arab faylasufi

Averroes(Ibn Rushd)ning izdoshlaridan edi, gvido jonning o`lmasligi haqidagi diniy qarashlarga ishonmaydi. Dante ham jamiyat haqidagi fikrlarini bayon etishda Averroes ta`limotiga asoslanadi.

XIII asr italyan lirikasi va Dante poeziyasi rivojiga faqat latin adabiyotigina emas, balki arab she`riy tuzilishi ham ta`sir etadi. Sharq adabiyoti motivlari Florensiyaga Sitsiliya va Provans trubadurlari asarlari orqali o`tgan edi. Dante poeziyasining eng yaxshi namunalari uning «Yangi hayot» to`chlamiga kiritilgan.

O`ttizta she`rni o`z ichiga olgan «Yangi hayot» to`plami 1291 yillarda yozilgan bo`lib, ular shoirning sevgilisi Beatrichega bag`ishlangandir. Bu she`riy asarda shoirning muhabbati, shirin xayollari Beatrichening bevaqt o`limidan so`ng uni qurshab olgan g`am-alamlar bilan qo`shilib ketgan. She`rlarning mazmuni nasriy hikoyalar, falsafiy izohlar bilan sharxlanadi.

Dante to`qqiz yoshga kirganida o`ziga tengdosh Beatricheni ko`radi va uvi sevib qoladi. Shundan to`qqiz yil o`tgach, ular yana uchrashadilar. Qizning ochiq chehra bilan ta`zim qilishi shoirmi hayajonga soladi. Uyga qaytgan shoir tush ko`radi va bu tushlarini o`zining birinchi she`ri(soneti)da tasvirlaydi. Beatrichening obrazi shoirmi ijodiy izlanishlarga ilhomlantiradi. Jozibador va «oliximmat» Beatricheni ko`rgan kishining bahri ochiladi, o`zini baxtli xis qiladi, g`am-g`ussa va yomonlik undan yiroqlashadi, deydi shoir. Dante Beatricheni pokiza va musaffo qiz deb tasvirlaydi.

Avtobiografik xarakterdagi «Yangi hayot» to`plami sevgan qalbning nozik ruhiy kechinmalarini bera bilishi bilan diqqatga sazovordir. Lekin unda o`rta asr diniy-cherkov adabiyotidagi videnie janrining elementlari – allegoriya va simvolika ham mavjud. Asarda uchraydigan 9 raqami (9 kun, 9 osmon) shoir hayotida yuz bergan muhim voqealar bilan bog`lanib ketadi. Bu to`plamda mistik va simvolik eletmentlar bilan birga yangi realistik belgilar ham bor. «Yangi hayotning boshlanishi» haqida shoirning tantana bilan dovrug` solishi bunga misol bo`la oladi.

Dante Beatriche vafotidan so`ng o`ziga tasalli berish maqsadida ilmiy-falsafiy traktatlari masalalar bilan shug`ullanadi, o`rta asr sxolastik dunyoqarashni o`rganadi, antik adabiyot bilan chuqur tanishadi. Natijada axloqiy-falsafiy xarakterdagi «Ziyofat» traktati (1307-1308) yuzaga keladi. Dantening fikricha, o`rta asrlar

falsafasi, dini va axloqi tasvirlangan bu kitob o'sha davrning ensiklopediyasiga aylanishi kerak edi.

«Ziyofat» risolasida yozuvchi yer yuzida ikki hokimiyat – imperatorlik va papa hukmronligi mavjud deb, dunyoviy hokimiyatning dindan mustaqil ekani va uning ildizi qadimgi majusiy Rimga borib taqalishi haqida to'xtalib o'tadi. Avtor insoniyatning tabiiy va g'ayri tabiiy ikki maqsadi bor, tabiiy maqsad – turmush farog'atlari bilan bog'liq bo'lib, uni amalga oshirishda kishiga cherkov aqidalaridan xoli aql-idrok va iroda madad berib turadi, degan fikrni targ'ib qiladi. Asarda boshqa yangi qarashlar ham mavjuddir.

Dante o'rta asr traditsiyalariga amal qilmay, «Ziyofat» traktatini eskirgan latin tilida emas, balki italyan tilida yozadi, bu jonli tilning kelajagi porloq ekanligini ta'kidlab, kitobni yangi oftob deb ataydi. «Bu – arpa nonniki, undan minglab kishilar to'yinadi... Bu eski oftob botganidan so'ng uning o'rniga chiqadigan yangi oftob – yangi nur bo'ladi».

Dante xalq tilini himoya qilib, bu til orqali o'rta asr bilimlarini keng yoyishga intiladi. Bundan tashari, u odamdagi olijanob xislatlar uning avlodi, davlati va mansabiga bog'liq bo'lmay, balki uning qobiliyati natijasidir, degan Uyg'onish davri uchun xarakterli bo'lgan gumanistik fikrni ilgari suradi.

Dantening latin tilida yozilgan «Xalq nutqi haqida»gi traktati (1305) roman tilshunosligi bo'yicha birinchi ilmiy asardir. Bu kitobida yozuvchi roman tillari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi, ularning latin tiliga aloqasi haqida to'xtalib o'tadi va, nihoyat, butun Italiya uchun yagona milliy til yaratish kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

«Ilohiy komediya» – Dante ijodining kamolotga erishgan davridagi siyosiy, falsafiy va adabiy faoliyatining yakuni sifatida bunyodga kelgan, uni «o'rta asrning eng oxirgi va shu bilan birga yangi zamonning eng avvalgi shoiri» sifatida tanitgan asardir. Dante xali ko'p jihatdan o'rta asr urf-odatlarini, sxolastik – bilim ta'siri ostida bo'lsa ham, lekin bu asarida u zamonaviy masalalarni fantastik bo'yoqlarda aks ettirib, yangi tanqidiy fikrlar bilan boyitadi, butun o'rta asr madaniyatiga falsafiy-adabiy xulosa yasaydi. Gumanistik g'oyalarni qat'iylik bilan himoya qilgan bu yozuvchi o'sha vaqtda avj olgan diniy jaholat va munofiqlikka qarshi ayovsiz kurashdi.

Dante o'z asarini «Komediya» deb atagan. Yozuvchi vafotidan ancha keyin unga «Iloxiy» so'zi qo'shilgan, bu so'zdan kitob diniy xarakterda degan xulosa chiqmaydi, balki bu nom uning badiiy jixatdan yuksak asar ekanini ifodalash uchun qo'llangan.

Dante «Ilohiy komediya»ni yaratishda o'rta asrlardagi «videnie» (xayoliy ertak) janridagi allegoriya va simvolikadan foydalangan, biroq unda diniy adabiyotda targ'ib qilingan «narigi dunyo» g'oyasi va itoatkorlik emas, balki real hayot bilan bog'liq muhim masalalar tasvirlangan.

Dantening o'ziga xos aniq tuzilgan badiiy qurilmasi bor.

Xristian dinida ko'rsatilganidek, yozuvchi «narigi dunyo»ni uch qism – «Do`xax», «A`rof» va «Jannat»ga bo'lgan. Asarning har bir qismi 33 qo'shiqdan tuzilgan, kirish qismi esa bir qo'shiq, hammasi bo'lib 100 qo'shiqdan iboratdir.

Dante tasvirlagan «Do`xax» (asarning birinchi qismi) yer markaziga voronka shaklida o'yib tushirilgan joy bo'lib, unda 9 pog'onali chuqurlik bor. Gunoxkor jonlar shu pog'onali chuqurlarda azob chekadilar. Pastki nog'onaga tusha borgan sari jon qattiqroq azoblanadi. MUHIMI shu yerdaki, Dante o'zining siyosiy muxoliflarini do`xaxga tashlaydi, ayniqsa xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do`xaxning so`nggi pog'onalariga joylashtiradi.

Dantening tasviricha, «A`rof» (poemaning ikkinchi qismi) yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o`rtasidagi orolda baland tog` bor. TOG` YETTI pog'onali bo'lib, ulardan o`tib borayotganida aybdorning bittadangunohi yuviladi, 7 pog'onadan ko`tarilganda 7gunoh(mag`rurlik, ichi qoralik, g`azab, umidsizlanish, ta`magirlik, mechkaylik, buzg`unchilik) yo`qoladi va u jannatga chiqadi. «Jannat» ham 9 qavatga bo`linadi, jon qancha yuqori pog'onaga ko`tarilsa, ugo`yo xudoning shuncha ko`p marhamatiga muyassar bo`ladi.

Dante 35 yoshlarida qorong'i o`rmonzorda adashib qoladi. Shu vaqt quyosh shu'lasini tushib turgan tepalikka qarab yura boshlaganida, uch yirtqich hayvon – epcil bars, och yo`lbars, yomon niyatli bo`ri uning oldini to`sib chiqadi. Shu vaqtda «kutilmagan do`st» Rim imperiyasining shoiri Vergiliy yetib kelib, uni Dantega yordam berish uchun Beatriche yuborganini bildiradi.

Vergiliy Dantega dalda bergach, unga do`xaxda azob chekayotgan jonlarni ko`rsatmoqchi bo`ladi.

Do`xaxning yo`lagida jamiyat uchun zarracha qimmatli bo`lmagan qo`rqoqlar, sharaftsizlar yotadi. Ularning kechirgan hayoti tutundan ham tezroq tarqalib ketadiki, ular do`xaxga ham nomunosibdirlar. Vergiliy shogirdiga: «Qara-yu, yonidan o`tib ketaver», – deydi. Qo`rqoqlar orasida Dante og`ir vaziyatda uni tashlab ketgan sobiq partiyadosh o`rtog`ini ham uchratadi.

Shoir ustози Vergiliyning yetakchiligida do`xaxning birinchi pog`ona-siga yo`l oladi. U yerda antik adabiyotning yirik vakillari – bosh ustozgomer, so`nragoratsiy, Ovidiy va Lukanni ko`radi. Dante o`zining bu ulug` yozuvchilar safida 6-o`rinda turajagini eslaydi. Xristian ta`limoti bo`yicha, qadimgi dunyo kishilari, ya`ni majusiylar jannatga kirolmas edilar. Ular ham do`xaxga tushadilar, lekin yozuvchi ularga imtiyozli yerdan joy beradiki, bu Dantening o`tmishning ulug` shoirlariga juda katta mehr-muhabbat bilan qaraganini ko`rsatadi.

Do`xaxning ikkinchi qavatiga lazzatga berilganlar chang-to`zongirdobida yotadilar. Bular orasida Vavilonning afsonaviy malikasi Semiramida, Karfagen malikasi Didona, Misr malikasi Kleopatra, go`zal yelena, Paris va yana boshqalarning «behisob soylari» ko`rinadi. Ayniqsa ikki sevishganning sharpasi yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Bu Paolo ismli yigit bilan Francheska da Rimini ismli qiz soylari edi. Francheska aqlli va xushfe`l yigit Paologa ko`ngil qo`ygan edi. Lekin qizni Paologa emas, uning akasiga – ota davlatining merosxo`ri bo`lmish sezgir, lekin juda xunuk Djanchottoga beradilar. Qiz o`zining aldanganini to`yning ikkinchi kunigina anglaydi. Sinxor Djanchotto ish bilan dalaga chiqib ketgan vaqtlarida har ikki yosh – Paolo bilan Francheska xursandlik bilan vaqtlarini birga o`tkazardilar. Bir kuni ular Lancelotni birga o`qiy boshlaydilar. Kitobdagi sevishganlar bir-birlaridan bo`sa olayotgani tasvirlangan joyga kelganlarida, ular ham bexosdan o`pishib oladilar. Keyinchalik Paolo bilan Francheskaning yaqinligidan xabar topgan Djanchotto ularni qilichi bilan chopib tashlaydi. Paolo va Francheska shugunohlari bilan do`xaxga tushadilar. Biroq Dante qiz hikoya qilgan bu fojiali voqeani diqqat bilan tinglar ekan, Francheskaning mushkul ahvolini sezib, ox, tortib yuboradi va xushidan ketadi. Bu yerda ham Dante qarashlariga xos

ziddiyat to'la namoyon bo'ladi. Bir tarafdin u muhabbatni «gunoh» deb ataydi va shuning uchun sevishtganlarni do'xaxga joylashtiradi, ikkinchi tomondan, qizning hikoyasini katta xayrixohlik bilan tinglaydi, unga hamdard bo'ladi. Bu esa yozuvchida yangi zamonga xosgumanistik tushuncha tug'ilib kelayotganligining belgisi edi.

Do'xaxning uchinchi qavatida yeb to'ymas mechkaylar, to'rtinchisida xa-sislar hamda isrofgar papa va kardinallar, beshinchisida g'azabini bosolmaganlar va shohlar jazolanadi. Oltinchi qavatda daxriylar yotadilar. Shu yerda yerelikdagumon qilingan papa Anastasiy ham bor. yettinchi qavatda zo'rllovchilar, qotillar o'zlari to'kkan qonlari ichida belanib yotadilar.

Sakkizinchi qavatda har qanday turdagi firibgar-aldoqchilar, sha'nini sotganlar o't ichida jazolanadilar. O'z mansabini suiiste'mol qilgan papa Nikolay III bir chuqurlikda alanga ichida yotadi. U Dantega qarab, sen mening o'rnimga keldingmi, deb quvonadi. Dante esa sening aytgan kishing men emasman, deb o'tib ketadi. Papa Nikolay III o'rniga papa Bonifatsiy VIII kelishi kerak ekan. Shu doiraning bir yerida ikkiyuzlamachilar va poraxo'rlar jazolanadilar. Sakkizinchi doirada o'g'rilar qattiq azob ichida yotadilar.

Nihoyat, do'xaxning 9-doirasida eng og'ir jinoyat – xoinlik qilganlar qattiq muz ustida azob chekadilar. Ular bir-birlarini tishlaydilar, sochlarini yuladilar. Ayniqsa Ugolino fojiasi tasvirlangan epizod juda daxshatlidir. U Rudjeri bilan bir yerda azob chekadi. Oqlar partiyasining a'zosigraf Ugolinogibellinlar boshlig'i – yomon niyatli arxiepiskop Rudjeriga ishonib, o'z sirini aytib qo'ygan. Gibellinlar yengib chiqqach, u Ugolinoni qasddan ayblab, bolalari bilan zindonga tashlatgan. Ochlik birin-ketin to'rtala o'g'lini xalok etgan. Uning o'zi ham og'ir axvolda qolgan, ochlik undagi g'am-g'ussadan ustun chiqqan va u o'lib yotgan bolalarining jasadini g'ajishgacha borgan va oxirida o'zi ham ochlikdan o'lgan.

Vergiliy Danteni «Do'xax»dan so'ng yetti bosqichdan iborat «A'rof»ga olib boradi. Gunohi u qadar og'ir bo'lmagan jonlar shu bosqichlarda tozalanib o'tib, to'g'ri jannatga kiradilar. Ular jannat eshigiga yetganlarida Vergiliy ko'zdan g'oyib bo'ladi(u xristian bo'lmagani uchun jannatga kirolmas edi) va darhol paydo bo'lgan Beatriche Danteni ichkariga olib kirib ketadi, unga to'qqiz pog'onadan iborat jannatni tomosha qildiradi. Dante jannatda

dunyoviy xokimiyat vakili imperatorgenrix VII uchun alohida joy ajratilganini ko`radi.

Poemaning birinchi («Do`xax») qismi uning ikkinchi («A`rof») va uchinchi («Jannat») qismlaridan badiiy tomondan yuqori turadi, chunki unda dunyoviy ehtiroslar bilan bog`liq bo`lgan voqealar aks etadi.

Dantening kuchli realistik tasvirlashga mohirligi ham hammadan ko`ra birinchi qismda ravshan ko`rinadi. Kishi obrazlari va ularning ehtirosli his-tuyg`ulari juda qisqa iboralar orqali ochiladi. Ular yer yuzida qanday maslak va qanday xarakterga ega bo`lsalar, do`xaxda ham shu xususiyatlari bilan gavdalanadi. Gunohkorlar do`xaxda ham Dante bilan o`sha zamondagi florensiyalik kishini qiziqtiruvchi siyosiy mavzularda munozara olib boradilar. Mag`rurgibellin Farinata deli Uberti (X qo`shiq) do`xaxning oltinchi qavatida yereslar qatorida alangada kuyib yotsa ham, uning yuragigvelflarga avvalgidek nafrat bilan to`la edi. Dante o`z shahrini mudofaa etishda qatnashgan bu olijanob qahramonning mardligi va irodasining kuchiga qoyil qoladi. Chunki Farinata shunday og`ir ahvolda ham yer yuzidagi hayot bilan qiziqadi.

Dante o`z badiiy priyomlarida tabiat hodisalaridan ham ustalik bilan foydalanadi. Muzli ko`lda azob chekayotgan va suvgagoh cho`kib, goh qalqib turgan xoinlarni boshlarini suvdan chiqarib vaqirlayotgan qurbaqalarga o`xshatadi. «Ularning qalblaridagi sovuqlik va qayg`u ko`zlaridan ham sezilib turadi» («Do`xax», XXXII qo`shiq).

O`tli chuqurda jazolanayotgan mug`ambir maslahatgo`ylar, firibgarlar haqida fikr yuritganda («Do`xax», XXVI qo`shiq) Dante osoyishta Florensiya tunida kechasi yaltirab ko`rinadigan qurt bilan to`lgan vodiyni eslaydi. Vatan sha`niga dog` tushirgan bunday kishilarni nafrat bilan tilga oladi.

Dante tabiat hodisalari tasviriga alohida ahamiyat beradi. «Do`xax»dagi qayg`uni aks ettirgan bo`yoq va zulmat «A`rof»da ochiq va moviy osmon bilan almashadi. Dante «Jannat»dagi bog`larni o`z vatanidagi yashnagango`zal bog`lar bilan taqqoslaydi. Tabiatni yaqindan his qilish diniy-asketizmga zid moddiy dunyoga mehr qo`yish holatlarining kuchliligi shoirning yangi tipdagi yozuvchi ekanligidan dalolat beradi.

Dantening badiiy mahorati, ravon tili, qisqa iboralari, ta'sirchan lavha va obrazlari chuqurgumanistik g'oyalarni yoritishga yordam bergan.

Dantening «Ilohiy komediya» poemasi, shubhasiz, dunyo adabiyotining nodir asarlari qatoridan o'rin olgan.

Dante to'la ma'nodagi Renessans adabiyotining yozuvchisi emas, chunki uning ijodida eski zamonning qarashlari yangi fikrlar bilan qo'shilib ketgan edi. U o'rta asr diniy adabiyoti traditsiyalari bilan bog'liq edi. Uning poemasiga xos bo'lgan allegorizm va xristian simvolikasi ham ana shuning natijasidir. Masalan, poemaning boshida Dantening qorong'i o'rmonzorda adashib kolib, uch yirtqich hayvonga duch kelishi va qadimgi Rim shoiri «ustoz» Vergiliy paydo bo'lib, Dantega yordam berishi manzaralari to'la allegoriyadan iboratdir. Qorong'i o'rmonzor diniy-axloqiy nuqtai nazardangunohlar bilan to'lgan real hayot, uch yirtqich hayvon – odamni halokatga duchor qiluvchi uch nuqson – mag'rurlik, ta'magirlik va shahvatparastlikdir. Siyosiy-axloqiy nuqtai nazardan qaraganda yozuvchi «qorong'i o'rmonzor» deb XIV asrning boshlaridagi Florensiyani nazarda tutadi. Do'zaxga «sayohat» qilgan Dante turli xildagigunohkorlarni ko'zdan kechirishi va ularga tanqidiy qarashi bilan kishi ongining uyg'onishini aks ettiradi, o'sha davr ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Pozmaning ko'p obrazlari diniy-axloqiy ma'nodan tashqari siyosiy ma'noni ham anglatadi. Dante ustози Vergiliyning «Eneida» poemasiga taqlid qilib, jahon imperiyasi hakidagigibellinlarning ideyasini simvallashtiradi. Qizig'i shundaki, gibellinlar bilan kurashgan papa do'zaxda yotadi. Sezarni o'ldirgan Brut va Kassiy eng og'ir jinoyat qilganlar qatoriga kiritiladi. Dunyoviy hokimiyat uchun kurashgan imperatorgenrix VII uchun jannatdan joy ajratiladi. Ayniqsa, poema davomida katolik cherkovi va uning ruhoniylari mansabfurushlik, ochko'zlik, ta'magirlikda ayblanib, ular eng og'ir jazoga duchor qilinadi. Shuning uchun ham Dante dunyo adabiyotida ochiq ko'ringan «tendensioz shoirlar»dan edi. Asardagi antiklerikal motiv ham yangi tug'ilib kelayotgan Uyg'onish davri adabiyoti uchun dinga qarshi kurashda asosiy qurol bo'lib xizmat etadi.

Dantening «Ilohiy komediya»sining kompozitsiyasi puxta ishlangan. Asar tuzilishida uchlik (poemaning uch qismdan tashkil topishi, uch yirtqich hayvon, iblisning uch yuzliligi, hatto

she'rlarning tersina – uch misrali ekanligi) troitsa haqidagi xristian ideyasi simvoli sifatida ko`rinsa ham, lekin asarning yaratilishida antik adabiyot manbalari asosiy rol o`ynagani nazarda tutilsa, poema o`z mazmuni bilan xristian dini doirasini yorib, keng yo`lga chiqqanligi ravshanlashadi.

Uch raqami bilan antik yozuvchilarga xos asardagi fikrlarni ixchamlashtirib berish an`anasini qo`llash ham mavjud.

Dantega hammadan ko`ra ko`proq ta`sir ko`rsatgan kishi shoir Vergiliy bo`ldi. Dante o`z poemasida qahramon Eneyning marxum otasini ziyorat qilmoq uchun Tartarga tushishi kabi epizodlardan foydalandi. Yozuvchi «Do`zax» va «A`rof»ga qilgan sayohatida majusiy Vergiliyni o`ziga ustoz deb bilishi katta voqea edi. Diniy cherkov adabiyotidagi «videnie»larda farishta boshqaradigan ishni poemada g`ayri dindagi shoir Vergiliy bajaradi.

O`rta asrlarning haqiqiy «Iliada»si bo`lgan bu voemada Dante «o`z zamonasining ruhiy hayotini to`la va o`sha zamon shakllariga xos ravishda» aks ettirdi, uning nuqsonlarini ayamay fosh etdi; o`zaro urushlar natijasida xonavayron bo`lgan Italiyaning birligini yuzaga keltirish uchun tinmay kurashdi. Shuning uchun ham Dantening satirasi, birinchi navbatda, vatan xoinlariga va xristian dinining tayanchi – papaga qarshi qaratildi. Ular uchun «Do`zax»ning eng «dahshatli» joyidan o`rin ajratilishi tasodifiy emas edi.

Kristiai dini va papaning munofiqligi, sotqinligi va ta`magiriligiga qarshi omonsiz o`t ochgan buyukgumanist shoirning «Ilohiy komediya»si jahon adabiyoti tarixida ulkan yodgorlik bo`lib, mamlakatning demokratik asosda rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan qoraguruhlarini fosh etuvchi kuchi va qimmatini hamon saqlab kelayotgan noyob asardir.

PETRARKA **(1304-1374)**

Italyangumanizmining asoschisi Franchesko Petrarka o`z umrining ko`p qismini antik adabiyot yodgorliklarini o`rganishga bag`ishlagan yirik olim, mutafakkir, notiq va shoir sifatida shuhrat qozondi. U huquqshunoslik bilan shug`ullanadi. 1326 yilda ota-

onasidan ajralgan Petrarka o`qishini tashlab, Avinyonga qaytadi va ruhoniylilik xizmatiga kiradi. Bu narsa uni papa rezidensiyasiga yaqinlashtiradi. Saroyda davom etayotgan bemazagarchiliklar, ayshishrat va cherkov mansabini sotish kabi hollar ko`p kishilar qatorida Petrarkaning ham nafratini qo`zg`atadi. Garchi u din bilan bog`liq xizmatda bo`lsa ham, lekin diniy rasm-rusmlarga kam e`tibor beradigan zamonaviy kishi edi.

Petrarkago`zal ayol Lauraga bag`ishlangan dastlabki she`r-sonetlari bilan Rimga dong taratadi. Ilm-fanga qiziqqan obro`li Rim dvoryani Jovanni Kolonna 1330 yilda Petrarkani o`z saroyiga xizmatga taklif qilib, antik yozuvchilarning asarlarini o`rganishi uchun unga tegishli sharoit yaratib beradi. 1333 yilda shoir Fransiya, germaniya, Flandriyaga sayohat qiladi. Sayohatlar Petrarka dunyoqarashining yana ham kengayishiga yordam beradi. 1337 yilda Rimga borib, shaharning tarixiy-madaniy yodgorliklarini ko`zdan kechiradi. Avinyonga qaytgan Petrarkaning papa rezidensiyasi joylashgan va yaramasliklar avj olgan shaharda yashashi juda mushkul bo`lib qoladi. Shuning uchun u Avinyondan ketib, undan o`n besh chaqirimcha narida joylashgan Voklyuz qishlog`ida yolg`izlikda yashaydi (1337-1341). Bu yillar shoir ijodining mahsuldor yillari bo`ldi. Petrarkaning latin tilidagi «Afrika» poemasi Laypaga bag`ishlangan ko`p she`rlari ham shu yerda yaratiladi, bu asarlari shoirga shuhrat keltiradi. Qadimgi zamon shoirlari an`anasi bo`yicha 1341 yilda Kapitoliya (Rim)da katta tantana bilan unga g`alaba toji kiydiriladi. Shu vaqtdan boshlab Petrarka Italiya yozuvchilarining atoqli rahbariga aylanadi, uning nomi Italiyadagina emas, chet ellarda ham taniladi. Papa Kliment VI va boshqalar uni kotiblik vazifasiga taklif qilganlarida, mustaqilligini yo`qotib qo`yishdan cho`chigan Petrarka bu lavozimni rad etadi.

Petrarka ham Dante singari badiiy adabiyot vositasida o`z zamoni siyosiy hayotiga ta`sir ko`rsatish, vatanining milliy birligini yuzaga keltirish uchun kurashadi. 1347 yildagi antifeodal qo`zg`olon haqidagi xabarni eshitgan shoir darhol uni tabriklaydi. Qo`zg`olon boshlig`i Kola di Riensi qadimgi Rim namunasiga ergashib, Rimda respublika e`lon qilganida, Petrarka unga bag`ishlab, «Oliy ruh» nomli mashhur siyosiy kansonasini yozib, uni ma`naviy tomondan qo`llaydi. Biroq Riensi mag`lubiyatga uchraganidan so`ng, Petrarka Rim imperiyasini tiklash kerak, degan fikrga ham qo`shiladi, chunki

u har ikkala tuzum o`rtasidagi farq katta emas, degan tushunchada edi.

XIV asrning 50-yillarida Petrarka zamondoshi Bokkachcho bilan yaqinlashadi va ular o`rtasidagi do`stlik mustahkamlana boradi. O`z hayotining so`nggi yigirma yilini shoir oldin Milanda, so`ngra Venetsiya va undan keyin Padueda kechirdi. Milanda Jovanni Viskonti homiyligida yashagan Petrarka «Har qanday baxtsizlikka qarshi choralar haqida» (1358-63) traktatini yoza boshlaydi. Umrining oxirida ulug`umanist Padue yaqinidagi Arkva qishlog`ida yashab, 1374 yilda shu yerda vafot etdi.

Petrarka italyan Uyg`onish davrining ilk vakili, dunyo adabiyoti xazinasiga katta hissa qo`shganganumanist shoirdir. U Sitseronning ikki nutqini topdi. Antik yozuvchilari Sitseron va Vergiliylar ijodini diqqat bilan o`rgandi, ularni ustoz deb atadi. Grek yozuvchilari asarlarini esa italyan tiliga tarjima qildi. Qadimgi Rim yozuvchilarining uslubi, fikrlash shakllarini ham o`zlashtirib oldi. Italiya adabiyoti latin adabiyotining davomi ekanini ta`kidlab, asarlarini latin tilida yozdi. Qadimgi klassiklar tilini haqiqiy adabiy til deb tushunib, tor doiradagi bilimdonlar uchun imkoniyat tug`dirdi. Lekin jonli xalq tilidan qochish uning uchun orqaga ketishi edi.

Petrarkaning latin tilida yozilgan «Afrika» poemasi (1338-1342) qadimgi Rim klassik adabiyotining yirik namoyandasi Vergiliyning «Eneida» poemasi taqlid qilish asosida yuzaga keldi. Tugallanmagan bu asarida shoir Rim milliy qahramoni Afrikani zabt etuvchi Ssipionning g`alabalarini tasvirlaydi. Petrarka o`z poemasi uchun syujet materialini Rim tarixchisi Tit Liviydan oldi. Sitseronning respublikasidan esa Ssipionning tushi haqidagi hikoyadan foydalandi. Shoirdagi antiklik kulti – Italiyaning milliy mustaqilligini himoya qilish – feodal-cherkov zulmiga qarshi kurash g`oyasi bilan qo`shilib ketadi. Poemada vatanparvarlik ruhini aks ettirgan kuchli lirik momentlar ham bor.

Petrarka Vergiliyning «Bukoliklar»i (cho`ponlik poeziyasi)ga taqlid qilib, latinch 12 eklog ham yozdi. Pastarel formasidagi bu she`rlariga shoir yangi mazmun kiritdi. She`rlarning ba`zilari hajviy yo`nalishda bo`lib, ularda saroy, Rim zodagonlari, papa hokimiyati va undagi qabohatlar qattiq tanqid qilinadi. Ekloglarda shoiming shaxsiy his-tuyg`ularini aks zttiriladi. Laura qabri ustidagi qayg`usini tasvirlagan zklog shular jumlasiga kiradi.

Latin tilida yozilgan prozaik asarlari orasida «Mashhur kishilar haqida», «Unutilmaydigan narsalar haqida» nomli tarixiy asarlari ham ahamiyatlidir. Birinchi kitobida Rimning mashhur kishilari, shu jumladan, Aleksandr Makedonskiy, gannibal va boshqalarning biografiyasi tasvirlanadi. Asar qadimgi Rim va uning qahramonlari haqidagi xotirani yangilash va odamlarda vatanparvarlik ruhini qoʻzgʻatish kabi muhim masalani koʻtardi. «Unutilmaydigan narsalar haqida» kitobi ilgari yashagan avtorlardan koʻchirilgan parchalar, misollar va hikmatli soʻzlardan iboratdir. Kitobga koʻp Rim arboblari va Dante haqidagi hikoyalar ham kiritilgan. Asarning oʻz zamonasi uchun maʼrifiy-tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

Axloqiy-falsafiy traktatlari Petrarkaning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi beqarorlik va ziddiyatlarni aks ettiradi. Turmush quvonchlari, tabiatgoʻzalligini kuylash, majusiylilikni hurmatlash bilan birga yozuvchi xristian dini aqidalari doirasida ham oʻralib qoladi, oʻrta asr sxolastik dunyoqarashidan aloqani uzolmaydi. Bu holat undagi qaygʻuli kayfiyatlarni orttiradi. «Dunyoga nafrat bilan qarash xaqida» asarida (1343) Petrarkaning oʻz dunyoqarashi va tushunchasidagi ziddiyatlar («Ichki adovat»)ni tahlil qiladi. Bu kitob azob chekkan inson shaxsiyatining yangi adabiyotdagi birinchi tavba-iqroridir. Asar Petrarka bilan ruhoniyl Avgustin oʻrtasidagi munozara shaklida bayon qilingan. Avgustin oʻrta asr diniy-asketik qarashlarining asoschilaridan boʻlib, yoshligida shunday ikkilanishlarni boshidan kechirgan va bu holat uning mashhur «Iqror»ida aks etgan. Avgustin shoirdagi dunyoviy huzur-halovatga intilish, sheʼriyat bilan band boʻlish, shon-shuhrat va sevgiga berilish kabi hislarning oʻtkinchi narsalar ekanini aytib, uni bunday tuygʻularni yengishga va faqat muqarrar oʻlim va «narigi dunyo» haqida oʻylashga chaqiradi, Petrarka Avgustin bilan qizgʻin munozara qiladi. U sevgi va shuhratga boʻlgan ehtirosidan voz kecha olmasligini, Lauraga nisbatan sevgisi oʻzida koʻtarinki ruh tugʻdirajagini, u oʻtkinchi narsani emas, balki oʻlmas jonni sevajagini bildiradi. Avgustin Petrarkaning Lauraga munosabati hayotiy muhabbat ekanini aytib, unda bu haqda ishonch hosil qildiradi. Shoir uning fikriga qoʻshilishga tayyor, lekin oldin u bu dunyo ishlarini oxiriga yetkazishi kerak. Bundan maʼlum boʻladiki, yangi oʻzgarishlar roʻy berayotgan davrda yashagan Petrarka qarashlarida ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar bor. Lekin undagigumanistik ong

xristian-asketik dunyosi dogmalariga batamom taslim bo'lmaydi. Kishining dunyoviy ishlari, aql-idroki «narigi dunyo» haqidagi xayoliy tushunchalaridan ustun bo'lib chiqadi. Lirik she'rlarida Petrarka o'z o'tmishdoshlari – Provans qo'shiqchilari va italyan shoirlari kabi sevgi lirikasi bilan ham shug'ullanadi. U 1327 yilda cherkovdago'zal yosh ayolni uchratib sevib qoladi. O'z she'rlarida o'sha sevgan kishisini Laura nomi bilan kuylay boshlaydi. 1348 yilda bu ayol vafot etadi, shundan so'ng ham shoir unga bag'ishlangan she'rlar yozishni qo'ymaydi. Shoirning sevgilisi haqidagi she'rlari «Kansonyere» («Qo'shiqlar kitobi») deb ataladi. Keyinchalik Petrarka bu kitobni «Madonna Lauraning hayoti» va «Madonna Lauraning vafoti» deb ikki qismga bo'lgan. Garchi asarning nomi «Kansonyere» deb yuritilsa ham, lekin to'plamdagi sonet (317) konson (29 she'r)ga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Kitobda sevgi temasidan tashqari, siyosiy va falsafiy mazmundagi she'rlar ham bor. Ularning ba'zilari-da («Mening Italiyam», «Oliy ruh») vatanparvarlik g'oyasi kuylansa, boshqalarida papa hokimiyati nuqsonlari, maishiy buzg'unchiliklar fosh etiladi.

Bizgacha yetib kelgan Lauraga bag'ishlangan birinchi she'ri 1330 yillarda yaratilgan bo'lib, u Provans trubadurlari uslubida yozilgan va sevgini muruvvat simvoli, ilohiyotning xayr-saxovatiga aylantiruvchi italyan «Zavqli yangi uslubi» shoirlaridan yiroq turadi. Allegorik priyomlar shoirning o'z his-tuyg'ularini falsafiy-abstraksiyasiz oddiy fikrlar bilan bayon qilishiga xalaqit bermaydi. Dante ta'siri ostida u sevganini saxovatli, atrofidagi hamma narsalarga ijobiy ta'sir etuvchi qilib ko'rsatsa ham, Petrarkago'zallikni saxovat bilan teng deb bilmaydi. Uning sevgilisi – Lauraning xususiyatlari real. Laura kishini o'ziga maftun qiladigango'zal bo'lsa ham, u oshikqa beiltifot ayol. Shuning uchun shoirning sevgisi xayoliy bo'lib qoladi va uning qayg'uli hissiy kechinmalari to'plamda turli shaklda o'z ifodasini topadi. Asarda shoir qalbidagi ikki xil sevgi – ko'tarinki ruhiy muhabbat bilan real hissiy muhabbat o'rtasidagi qarama-qarshilik ham o'z ifodasini topadi. Real hayot ishtiyoqi shoirning ruhiy muhabbatga berilishiga yo'l qo'ymaydi.

To'plamning Lauraning vafotiga bag'ishlangan qismida endi u sevgilisining razmsizligidan zorlanmaydi, balki bu og'ir judolikdan keyin yuz bergan qayg'u-iztirobini aks ettiradi. Laura ritsar lirikasida

gavdalangan shafqatsiz xonimga o`xshamaydi, aksincha, yuzidagi niqobini olib tashlab shoir dardini tinglaydi, unga tasalli beradi, uning ko`zlaridan oqqan yoshlarini artib qo`yadi. Dante kabi Petrarka ham vafot etgan sevgilisini jannatda deb ko`rsatadi. Lauraning o`limidan keyin shoir qalbida tug`ilgan hissiy kurash ham tugaydi. Shunday bo`lsa ham, Petrarka Lauraga bo`lgan sevgisidan qaytmaydi. To`plam oxirida shoir bibi Maryamdan «gunoh»larini kechirishini so`rashi bunga yorqin dalil bo`la oladi.

Petrarka lirikasining tarixiy ahamiyati katta, chunki u Italiya poeziyasini mistika va allegorizmdan tozaladi, «gunoh» deb hisoblangan sevgi va dunyoviy ehtirosni kuylashga yo`l ochdi.

Petrarka poetik shaklga ham e`tibor bilan qarab, unga mustaqil ma`no berdi va u she`rlarining bejirim va nafis bo`lishiga erishdi. Dante esa shaklni fikr etish vositasi, deb bilar edi. Petrarka yevropa poeziyasini yangi badiiy obrazlar, yangi iboralar bilan boyitadi, ayniqsa, sonet janrini yana ham takomillashtiradi. Faqat sevgi lirikasigina emas, balki asarlar to`plamiga kirgan jangovarlik ruhi bilan sug`orilgan siyosiy she`rlari ham mamlakat birligini yuzaga keltirish uchun kurash olib borgan vatanparvarlar qo`lida g`oyaviy qurol bo`lib xizmat qildi.

JOVANNI BOKKACHCHO (1313-1375)

Italiyan Uyg`onish adabiyotining ikkinchi yirik vakili Jovanni Bokkachcho olim va adib bo`lib, o`sha vaqtda «nazar ilg`amas» deb hisoblangan zamonaviy novella janrini yuqori bosqichga ko`tardi, uning realistik va demokratik yo`nalishini belgilab berdi. Bokkachcho san`atkorning o`ziga xos xususiyatlarini yo`qqa chiqaruvchi, adabiyotning xalqchillik ruhiga va realistik yo`nalishiga to`siq bo`lgan, tabiat va insonning qadr-qimmatiga zid va real dunyoni rad etuvchi diniy-asketik ideologiya – transsendentlikni bartaraf etadi. Bokkachcho Parijda tug`ildi, onasi vafot ztgach, u Italiyaga olib ketildi. Bokkachcho Florensiya bilan Neapolda o`sib ulg`aydi. Otasining istagi bilan kommersantlik, shuningdek huquqshunoslikni o`rgansa ham, antik yozuvchilarning asarlariga qiziqadi. Lekin u tarixiy yodgorliklar, grek tilidagi adabiy asarlar

bilan istagancha chuqur tanisholmaydi, chunki otasi unga qadimgi adabiyot bilan faqat bo'sh vaqtlaridagina shug'ullanishga ruxsat etgan edi. Bokkachcho yigitlik davrini Neapolda o'tkazadi. Bu yerda ugumanistlar bilan yaqinlashib, grek tili va antik adabiyotni o'rganishga kirishadi. Yangi orttirgan do'stlari tufayli qirol Robert Anjuyskiy saroyidagi adabiy doiraga jalb qilinadi. Bokkachcho ijodining dastlabki bosqichida Bokkachchoning ilk ritsar romanlarini qayta ishlash bilan shug'ullandi. Shunday asarlaridan biri «Filokolo»da (1338) yozuvchi ilk o'rta asrlar adabiyotida mavjud bo'lgan xristian bilan majusiy (Florio va Byanchifore) o'rtasidagi qayg'uli muhabbat temasini qayta ishladi. Lekin avtor bu masalaga yangicha yondasholmadi.

Uncha katta bo'lmagan «Filostrato» poemasida (1338) shoir italyan yallachilari aytib yuradigan sakkiz bandli xalq strofasi (bayti) – oktavani qo'lladi. Asarning syujetini o'rta asr fransuz truveri Benua da Sent-Morning «Troya haqida roman»idan oldi va Troya jangchisi Troil bilan grek asirasigrizeidaning sevgisini o'ziga xos uslubda talqin etdi. Unga psixologik momentlar kiritdi.

Bokkachcho she'r va nasr aralash usulda yozgan «Ameto» pastoral idillasida (1341) antik cho'ponlik poeziyasi merosidan foydalandi. Bu asarda avtor qahramonlarning ichki kechinmalarinigina emas, balki cho'ponlar turmushi manzaralarining keng tasvirini ham berishga intildi. Adib asarda dunyoviy lazzatni, tabiiy his-tuyg'u va chin sevgini kuylaydi.

Asarniig qahramoni Ameto qo'rs va qo'pol yigit. U ovni sevadi. Ameto parilar orasida Liya ismli qizni uchratadi. Go'zal Liya ajoyib qo'shiqlari bilan yigitni o'ziga maftun etadi. Shu vaqtdan boshlab uning fikri-zikri qizda bo'ladi. Liyaga nisbatan tug'ilgan samimiy sevgi ta'siri ostida qo'pol va qo'rs Ameto o'zgarib, ajoyib fazilatli olijanob yigit bo'lib yetishadi.

«Fyezolan parilari» poemasida (1345-1346) Bokkachcho yana cho'ponlik temasiga murjaat qiladi. Asar antik miflarga, ainiqsa, Ovidiyning «Metamorfozalari»ga taqlid qilib yozilgan. Asarda Fyezolan tepaligi yonida tutashgan ikki daryo – Afriko va Menzola qanday qilib ikki sevishganning nomi bilan atalgani tasvirlanadi.

Hali Fyezolan shahri qad ko'tarmagan qadimgi zamonlarda shu tepalikda ma'buda Diana panohida ko'p parilar yashagan. Ular doirasiga kirib borgan cho'pon Afriko yosh pari Menzolani sevib

qolgan. Yigit xudo Veneraning maslahati bilan qizlar kiyimini kiyib, u bilan uchrashgan va ko`nglini so`ragan. Parilar turmush qurmaslikka qasam ichganligi tufayli Menzola Afrikoning muhabbatiga rad javob bergan. Biroq qiz qalbida tug`ilgan muhabbat xissi undagi tortinish va uyatchanlikdan ustun chiqqan, shunday qilib, u yigitga moyil bo`lgan. Ko`p o`tmay, qilmishidan afsuslanib, Afrikodan yiroqlashgan. Yigit bunga chiday olmay o`zini o`ldirgan. Uning qoni shu yerda oqadigan kichik daryo suviga quyilgani uchun bu daryo Afriko nomi bilan atala boshlagan. Menzola farzand ko`rib, ma`buda Dianadan yashirinib yurgan. Lekin uni ko`rib qolgan Diana g`azab bilan Menzolani kichik daryoga aylantirib yuborgan. Daryo Fyezolan tepaligi oldida Afriko daryosiga qo`shilib ketgan va shu vaqtdan boshlab daryo Menzola nomi bilan atalgan.

Afrikoning ota-onasi uning farzandini mehr-muhabbat bilan tarbiyalaganlar. Italiyaga kelgan titan Iapetning donishmand o`g`li Atlant Fyezolan shahrini qurgan, parilarni erga bergan. Shunday qilib, bu yerda yangi madaniy davr boshlangan. Afriko bilan Menzolaning o`g`li katta bo`lib, o`sha yerda istiqomat qilgan. Menzola Afrikoni sevib qolib, bu sevgini unutish uchun u o`zi o`ziga qarshi kurashadi, bu kurashda insonning tabiiy biologik talabi bilan diniy asketik urf-odatlar o`rtasidagi qarama-qarshilik ochib berilgan. Lekin insonning tabiiy istaklari ustun chiqadi. Sevishganlar o`z istaklari uchun qurbon bo`ladilar.

Ularning nomi bilan sevgi va abadiylik ramzi – Afriko va Menzola daryolari mangu yashaydi. Bunday xotima avtorgumanizmi va mahorati shakllanganligining yorqin ifodasidir.

Bokkachcho ijodining kamolot bosqichida «F`yametta» (1348) asarini yaratdi. Bu asar G`arbiy yevropa adabiyotida birinchi psixologik roman, «nozik his bilan to`la sevgi qissa»si edi. Yozuvchi unda sevgilisi tashlab ketgan ma`shuqaning his-tuyg`u va ruhiy azoblarini qahramon tilidan mohirlik bilan hikoya qiladi. Romanda avtobiografik momentlar ham bor. Masalan, turmushda F`yametta Bokkachchoga bevafoqlik qilgan bo`lsa, romanda Pamfilo F`yamettaga vafosizlik qiladi.

Bir kuni yosh vago`zal ayol F`yametta cherkovda Pamfilo ismli kelishgan yigitni ko`rib, uni sevib qoladi. Erli bo`lsa ham, uning butun hayolini shu yigit chulg`ab oladi. Yigit bilan topishganida u o`zini baxtli, deb xis qiladi. Nihoyat, ayriliq kunlari

yetib keladi. Pamfiloni kekxa otasi chaqirtirgan, u vataniga qaytishi kerak. Yigit F'yametta oldida bosh egib, unga bo'lgan sadoqatining abadiy ekanini izxor qilib, tez vaqt ichida yana u bilan uchrashishga va'da beradi. Mana endi F'yamettaning yolg'iz o'zi, u yor hayoli bilan yashamoqda. Vaqt o'taveradi, lekin yigitdan darak bo'lmaydi, vaxima aralash rashk uni azobga soladi. Buning ustiga uning qulog'iga Pamfilo uylanibdi, degan xabar yetib keladi. Biroq u umidini uzmaydi. Pamfiloning uylanganligi yolg'on bo'lib chiqadi. Lekin u boshqa bir ayolni sevib qolibdi, degan xabar F'yamettani butunlay umidsizlantiradi. Endi uning uchun yashashning ma'nosi qolmaydi.

O'rta asr ritsar adabiyotida, qisman undan keyingi adabiyotda ham, xonimlar ko'klarga ko'tarilar, ular oldida bosh egilar va ular, qandaydir, yetishib bo'lmas ideal sifatida tasvirlanar edi. Bokkachchodagi yangilik shundan iboratki, u yevropa adabiyotida birinchi bo'lib ayollarni o'z o'mi, xarakteri, ularning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, quvonch va azoblari bilan birga real ko'rsatib, psixologizmga asos soldi.

Bokkachchoning eng muhim asari «Dekameron» (1352-1354) hikoyalar to'plamidir. Gumanistik g'oyalar va voqelikni realistik tasvirlovchi «Dekameron» o'rta asr diniy asketizmiga qattiq va ayovsiz zarba bergan Uyg'onish davrining birinchi yirik asaridir.

O'z dunyoqarashi bilan respublikachi bo'lgan Bokkachcho adabiy sohada xalq madaniy traditsiyalariga yaqin turar edi. U xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalarini va antik adabiy merosni o'rganish, ulardan ijodiy foydalanish natijasida novella janrini yangi, yuqori bosqichga ko'tardi.

Italyancha «Novellino» (ya'ni novellalar kitobi)ning mazmuni turlicha bo'lib, unda o'rta asr ritsar romanlari, injil, sharq ertaklari antik rivoyatlarida bayon qilingan turli hodisalar hikoya qilinadi. Birinchi navbatda Italiya hayotidan olingan maishiy temadagi realistik hikoyalar kishining diqqatini o'ziga tortadi. Lekin qiziq voqealar tasviriga ortiqcha berilish realizmga putur yetkazadi. Faqat Bokkachcho novella janriga klassik tus berib, italyan hikoyachiligining turi, tipi, xarakteri, tili, uslubini yaratdi. Bokkachcho asarining demokratik ruxi uning xalq traditsiyalari bilan yaqindan aloqada bo'lganligining natijasidir. Hikoyanavisning yangi Uyg'onish davri fikrlarini targ'ib qilishi kishini tabiatan «g'unohkor»

deb ko`rsatuvchi katolik cherkovi aqidalarini fosh etishdan boshlanadi.

Bokkachcho vovella janriga yangi, gumanistik mazmun, realistik xarakter kiritishi bilan, uni «tuban» janrdan «yuqori» janrlar qatoriga ko`tardi, to`la adabiy ekanrga aylantirdi. Yozuvchi hikoyaning maqsadi o`quvchini ovutish va qiziqtirishgina bo`lmay, balki kishilarga yangi ong, yangi madaniyat vago`zallik idealini singdirishdan iborat bo`lmog`i ham kerak, deb biladi.

«Dekameron»da yuzta novella bor. Ular ma`lum tartibda joylashtirilgan, novellalarning biri ikkinchisiga ulovchi hikoyalar vositasi bilan bog`lanadi. Bunday usul qadimgi sharq («Ming bir kecha») va antik («Metamorfozalar») adabiyotda ham qo`llangan, lekin ularda bog`lovchi hikoyalar, vaziyatni izohlash, jazoni keyinga cho`zish uchun kiritilar edi. Bokkachcho esa bog`lovchi, yangi novellalarda hayotiy voqealarni, xarakterlarni tasvirlashga katta e`tibor beradi.

1348 yilda Florensiyada dahshatli o`lat kasali tarqalib, bu kasallik juda ko`p kishining yostig`ini quritadi. Epidemiya sog` qolgan kishilarning xulq-atvoriga ta`sir ztmay qolmaydi. O`rta asr diniy urf-odatlarini, narigi dunyo azoblari haqidagi uydirmalar yana avjiga chiqadi. Shunday og`ir vaziyatda Bokkachcho yangi fikrlarni targ`ib qiladigan asar yaratishni mo`ljallaydi va «Dekameron» nomli asarini yaratadi. Bu asar o`lat kasalining tarqalishini tasvirlash bilan boshlanadi.

«Dekameron»ning kirish qismida bir to`da florensiyalik qiz va yigitlarning o`latni boshqacha, ya`ni dadillik bilan qarshi olishi haqida hikoya qilinadi. Ular o`lat va vahimani aysh-ishrat bilan emas, balki aql-idrok bilan yengishga intiladilar. O`lat tarqalgan shahardan chiqib ketgan yetti yosh qiz va uch yigit Florensiya yaqinidagi bog`i Eramga borib, o`z vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o`tkaza boshlaydilar. Ular o`n kun turadilar, «Dekameron» so`zi ham shundan kelib chiqqan (dekameron –grekcha so`z bo`lib, o`n kunlik demakdir). Ular har kungi o`tirishni boshqarish uchun o`z oralaridan qirol yoki qirolicha saylab, hikoyalar aytish bilan band bo`lganlar. Bir kunda o`n kishi bittadan o`nta hikoya aytgan. O`n kunda aytilgan hikoyalarning soni yuztaga yetadi. Har bir kunning oxirida yozuvchi shu kollektivning hayotini tasvirlashga qaytadi. Bokkachchoning hikoyanavislarning turmushi haqidagi izohlari butun to`plamning bir-

biri bilan bog'lovchi ramkasini tashkil etib, novellalarning g'oyaviy birligini yuzaga keltiradi.

Bokkachcho katolik cherkovining «narigi dunyo»ga tayyorlanish uchun «bu dunyo»ni, ya'ni haqiqiy hayot lazratlarini tark etish kerak, degan reaksiya ta'limotiga qarshi chiqib, uning asossizligini konkret hayotiy faktlar vositasida fosh etadi. Shuning uchun ham Bokkachcho muhabbat yo'lida mardona kurashgan va cherkov asketik xulq-atvorini tanimagan qahramonlarni, ayniqsa, ayol qahramonlarni himoya qiladi. Chin sevgini kuylash, feodal-dvoryanlar urf-odatlarini qoralash, katolik ruhoniylarining buzg'unchiliklarini ochib tashlash, xristian dinining ustunligi haqidagi mifning asossiz ekanligini ko'rsatish, oddiy kishilarning harakatini ma'qullash «Dekameron»dagi novellalarning asosiy temasidir.

Gumanist Bokkachcho ijodida ishq-muhabbat katta o'rin egallaydi. U sevgini tor, shaxsiy lazratlanish ma'nosida emas, balki keng ma'noda, ijtimoiy hayotga bog'liq ravishda tasvirlaydi. Uning tasvirida muhabbat kishini chiniqtiradi, qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi va odamda yaxshi fazilatlar hosil qiladi.

Beshinchi kunning birinchi novellasida muhabbat tufayli shunday yangi sifatlar kasb etgan yosh yigit Chimone haqida hikoya kilinadi.

Kipr orolida badavlat va xushchaqchaq Aristipp ismli kishi yashagan. Uning o'g'illaridan birigalezo baland, qomati kelishgan, lekin tentaksimon yigit bo'lgan. Bundan otasining ko'ngli ranjib yuradi; muallimning nasixatlari, otaning kaltaklari ham unga ta'sir etmaydi, u na o'qishni va na odobni biladi. Kishilar mazax qilishib, uni Chimone (hayvon) deb atashardi. Chimone otasining buyrug'i bilan qishloqdagi xizmatkorlari orasida yashaydi. Ularning qiliq-odatlarini Chimonega mos tushadi. Bir kuni Chimone bahor faslida chashma yonida uxlab yotgango'zal qizni ko'rib, unga maftun bo'lib qoladi. Uni uyg'otib, qizninggo'zal ko'zlariga to'yib-to'yib boqmoqchi ham bo'ladi, biroq bunga botina olmaydi. Efigeniyaga bo'lgan sevgi uning qalbidan o'rin oladi. U otasi oldiga borib, unga ham akalari kabi kiyim qilib berishini so'raydi. Qiz visoliga erishish istagi uni tez vaqt ichida savodli va odobli yigit bo'lishga majbur etadi. Shu sevgi tufayli u o'zini qayta tarbiyalaydi: muzika va ashulani o'rganishga kirishadi, harbiy mashqlarda ham o'z epchilligi

bilan ajralib turadi. Shunday qilib, Chimone ko'p mashaqqatlardan so'ng sevgilisining visoliga erishadi.

Chimone «inson ajoyib maxluq» degan xulosaga keladi. Unda paydo bo'lgan yangi ong Uyg'onish davrining kashfiyoti edi. Bokkachchogacha hech kim odamning insoniyligini butun to'laligi bilan yorqin bo'yoqlarda ochib bera olmagan edi. Chimonening inson haqidagi bu yangi, extirosli tushunchasidan so'nggina unda sevgi tug'iladi. Odamning yaratuvchilik kuchi xristiancha muruvvat tushunchasini emas, balki insonning qudrati cheksizdir, degan chuqurgumanistik ma'noni anglatadi. Inson va muhabbat yuzaga keltirgan jasorat har qanday takdir-qismat va tasodifiy omaddan yuqori qo'yiladi. Sevgi insonni hayvoniy dag'allikdan xoli qiladi, uni o'z taqdirini o'zi yaratuvchi kuchga aylantiradi. Shuning uchun Chimone katta iftixor bilan qizga: «Sen tufayli men odam bo'ldim», deydi. Muhabbat – «g'aflat uyqusi bosayotgan aqlarni» xushyor qiluvchi kuch ekanligi Uyg'onish davrining asosiy belgisidir.

Chin muhabbat kishini mard, jasoratli va yaxshi fazilatli qilib tarbiyalay olish qudratiga ega ekani Chimone obrazida yakqol aks etadi. Sevgi tufayligina u qo'pol, johil va nodon yigitdan dono, chaqqon, tadbirkor va olijanob kishiga aylandi.

Bokkachcho chuqur insoniy tuyg'ular, gumanistik g'oyalarni burjua egoizmi, boylikka intilish va maishatparastlikka qarshi qo'yadi. «Dekameron»da qahramonlik, do'stlik, saxiylik va muhabbat xislari bilan to'lgan romantik ruhdagi novellalar feodal-dvoryanlar urf-odatlariga qattiq zarba beradi, fojiali voqealarga duchor qiladigan sotsial tengsizlik ayovsiz qoralanadi.

Shahzoda Tankredning qizigo'zalgismonda (to'rtinchi kunning birinchi novellasi) eri vafot etganidan so'ng otasi saroyiga qaytib keladi va o'z xizmatchisi aqlli yigitgviskardoni yaxshi ko'rib qoladi. U bilan yashirincha uchrashib ham turadi. Tankred bu voqeani sezib qolgach, mening avlodimni haqorat qilding, deb yigitni qamoqqa oladi. Shahzoda ikkinchi kuni qizi huzuriga kirib, yuz bergan ko'ngilsiz hodisani eslatib, unga ta'na qiladi. Gismonda ham mag'rurona ravishda o'z niyatlaridan qaytmasligini bildiradi. Kambag'al oiladan chiqqan, lekin o'z ishi, qabiliyati va idroki bilan dvoryanlardan yuqori turadigan olijanob bir kishini sevisg'a haqli ekanini ochiq aytib boy va kambag'allarga qaratilgan adolatsiz qonunni qattiq qoralaydi. Insoniy tuyg'ulardan mahrum

shahzodagviskardoni o`ldiradi va uning yuragini oltin idishga solib, qizi oldiga kiritadi. Voqeani anglagangismonda otam haq ish qilibdi, bunday qalbga oltin tobut munosib edi, deb ushbu idishdan zahar ichib, fojiali ravishda halok bo`ladi.

«Dekameron»da targ`ib qilingan asosiy g`oyalar antiklerikal yo`nalishdadir. Eski diniy urf-odatlardan erkin muhabbat ustun chiqadi.

Cherkov va ruxoniylarning munofiqligi birinchi kunning birinchi novellasida ayniqsa kuchli fosh qilingan.

Chappelletto ismli bir kimsa o`ta ketgan muttaham, riyokor, poraxo`r, qotillikdan ham qaytmaydigan bezori. U ruhoniyy emas, lekin ruhoniylarning sinalgan quroli – munofiqlikni ustalik bilan o`zlashtirib, o`limi oldidan poplarga xos «sofdillik» bilan o`zgunohlariga «tavba» qiladi va avliyo nomini oladi. Sodda dil kishilar laqma ruhoniyni so`zlariga ishonib, uni katta tantana bilan monastir maydoniga ko`madilar. «Dekameron»dagi ko`p novellalarda monaxlarning kirdikorlari ochib beriladi. Ular har qadamda razillik qiladilar, xalq ommasini aldaydilar, lekin oxirida sharmanda bo`ladilar. Buni monax Albert (to`rtinchi kunning ikkinchi nevellasi) misolida yaqqol ko`rish mumkin.

Imola degan joyda jinoyatlari bilan obro`sizlanib sharmanda bo`lgan Berto della Masso ismli bir kimsa Venetsiyaga borib, o`zini o`ta taqvodor kishi og`a Albert deb tanitadi. Sekin-asta ruxoniyy sifatida obro` orttira boradi, lekin yashirin ravishda yaramas ishlarini ham davom ettiradi; monastirda yengiltak yosh ayol Lizettani uchratib, uning chiroyni maqtagach va so`ngra «farishta» qiyofasida ayolnikiga kelib turgan. Bir kuni kechasi «farishta» niqobida paydo bo`lgan Albert sezilib qolishdan qo`rqib, o`zini derazadan tashlab qochadi va bir kambag`alning uyiga kirib berkinadi. Ertalab «farishta» haqidagigap butun shaharga tarqaladi. Bu xabarni eshitgan uy egasi qutqazib yuborish bahonasi bilan Albertni masxarabozlik bayramiga hayvon qiyofasida olib chiqishga ko`ndiradi. Uning badaniga asal surib, par yopishtirib, shahar maydoniga yetaklab boradi, so`na va pashshalar undagi shiraga yopishadi. Nihoyat, Albertning xiylosi fosh etilib, sharmanda bo`lib qamoqqa tushadi.

Oltinchi kunning o`ninchi novellasida cherkov sharlatani Chipollaning kirdikorlari fosh etiladi.

Chaqqon, gapdon va tovlamachi Chipolla Serafimninggajagi, muqaddas yangi qo'l barmog'i, shayton bilan kurashgan farishta Mixailning terlagan o'pigi, Xeruvimning tirnog'i, avliyo Lazarning jag` suyagi va xokazolarni ko`rganini hikoya qilib, sodda odamlarni laqillatib yurgan. Bir kuni Chipolla dexqonlarga farishtaning patlarini ko`rsatmoqchi bo`lgan. Lekin uning bu niyatidan xabardor ikki masxaraboz Chipollaning qutichasidagi to`tining patlarini olib, uning o`rniga ko`mir solib qo`yadi. Chipolla yig`ilib kelgan xalqqa farishta patini ko`rsatish uchun qutichasini ocha boshlaganida yuz bergan voqeani tez anglagan va hech narsani sezdirmay, uni bu avliyo Lavrentining kuydirilganidan so`ng qolgan «ko`miri», deb ko`mir bilan odamlarning kiyimlariga krest solib, ularni laqillatib, har qachongidan ham ko`proq sadaqa yig`ib olgan.

«Dekameron»da oddiy monaxdan tortib, to Rim papasigacha qoralanadi. Ruhoniylarning qilmishlarini kuzatib borgan Bokkachcho ustalik bilan ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi

Folklordagi komik elementlardan foydalangan Bokkachcho oddiy kishilardagi ijobiy xislatlar – epcchillik, donolik, xushchaqchaqlikni aks ettirgan novellalar ham yaratdi. Andreuchcho haqidagi novella (ikkinchi kunning beshinchi novellasi) shunday xarakterdagi hikoyalardandir. Umuman Bokkachcho o`z adabiy faoliyati va asarlari bilan Italiya adabiyotida yangi davr boshlanganligini ifodaladi, gumanistik g`oyalarni targ`ib qildi, jahon adabiyotiga beqiyos xissa qo`shdi.

FRANTSIYADA UYG`ONISH DAVRI ADABIYOTI

XV-XVI asrlarda XIV asr o`rtalarida Italiyada paydo bo`lgan Uyg`onish harakati XV asrning ikkinchi yarmida yevropaning bir qancha yerlarida davom etdi. XVI asrning boshlarida esa Frantsiyada vujudga keladi. Fransuz Uyg`onish davri adabiyotiga Italiya ma'lum darajada ta'sir ko`rsatadi. Bu vaqtda fransuz qiroli Fransisk I Italiyaga harbiy yurish boshlagan va katolik reaksiyasining boshlig'i – ispan qiroli Karl V bilan kurash olib borayotgan edi. Italiyada bo`lgan fransuzlar Uyg`onish davri madaniyati bilan yaqindan tanishadilar. Gumanist yozuvchilar Dante, Petrarka va Bokkachcho asarlarini fransuz tiliga tarjima qilinadi. Ular qadimgi antik

madaniyat yodgorliklari qatorida katta qiziqish bilan o`rganiladi. Fransiya gumanistik harakat ta'sirli va jangovar tus oldi. 30-yillarda katolik ta'limotiga qarshi ommaviy harakatning kuchayib ketishi hukmron doiralarni qo`rquvga solib qo'yadi. Shundan so`ng Fransisk I din erkinligi uchun kurashgan hamma shaxslarni ta'qib qilishga ruxsat etadi. Garchi u ko`p o`tmay, reformatorga amnistiya bersa ham, lekin bundan keyin «eretiklar» va «dahriylar» ni jazolash odat bo`lib qoladi. 1546 yilda yirik olim va matbaachi Etyen Dole hech qanday sababsiz o`tda kuydiriladi.

Kalvinizm absolyut hokimiyatga tobe bo`lishni istamagan dvoryanlar o`rtasida, ayniqsa feodal reaksiyasining tayanchi bo`lgan Janubiy Fransiya dvoryanlari o`rtasida keng tarqaladi. XVI asrning ikkinchi yarmida absolyutizmga qarshi kurashgan kalvinist-dvoryanlar «diniy» janjallardan kelib chiqib qo`zg`olonlar boshida turadilar. Urush tamom bo`lishi bilanoq ulardan ko`plari o`z manfaatlarini ko`zlab, katoliklar tomoniga o`tib ketadilar.

Gumanistlar har ikkala partiya – katoliklar va protestantlar bilan ba'zan aloqada bo`ladilar, ayni vaqtda, ulardan uzoqlashishga ham harakat qiladilar. Katoliklar partiyasidagi milliy birlik g`oyasigumanistlarga ma'qul bo`lsa ham, lekin katoliklarning tor diniy e'tiqodlari ko`pchilikgumanistlarni qanoatlantirmas edi. Calvinist (protestant)larning aql-idrokka suyanish, kishilik jamiyatini qandaydir ideal ravishda qaytadan qurish singari dadil fikrlarigumanistlarni qiziqitirsa, ularning burjuacha chegaralanganligi va fanatizmigumanistlar uchun yot edi. Shuning uchun ham yirikgumanistlar Rable, Deperye va Monten diniy janjallardan chetda turadilar.

Fransuz Uyg`onish davrining boshlanishida ikki muhim omil – antiklik va Reformasiya harakati katta rol o`ynadi.

XVI asrda yashab ijod etgan fransuz Uyg`onish davrining yirik vakillari bilim doiralarning kengligi bilan ajralib turadigan yozuvchi, faylasuf, tarixchi, tabiatshunos ham edilar. Rable, Maro, Margarita Navarrskaya, Ronsar va boshqalar fransuz adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo`shgan, voqelikka real yondasha bilgan ulug` adib va shoirlar sifatida mashhurdirlar. Dastlabkigumanistik qarashlarning rivojlanishiga Margarita adabiy to`garagi katta ta'sir ko`rsatadi. Fransisk I ning singlisi Margarita Angulemskaya eri vafot etgandan so`ng Navarra qiroligenrix d'Albrega turmushga chiqadi va

Margarita Navarrskaya (1492-1549) nomi bilan yuradi. Bu o`qimishli ayol adabiyot va san`at ahllariga homiylik qiladi, hukmron katolik diniy ta`qibiga uchragan erkin fikrli va «dinsizlik»da ayblangan ko`p protestant vagumanistlarga boshpana beradi. U latin, italyan, ispan, qadimgi yahudiy tillarini o`rganadi, o`z iste`dodini ko`p janrlarda sinab ko`rib, she`r va hikoyalar yozadi. Margaritaning ijodi turmush quvonchlarini kuylab, kishi tabiati va fikrini o`rta asr diniy-sxolastikasidan xoli qilish masalasini aks ettirgan bo`lsa ham, lekin u chegaralangan va o`sha zamon fransuz aristokratiyasining ilg`or qismi qarashlari doirasidan chetga chiqolmagan edi. Ba`zi bir zamondoshlari kabi Margarita ijodida ham diniy tema aloxida o`rin tutadi. Biroq bu masalaga u aqidachilik asosida yondashmaydi. Ko`tarinki muhabbat, fikriy erkinlik uning nozik lirik she`rlarida o`z ifoda-sini topadi.

Margarita Navarrskaya ijodida «Xeptameron» nomli novellalar to`plami alohida o`rin egallaydi. Italyangumanisti Bokkachchoning «Dekameron»iga taqlid qilib yozilgan bu kitob 100 novelladan iborat bo`lishi kerak edi. Fransuz «Dekameron»ini yaratishga kirishgan Margarita Bokkachcho kabi o`n kunlik voqeani tasvirlamoqchi bo`ldi. Biroq u faqat 72 novella – yetti kunlik voqeanigina yozib ulgurdi, xolos. Adibaning o`limidan keyin 9 yil o`tgach, bu kitob «Etti kunlik novellalar» (1558) nomi bilan nashr etildi.

«Xeptameron» XVI asr ijtimoiy hayoti va fransuz Uyg`onish davri adabiyotining g`oyaviy qarama-qarshiliklarini ifodalagan yodgorlik sifatida qimmatlidir.

Shu davrning yirikgumanist yozuvchilaridan yana biri Bonaventura Deperye (taxminan 1510-1543) bo`lib, u mayda burjua oilasida dunyoga keladi. Deperye yoshligidan she`r yozishga kirishadi. Latin vagrek til-larini o`rganadi, Margarita Navarrskaya tashkil etgan adabiy to`garakda qatnashadi, uning saroyida kotib bo`lib ishlaydi. Deperye 1538 yilda Lukianning «Xudolar suhbatlari» satirasi manerasida yozilgan «Dunyo bongi» («Dunyo simvoli») dialoglarini nashr etadi. Din ahllari bunga beparvo qarab turolmas edilar. Yozuvchi din ta`qibiga uchrab, Margarita saroyiga qochadi. Biroq Deperyening bundan so`nggi hayoti notinch o`tadi, oxiri u o`zini qilich tig`iga tashlab, fojiali ravishda o`ladi.

«Dunyo bongi» nomli toʻrt dialogdan iborat boʻlgan bu satirada Deperye xristian dinini – katoliklarni ham, protestantlarni ham masxara qiladi. Buning uchun u xalq ijodi va, xususan, antik mifologiyadan ustalik bilan foydalanadi. Mifologik obrazlar vositasi bilan xristian dini taʼlimotini qattiq savalaydi, «Osmon vakili» – Merkuriy harakati orkali Iusis Xristosning yerdagi «faoliyati»ni koʻrsatish moʻljallangan edi. Xudo Yupiterning toshpirigʻi bilan yerga tushgan bu maʼbuda toʻzib ketgan «Taqdir kitobi»ni muqovalashni istaydi. Mayxonada u bilan uchrashib qolgan ikki tovlamachi qulay payt poylab, oʻzlariga pir deb bilgan oʻgʻrilar xudosi Merkuriyning qopidagi kitobni oʻgʻirlab, uning oʻrniga muqovasi oʻshanga oʻxshash boshqa kitobni solib qoʻyadi. Almashtirilgan kitobda «muqaddas soʻzlar» emas, balki Yupiterning yoshlik vaqtidagi bemaʼni sevgi sarguzashtlari tasvirlangan edi. Merkuriy ikkinchi marta yerga tushib, oʻgʻrilarni qidira boshlaydi, chunki ular kitobdagi soʻzlarni oʻzgartirib, uni oʻz manfaatlariga moslashtirishlari mumkin edi. Haqiqatan ham, tovlamachilar oʻsha kitob orqali fol ochib, katta pul toʻplaydilar. Merkuriy Flegon laqabli ot bilan uchrashib, uni tilga kiritadi. Ot esa oʻzi uchun yemga ajratilgan pulni oʻgʻirlab qoʻygan otboqarning kirdikorlarini fosh etadi. Merkuriy otdan bu sirlarni aytmaslikni soʻraydi va bu ishi uchun otni yaxshilab parvarish qilishga vaʼda beradi. Shundan soʻng u Yupiterning kitobni topish haqidagi buyrugʻini eʼlon qilish uchun karnaychi izlab ketadi. Soʻngra Merkuriy «falsafa toshi»ni koʻrsatishni soʻragan odamlarni laqillatib, bu toshni maydalab sohib yuboradi. Faylasuflar tuproqqa qorishib, qimmatli toshni axtaradilar va uning zarrachasini topganday boʻlib, bir-birlari bilan uzoq va foydasiz munozara olib boradilar. Merkuriy yana kelib «falsafa toshi» haqiqatda yoʻq narsa ekanini bildiradi.

Toʻrtinchi dialoggilaktor va Pamfagus nomli ikki it oʻrtasidagi suhbatdan iborat. Ular oʻz qobiliyatlarini odamlardan yashirishga urinadilar, shu sababli soʻzlashdan koʻra, jim turishni lozim koʻradilar, chunki baxtsiz insonlar kabi turmush kechirgandan koʻra, itlar singari yashashni maʼqul koʻradilar.

Deperyening «Yangi ajoyibotlar va qiziq hangomalar» degan toʻplamida 92 hikoya bor. Bu kitobida yozuvchi kishini xushchaqchaqlikka chaqiradi, ogʻiz, iyak, tomoq va «butun besh sezgi» organi bilan, yurakdan kulishga undaydi. Bu fikrlar

to'plamning Rable romanlari ta'siri ostida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Margarita Navarrskayaga o'xshab u ham novellalari uchun syujetni kitoblardan emas, balki xalq ertaklari va o'zi ko'rgan hodisalardan oladi. Fransuz hayotini aks ettirgan novellalarida pop va monaxlar, tabib va sudyalari masxara qilinadi. Xalq qo'shiq va motivlarini o'zlashtirib, ulardan samarali foydalanish Deperye hikoyalarining xalqchilligi, ommabopligini oshiradi.

FRANSUA RABLE (1494-1553)

Fransuz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili, ulug'umanist yozuvchi Fransua Rable Turen viloyatining Shinon nomli shaharchasida advokat oilasida tug'ildi. Uning otasi Antuan Rable o'g'lining ruxoniy bo'lishini istaydi va uni Shinon shahri yaqinidagi mahalliy abbatlikka beradi. U yerdan monastirga o'tgan yosh Fransua o'sha vaqtda man qilingan antik kitoblarni zo'r havas bilan o'qiydi. Qadimgi davr hamda Reformasiya davri vakillarining kitoblari uning diqqatini o'ziga tortadi. Lekin bunday kitoblarni o'qishga yo'l qo'yilmaydi. Shundan so'ng Rable u yerda majburan o'tiladigan ilohiyot ilmidan tashqari, falsafa va boshqa fanlar bilan ham shug'ulla kelib, medisina fanini o'rganadi, grek medigigippokrat nazariyasini izohlab beradi. 1532 yilda Rable Lion shahridagi kasalxonada vrach bo'lib ishlaydi. Medisina sohasida katta o'zgarishlar yasaydi; shifolashdagi o'rta asr usullarini rad etib, yangi progressiv metodlarni ilgari suradi, ulug'umanist Erazm Rotterdamskiy bilan aloqada bo'ladi. Rable «eng insoniy ota» deb Erazmga yuqori baho beradi.

Rable o'z hayoti davomida uch marta Italiyaga borib, qadimgi Rim madaniyati yodgorliklari bilan tanishadi, tabiiy fanlar bilan shug'ullanadi, latin tili bilan birga arab tilini ham o'rganadi. Parijga qaytib kelgan Rable bir qancha vaqt qirol Fransisk saroyida xizmat etadi, vrachlik sohasidagi bilimni takomillashtiradi va 1537 yilda Monpelyeda medisina doktori degan darajani oladi. Lekin diniy urushlar kuchayib ketgan va erkin fikrli kishilar ta'qib qilinayotgan bu davrda Rable yana chet elga jo'nashga majbur bo'ladi.

Rable diniy nizolar kamaygandan so'ng o'z vataniga qaytib, adabiy faoliyatini davom ettiradi. Umrining oxirida u ruxoniylik vazifasidan voz kechadi.

Rableninggumanistik ijodining nodir namunasi, xalq orzu-istaklarini chuqur aks ettirgan o'lmas asari «Gargantuya va Pantagryuel» romanidir. Bu epopeyaning dastlabki kitobi 1533 yilda Alkofribas Nazye taxallusi bilan «Ulkan pahlavongargantuyaning o'g'li dipsodlar qiroli ajoyib Pantagryuelning dahshatli va g'oyat qo'rqichli harakatlari va qahramonliklari» nomi ostida paydo bo'ladi. Rablening bu asari 1532 yilda Lionda «Buyuk va ulkan pahlavongargantuya haqida ulug' va qimmatli xronikalar» kitobi ta'sirida yozilgan. Xalq ijodiga mansub «Xronikalar»dagi g'oya va uslub, o'rta asr feodal tartiblari va risar qahramonliklarini masxara qilishga intilish ulug' yozuvchini qiziqtirmay qolmadi.

«Xronikalar» nomli bu kitob «ikki yil mobaynida shunchalik ko'p tarqaldiki, injil to'qqiz yilda ham shuncha tarqalmagan edi» deb Rable o'z romanining muqaddimasida ko'rsatib o'tgan.

Qattiq hazil, kuchli kulgi va nozik kinoyalar bilan pardalangan asarning chuqur ma'nosini anglash uchun yozuvchi uni diqqat bilan o'qish zarurligini uqtiradi. «Kitobimni ochingiz va unda bayon qilingan voqealar haqida yaxshilab o'ylab ko'ringiz. Shunday qilsangiz, tushunasiz... asarning sarlavhasini o'qish bilan unda bema'ni narsalar bayon etilar ekan, degan xayolga kelish mumkin, lekin aslo bunday emas... siz mutlaq ishona berishingiz mumkinki, uni o'qish natijasida ham jasoratli, ham dono bo'lasiz, chunki mening kitobimda butunlay boshqacha yo'sindagi ruh va qandaydir faqat yuksak didli kishilarga tushunarli bo'ladigan ta'limotni ko'rasiz-ki, bu esa sizga bizning din, xuddi shu kabi siyosatimiz va ro'zg'orshunoslikka doir o'ta maxfiy va dahshatli sirlarni ochib beradi»

Rablening romani o'rta asr turmush-tartiblari va xulq-atvorlariga, sxolastik tafakkurga qarshi achchiq satira sifatida yuzaga keldi, unda xayoliy bo'lsa-da, kelajak baxtli hayot haqidagi xalqning umid-orzulari aks etadi.

«Gargantuya va Pantagryuel» besh kitobdan iborat bo'lib, uni yaratishga yozuvchi yigirma yildan ortiqroq vaqt sarf qiladi. Epopeyaning navbatdagi kitobi «Pantagryuelning otasi ulug'gargantuyaning g'oyat vahimali hayoti haqida hikoya» 1534

yilda nashr etildi. «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatligaplari haqida uchinchi kitob» 1546 yilda Parijda endi Fransua Rable nomi bilan bosilib chiqdi. 1552 yilda esa epopeyaning «Jasur Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatligaplari haqida toʻrtinchi kitob»i nashr etildi. Romanning soʻnggi kitobidan parcha («Ovoz chiqaruvchi orol») yozuvchi vafotidan toʻqqiz yil oʻtgandan soʻng, 1562 yilda paydo boʻldi. 1564 yildagina «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli fikrlari haqida beshinchi, soʻnggi kitob» nashr etildi, Fransua Rablening gargantyua haqidagi birinchi kitobi taʼlim-tarbiya, urush va tinchlik, kelajak, baxtli jamiyat qanday boʻlishi kerakligi kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Utopiya mamlakatining qiroli baxaybat paxlavongranguzye oʻgʻligargantyua tuzukroq bilim berish va tarbiyalash niyatida ruxoniy magistr Tubal Olofernni saroyga chaqirtiradi. «Magistr alifbeni shunday yaxshi oʻrgata oldiki, – deb kinoya qiladi Rable, – bola uni teskarisiga yod oldi, buning uchun besh yilu uch oy kerak boʻldi». Gargantyua oʻsha davr maktabining oddiy darsliklari latiningrammatigi Danat (IV asr), xulq oʻrgatuvchi traktat «Fatset», yepiskop Teolode (X asr) nomi bilan chiqqan qoʻllanma, Alanning (XIII asr) «Parabala»sini oʻqib chiqadi. Buning uchun rosa oʻn uch yilu olti oy va ikki hafta sarf qiladi. Magistr Olofern vafot etgach, saroyga boshka «aljigan chol» magistr Jobelen Bride chaqiriladi. Oʻgʻlining aqlli boʻlishi oʻrniga uning tentaklashib borayotganini sezgangranguzye goʻzal yoshlikni barbod etuvchi, kishini yoʻldan uradigan safsata va quruq yod oldirishdan iborat eski taʼlim usulini nafratlab, aqoid tarbiyachini haydab yuboradi.

Gargantyua muallim qilibgumanist Ponokrat taklif qilinadi. U bolani Parij yoshlari hayoti bilan tanishtirish maqsadida Fransiya olib boradi. U yerdan qaytgach, eski tarbiyani miyadan chiqarish uchun bolani bir necha kun oʻz holiga qoʻyadi. Eski tarbiyaga odatlangangargantyua ertalab sakkiz bilan toʻqqiz oʻrtasida turar va toʻgʻri nonushtaga kirishardi. Soʻngra cherkovga borar, uyga qaytib kelgach, bir oz vaqt qoʻlga kitob olsa ham, lekin, bir hajvchining taʼbiri bilan aytganda, «Uning xayoli, fikri oshxonada boʻlar edi». Ichishga kelganda uning uchun na qoida va na chegara bor edi.

Gargantyuaning noto`g`ri hayot kechirishi bilan tanishib chiqqan Ponokrat endi ilmiy asosda tarbiya berishga kirishadi. Yangicha kun tartibini tuzadi. Uni maxalliy olimlar ichiga olib kiradi. U bolada jamiyatga va bilimga muhabbat uyg`otish maqsadida turli tadbirlarni ko`radi. Endigargantyua taxminan ertalab soat to`rtlarda turg`iziladi. Kiyinish vaqtida «muqaddas» kitobdan bir necha sura o`rgatiladi. Shu bilan diniy tarbiya chegaralanadi. Ertalabki yuvinish vaqtida ob-havo bilan tanishtiriladi. O`tgan dars takrorlangandan so`ng, uch soat yangi dars o`tiladi. Gargantyua dam olish vaqtida turli xil o`yinlar bilan mashg`ul bo`ladi. Yuvinib bo`lgandan so`ng, «janob ishtaha» ham tayyor bo`lib turadi. Ovqat vaqtida uning axamiyati, keltirilayotgan taomning miqdori va sifati xaqida suhbat o`tkaziladi. Hisobni o`rganish maqsadida karta o`ynaladi. Ilgarigargantyua oshiq va karta o`ynash bilan vaqt o`tkazgan bo`lsa, endi tushki va kechki ovqatdan so`ng arifmetika bilan shug`ullanadi, muzika o`rganadi, sportning turli xillarini mashq qiladi. Natijada u yaxshi chavandoz va usta qilichboz bo`lib ham yetishadi. Kechki ovqatdan so`ng turli adabiy suhbatlar o`tkaziladi. Yotish oldidan esa ochiq havoda, oy va yulduzlarning harakati bilan tanishtiriladi. Aqliy va jismoniy tarbiyaning birga qo`shib olib borilishi natijasidagargantyua sog`lom va dono kishi bo`lib yetishadi.

Rable qurolining tig`i jaholat o`chog`i – eski maktabga, bolalarning ongini zaharlovchi quruq yod oldirishdan iborat bo`lgan eski o`qitish usuliga, cherkov tiliga aylanib ketgan qadimgi latin tiliga qaratiladi. Gumanist Ponokrat bu kabi yaramasliklarga nafrat bilan qaraydi: «Mavrlar va tatarlar katorgadagilar bilan ham, qamoqxonada esa qotillar bilan ham yaxshi muomala qiladilar. Montegyu kollejidagi baxtsizlarga qaraganda uyingizdagi itlarga yaxshiroq qarashlari ham to`ppa-to`g`ridir. E voh, agar men Parijda qirol bo`lganimda edi, shunday vahshiyona muomala qilishga yo`l qo`yganliklari uchun kollejni, u bilan birga boshlig`ini ham, butun nazoratchilarni ham kuydirib tashlagan bo`lur edim», deydi u.

Ulug` adib o`rta asr ta`lim-tarbiya usuli va diniy-asketik ruxdagi dunyoqarashni rad etib, unga turmush quvonchlari bilan bog`liq bo`lgan, gumanistik qarash va mehnat asosida tashkil etilgan yangi o`qitish sistemasini qarshi qo`yadi. Uning pedagogik nazariyasidagi bosh prinsip har tomonlama bilim berishdir. Bu g`oyagargantyuaning sxolastlar panjasidan qutqarilib, tabiat

qonunlari asosida erkin tarbiyalanib, ajoyib kishi qilib yetkazilishi misolida ilgari suriladi.

Feodal o'zboshimchaliklari, bosqinchilik urushlari timsoli bo'lib qolgan qirol Pikroxol obrazida yorqin granguzye obrazi ochilgan. U qirol granguzye bilan uzoq vaqt tinch-totuv yashaydi. Lekin Pikroxolda asta-sekin jahongirlik kayfiyati tug'ila boshlaydi;granguzye fuqarolaridan bo'lgan mol boqib yurgan cho'ponlar shaharga ketayotgan Pikroxol odamlaridan bozor bahosida non sotib olmoqchi bo'ladilar, biroq novvoylar o'jarlik qilib, sizlarning peshanangizga oq non emas, balki kepak non yeyish yozilgan, deb ularni qattiq haqorat qiladilar. Natijada janjal mushtlashishga aylanib ketadi. Cho'ponlar ularning 60 ta nonini tortib olib, haqini beradilar. Bu voqeani eshittan qirol Pikroxol o'z fuqarolarini zo'rlik bilan qurollantirib, Utopiya yurtiga bostirib keladi, yo'lida uchragan bog'-rog'larni yakson etib, aholini talaydi.

Qo'shni hukmronning bunday. qaroqchilik harakatlari keksa qirolgranguzyeni ranjitadi, lekin shunda ham u hamma tinch yo'l va choralarni ishlatib ko'rmaguncha Pikroxolga qarshi yurish qilmaslikka qaror qiladi. Bu fikr Parijda bilim olayotgan o'g'ligargantuyuaga yozgan maktubida yaxshi bayon qilingan, maktubda jumladan bunday deyiladi: «Men janjalni kuchaytirish emas, balki osoyishtalik o'rnatish, hujum qilish emas, balki mudofaa etish, bosib olish emas, balki o'zimning sodiq fuqarolarim va merosiy mulklarimni Pikroxoldan himoya qilish niyatidamanki, u hech qanday sabab va asos bo'lmagani holda, urush ochib, bostirib keldi va yovuz ishlarini tortinmay davom ettirib, o'z erkida yurgan kishilarni chidab bo'lmas darajada ranjitmoqda. Shu sababli, sevimli o'g'lim, mening maktubimni o'qib chiqqach mumkin qadar tezlik bilan qayt va menga zmas (garchi tabiiy achinish hissi tufayli menga ko'maklashishing zarur bo'lsa ham), o'z fuqarolaringga yordam berishga shoshil, chunki ularni xavfdan saqlash va qutqarib qolishga majbursan».

Granguzye bu xatni hukmronlikni saqlab qolish uchun emas, aksincha, xalq tinchligini qo'riqlash uchun yozganligini ochiq aytadi.

Takabbur Pikroxol granguzeening tinchlik o'rnatishga qaratilgan hamma tadbirlari(nonini qaytarib, o'lpon berishdan iborat taklif)ni rad etib, bosqinchilik urushini to'xtatmaganidan so'nggina,

u yovuz dushmanga qarshi hayot-mamot urushiga kiradi. Gargantyua Parijdan qaytib kelib, haddidan oshgan dushmanni tor-mor etadi.

Kitobda ikki tipdagi qirol ko'rsatiladi, bular «dunyo hukmronligiga da'vogar», shaxsiy manfaatdan boshqani bilmaydigan Lerne qirol zolim Pikroxol va tinchlikni sevadigan, saxiy granguzee bilan uning o'g'ligargantyudir. «Murdor va johil» hukmron Pikroxol o'zi boshlagan urushda yengilgach, mamlakatdan yashirincha qochib ketadi va mardikorlik qilib tirikchilik o'tkazadi. Keksa folbin ayolga uchrab, unga o'zining baxtsiz taqdiri haqida so'zlaganda, folbin tuyanining dumi yerga tekkandagina unga qirollik yana qaytib kelishini aytadi. Shundan keyin bu nodon odam tuyanining dumiga umid bog'lab, xom xayol bilan yuradi.

Rablening ijobiy qahramonlarigranguzee, gargantyua va Pantagryuel titan qirollardir. Biroq bu saxiy kishilar xatti-harakatlari bilan qirollarga sira o'xshamaydilar. Xushchaqchaq, ulkan granguzee va uning o'g'ligargantyua feodal hukmdorlariga xos bo'lgan ochko'zlik, yovuzlikdan xolidir. Granguzye Pikroxol zulmidan ozod etilgan xalqlarga erkin yashash huquqini beradi, zo'rlab urushga yuborilgan va asir tushgan kishilarni ozod qiladi, ularga moddiy yordam berib, o'z oilasiga qaytartiradi.

Uyg'onish davrida yashagan Rable johil feodal hukmronlarga adolatli va saxiy qirollarni qarshi qo'yadi. Ma'rifatparvar monarx g'oyasi o'sha davrning barcha ilg'or mutafakkirlari singari Rableni ham qiziqtiradi. Ugargantyua tilidan Platonning shohlar filosoflardan yoki filosoflar shohlardan bo'lgandagina davlat baxtli bo'ladi, degan so'zlarini keltiradi. Buyuk mutafakkir Rable o'rta asr tartiblari, feodal o'zboshimchaliklar va zulmga qarshi kurasha oladigan markazlashgan milliy davlat bo'lishi va uning tepasida ma'rifatparvar monarx turishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi. U Utopiyani boshqaruvchi kishilar granguzye vagargantyuari shunday olijanob kishilar, deb ko'rsatadi. Avtorning g'oyasi granguzyening qirol Pikroxolning asir tushgan kishisi bilan suhbatida yaxshi ochilgan. U hozirgi zamon urush ochib, begonalarning yerini bosib oladigan payt emasligini, o'tmish sarasin va varvar asrida qahramonlik deb hisoblangan urush endilikda yovuzlik va bosqinchilik deb qoralanishini tushuntiradi. Oddiy kishilardagi sadoqat, mehnatsevar Og'a Jan obrazi diqqat markazida turadi. Dushman qirg'in urushi boshlab, yo'lda uchragan hamma narsani –

odamlarni ham, ekinlarni ham oyoq osti qilib, halok etayotgan bir paytda, ayniqsa monax Jan abbatlik bog`ini qahramonona himoya qilib, 13 ming 622 bosqinchini o`ldiradi. Og`a Jan boshqa monaxlarga sira o`xshamaydi. «U taqvodor emas, yo`qsil ham emas, odobli, xushchaqchaq, jasur, yaxshi ulfat. U mehnat qiladi, yer haydaydi, ezilganlarnint yonini oladi, qayg`u ichida qolganlarni yupatadi, jafokashlarga yordam beradi, abbatlikning bog`larini qo`riqlaydi. Mard, chaqqon, baquvvat, dushmanga nisbatan shafqatsiz, do`stlariga esa mehribon og`a Jan turmush quvonchlaridan uzoq emas. Jismoniy jihatdan qanday sog`lom bo`lsa, axloqiy tomondan ham shunday sof. Panurgga o`xshash shaxsiy manfaatini emas, balki jamiyat manfaatini ko`zlab ish ko`radi. Telem abbatligini yaratishdek chuqurgumanistik fikr ham shu Janga mansubdir.

Birinchi kitobdagi eng yaxshi manzaralardan yana biri Telem abbatligining tasviridir. Dushmanga qarshi mudofaa urushi olib borilgan vaqtda mardlik va qahramonlyak ko`rsatgani uchun Luara daryosi bo`yidagi katta yer uchastkasi bilan mukofotlangan og`a Jan o`z istagi bilan o`sha yerda boshqa bironta monastirlikka o`xshamagan abbatlik qurishga kirishadi. Bu bino olti burchakli, olti qavatli (er tagidagi qavati bundan mustasno) bo`lib, 9 ming 332 xonalik qilib quriladi. Binoda katta kutubxona bo`lib, undagrek, latin, yahudiy, fransuz, italyan tillaridagi kitoblar saqlanadi. Bino ichida teatr, shuningdek, dam olish xonalari ham bo`ladi. Daryo bo`yida ajoyib park – bog` quriladi. Telem jamoasidagilar qandaydir yozib qo`yilgan qonun-qoidalar asosida emas, balki qalb amri bilan harakat qiladilar. U yerga sog`lom, go`zal yigit va qizlar qabul qilinadi. Telem jamoasidagi tartib-qoidalar ham boshqa monastirdagilardan farq qiladi. Monastirga kirganlar umr bo`yi o`sha yerda qolib ketishga majbur bo`lsalar, Telemga kelganlar istagan vaqtlarida ketishlari mumkin. Monaxlar uch narsaga – soflik, kambag`allik va itoatkorlikka chaqirsalar, yangi jamoada qonuniy turmush qurish, badavlat va to`la erkin bo`lish huquqidan foydalanish prinsipi ilgari suriladi. Telem jamoasida yashovchilarning ustavi faqat bir qoida – «Istagingni bajar» degan shiordan iborat, «...chunki andishali kishilar doirasida aralashib yurgan, o`qimishli, saxiy ota-onalarning erkin avlodini tabiatning o`zi instinkt va rag`batlantiruvchi kuch bilan qurollantirib, ularni

doimo yaxshi ishlarga undaydi, yomonlikdan saqlaydi va bu kuch ularda nomus deb ataladi. Telemdagilardan biri «ichaylik» deb istak bildirsa, hammalari ichadilar, agar biror kishi o`ynaylik, degan xohishni izhor qilsa, hammalari o`ynaydilar, shuningdek, agar istak tug`ilsa hammalari ovga ham chiqadilar. Bu yerdagilar besh yoki olti tildagipiradigan, she`r yoza oladigan, har tomonlama bilimdon va madaniyatli kishilar edilar. Agar biror yigit o`z istagi yoki ota-onasining xohishi bilan biror joyga ketadigan bo`lsa, o`sha yerda o`ziga eng yaqin his qilib yurgan bir qizni olib ketar va u bilan nikohdan o`tib, baxtli bo`lardi.

Telem jamoasida boshqa abbatliklarda xukm surib kelgan adolatsizlik va buzg`unchilik ko`rinmaydi, shuningdek, bu yerda maishatboz poplar, dangasa monaxlar va boshqa firibgarlarga ham o`rin yo`q edi.

Rable jamiyatdagi qulchilik, yovuzlik va adolatsizliklarni fosh etish bilan birga insonni zo`ravonlikdan qutqarib, uni ozod shaxs qilish va har qanday yomon ehtirolardan xalos etish haqida fikr yuritadi.

Rablening pedagogik sistemasi va ijtimoiy tuzum haqidagi qarashlari bir-biri bilan uzviy bog`langan bo`lib, ularda insonning baxtli va yorqin kelajagi haqidagi xayollar o`z aksini topgan. Agar barcha teng bo`lsa, ishni kim qilishi kerakligi o`tmish mutafakkirlarini ham qiziqtirgan. Telemdagi kishilar yaxshi yashasa, yaxshi kiyinsa, vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o`tkazsa, ular uchun hamma narsa muxayyo bo`lsa, bu noz-ne`matlar qaerdan olinadi? Bu yerdagilarning to`q masxara qiladi. Ma`lumki, o`tmishning taniqli kishilari – ulug` lashkarboshilar, shohlar, papa va boylar do`xaxda ayanchli ahvolda yashaydilar. Masalan, buyuk Aleksandr yamoqchilik bilan zo`rg`a tirikchilik o`tkazadi, Kserks ko`chadagorchitsa sotadi. Sitseron o`t yoquvchi, Eney – tegirmonchi, Agamenon – yuvindixo`r, Paris – yo`qsil, Axil – pichan yig`uvchi bo`lib ishlaydi, papa Bonifatsiy tasma sotadi va hokazo.

Asarda dunyoviy kishilargina emas, cherkov ruhoniylari va ularning bu dunyo va u dunyo haqidagi ta`limotlari ham masxara qilinadi.

Rablening har ikkala kitobini hamgumanizmning ashaddiy dushmani bo`lgan Sorbonna (Parij universitetining teologiya fakulteti) zararli asarlar deb qattiq qoralaydi. Rable juda og`ir

sharoitda yaratgan ijodiy mahsulotlarini saqlab qolishga intiladi. Shu sababli har ikkala kitobni qayta ko'rib chiqib, 1542 yilda «Gargantuya» va «Pantagryuel» holida birga bosib chiqaradi. Tavrot mo'jizalarini tanqid qilgan qismlarini o'z holicha qoldirib, Sorbonna aqoidlariga qattiq tegadigan iboralarni yumshatib, kalvinistlarga xayrixohlik bildirgan qismlarni chiqarib tashlaydi, lekin baribir u dushmanlar ta'qibidan qutula olmaydi.

«Gargantuya va Pantagryuel» romanning uchinchi kitobi 1546 yilda chiqadi. Epopeyaning birinchi qismi yozilgandan buyon o'n uch yil o'tgan. Bu davrda reaksiya quturgan, katoliklarning «eretik» larga qarshi ur-yiqiti kuchayib ketgan edi. Ko'pgumanistlar (Rober Etyen, Kleman Maro va boshqalar) quvg'in qilinadi. Protestantizmga xayrixohlik bilan qarab kelgan Fransisk I o'z pozitsiyasini o'zgartiradi. Rable esa progressiv xarakatdagi o'z mavqeini qo'ldan bermaydi. Uning yangi kitobida niqoblangan formada sorbonnachilar tanqidi orqali monaxlarning yaramasliklari yana ham ochiqroq masxara qilinadi («Monaxlar yashamoq uchun yemaydilar, balki yemoq uchun yashaydilar» va hokazo).

Turmush bilan aloqasi bo'lmagan haromxo'r va bachkana olimlar ustidan kulish yozuvchining hamma vaqt diqqat markazida turadi. «Darhaqiqat, hozirgi vaqtda arslonning yoli, otning yag'rini, ho'kizning shoxi, qo'tosning tumshug'i, bo'rining dumi, echkinning soqoli, qushning panjasidan ushlab olish osonroq, – deydigargantuya Panurgning «bilimdon» Truyogyun bilan suhbatini eshitib, – lekin hech kim bunaqa faylasufni so'z bilan tuta olmaydi».

Uchinchi kitobda, asosan, Panurgning hayoti, uning qarashi aks ettiriladi. Panurgning uylanish masalasi yuzasidan ruhoniy, tabib, folbin, qonunchi va boshqalar bilan olib borgan suhbatlarida o'sha zamon hayotidagi salbiy tomonlar qattiq fosh qilinadi. Ayniqsa yozuvchi ruhoniylarning riyokorligi, amaldorlarning ikki yuzlamaligi bilan chiqisha olmaydi: «Qani, ko'zdan yo'qollaring, taqvodorlar! Qarab turlaring hali, kunlaringni ko'rsatib qo'yaman, itlar! Qani bu yerdan ketlaring, ikkiyuzlamachilar!» deb xitob qiladi u uchinchi kitobning kirish qismida. Lekin Rable ma'rifatparvar monarx haqidagi xayolidan voz kechmagan bo'lsa-da, uning mamlakatda adolatli tartib o'rnatish qobiliyatiga ishonchi bo'shashgani seziladi. Uning xalqqa g'amxo'rlik qilish haqidagi fikri esa avvalgidek qat'iy edi. Rable bosib olingan mamlakat xalqlarini

talash, ezish, bo`g`ish va uni temir tayoq bilan idora qilishdan boshqa niyati bo`lmagan zolim hukmronlardan nafratlanib, xalq bilan qanday muomala qilish kerakligini aytadi. «Xuddi yangi tug`ilgan bola kabi xalqni sut bilan boqmoq, parvarish qimoq, yupatmoq lozim. Xuddi yangi o`tqazilgan nihol kabi uni tirgovuchlamoq, mustahkamlamoq, har qanday to`fon, balolar va shikast yetkazishdan saqlamoq kerak. Xuddi uzoq davom etgan va og`ir kasaldan sekin-asta tuzalayotgan kishi kabi uni erkalamoq, ehtiyot qilmoq, kuchga kiritmoq kerakki, u butun dunyoda qirol va hukmronlar yo`qligiga ishonch hosil qilsin, ularning o`zaro dushmanligidan dahshatga tushsin va ularning do`stligidan faxrlansin».

«Gargantyua va Pantagryuel»ning to`rtinchi kitobi nashr etilgan yillarda birmuncha voqealar yuz beradi. O`lgan qirol Fransisk I o`rnini uning johil o`g`ligenrix II egallaydi. Genrix II yeretiklarga qarshi kurashni kuchaytirib yuboradi. Parij parlamenti bu kitob va uning avtorini sudga topshiradi. Yozuvchi yashirinib yuradi va, nihoyat, o`lim (1553) buyukgumanistni adolatsiz ta`qiblardan qutqaradi.

Kitobda Panurgning bundan so`nggi sarguzashtlari aks etadi. U o`z baxtini sinash maqsadida kelajak Orakuliga yo`l oladi. Uning sayohatida Pantagryuel, Jan, Epistemon, Ponokrat, gimnast va boshqalar hamroh bo`ladilar. Ular noma`lum mamlakatga, daxshatli maxluqlar yashaydigan orollarga boradilar. Ular Ayanch orolida yashaydigan Postnik hamda Vaxshiy orolida yashaydigan Kolbasalarga duch keladilar. Ular o`rtasida ko`pdan beri janjal davom etardi. (Yog`liq Kolbasalar orqali avtor post qoidalariga amal qilmagan protestantlarni ko`rsatadi.) So`ngra ular Papefiglar oroliga yo`l oladilar. Ular bir vaqtlar, boy, erkin va xushchaqchaq odamlar bo`lib, ulardan bir necha kishi qo`shni Popimaniyaga tomosha qilgani boradilar. Bayram kuni Rim papasining portretini ko`tarib ketayotganlarida bu quvnoq odamlardan biri papani masxaralovchi harakat qiladi. Buni haqorat deb tushungan papimanlar urush ochib, papefiglarni o`zlariga bo`ysundiradilar.

Rablening papaga, cherkovga, dinga qarshi satirasi papefiglar (papani haqorat qilgan protestantlar) va papaga sadoqatli papimanlar (katoliklar) o`rtasidagi kurashlarda yana ham ochiq ko`rsatiladi. U katoliklarni qanday masxara qilgan bo`lsa, kalvinistlarni ham shunday qoralaydi, chunki diniy nizolarda – fanat «papefiglar» johil

«papimanlar» dan sira qolishmas edi. Kalvinninggumanistlarga, shu jumladan, Rablega qarshi chikishi ham bejiz emas edi.

Kitobda kishining tabiiy holati, tabiatning buyuk yaratuvchilik qudrati haqidagi fikr ham qimmatlidir. Fizis (Tabiat)garmoniya vago`zallikni tuqqan bir vaqtda, uning azaldan dushmani bo`lgan Antifizis (Ters tabiat) unga hasad qilib, Beo`xshov bilan G`alizni tug`adi. «So`ngra u mutaassiblar, munofiqlar, taqvodorlar, behuda savdoyilar, tiyib bo`lmaydigan kalvinistlar, Jeneva aldamchilari... odamxo`rlar va boshqa yovuzlar, mayib-majruhlar, badburushlar va g`ayri tabiiyliklarni dunyoga keltirdi». Demak, din kishining tabiiy his-tuyg`ulariga zid ravishda paydo bo`lgan bir xurofot – Antifizisning qilmishlaridir. U bir-biriga qarshi turgan diniy oqimlar – papachilar (katoliklar) va kalvinistlar (protestantlar)ni ham yuzaga keltirgan.

Go`zallik hamma vaqt yashaydi, unga zid bo`lib tug`ilganlarning barchasi o`tkinchi, umri qisqa degan fikr kitobning asosiy g`oyaviy mazmunini tashkil etadi. «Gargantuya va Pantagryuel» romanining beshinchi kitobi yozuvchi vafotidan so`ng nashr etildi. Asarda Panurg, Pantagryuel va ularning hamrohlari boshidan kechirgan sarguzashtlarning davomi bayon etiladi.

Ular dastlab «Ovoz chiqaruvchi orol»ga boradilar. U yerda xilma-xil ochko`z qushlar yashaydi. Ularning har birining o`z nomi bor: klergo, mongo, abbego, evego, kardengo va papego. Bu qushlar butxona qo`ng`iroqlari ostida to`xtovsiz sakrash, chug`ur-chug`ur qilishdan boshqani bilmaydilar. Bular tirikchilik tashvishlaridan qochib kelgan yalqov qushlar edi. yemoq-ichmoq ko`pligidan «ilgari ninadek ozg`in bo`lganlar, birdan sug`ur kabi semirib ketadilar» – Semiz qushlar sayramaydi, lekin ikki qushning ulushini bermalol yeydi.

Yozuvchi «Ovoz chiqaruvchi orol»dagi hayotning tasviri va u yerda istiqomat qiluvchilarning kinoyaviy obrazlari orqali katolik cherkovining klirik, monax, abbat, yepiskop, kardinallari va Rim papasining tekinxo`rlik bilan hayot kechirishini aks ettiradi. Sayohatchilar momiq mushuklar hukmronligiga borganlarida yana dahshatli voqealarga duch keladilar. Momiq mushuklar mudhish maxluqlardir «Ularning tirnoqlari shunday qattiq, uzun va o`tkirki, agar ularning panjasiga biror narsa tushsa, u yerdan qutulib chiqish amri mahol». Har qanday jirkanchlik va bosqinchilikdan

qaytmaydigan va marmar tosh ustida «kichik bolalarni yeydi»gan bu yirtqichlar o`rta asrlardagi buzilgan sud idorasi, poraxo`r sotqin sudyalarni eslatadi. So`ngra sayohatchilar kvintessensiya (sxolastika) xukmron bo`lgan joyga boradilar, bu yerda faqat «abstraksiya, kategoriya, xayollar» bilan ovqatlanadilar va kasallarni muzika bilan davolaydilar. Oxirida ular Donolik hukmronligi – Ilohiy Butilka orakuliga boradilar. Koxina Bakbuk Panurni Butilka qasriga olib kiradi. Panurg bergan so`rog`iga Butilka trink, ya`ni «ich»deb javob beradi. Koxinaning bu kulgili va kinoyaviy iboralari ostida bilim manbalaridan, donolik chashmasidan ichib, undan bahramand bo`l, degan chuqur ma`no yotadi.

Rable vrach, yirikgumanist va tabiatshunos olimdir. U optimist satirik yozuvchidir. «Gargantyua va Pantagryuel» – satirik asar Uning asketizmni qoralashi, hayot xushchaqchaqligiga undashi Rablening materializmga yaqinlashib kelganini ko`rsatadi. Bu xususiyat uning adabiy metodining realistik xarakterini ham belgilaydi. Rablening kurash quroli o`tkir so`zdir. U so`z orqali do`stlarini kuldiradi, dalda beradi, dushmanlarini masxara qilib, ularni qattiq qaqshatadi. Uning kulgisi nozik va mayin tabassum emas, balki hamma yoqqa eshtiladigan, divdinafas muhitni o`zgartirishga qaratilgan sog`lom, xushchaqchaq va qattiq kulgidir. Rable o`z ijodida xalq kulgi an`analari – hazil, kinoya, piching, mubolag`a, karikaturadan keng foydalanadi. Bular realistik ijodning o`ziga xos xususiyatidir.

Rable sorbonnachilar (katoliklar) tarafiga ham, kalvinistlar (protestantlar) tarafiga ham o`tmadi. U har ikkala diniy oqimni rad etgan erksevar Deperyega yaqin turdi. Asarda magistr Ianotus de Bragmardoninggargantyua olib ketgan qo`ng`iroqni qaytarib berishlarini so`rab so`zlagan nutqi teologiya fakulteti sxolast olimlarining puch va quruq ritorikasiga ajoyib parodiyadir.

Rable xristian dini aqidalarining xira va soxta jiddiyligini masxara qildi, har qanday adabiy vosita, shy jumladan, mubolag`a va tasvirning qattiq hazil formasigrotesk realizmidan ham keng foydalanadi. Gargantyuaning g`ayri tabiiy ravishda tug`ilishi – uning onasigargameli qulog`idan kelib chiqqani haqida so`zlagan yozuvchi kinoyali xitob qiladi: «Nima uchun siz ham ishonavermaysiz? Chunki bu haqiqatdan uzoq-ku, – deyishingiz mumkin. Shu sababdan ham siz menga ishonishingiz, ko`r-ko`rona ishonishingiz lozim, deb

aytadi. Fransisk I ning o`zboshimcha nabiralari hukmronlik qilgan XVI asrning ikkinchi yarmi(1561-1594)da yuz bergan anarxiya va diniy urushlar fransuz monarxiyasini og`ir ahvolga tushirib, mamlakatda reaksiya xurujini kuchaytirgan edi. Gumanistlarning ajoyib orzu-umidlari o`sha muhitda amalga oshmadi. Natijada ularning ijodidagi yaxshi istaklar o`rnini shubha va umidsizlik egallaydi. Bular Fransiyada Uyg`onish davrining inqirozga yuz tutganini ko`rsatar edi.

«Pleyada» shoirlari ijodida rivojlangan lirik poeziya XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab o`zining ilgarigi mavqeini yo`qota boradi. Tragediya va komediya janrlarining shakllanishi esa klassitsizm dramaturgiyasining paydo bo`lishiga sabab bo`ladi. Antik merosdan ijodiy foydalanib, milliy adabiy forma va uslub yaratishga intilgan «Pleyada» shoirlari XVII asr fransuz klassitsizmining haqiqiy o`tmishdoshlari edilar.

ISPANIYADA UYG`ONISH DAVRI ADABIYOTI

XV asrning ikkinchi yarmidan Ispaniyaning ijtimoiy hayotida absolyut hokimiyat tashkil topa boshlaydi va bu o`z navbatida adabiyot taraqqiyotiga ta`sir etmay qolmadi.

Bu davrga kelib mamlakat yerlarini qayta qo`lga kiritish harakati boshlanib ketdi, rekonkista harakati asosan tugallandi. G`arbiy yevropaning boshqa mamlakatlarida bo`lgani kabi, Ispaniyada ham, o`sha vaqtda unga qaram Portugaliyada ham savdo-sanoat rivojlanib, kapitalistik munosabatlar tug`iladi. Gumanistik dunyoqarashning shakllana borishi bilan feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qarshi kurash kuchayadi. Lekin Ispaniya viloyatlarida burjua munosabatlarining sekinlik bilan o`sishi, har bir o`lkaning o`z qonun-qoidalari bo`lishi va, shuningdek, rekonkistaning uzoqqa cho`zilganligi sababli absolyutizm butun mamlakatni bir milliy davlat tevaragiga birlashtira olmaydi. Kirollik hukumati shaharlar bilan ittifoq tuzib, feodal tarqoqligiga chek qo`ya olmaydi.

XV asrda yevropaning boshqa mamlakatlarida yirik monarxiyadan iborat davlatlar paydo bo`lib, ular «madaniylashtiruvchi markaz» sifatida xizmat qilgan bir vaqtda Ispaniyada bunday markazlashgan hokimiyat hali yo`q edi. Feodal

aristokratiya o'zining yaramas odatlarini saqlagani holda inqirozga uchraydi. Shaharlar esa yangi zamonga xos ma'no kasb etmasdan, o'zlarining o'rta asr kuch-qudratlarini yo'qotadilar.

Savdo-sanoat ishlarida ham tushkunlik ro'y beradi. Amerikadan keltirilgan oltin mamlakatning xo'jaligini izdan chiqaradi. Chetdan mol sotib olish foydaliroq bo'lib chiqadi. Oqibatda, dehqonlar xonavayron bo'ladi. Mustamlaka xalqlarini talash va ezish kuchayadi, moddiy boylik ishlab chiqarish haddan tashqari qisqarib ketadi. Oltin zapasi tugagach, xo'jalik hayotida yana og'ir vaziyat yuzaga keladi. Absolyutizm mamlakatda iqtisodiy kuchning o'sishi va burjua munosabatlarining rivojlanishiga to'siq bo'lib qoladi, natijada yagona milliy davlat o'rnatilmaydi. Zulmga qarshi bosh ko'tarib chiqqan xalq harakatini bostirish uchun absolyutizm harbiy-politsiya tartiblarini o'rnatadi. Ispan monarxiyasi yevropa feodal reaksiyasining tayanchi edi. Katolik cherkovi esa xalqni qullikda saqlash uchun qirol hukumatiga yordam beradi. Ozodlikka bo'lgan har qanday intilish taqiqlanib, juda ko'pgunohsiz kishilar inkvizitsiya jazosiga duchor bo'ladi.

XVI asrning ikkinchi yarmilarida, Filipp II (1556-1598) hukmronlik qilgan davrda, mustabid hokimiyat siyosiy va iqtisodiy tushkunlikka uchraydi. Niderlandiya qo'ldan ketadi. Angliyani bosib olish uchun yuborilgan Ispaniyaning «Engilmas Armada» floti tormor etiladi (1588), mamlakatda feodal-katolik zulmi kuchayadi. Ilgari Ispaniyadan yahudiylar quvilgan bo'lsa (1492), endi o'troqlashib qolgan mavrlar haydaladi (1609). Bu voqealar mamlakat xo'jaligiga, so'zsiz, salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XVII asr o'rtalariga kelib Ispaniya o'zining ilgarigi qudratidan mahrum bo'ladi, keyinchalik u mustamlakalaridan ajralib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. XVI-XVII asrlar mobaynida davom etgan dehqon qo'zg'olonlari esa absolyutizm krizisini yana ham chuqurlashtirib yuboradi.

Ispan Uyg'onish davri adabiyoti XV-XVI asrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mamlakat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ravishda shakllanib, unda ilg'orgumanistik g'oyalar targ'ib qilinadi.

Bu adabiyotning dastlabki bosqichi (XV asr oxiri, XVI asrning birinchi yarmi)dagi yirik shoirlardan biri Fernando de Erreradir (1534-1597).

Bu davrda lirika janriga nisbatan epik poeziya keng ko'lamda rivojlanadi. Tarixiy, ta'limiy-didaktik, afsonaviy, diniy va boshqa turdagi poemalar yuzaga keladi. Chunonchi, Ersilya(1533-1594)ning katta epopeyasi «Araukana»da hind-araukan qabilasidan bo'lgan chiliylarning ispan hukmronligiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari tasvirlanadi. Asarda qabila qahramoni Kaupalikanning mardona kurashi, ayollarning sevgi sarguzashtlari tasvirlanadi. Poema o'sha davr Ispaniya uchun xarakterli kayfiyat – yangi mustamlakalarni bosib olish, mahalliy xalqqa «ma'rifat» tarqatish kabi intilishlarni aks ettiradi.

XVI asrda yashagan yirik portugal yozuvchisi Luis de Kamoens (1524/25-1580) ijodida davr ruhi muvaffaqiyatli gavdalanadi. Kamoens bir necha komediya, bir qator she'r, shu jumladan baxtsiz sevgini ifodalagan 350 dan ortiq sonet yozadi. Lekin u, asosan «Luziada» poemasi bilan mashhur. Asar Vasko degamaning Afrika orqali Hindistonga yo'l topishi va portugallarning bu mamlakatga kirib borishini tasvirlaydi. Shoir jamiyatdagi nuqsonlarni, saroy ahlining munofiqligini va hukmronlarning og'ir soliqlar solib xalqni ezayotganligini ayamay fosh etadi. Poemada sinfiy qarama-qarshiliklar, ritsar sarguzashtlari, koloniyalarni bosib olishga intilish kabi davrning xarakterli xususiyatlari aks ettiriladi. Asarning ahamiyati shundaki, u insonning tabiatni o'rganishga qaratilgan faoliyati va urinishlarini qiziqarli qilib tasvirlash bilan birga, poeziyada realistik uslubning rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Ersilya va Kamoens ijodlariga Gomer, Vergiliy kabi shoirlarning ta'siri bor edi. Bu ta'sir ularning poemalarida realistik epizodlar bilan birlikda fantastikaga berilishda ko'zga tashlanadi.

XVI asr ispan adabiyotida lirik va epik Ritsarlik romani poeziyaga qaraganda romanchilik keng rivojlanadi. Inson istak-orzulari, irodasi va kurashining yana ham to'laroq aks ettirilishi bilan bu janr alohida o'rin tutadi. Bu davrda romanning xillari ko'p bo'lib, ulardan biri ritsarlik romani edi. Bu turdagi romanlarda ritsar sarguzashtlari ifodalangan poema syujetlari qayta ishlandi, davr ruhiga moslandi, shuningdek, ularda harbiy qahramonliklar tasvirlandi.

Feodal-aristokratik dunyoqarashni ifodalagan va o'rta asrlarda keng tarqalgan ritsar romanlaridan eng mashhuri «Amadis

Galskiy»dir. Bu romanda Amadisning sirli tugʻilishi, uni onasi qutiga oʻtqazib, suvga tashlab yuborishi, bir ritsarning qutini ushlab olib, bolani tarbiya qilishi, voyaga yetgan Amadisning Britaniya qirolining qizi Orianaga sevgisi, sevgilisiga erishish yoʻlida koʻrsatgan qahramonliklari tasvirlanadi. Amadis juda koʻp mashaqqatlarni boshidan kechirib, dunyoni kezib chiqadi, Rim imperatorini yengadi, Konstantinopolga bostirib kiradi. Pirovardida, qahramonlik bilan oʻz muhabbatini isbotlab Orianaga uylanadi.

Amadis haqidagi bu asar bemaʼni ritsar sarguzashtlarini koʻrsatsa ham, lekin unda yuksak badiiy qimmatli epizodlar ham yoʻq emas. Servantes «Don Kixot» romanida ritsar romanlarini qattiq qoralaydi. Lekin «Amadis»ni ritsar romanlaridan eng yaxshisi, deb baholaydi.

XVI asr oxirlarida rivojlangan va demokratik xarakter kasb etgan «Aierlik» romanida oddiy turmush manzaralari tasvirlanadi va shuning uchun ham, u aristokratik tabaqalarning didini aks ettirgan ritsarlik va pastoral (choʻponlik) romanlaridan tubdan farq qiladi. Fernando de Roxasning dialog shaklida yozilgan «Selestina» (XV asr oxiri) asari shu tipdagi romanning dastlabki namunasi hisoblanadi. Bunda ikki sevishtan yosh Kalisto bilan Melibeyaning fojiali sevgisi hikoya qilinadi. Yozuvchi ispan adabiyotida birinchi boʻlib ideallashtirilmagan sevgini, yoshlar muhitini realistlik boʻyoqlarda tasvirlaydi. Sevishtanlar oʻrtasida turgan vositachi Selestina va u bilan oʻlja talashgan yordamchilari qilmishlarining tasviri xarakterli. XVI asr oʻrtalarida mamlakatda qashshoqlikning avj olishi, yengil hayot kechirishga intilish har xil avanturaga berilishlarni kuchaytirib yuboradi. Katta-kichik tovlamachilar, yulgʻichlar, oʻgʻrilar pikaro (ayyor, firibgar) deb atalar edi. Bu haqdagi asarlarning «ayyorlik» romani deb atalishi ham shu bilan izohlanadi. Odatda, bu tipdagi asarlarda bolalik vaqtida uydan qochib ketgan yoki ota-onasining qashshoqligi natijasida koʻchaga haydalgan «ayyor»ning tarjimai holidan bayon etiladi. Tirikchilik oʻtkazish maqsadida ayyorning qilmagan ishi qolmaydi. U bir xoʻjayin qoʻlidan ikkinchisiga oʻtib turadi. Turmushning achchiq-chuchugini totib, katta tajriba orttirgan «ayyor» oʻzining hayot yoʻli haqida «Xotiralar» yozishga kirishadi. Qahramon sarguzashti orqali ijtimoiy muhitni aks ettirish oʻsha davr ispan hayotining satira ostiga olinishiga yoʻl ochadi. Adolatsizlikka asoslangan ijtimoiy tuzum

kambag'allarni qashshoqlikgirdobiga tortadi, munofiqlik va ayyorlikka zamin hozirlaydi. Roman qahramonlari insoniy qiyofasini yo'qotish evaziga «muvaqqiyat»ga erishadilar. Ayyorlik romanlari feodal absolyutizmga qarshi demokratik ruhni ifodalashi, realistik tasvirning chuqurligi bilan shu davr ispan adabiyotining yuqori cho'qqilaridan birini egallaydi. XVI asr o'rtalarida yaratilgan bu janrning dastlabki namunasi «Tormeslik Lasorilyo» hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, lekin satirik jihatdan kuchliligi bilan Erazm Rotterdamskiyning «Nodonlikning maqtovi»ga tenglashib boradi.

«Tormeslik Lasorilyo» romanida kambag'al beva onasidan ajralib, mustaqil hayot kechirishga kirishgan sakkiz yashar bolaning sarguzashtlari beriladi. Bola ko'rgadoygga yetakchilik qiladi, biroq unga tushgan sadaqaga sherik bo'lgisi kelmaydi. Tirikchilik o'tkazish uchun u turli hiyla-nayranglar ishlatadi. Xasis ruhoniy qo'lida xizmat etgan va och qolib, uning nonini o'g'irlagan Lasorilyo qattiq kaltaklanib haydab yuboriladi. So'ngra u bir ritsarnikida yuradi, bipoq bu xo'jayin o'z xizmatkoridan ham nochor yashaydi. Yana ko'p kishilar eshigida dastyorlik qilsa ham, Lasorilyoning ahvoli yaxshilanmaydi. U politsiya pristaviga yordamchi bo'lib xizmatga kirgandan keyingina, xo'jayinning qonunsiz daromadlaridan bir qismini egallab, uy-joy va boylik orttiradi.

Fransiskogomes de Kevedo (1580-1645) ijodida «Ayyorlik» romani yuqori bosqichga ko'tariladi. Aristokrat muhitidan chiqqan Kevedo bir qancha yuqori mansablarda ishlaganligiga qaramay, hukmron doiralarning adolatsizligini, xalqqa qilayotgan zulmini tanqid qiladi. Shuning uchun ham Kevedo ta'qib ostiga olinadi va qamaladi. Bu narsa uning sog'lig'iga yomon ta'sir etadi. Kevedo «Segoviyalik don Pablos deb ataluvchi qallobning hayot tarixi» (1626) satirik kitobida dvoryanlar axloqining buzilganligi, ruhoniylarning munofiqligi, qirollik hukumatining yaramasliklarini hajviy yo'sinda aks ettiradi. U faqat roman emas, pamflet, poema, sonet va romanslar ham yozadi.

Kevedo satirik-pamfletchi sifatida xalq qonini so'rib yurgan iezuitlear, ochko'z chinovniklar, tekinxo'r savdogarlar, olg'ir burjuaguruhlarini qattiq qoralaydi. «Sinyor Dinero» («Janob Aqcha») she'rida shoir oltinning dahshatli qudratini, u orqali odamlarning qul qilinishini ochib tashlaydi. «Hamma narsa va yana boshqa ko'p narsalar haqida kitob»ida eski urf-odatlar, munajjimlar,

pedantizm, ikkiyuzlamachilik va tovlamachiliklarni ayamay fosh etadi. «Videnie»lar sikli («Ostin-ustin dunyo», «Dahshatli sud videniesi», «Do`zax videniesi»)da Kevedo har qanday mansabdor va ruhoniy ham hayoti dor ostida tugaydigan o`g`ri va bosqinchining xuddi o`zi, bu dunyo azoblari do`zax dahshatlaridan yengil emas, deydi.

SERVANTES (1547-1616)

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida ijod etgan ispan Uyg`onish davri adabiyotining yirik vakili, realistik romanchilikka asos solgangumanist yozuvchi Migel de Servantes Saavedra 1547 yilning 29 sentyabrida Ispaniyaning Alkala de Enares shaharchasida tug`ildi. Otasi Rodrigo de Servantes Saavedra tabiblik bilan kun kechirar, shuning uchun ham u ko`p vaqt oilasi bilan shahar-mahallalar kechib yurishga majbur bo`lar edi.

Migel de Servantes 1557-1561 yillarda iezuitlar maktabida o`qiydi. 1561 yilda oilasi Madridga ko`chib borganidan so`ng, o`qishini shu yerda davom ettiradi. O`spirin Migelda she`riyatga qiziqish tug`iladi. Filipp II ning xotini malika Isabella vafotiga bag`ishlangan sonetlari yosh Servantesning poeziya sohasidagi dastlabki she`rlari edi.

1569 yilda Servantes Rimga borib, papaning vakili Akvavia huzurida ishlaydi, 1570 yilning ikkinchi yarmida Italiyada joylashgan ispan qo`shiniga xizmatga kiradi, chunki muhtojlik uni o`z vatanini tashlab ketishga majbur etadi. 1571 yilning 7 oktyabrida Lepanto ko`rfazi yaqinida turklar bilan bo`lgan shiddatli dengiz jangida qatnashgan Servantes uch yeridan o`q yeydi. 1572 yilning aprel oyigacha Messinagospitalida davolanadi. 1574 yilning oxirigacha soldat sifatida yana bir qancha janglarda qatnashadi. 1575 yilda u harbiy xizmatdan bo`shab, ukasi Rodrigo bilan o`z vataniga jo`naydi.

1575 yilning 28 sentyabrida yo`lda qaroqchilar Servantesni asir qilib olib ketadilar, u o`zini va do`stlarini qutqazmoq uchun ko`p harakat qiladi, o`zi ham qochishga urinadi. Biroq bu urinish muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Servantesning ota-onasi pul to`plab, uni tutqunlikdan qutqarib olishga harakat qiladilar. Servantes 1580

yilning 19 sentyabridagina ozod etiladi va o'z vataniga qaytadi. Bu vaqtda uning oilasi juda qashshoqlashgan, ota-onasining bor-yo'g'i Rodrigo bilan Migelni qullikdan qutqarish uchun sarf qilingan edi. Qarib qolgan ota endi tabiblik kasbi bilan shug'ullanmas edi.

Servantes biror harbiy mansabga erishish niyatida Ispaniyaga qo'shib olingan Portugaliyaga boradi (1581). U yerda ham huzurhalovat ko'rmagan Servantes Madridga qaytadi. 1584 yilning dekabrda mayda dvoryan oilasidan chiqqan Katalina ismli qizga uylanadi. Otasi o'lgach (1585), ro'zg'or tebratish maqsadida turli moliya-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Natijada adabiy ishini uzoq vaqtgacha davom ettira olmaydi.

Oldin armiyaga oziq-ovqat tayyorlovchi intendant (1587-94), so'ngra to'lanmagan boqimandalarni undiruvchi agent sifatida ishga kirgan Servantes ehtiyotsizligi oqibatida va boshqalarning aybi bilan ko'p mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. 1592 yilda u to'plangan g'allani noto'g'ri sarflashda ayblanib, turmaga tashlanadi. Moliya ishlarida ham chalkashliklar kelib chiqadi. Seviliya shahrining bankiri Madridga o'tkaziladigan pulni yubormaydi, buning ustiga u sinadi, undirilmay qolgan mablag'lar uchungunohkor deb hisoblangan Servantes 1597 yilda yana qamaladi. Keyinroq bu voqeaga doir janjal ikkinchi marta ko'tarilib, Servantes 1602 yilda uchinchi marta qamoqqa olinadi.

Servantesning «Don Kixot» romani ustida ishlay boshlashi hayotining shu og'ir va mashaqqatli davriga to'g'ri keladi. 1604 yilda qirollikning yangi poytaxti deb atalgan Valya-dolidga kelganidan keyin uning adabiy faoliyati ravnaq topadi va shu yerda «Don Kixot» romanining birinchi qismi nashr etiladi (1605). So'ngra o'n to'rt hikoyani o'z ichiga olgan «Ibratli novellalar» to'plami (1613), adabiy satira – «Parnasga sayohat» (1614) poemasi bosiladi. 1615 yilda «Don Kixot»ning ikkinchi qismi bosilib chiqadi. Shu yili uning «Sakkiz komediya va sakkiz intermediya» nomli pyesalar to'plami ham yuzaga keladi. Servantesning so'nggi asari «Persiles va Sixizmunda sayohati» romani yozuvchining o'limidan so'ng nashr qilinadi.

Antik klassik va Uyg'onish davri adabiyoti bilan yaqindan tanishish, harbiy xizmat va urushlarda qatnashish, Jazoiridagi besh yillik tutqunlik hamda boshqa ko'p muhtojlik va mashaqqatlar Servantes dunyoqarashininggumanistik xarakterda shakllanishiga va

uning yirik realist yozuvchi bo'lib yetishishiga ta'sir qildi. Servantesning adabiy dahosi uning «Don Kixot» asarida yorqin ifodalangan. «Don Kixot» romanining yaratilishi ispan «Lamanchlik Don Kixot» madaniy hayotida juda katta voqea bo'ladi. Asarning muqaddimasida Servantes «ritsar romanlarini sidirg'asiga fosh etish» va ularning «qulay deb turgan istehkomini ag'darish»ni asosiy g'oyaviy maqsad qilib qo'yadi.

«Don Kixot», garchi o'rta asr ritsar romanlariga parodiya sifatida yaratilsa ham, lekin uning mazmuni nihoyatda keng bo'lib, butun feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qaqshatqich zarba bergan ochiq satiraga aylanadi.

Pol Lafarg hamma romanistlar ichida Servantes bilan Balzakni yuqori baholagan. «Don Kixot»da esa u o'lib borayotgan ritsarlik eposini ko'rgan.

Rus tanqidchisi V. G.Belinskiy o'lmas «Don Kixot»ning avtoriga yuqori baho berib, «u romanning ideal yo'nalishiga qat'iy zarba berdi va uni voqelik tomon burdi», deb ko'rsatdi.

Yuqorida keltirilgan qimmatli fikrlar Servantes asarining to'la mohiyatini ochishda, shubhasiz, katta xizmat qiladi. Asarning bosh qahramoni Lamanch qishlog'ida istiqomat qiluvchi kam yerlik, yoshi elliklarga yaqinlashib qolgan baland bo'yli, baquvvat, lekin ozg'in, ovni yaxshi ko'radigan bir kambag'al dvoryan bo'lib, familiyasi Kexona edi. Bu dvoryan ritsar romanlarini shunday berilib o'qiy boshlaydiki, natijada ovchilikka ham, o'z xo'jaligiga ham qaramay qo'yadi. yerining ko'p qismini sotib, uning puliga romanlar sotib oladi va uzluksiz mutolaaga berilib ketadi. Ertayu kech kitobdan bosh ko'tarmagani va uxlamagani uchun miyasi aynib qoladi. Uning ko'z oldidan ritsar romanlarida o'qigan jodugarlar, devlar, jahongashta ritsarlar o'ta boshlaydi. Uning uchun xayoliy narsalar haqiqatdek ko'rinadi, haqiqat esa o'z ma'nosini yo'qotadi. Uning qalbida ham ritsar bo'lish va ularga o'xshab adolatsizliklarga qarshi kurashish orzusi tug'iladi.

U ritsar romanlaridagi qoidalarga amal qilib darhol ishga kirishadi: ota-bobosidan qolgan temir-tersaklar ichidan qurol-yarog'larni ajratib, ularni tuzatadi. Temir qalpoq ham topadi, so'ngra u oriqli, oksoqli otini ko'zdan kechiradi. Otga ritsar romanlarida bo'lgani kabi jarangdor, dabdabali Rosinant degan nom qo'yadi. O'ziga esa bir hafta o'ylab, nihoyat, Don Kixot degan jarangdor ism

qo'yadi. O'tmish ritsarlariga o'xshash, endi o'zining kaysi joydan chiqqanini ko'rsatadigan alomat ham bo'lishi kerak edi. Shuning uchun u o'zi tug'ilgan qishlog'ining nomini ham qo'shib, lamanchlik Don Kixot deb atashga qaror qiladi. Jahongashta ritsarning, albatta sevgi va sevgilisi bo'lishi kerak. U Toboso qishlog'ilik cho'chqaboqar qiz Aldonso Loresoni o'z orzulariga mos jonona deb tanlaydi va unga ham Dulsineya Toboso deb malikalarga qo'yiladigan dabdabali nom beradi.

Shundan so'ng Don Kixotning sarguzashtlari boshlanadi. Adolat uchun kurashib qahramonlik ko'rsatmoqchi bo'lgan Don Kixot har qadamda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Iyul oyining issiq kunlaridan birida Don Kixot jangovar hozirliklar ko'rib, yarog'-aslahalarini taqib, Dulsineyani diliga jo'qilib, «tulpor» Rosinantga minib, birinchi marta safarga jo'naydi. Biroq eshikdan chiqishi bilan mushkul bir xayol uning fikrini qurshab oladi: hali u ritsarlikka fatvo olmagan, shuning uchun ritsar qoidolari bo'yicha bironta ritsar bilan jang qilishga haqsiz. Endi u opqaga qaytishi kerak, lekin undagi tentaklik, hamma mulohazalaridan ustun chiqadi va yo'lda birinchi uchragan kishisining fatvosi bilan ritsar nomini olmoqchi bo'ladi.

Don Kixot shu kuni kechga tomon yetib borgan joyi – karvon saroyini hashamatli qasr deb tasavvur qiladi, u yerdagi xotinlar esago'zal malikalar bo'lib ko'rinadi, cho'chqaboqarning chiqargan hushtak ovozigayo uni kutib olish sharafiga chalinayotgan kuydek tuyuladi.

Don Kixotning «dushman» bilan dastlabki to'qnashishi shu karvon saroy molxonasi yonida ro'y beradi. «Muqaddas joy» deb bilgan saroyini kechasi bilan uxlamay qo'riqlab chiqadi. Shu vaqtda molini sug'ormoqchi bo'lib kelgan kishini «dushman» deb, unga qarshi hujum qiladi. Don Kixot zarar ko'rgan molboqar sheriklarining toshbo'roni ostida qoladi.

Karvon saroy egasining Don Kixotning ritsarligiga «fatvo» berishga oshiqqanining sababi undan tez qutulish edi. Endi «xaqiqiy» ritsar sifatida yo'lga chiqqan Don Kixot xo'jayini tomonidan kaltaklanayotgan podachi bolaga duch keladi va uni azobdan qutqarib yuboradi. Don Kixot qilgan ishidan benixoya xursand, chunki ugo'yo juda katta adolatsizlikka chek qo'ygan edi. Lekin bolaning bundan keyingi taqdiri uning xayoliga ham kelmaydi.

Toledo savdogarlari bilan to`qnashish ham ko`ngilsiz voqea bilan tugaydi. Don Kixot ularni jahongashta ritsarlar deb yo`lini to`sib, dunyodagi barcha malikalardan ko`ra o`zining Dulsineyasiningo`zal malika deb tan olishga majbur etadi. O`jarlik bilan ularga hujum boshlagan va qattiq kaltaklanib o`rnidan turishga majoli qolmagan Don Kixot qayg`urmaydi, chunki jahongashta ritsar bilan bunday voqealarning yuz berib turishi, uningcha, tabiiy bir xol edi.

Servantesning asar muqaddimasida «ritsar romanlarining qulay deb turgan istehkomini ag`darish» ta`kidlangan asosiy fikri Don Kixotning birinchi safari tasvirlangan yuqoridagi epizodlardayoq ochiq ko`rinadi. Ritsarlikning halokatli ta`siriga qarshi dadil va uzluksiz kurash olib borish g`oyasi butun voqealar davomida yozuvchining diqqat markazida turadi.

Don Kixot ritsar sarguzashtidan qaytgan va qattiq shikastlanib yotgan vaqtida uning kutubxonasini ko`zdan kechirgan do`stlari, jiyani va xizmatchi ayol «quruq til bilan yozilgan dag`al va bema`ni», zarardan boshqa narsa keltirmaydigan kitoblar haqida: «Bir to`da qilib yig`ib, kuydirib tashlash kerak», «Ularni to`ppa-to`g`ri tashqariga uloqtirmoq zarur», deyilar. Bu yozuvchining ritsar romanlariga nisbatan kuchli nafratining ifodasi edi.

Don Kixot navbatdagi safarga chiqishi oldidan Sancho Pansa degan bir sodda dexqonni topib, o`ziga yordamchi – yaroqbardor qilib oladi va bu xizmatlari evaziga uni qo`lga kiritadigan orollaridan birigagubernator qilib tayinlamoqchi bo`ladi. Yo`lda uzoqdan ko`ringan shamol tegirmonlar unga dushman devlar bo`lib tuyuladi.

Don Kixot birinchi duch kelgan tegirmonning parragiga nayza sanchadi. Harakatlangan parraklar uni oti bilan ilib ko`tarib ketadi, so`ngra yerga uloqtirib tashlaydi. Sancho Pansa og`ir ahvolda yotgan xo`jayinga bu fojia uning so`zlariga ishonmaganligidan kelib chiqqanini afsus bilan bildiradi. Don Kixot esa kitoblari bilan birga uyini xam o`g`irlab ketgan ashaddiy dushmani jodugar Freston devlarni shamol tegirmonlariga aylantirib qo`ygani, lekin, baribir, uning makkorligi Don Kixot qilichi kuchiga bardosh berolmasligini aytib, o`z fikridak qaytmaydi.

Ikkinchi kuni Don Kixot va Sancho yo`lda ikki monax va ularning xizmatchilariga duch keladi. Ulardan orqaroqda kareta biskaylik ayol ham ketayotgan edi. Bu yo`lovchilar Don Kixotga

«malika»ni olib qochib ketayotgan jodugarlar bo`lib ko`rinadi. U xonimni ozod etish uchun hujum qiladi. Sancho Pansani esa faqat bir narsa – yerda cho`zilib yotgan, «engilgan» kishining narsalarini o`lja qilib olishgina qiziqtirar edi. Biroq har ikkala qahramon – ritsar va uning yarog`bardori ham yo`lovchilarning qattiq zarbasiga uchraydilar,

Shu singari ko`ngilsiz voqealar Sancho Pansani umidsizlikka tushiradi va u qishlog`iga qaytib, xo`jalik ishlari bilan shug`ullanmoqchi bo`ladi. Biroq Don Kixot unga g`alaba kuni yaqinlashib qolganini, bardam bo`lish kerakligini uqtirgandan so`ng, u Don Kixotni tashlab ketolmaydi.

Don Kixotning xizmatkoridan g`amgin qiyofadagi ritsar laqabini olishi bejiz emas. Uning o`zi ham o`tmishdagi ritsarlar misolida shunday nomga tezroq erishishni istab, qalqoniga xafaqon bashara surati soldirmoqchi bo`lganida, Sancho Pansa unga e`tiroz bildirib, bu narsaga vaqt va pul sarf qilib o`tirishning sira hojati yo`qligini, u betidagi niqobini ochib basharasini ko`rsatsa, shuning o`zi kifoya qilishini, chunki ochlikdan va jag` tishlaridan ajralganligidan aft-angori ancha xunuklashib, g`amgin va ayanchli tus olganini aytadi. Sanchoning jiddiy so`zi hazildek tuyulsa ham, lekin u ko`p masalalarga to`g`ri baho berar edi.

Ritsar romanlariga berilish Don Kixotni tentaksimon holga tushirsa ham, lekin uning qalbi pok va intilishlari beg`arazdir. Bu fikrni romandagi bir epizod yaxshi tasdiqlaydi. «Haqoratlangan va mulkdorlar tomonidan tahqirlanganlarni qo`llash uchun qasam ichgan» Don Kixot yo`lda qo`llari kishanlangan mahbuslarga duch kelib, ularni qutqarishga urinadi. Tabiat tomonidan erkin yaratilgan kishilarni qul holiga keltirish katta adolatsizlik, deb ularni bo`shatib yuborishlarini talab etadi. Biroq soqchilar uning talablarini bajarmaydilar. Bundan g`azablangan Don Kixot hujum qilib, otryad boshlig`ini holsizlantiradi, so`ngra yaxshi qurollanmagan soqchilarga zarba berib, mahbuslarni kishandan qutqaradi.

ANGLIYADA UYG`ONISH DAVRI ADABIYOTI

Angliyada Uyg`onish harakati yevropaning boshqa mamlakatlaridan ancha keyin – XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida paydo bo`ladi. Feodal jamiyati sharoitida ishlab chiqarish

munosabatlarining rivojlanishi o`rta asr tartiblari va uning g`oyaviy asoslariga putur yetkazuvchi yangigumanistik dunyoqarashning shakllanishida muhim omil bo`ldi.

Uyg`onish davrining dastlabki bosqichi Angliyada Reformatsiya harakati boshlangan vaqtga to`g`ri keldi. Din va cherkovga munosabat inglizgumanistlari uchun eng muhim masala edi. Bu harakatning ikkinchi bosqichida cherkovning ham moddiy, ham ma`naviy qudratiga zarba beriladi.

Uyg`onish harakati mamlakat madaniy hayotida chuqur o`zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aqliy va jismoniy mehnat faoliyati uchun katta imkoniyat yaratiladi. Ilmiy va geografik kashfiyotlar natijasida dunyo chegaralari haqidagi tushunchalar kengayadi. Inson ongi o`rta asr diniy-cherkov sxolastikasi va urf-odatlarini ta`siridan xoli bo`la boradi. Dunyoviy madaniyat, fan va adabiyotning o`sishi uchun keng zamin yaratiladi. Ilg`or mutafakkirlar davr talabiga javobni turmushning o`zidan, xalq ehtiyojlaridan axtaradilar.

San`at va adabiyotgumanizm g`oyalarini yoyishda jangovar qurolga aylanadi. Yozuvchi va olimlar antik madaniyat tarixini o`rganishga kirishadilar. Garchi Uyg`onish davri san`ati antik san`atdan o`zgacha sharoitda yaratilgan bo`lsa ham, gumanistlar din aqidalarini uloqtirib, qadimgi yunon va Rim madaniyatining hayotbaxsh an`analarini tiriltirishga urinadilar.

Ijtimoiy hayotdagi bunday o`zgarishlar adabiyotda ham o`z ifodasini topdi. Bu davrda xalq ommasida tug`ilgan norozilikni aks ettirgan yozuvchilardan biri ingliz shoiri Uilyam Lenglend edi.

Uilyam Lenglend (taxminan 1332-1400) «Qo`shchi Pyotr haqidagi xayol» nomli allegorik xarakterdagi poemasi XIV asrning ikkinchi yarmidagi Angliya ijtimoiy hayotining o`ziga xos tomonlarini, ayniqsa, dehqonlarning og`ir ahvolini yoritib bergan.

O`rta asrlarda keng tarqalgan hayoliy ertakvidenie janrida yozilgan bu poema muqaddima bilan boshlanadi. Bahor kunlaridan birida qishloqqa, Malver qirlariga sayohatga chiqqan muallif suv bo`yida o`tirib dam olmoqchi bo`ladi va shu yerda ko`zi uyquga ketib, qiziq tush ko`radi: keng dalada qad ko`tarib turgan minora bilan qamoqxona o`rtasidagi maydonda katta olomon to`plangan. Ular orasida har xil toifadagi odamlar – savdogar, gadoy, ritsar, monax, masxaraboz va amaldorlardan tortib, oddiy qo`shchigacha bor. Kirning narigi tomonidan ko`ringan minora – Haqiqat,

vodiydagi qamoqxona esa Yomonlik timsolidek namoyon bo'ladi. Bular, shubhasiz, majoziy obrazlar. Lekin maydon to'la turli tipdagi odamlar esa majoziy obrazlargina emas, balki ular orqali o'sha zamonning real voqeligi ifodalanadi.

Poemaning birinchi qismi markazida Muqaddas minora (cherkov) va yaxshilikning timsoli bo'lgan oddiy bo'z ko'ylakli ayol, uning raqibasi yaxshi kiyingan Foydaxonim turadi. Yozuvchi poemaning birinchi qismida Cherkov nomi bilan niqoblangan ayyor, firibgar, manfaatparast va munofiq kishilarning kirdikorlarini fosh etadi. Foydaxonimning to'yi tasviri orqali feodal jamiyatida sodir bo'layotgan qabihlik va firibgarliklarni ochib tashlaydi.

Poemaning ikkinchi qismida avtor yana tush ko'radi. Uning ko'z oldidan qadrdon dala va unigavjum qilib turgan odamlar o'tadi. Ular Idrok atrofini o'rab olganlar. Idrokgunohkorlarni tavba-tazarru qilishga chaqiradi. So'ngra kitobda yetti aybdor (Takabburlik, Shahvatparastlik, Ichqoralik, Adovat, Xasislik, Mechkay va Yalqov)ning tavba-pushaymonlari tasvirlanadi. Har birgunohkorning o'ziga xos xususiyati bor. Masalan, Mechkay – aroqxo'rlik singari yaramas xatti-harakatlarini tashlash va kechirim so'rash uchun cherkovga o'tlanadi-yu, lekin qahvaxonaga kirib, ulfatlar bilan yana ichib, o'zini eplay olmay qoladi. Yo'l-yo'lakay urinib-surinib, kiyimboshlarining rasvosini chiqaradi. Hatto och sayoq it ham unga yaqinlashishga hazar qiladi. Uzoq uyqudan bosh ko'targan Mechkay xotinining huzuriga borib, bundan so'ng sira ham ichmaslikka so'z beradi.

Gunohkorlar tavba-tazarru qilganlaridan so'ng Idrok ularni Haqiqatni izlashga da'vat etadi. Biroq hech kim Haqiqatning qaerda ekanini bilmaydi. Poemada shoir oddiy qo'shchini haqiqat sari yo'l boshlovchi yagona kishi deb ko'rsatadi va qo'shchi Pyotr so'zlari vositasida umumiy mehnat g'oyasini ilgari suradi. Dehqon mehnati maqtaladi, jamiyatning sog'lomlashishi va yaxshilanishining asosiy manbai mehnat ekanligi, ishga qobiliyatli barchaning mehnat qilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Yozuvchi «Qo'shchi Pyotr haqidagi xayol» nomli bu asarida dehqonlarning 1381 yil qo'zg'oloni arafasidagi isyonkor kayfiyatini aks ettirdi va xalq ongining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qo'zg'olon rahbarlari o'z kurashlarida bu poemadan keng ko'lamda foydalanganlar.

Lenglend shoir sifatida o`rta asr adabiyoti an`analari bilan bog`langan holda, uning badiiy shakllari, masalan, videnie – xayol (tush) janridan foydalandi va unga yangi mazmun kiritdi. Uning asarlaridagi obrazlar, diniy adabiyotda bo`lganidek, «narigi» dunyodan emas, kurtuaz (saroy) sevgi romanining nazokatli doirasidan ham emas, balki o`sha vaqtdagi Angliyaning ijtimoiy hayotidan olingan. Bu narsa allegorik poemaga realistik ruh bag`ishlaydi. Bu hol asarning xalq o`rtasida keng shuhrat qozonishiga olib keldi.

Angliyada Uyg`onish davri yozuvchilarining o`tmishdoshlaridan biri yirikgumanist Jefri Choser (1340-1400) bo`lib, u savdogar oilasida tug`iladi. Dante kabi Choser ham o`z she`rlarini ona tilida yozishni maqsad qilib oladi. Uning «Gertsoginya haqida kitob» (1369), «Shuhrat uyi» (1379-1384), «Qushlar kengashi» (1377-1382) poemalari «videnie» (tush) janrida yozilgan bo`lib, ularda saroydagi turli marosimlar tasvirlangan.

Choserning katta she`riy romani «Troil va Krizeida» (1372-1384) italyan adabiyoti (Dante, Petrarka va Bokkachcho)ning bevosita ta`siri ostida yaratilgan. Shoir, Troya shahzodasi Troilning kohin Kalxasning qizi Krizeidaga bo`lgan sevgisi haqidagi hikoyani saqlagani holda, psixologik xarakterdagi yangi poema yaratadi. Psixologizm ayniqsa Krizeidaning shubha va ikkilanishlarida, u bevafoqlik qilgandan so`ng Troilning chekkan azoblari tasvirida ravshan ko`rinadi.

Dastlab Troil har qanday muhabbatni rad etadi. Ishq azobini chekayotganlarni ko`rganida ularni mazax qiladi. Lekin uning o`zi ham ma`bud Amur qonuniga binoan, sevgiga duchor bo`lib qoladi.

Asarning muqaddimasida bir to`da odamlarning Kenterberidagi avliyo Tomas Beker qabrini ziyorat qilish uchun bahor paytidagarri Beyli mehmonxonasiga to`planib, shu yerdan yo`lga chiqishlari tasvirlanadi. Manzil uzoq bo`lgani uchun, Beyli har bir kishi borishda ikki va qaytishda ikki hikoya aytсин, deb taklif kiritadi. Bu fikr hammaga ma`qul tushadi. Ziyoratchilar (29 kishi) tomonidan aytilgan va yozib ulgurilgan hikoyalar asarning mazmunini tashkil etadi. Ziyoratchilar turli yosh va turli tabaqa vakillari (ritsar, savdogar, monax, kosib, talaba, dehqon va boshqalar) bo`lganliklari uchun ularning hikoyalari ham turmushning turli tomonlarini qamrab oladi. Bir kishining hikoyasi tugagach,

ikkinchisi uni davom ettiradi. Asar bu jihatdan Bokkachchoning «Dekameron»ini eslatga ham, lekin unda voqealar ancha keng tasvirlangan. «Dekameron»da 7 qiz va 3 yigitning bog'i eramdagi hayoti gavalansa, «Kenterberi hikoyalari»da turli toifa va turli yoshdagi kishilarning keng doira (katta ko'cha)dagi harakat va turmushlari aks ettiriladi.

Choser hikoya yaratishda diniy afsonalar, ritsar adabiyoti, allegorik epos, fablio va boshqa adabiy janrlardagi materiallardan keng foydalandi. Asardagi she'rlar shakli va temasi jihatidan o'rta asr poeziyasi uslubida bo'lsa ham, lekin voqealarning birmuncha keng va real tasvirlanganligi, avtorning oddiy kishilarga xayrixohligi bilan Uyg'onish davri printsiplariga yaqinlashib boradi. Choserning poeziyasi Renessans realizmi uchun poydevor xizmatini o'taydi.

O'tmishning buyuk yozuvchilari xalq ijodiga Robingud haqida murojaat qilib, uning syujet va badiiy xalq balladallari ifoda vositalaridan ijodiy foydalanganlar.

Robingud va uning otryadining jangovar harakatlariga bag'ishlangan balladalar qirqdan ortiqdir. Ularning ko'pi XIV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Balladallarning bosh qahramoni hukmronlar zulmiga qarshi kurashga otlangan va o'z erkini yo'qotmagan dehqon («yomen»)lardan kelib chiqqan Robindir. Uning drujinasi kambag'al dehqon va kosiblardan iborat edi. Ularning harakatida XIV-XVI asrlarda yuz bergan o'zaro feodal urushlar, katta soliqlar natijasida qiyin ahvolda qolgan dehqonlarning dvoryan aristokratiya sinfiga qarshi kuchli noroziliklari va qo'zg'olonlari aks etadi. Robingud haqidagi balladallarning syujeti murakkab emas.

Qirol yoki sherif (xokim) topshirigi bilan Robinni qo'lga tushirish istagida yurgan har bir kishi, uning kuch-qudratini bilgach, o'z ixtiyori bilan uning drujinasiga qo'shilib ketardi.

Jasur, chaqqon va tolmasgud o'zini ushlash uchun qo'yilgan barcha pistirmalardan ustalik bilan qutulib, xo'rlanganlarning yovuz dushmani sherifga qarshi ayovsiz kurash olib boradi. Bu jihatdan Robingud bilan Gaygisborn haqidagi ballada xarakterlidir.

Robinni izlab yurgangay o'rmonzorda unga duch keladi, lekin uni tanimaydi. Ular o'q otishda musobaqa qiladilar. Robinning merganligini ko'rgangay «qalbing xam qo'ling singari bo'lsa, u vaqtda Gud sendan zo'r emas ekan» deb o'ch olmoq maqsadidagudni

axtarib yurganini ma'lum qiladi. Xalq qahramoni Robin o'sha qidirib yurgan kishing men bo'laman, deydi. Ikki o'rtada qattiq olishuv boshlanadi va oxiridagud «bir umr xoin bo'lgan»gayni yengib, uni o'ldiradi. So'ngra Robin sherif soqchilari qo'liga asir tushgan do'sti «kichkina Jon»ni qutqaradi. Xushchaqchaq Jon esagudni ko'rib qochib ketayotgan sherifga nayza sanchib, undan qasos oladi.

Inglizgumanistik adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari bor. Uning dastlabki bosqichi XV asrning oxiri va XVI asrning 60-70-yillarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, bu vaqtda yashagangumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar, uning hayotbaxsh progressiv g'oyalarini targ'ib qilish bilan bir qatorda o'rta asr morolitesidan foydalanib tragediya va komediya janrini yaratishga kirishadilar.

Uyg'onish adabiyotining ikkinchi vagullagan bosqichi XVI asrning oxirlaridan XVII asrning boshlarigacha (Shekspir vafotigacha) bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davr mobaynida yirik yozuvchilar, xususan, dramaturglar yetishib chiqadilar, ular o'z asarlarida davrning muhim ijtimoiy voqealarini katta badiiy umumlashmalarda aks ettiradilar.

Gumanistik adabiyotning uchinchi bosqichi esa (XVII asrning boshlaridan, ya'ni 1616 yildan to shu asrning 40-yillarigacha bo'lgan davr) teatrlarning yopilishi, Uyg'onish g'oyalarining tushkunligini ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Inglizgumanistik adabiyotining yirik vakili Tomas Mordir. Mor sof ko'ngilli, kamtar, xalqqa yaqin arbob sifatida shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham ugenrixning cherkovni yuqoridan turib reforma qilish, uni Rimdan ajratish haqidagi fikrlari bilan kelisha olmaydi.

Morninggumanistik qarashlari uning «Utopiya» (1516) romanida o'zining yorqin ifodasini topgan. Roman asar muallifi bilan dengizchi Rafail Gitlodey o'rtasidagi suhbat shaklida yozilgan. Kitobning birinchi qismida Angliyadagi mavjud ijtimoiy tartiblar, ikkinchi qismida esa «Utopiya» orolidagi ideal ijtimoiy tuzum ko'rsatiladi. Voqea ko'p yerlarni ko'rgan dengizchi-sayyoh Rafailgitlodey tilidan bayon etiladi. U Angliyadagi qattiq qonunlar natijasida azob chekayotgan xalq, yeridan ajralibgadoylar sonini ko'paytirayotgan dehqonlar haqida so'zlaydi, qishloqqa kirib borayotgan kapital va dahshatli ekspluatatsiyani, tekinxo'rlik bilan

hayot kechirayotgan hukmron tabaqalarning kirdikorlarini ochib tashlaydi.

Tomas Mor fantastik romani «Utopiya»da yevropadagi mavjud tartiblarga qarshi xalq ommasining noroziliklarini ifodalab, kelajakda barcha teng yashaydigan ijtimoiy tuzumni tasavvur etib, zulmni tugatish haqida chuqur va dadil fikrlar bayon qilishi bilan o`zidan keyingi Uyg`onish davri ma`rifatchilik adabiyotiga, shuningdek, sotsial utopiyaga asos soldi.

«Globus» teatrining demokratik xarakteri uning ommaviyligi, repertuarining xilma-xilligi, ijtimoiy turmushning yaqqol aks ettirilishi bilan belgilanadi. Bu teatrning keng shuhrat qozonishida ulug` dramaturg Shekspirning xizmatlari alohida o`rin tutadi.

Uyg`onish davri Leonardo da Vinchi, Albrect Dyurer, Jordano Bruno, Kopernik, Rable va Servantes kabi yirik mutafakkir va ulug` yozuvchilarni yuzaga keltirdi. Ular orasida eng hurmatli o`rinlardan birini, shubhasiz, jahon dramaturgiyasining buyuk namoyandasi Uilyam Shekspir egallaydi.

UILYAM SHEKSPIR (1564-1616)

Ulug` shoir va dramaturgning tarjimai holiga doir ma`lumotlar juda kam saqlangan: uning hayoti va adabiy faoliyatiga oid materiallar zamondoshlarining bergan baholari hamda xotiralari asosida yig`ilgan va to`ldirilgan.

Uilyam Shekspir 1564 yilning 23 aprelida Markaziy Angliyaning Stretford shaharchasida tug`iladi. U oiladagi 8 farzandning uchinchisi edi. Otasi Jon Shekspir charm qo`lqop tayyorlovchi hunarmand bo`lib, savdo bilan ham shug`ullanadi, katta obro` orttirib shahar kengashiga saylanadi va shahar boshlig`i vazifasida ishlaydi.

Stretford Evon daryosi sohilida joylashgan bo`lib, Birmingamdan Oksford va Londonga boruvchilar bu shaharchaga tushib o`tar edilar. Shu tufayli bu osoyishta shahar har xil kishilar – martabali sayohatchilar, savdogar va hunarmandlar, kambag`al studentlar bilan doim to`la edi.

Stretfordga aktyorlar truppasi ham kelib, turli tomoshalar ko'rsatib turar edi, bu voqea shahar madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Shekspirning teatrga qiziqishi ham shu yerda uyg'onadi.

Uilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi»da o'qiydi. U yerda, asosan, latin tili o'rgatilib, sxolastik logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilardi. Uilyam ayniqsa Rim shoiri Ovidiy asarlarini qiziqib mutolaa qiladi, lekin ko'p o'qiy olmaydi. Otasining ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kambag'allashib qolgach, hali 16 yoshga to'lmagan Uilyam o'qishni tashlab, ishga kiradi. 18 yoshida u Anna Xetuey degan fermer qiziga uylanib, Suzanna ismli qiz, Yudef va Gamlet ismli o'g'illar ko'radi.

Stretford Shekspirning katta talab va ehtiyojlarini qondira olmasdi. U 1587 yilda Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval suflyor yordamchisi, so'ngra aktyor, keyinroq rejissyor, hatto teatrni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum.

Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa mualliflarning pyesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi («Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyulishi», «Har narsaning me'yori bor»). Shu bilan birga, uning o'zi ham qalam tebrata boshlaydi va tez vaqt ichida u dramaturg sifatida nom chiqaradi.

Aktyorlar orasidan chiqib katta obro' orttira boshlagan bu yangi dramaturgni ayrim yozuvchilar ko'rolmaydilar. Masalan, Shekspirning zamondoshi dramaturg Robertgrin uni past tabaqalardan chiqib, bizning patlarimizga o'ralib ol-gan «qarg'a», o'zini «sahnani birdan-bir larzaga keltiruvchiman», deb tasavvur qiladigan «usta-bilarmon» kishi deb kinoya qiladi. Shekspirning dramaturgiya sohasidagi ijodi ko'p qirrali va ta'sirchan edi. Shu sababli uning hasadgo'ylari ko'p bo'lishi tabiiy edi.

Shekspir 90-yillarning boshida teatr shinavandalari bo'lmish yosh aristokratlar to'garagi vagraf Sautgempton bilan yaqinlashadi va «san'at homiysi» yoshgrafga o'zining ikki poemasi – «Venera va Adonis» hamda «Lukretsiya»ni bag'ishlaydi.

Shekspir 1599 yilda boshqa ko'p teatrdoshlari bilan birga yangi ochilgan «Globus» teatriga ishga o'tadi va u yerda paychi bo'lib xizmat qiladi. Bu davrda «Globus» teatriga Jems Berbej, Vil'yam Kemp kabi talantli aktyorlar yig'ilgan bo'lib, teatrning

obro'yi baland edi. Bu esa teatrning iqtisodiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga imkon berdi. Natijada Shekspirning moddiy ahvoli ham yaxshilandi. Shekspir ijodining enggullagan davri uning shu teatrd ishlagan yillariga to'g'ri keladi.

Ulug' dramaturg 1612 yilda Londondan o'z tug'ilgan shahri Stretfordga ko'chib ketadi va bundan so'ng butunlay ijod bilan shug'ullanmaydi.

Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. Hammasi bo'lib u ikki poema, 154 sonet va 37 pyesa yaratdi. Ijodining birinchi davrida (1590-1601) Shekspir poema va sonetlardan tashqari, Uyg'onish davrining xarakterini aks ettirgan xushchaqchaq komediyalar: «Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyulishi», «Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yoz kechasidagi tush», «Vindzorlik masxaraboz ayollar», «Yo'q narsadan bir talay g'avg'o», «Bu sizga yoqadimi?», «O'n ikkinchi kecha»; Angliyaning o'tmishidan olingan xronikalar deb nomlangan tarixiy dramalar: «Genrix VI», «Richard Sh», «Qirol Ioann», «Richard II», «Genrix IV», «Genrix V»; nihoyat, «Romeo va Julyetta» hamda «Yuliy Sezar» nomli ikki mashhur tragediyasini yozdi.

Ijodining ikkinchi davri (1601-1608) Shekspir dramatik faoliyatining yana ham rivojlanishi bilan ajralib turadi. O'rta asr feodal zulmiga va boshqa har qanday yovuzliklarga qarshi kurash ruhi bilan yongan yozuvchi rivojlanib borayotgan kapitalistik sharoit ham kishilarning ezgu umid-orzularini ro'yobga chiqarmayotganini ko'radi va tug'ilib kelayotgan burjua munosabatlarga tanqidiy qaray boshlaydi. Bu davrda yozuvchi buyukgumanistik g'oyalar va davr fojialarini aks ettirgan «Gamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Makbet», «Antoni va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» tragediyalarini yaratdi.

Ijodining uchinchi davrida (1608-1612) dramaturg tragikomediyalar – «Simbelin», «Qishki ertak», «Bo'ron» asarlarini ijod etadi. Bu davrdagi ijodining muhim xususiyati shundaki, Shekspir turmush ziddiyatlarini optimistik ruhda yechishga intilib, ko'proq romantik ertak syujetlariga murojaat qiladi. Masalan, «Bo'ron» asari insonning kelajak taqdiriga ishonch bilan qaragan yozuvchining ajoyib xayollari mevasidir.

SHEKSPIR IJODINING BIRINCHI DAVRI

Shekspirning adabiy faoliyati «Venera va Adonis», «Lukretsiya» poemalari va qator sonetlar yozishdan boshlangan. Har ikki poemaning syujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan bo'lsa ham, ularda Uyg'onish davri ruhi aks etgan. «Venera va Adonis» (1593) poemasida kishining his-tuyg'ulari va tabiat manzaralari real tasvirlangan. Kitobda muhabbat vago`zallik ma'budasi Veneraning ko`rkam yigit Adonisga muhabbati aks ettiriladi. Biroq yigit Veneraning ehtirosli sevgisiga e'tibor bermaydi. Uning istaklarini rad qiladi. Ovg'a mehr qo`ygan Adonis Veneraning ogohlantirishlariga quloq solmaydi. Natijada bir kuni ov qilib yurgan vaqtida uni yovvoyi to`ng`iz yorib halok etadi.

Veneraning hayotga bo`lgan ehtirosi poemaning markaziy mavzusidir. Bu ma'buda tabiat ramzidir. Yam-yashil dalalar, go`zal o'tloqlar, qushlarning yoqimli sayrashlari Veneraning hayotbaxsh intilishlari bilan uyg'unlashib ketadi. Adonisning o`limi uning tabiatga zid xatti-harakatlarining oqibati deb qaraladi, poemada bu dunyo quvonchi o`rta asr tarkidunyochiligiga qarshi qo`yiladi.

«Lukretsiya» (1594) poemasida Shekspir yovuz niyat, qo`pol hirsni qoralaydi. Qadimgi Rim shohi Tarkviniyning o`g`li o`z do'sti Kallatinning xotini Lukretsiyaninggo`zalligini eshitadi va eri yo`q vaqtda uyiga bostirib kirib, uni zo`rlaydi. Bunday tahqirlashga chidayolmagan Lukretsiya o`zini halok etadi. Tarkviniyning o`g`li esa Rimdan quviladi.

Bu poemada bo`ljak dramaturgga xos xususiyatlar – inson xarakterini ocha bilish, fojiali voqeani his etish, atrofni qurshab olgan zulmat-dahshatlarga nafrat qo`zg`ata olish mahoratining dastlabki belgilari ko`rinib turadi. Yosh Tarkviniyning jinoyat qilish oldidagi ikkilanishi Shekspirning keyinroq yaratgan «Makbet» tragediyasining bosh qahramonini eslatadi.

Bu ikki poemadan tashqari, Shekspir 1609 yilda 154 sonetdan iborat to`plamini nashr ettirdi. Uning ilk sonetlarida Italiya Uyg'onish davri poeziyasining dastlabki vakili Petrarkaning ta'siri ko`rinib ham, lekin Shekspir ijodiy evolyutsiyasi davomida bu janrning shartli belgilari doirasini yorib chiqib, sonetlarni yangi mazmun bilan boyitdi. Shekspir sonetlari zamondosh Renessans shoirlari Sidney va Spenser sonetlaridan farq qiladi. Chunki ularning

lirik ijodida umumlashtiruvchi holat yo`q edi. Shekspirning lirik qahramoni o`ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo`luvchi takrorlanmas hayotiy obrazlardir. Shoir Uyg`onish davri kishilarining asosiy xususiyatlari – sevgi va do`stlik, ularning xushchaqchaq hayotga intilishlari, fikr va his-tuyg`ularini aks ettiradi.

Shoir, uning do`sti va «xafaqon ayol» Shekspir sonetlarining asosiy qahramonlaridir. 1 dan 126-sonetgacha do`stga sadoqat hissi ifodalansa, 127 dan 154-gacha bo`lgan sonetlarda sevgilisiga muhabbat tasvirlanadi.

Do`stlik motivlari shoir ijodining muhim qismini tashkil qiladi. U do`stining xayoli bilan yashaydi. U haqda she`rlar yozadi. Binobarin, do`stlik qattiq sinov – imtihonlardan o`tadi. Bir sonetda quyidagi tasvirni o`qiymiz: shoir ish bilan boshqa tomonga ketayotgan vaqtida sevganini do`stiga ishonib qoldiradi. Lekin ular o`rtasida yaqinlik tug`ilib, biri do`stiga, ikkinchisi sevganiga bevafoqlik qiladi. Demak, uning qayg`usi ikki tomonlamadir. Shuning uchun o`z yoriga u: «Sening yuzing emas, balki ishlaring qora», deb ta`na qiladi. Lekin shunday bo`lsa ham, u do`stlaridan voz kechmaydi.

Shekspirning o`ziga xos ifoda usullari bor. Shoir o`z she`rlarida simvollardan ham foydalanadi. U yoshlikni bahor yoki tongga o`xshatadi, go`zallik ajoyibgullarga taqqoslanadi, odamning qaytishi kuzga, qariligi qishga o`xshatiladi; yigitning chiroyida yoz latofati mujassamlanadi.

Shekspirning she`rlari musiqaviy – ohangdordir. Shu sababli zamondoshlari uni «shirin so`z» deb ataganlar. To`plamning 66-sonetida lirik harorat tovushlargarmoniyasi orqali to`la ochiladi. Bir o`rinda nafrat, qiziqqonlik, ikkinchi holda vazminlik hukmron. Uning ba`zi sonetlarida dramatik va lirik holat uyg`unligi namoyon bo`ladi. Masalan, Shekspir sonetlaridan bir namuna ko`raylik:

Kim qulay soatda tug`ilgan ekan, Shuhratu davlatdan baland dimog`i. Menga iltifotni tole kam qilgan, Menga muhabbatdir baxtlar bulog`i. Shahzoda mahrami bekning ulfati Vallomat lutfidan sharob ichadi. Qachonkim oftob botib ketadi, Kungaboqarning ham zari o`chadi. Zafarlar erkasi, mashhur sarkarda Oxirgi urushda yengilsa bir kun, Burun xizmatlari puch bo`lar birdan, Uning qismati shu:

inqiroz, surgun. Mening unvonimga yo`q zavol kuni, Sevdimu, sevaman, sevarlar meni.

Bu sonet – qabohat, sotqinlik, buzilgan muhitda azob chekayotgan kishining alamli fig`oni – Gamletning alamli monologlarini eslatadi. Lekin sonetning oxiri umidvorlik ruhi bilan tugaydi. Juda og`ir paytlarda faqat muhabbatgina qahramonni o`lim xayolidan qaytaradi, unga kuch va ruhiy tetiklik bag`ishlaydi.

Shekspirning haqiqiy insoniy his-tuyg`ular ifodalangan sonetlari ingliz adabiyotida lirik poeziyaning yangigumanistik rivojlanish yo`lini belgilab berdi.

Tarixny Shekspir tarixiy xronikalar deb nomlangan dramalari uchun materialni, asosan, XVI asr ingliz tarixchisi Xolenshedning «Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari»dan oladi. Qadimgi hujjatlarda tarixiy voqealar ertak va afsonalar bilan qorishtirib yuborilgan bo`lib, ularda o`zaro feodal urushlar va ularning qirollik hokimiyatiga qarshi kurashlari aks etgan edi. Shekspir bu manbalarni o`rganib, tarixiy o`tmishning asosiy tendensiyalarini tushunib, ularni haqqoniy tasvirlash yo`lini topadi. Afsonalardan real hodisalar mazmunini to`laroq ochish uchun foydalanadi.

O`n xronikadan sakkiztasida («Qirol Jon» va «Genrix VIII» bundan mustasno) feodal urushlar, markazlashgan hokimiyat o`rnatish uchun kurash, davlat va xalq taqdiri masalalari tasvirlanadi.

Dushman xavf solib turgan bir vaqtda milliy davlat o`rnatish g`oyasi progressiv g`oya edi. Tarixga ijodiy yondashgan Shekspir ro`y berayotgan voqealarni peshanaga bitilgan qismat natijasi deb emas, balki tabiiy zaruriyat deb qarab, mamlakatning rivojlanish tendensiyasini, yangilikning eskilik ustidan, absolyutizmning feodal anarxiyasi ustidan g`alaba qilishini, stixiyali ravishda bo`lsa ham, to`g`ri anglaydi.

Shuning uchun ham Shekspir o`z xronikalarida Angliyaning birlashishiga to`sqinlik qilayotgan o`zboshimcha feodallarga qarshi qattiqqo`llik bilan kurash olib boruvchi kishilarni qo`llab, shaxsiy manfaatga berilib ketgan va davlatni boshqara olmaydigan darajada qobiliyatsiz qirollarni qoralaydi.

Monarxiyani feodal anarxiyasiga qarshi qo`ygan Shekspir davlatga kuchli va adolatli xalqparvar qirol rahbarlik qilsin, agar mamlakatni idora qiluvchi hokim yuksak saviyali bo`lmasa, u zudlik bilan taxtdan tushirilishi kerak, degan fikrni yoqladi. «Richard II»

xronikasida irodasiz, tentak, shahvatga berilgan, zolim mustabid ko`rsatiladi. U at-rofiga tekinox`rlarni yig`adi, adolatsizlik bilan sof yurakli kishilarni, shu jumladan yosh Bolingbrokni quvg`in qiladi. Bu adolatsiz harakatlari natijasida unga qarshi isyon ko`tarilib, uning taxtdan tushirilishiga olib keladi. Chunki tarixiy taraqqiyot, davr talabi bunday hukmronlarni rad etar edi.

«Richard III» (1592) dramasiining syujetini Xolinshedning «Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari»dan (1577) olib, uni badiiy qayta ishladi. Asarning bosh qahramoni mansabparast Richard taxtni egallash uchun hech narsadan qaytmay, yo`lida uchragan hamma to`siqlarni yengadi. Avval u kasal qirol Eduard IV ning ikkala o`g`lini o`ldiradi, so`ngra qirolning ukasi Gersog Klarensni ham yo`q qildiradi. Bu bilan ham qanoatlanmagan Richard III akasining yosh o`g`li va yosh qizini ham o`ldirtiradi.

Shekspir Richard obrazi orqali yorklar xonadonining sha`ni uchun kurashuvchi shaxsning o`z shaxsiy manfaatini ko`zlab, taxtni egallash uchun intiluvchi qonxo`r jinoyatchiga aylanganini, feodal munosabatlar yemirilayotgan sharoitda o`zini xalqqa qarshi qo`ygan zolim hukmronning halok bo`lishi muqarrar ekanini ko`rsatadi.

Dramaturg «Genrix III», shuningdek, «Genrix VI» xronikalarida qahramonlarning asosiy xususiyatlarini ochishda tarixni bo`rttirib ko`rsatadi. Bu narsa hammadan oldin xalqning taxtga chiqmoqchi bo`lgan zolim va qotil Richard IIIga nisbatan sovuq munosabatida namoyon bo`ladi.

Saqlanib qolgan manbalardan Genrix IV ning g`alabasini ta`minlagan sabablar noma`lum. Lekin Shekspir kurashuvchi kuchlarning siyosiy qiyofasini real tasvirlaydi va u mamlakatning birligini istaganguruhlarning qat`iyat bilan olib borgan kurashlari o`zboshimcha feodallarni mag`lubiyatga uchratdi, degan xulosaga keladi.

Xronikaning I qismidan Genrix IV isyonkor feodallarga qarshi aktiv kurash olib borsam, II qismida uning hayotida o`zgarish ro`y beradi, kasalga chalinadi, shu sababli endi u mamlakat hayotiga bevosita aralasholmay qoladi.

Shekspir o`tmishni tasvirlaganda doimo o`z zamonini nazarda tutadi, feodal jamiyatning illatlarini fosh qilish bilan birga, tug`ilib kelayotgan burjua hukmronligining salbiy tomonlarini ham aniq ko`rsatadi.

Genrix IV ning feodallar ustidan g'alaba qozonishiga sabab uning kuchli shaxs ekanligi emas, balki yagona milliy davlat o'rnatish uchun qattiq kurash olib borganligidir.

Shekspir «Genrix IV» xronikasida siyosiy voqealar, o'zaro janjallar va urushlarni tasvirlash bilan cheklanmay, maishiy masalalarga ham katta o'rin beradi. Jon Falstaf hayoti va xatti-harakatiga oid tasvirlarda yozuvchining bu obrazni individuallashtirishdagi realistik mahorati yorqin namoyon bo'ladi.

Shekspir absolyut monarxiyani progressiv g'oya sifatida birinchi marta «Genrix V» (1599) dramasida ko'rsatadi. Genrix V mamlakat xalqini ham tashqi, ham ichki dushmanlarga qarshi kurashga undaydi.

Asardagi voqea markazida Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi urush tasvirlanadi. Genrix V o'zigacha hukmronlik qilgan qirollardan ajralib turadi: davlatni boshqarishda otasigenrix IV yoki Richard IIga o'xshab hiyla-nayrang ishlatmaydi, munofiqlik qilmaydi. Fransiya bilan bog'liq bo'lgan janjalni ham tinch vositalar bilan hal etishga intiladi. Qonunan o'ziga tegishli yerlarni qaytarib olishni istaydi. Fransuz malikasi yekaterinaga ham oddiy munosabatda bo'ladi. U o'zini oshiq qilib ko'rsatmaydi, dabdabali yasama so'zlar aytmaydi, unga uylanishdan maqsad ikki mamlakat o'rtasida ittifoq o'rnatish ekanini bildiradi. Azin-kur yaqinidagi jangga kirish oldidan qirol armiyaning ko'p-chiligini tashkil etgan dehqonlar huzuriga xonaki dvoryan kiyimida borib, ularning kayfiyatini biladi. Ideal monarx haqidagi illyuziya bu asarda ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan. Tarixiygenrix V bunday ijobiy xislatlardan uzoq turgan qirol edi, albatta. Biroq yozuvchigenrix V ni xalq balladalari va ertaklaridagi odil hukmron obrazi tarzida ifodalashga intilib, unda o'zininggumanistik qarashlarini mujassamlantirdi. Lekin Shekspirgenrix V ning salbiy tomonlarini ham ko'rsatdi, u faqat o'zini mutlaq hokim deb bilgan va shaxsiy his-tuyg'ulardan mahrum kishi bo'lganki, binobarin, u ideal davlat arbobi bo'la olmas edi. Shekspir hayot lazzatlari, go'zal insoniy komediyalari fazilatlar, otashin sevgi, vafoli do'stlik, ayollar huquqi masalalarida Uyg'onish davri ruhi bilan ifodalanadigan chuqurgumanistik g'oyalarni ilgari surgan ajoyib komediyalar yaratib, ularda pand-nasihatdan iborat feodal-aristokratiya axloqiga kishining tabiiy his tuyg'ularini qarshi qo'ydi.

«Qiyiq qizning quyulishi» (1593) nomli fars shaklidagi komediyasida Shekspir o`rta asrlarda davom etib kelgan «yovuz ayol» haqidagi mavzuni qayta ishlab, unga yangi yo`nalish berdi. Katarina ismli qiz o`jarligi bilan atrofida qilarni hayratda qoldiradi. Ota-ona ham, boshqalar ham unga ta`sir eta olmaydilar. Shuning uchun odamlar uni «shayton Katarina» deb ataydilar. Katarinaning qiyiqligi uni o`rab olgan yaramas muhitning oqibati edi.

Hamiyatli yigit Petruchio qizning xarakterini o`rganib, uning qiliqlarini mazax qiladigan o`yin uyushtiradi. Bu o`yinda Petruchioning epchil va bilimdon xizmatkorlarigumio, Kertislar ham qatnashadi. Masxaralovchi oynada aksini ko`rgan Katarina tantiq va «qiyiq»ligini tashlaydi. Aslida qizdagi bu holat qaysarlik emas, oiladagi eski urf-odatlariga nisbatan bildirilgan kuchli norozilik edi.

Shekspirning barcha komediyalari kishilar o`rtasidagi do`stlik, birodarlik, vafodorlik, sofdillik kabi muhim hayotiy masalalarni aks ettirishga bag`ishlangan. Bu jihatdan uning «Veronalik ikki yigit» (1594) komediyasi e`tiborga sazovor. Uning fabulasi ispan pastoral romani «Diana»dan olingan bo`lib, unda irodali va vijdonli Valentin qat`iyatsiz va hardamxayol Proteyga qarshi qo`yiladi. U dunyoviy huzur-halovatni qadrllovchi, hayot sirlarini bilishga qiziquvchi jasur, bilimdon sayohatchi, umuman, Uyg`onish davrining haqiqiy vakilidir.

«Yoz kechasidagi tush» (1595) Shekspirning eng nafis ishlangan komediyalaridan biridir. Bunda real voqelik ertak, fantaziya elementlari bilan bog`liq ravishda ifodalanadi. Komediya haqiqiy sevgi kuylanadi. Qizgermiya Lizandr ismli yigitni sevadi, otasi esa uni Demetriga turmushga chiqishga majbur qiladi. Patriarxal huquqining himoyachisi bo`lgan shoh Tezey ham qiz otaning irodasiga bo`ysunishi kerakligini aytadi. Bunday g`ayritabiiy qonunga itoat etishni istamagan Germiya sevgilisi bilan o`rmonzorga qochadi. Komediya kishining enggo`zal tuyg`ulari hisoblangan sevgi, samimiyat, qat`iyat va do`stlik munosabatlari eski feodal urf-odatlaridan yuqori qo`yiladi.

«Vindzorlik masxaraboz ayollar» (1597-1600) komediyasida Shekspir burjualashib borayotgan provinsiya mayda dvoryanlari hayotining realistik manzarasini tasvirlaydi.

Komediya qahramoni Falstaf dastlabki kapital to'plash davrida kambag'allashib qolib, o'zining ilgarigi mavqeini yo'qotgan, lekin yangi sharoitga ham moslasha olmagan ritsardir. Harbiy martaba ham ortitirmagan Falstaf tasodifiy manbalar – qarz olish, beva xotinlarga xushomad qilish yo'li bilan yoki yo'l to'sib o'lja tushirish orqali tirikchilik o'tkazadi. Hayot kechirish og'irlashib ketgan o'sha asrda «hisob-kitob asosida ish yuritish lozimligini bilib olgan» Falstaf o'z sheriklariga javob berib yuboradi, erlarining pullariga egalik qiluvchi ikki boy ayolga «sevgi» xati yozib, ular yordamida iqtisodiy ahvolini yaxshilamoqchi bo'ladi. Biroq «semiz» ritsarning surbetligini sezgan sho'x va jasur ayollar undan ustalik bilan o'ch oladilar.

Falstafning «tahqiri»ga uchrab, undan o'ch olmoqchi bo'lgan shaharlik xushchaqchaq bu ayollar o'z xatti-harakatlari bilan yosh Annaning istaklarini poymol qilayotganliklarini sezmay qoladilar. Lekin ular ham oxirida xuddi Falstaf kabi masxara qilinib, sharmandayu sharmisor bo'ladilar.

Falstaf dramaturg Shekspir yaratgan o'lmas obrazlardan biridir.

Chin muhabbat, insoniylik, shijoat va vaqtichog'lik Shekspirning «O'n ikkinchi kecha» (1600) komediyasida ham mahorat bilan ifodalangan.

Asar voqeasining rivojlanishi davomida o'tkir komik holatlar yaratilgan.

Aka-singil Sebastyan va Viola kema xalokati vaqtida birlarini yo'qotib qo'yadilar. Yigitlarcha kiyinib olgan Violagraf Orsino saroyiga ishga joylashadi. Graf uni sevgilisi malika Oliviya huzuriga sovchi qilib yuboradi. Lekin malika bu kelishgan «yigitcha»ni yaxshi ko'rib qoladi. Bunday kutilmagan voqeadan Viola qattiq xijolat chekadi, chunki uning o'zi Orsinoni sevar edi. Oxirida malika Oliviya Viola deb unga juda o'xshash akasi Sebastyanga duch kelib, u bilan turmush quradi. Graf Orsino esa erkaklar kiyimida yurgan Violaning ajoyib dilbar qiz ekanini bilib, unga ko'ngil qo'yadi.

Asardagrafning Violağa uylanish voqeasi marokli va kulgili tasvirlangan.

«O'n ikkinchi kecha» Shekspirning eng hayotiy, xushchaqchaq va optimistik ruhdagi so'nggi komediyasi edi. Bundan

so`ng Shekspir bu xildagi ko`tarinki ruhda komediya yozishga muvassar bo`lmaydi.

«Venetsiya savdogari» (1596) komediyasida ikki dunyo kishilari: bir tomondan, hayot lazzati, do`stlik, go`zallik va ikkinchi tomondan, aqcha dunyosi kishilari o`rtasidagi kurash tasvirlanadi.

Venetsiyalik Antonio ko`p joylar bilan savdo qiladi. Kishilarga qarz beradi, lekin qarzi evaziga foyda olmaydi. Uning do`stlari Bassanio, Porsiya, gratsiano, Nerissa, Lorensio va boshqalar ham pulga bir yordamchi vosita deb qaraydilar. Biroq aqcha dunyosining vakili Sheylok foyda, shaxsiy boylik orttirishdan boshqa narsani bilmaydi. Katta mulk orttirgan bu odam xasislik qilib, o`zini ko`p narsadan mahrum qiladi, qizining ham boshqalar qatorida o`ynab-kulib yurishini yoqtirmaydi. Xizmatkori Lancelotni ham yarim och holda saqlaydi. Do`stlik, odamgarchilik va rahmdillik unga butunlay yot. Sheylok – sudxo`r. U raqiblarini sindiradi, qarzdorlardan rahmsizlik bilan pullarini undirib oladi. Qarzdorlardan protsent olmagan va uni «jid Sheylok» deb tahqirlagan Antonioni yomon ko`radi va undan qasos olish fikri bilan yashaydi.

U Venetsiya badanidagi ortiqcha shish – kasallikkina emas, o`sha tuzumning mevasi va uning qurboni hamdir. Shu sababli Sheylok savdo-sotiq respublikasi Venetsiyaning aqcha qonunlariga qattiq rioya qiladi, bergan qarzi evaziga protsent oladi. Qarzni to`lay olmaganlarni qaqshatadi. Shuning uchun shahar hokimi ham, senatorlar ham Antonioni ochiq himoya etolmaydilar. Bu holatdan Sheylok ustalik bilan foydalanadi.

A.S.Pushkin Sheylok obrazining murakkabligini qayd qilib, «Sheylok xasis, ziyrak, qasoschigina emas, u farzandsevar, hozirjavob kishi sifatida ham namoyon bo`ladi», – degan edi. Haqiqatan ham, Sheylok insoniy xususiyatlardan mahrum emas. Sheylokning marhum xotiniga nisbatan muhabbati kuchli. Qizi Jessika olib ketgan uzuk uning uchun faqat qimmatbaho buyumgina emas, balki rafiqasidan qolgan xotira hamdir. U qiziga dastlab yomon qaramaydi. Jessika uyni tashlab, Lorentso bilan qochib ketganidan so`nggina qiziga qarshi unda kuchli nafrat tug`iladi. Sheylok yakka-yolg`iz bo`lsa ham, lekin dushmanlari bilan birma-bir olishadi, qonun bilan ish ko`rayotganini aytib, achchiq haqiqatni izhor qilishdan qaytmaydi, sud ham uning uchun «dahshatli emas»,

qoralayotgan dushmanlarining qo'llarida ham son-sanoqsiz qullar ezilayotganini biladi. Bu narsa Sheylokka dalda beradi.

Tragediyalar Shekspir ijodining birinchi davridayoq o'z muhitining fojiali tomonlarini ko'rgan va qalamga olgan edi. Dramaturg, atrofini o'rab olgan yaramasliklarga tanqidiy qarab, inson taqdiri va uning istak-orzulari haqida chuqurroq fikrlashga intiladi. Shekspir komediyalariga xos hayot lazzatidan zavqlanish uning tragediyalarida ham uchraydi. Lekin ularda fojiali voqealarni aks ettirish, kishining erkin hayoti va sevgisiga to'siq bo'lgan hodisalar, zulm va fanatizmni qoralash asosiy masala bo'lib qoladi.

Tragediyalarda ko'ngilsiz hodisalarni tasvirlashda yozuvchi pessimistik kayfiyatga berilmaydi, aksincha, u fojialargirdobida ham turmushga ishonch tug'diradigan optimistik obrazli vositalar topadi. Bu narsa mavjud jamiyatda yangilikning eskilik ustidan tantana qilishini ko'rsatishda aniq namoyon bo'ladi.

Shekspir ijodining birinchi davrida yozilgan tragediyalaridan biri «Romeo va Julietta» (1595)dir.

Tragediyada ikki o'zaro dushman xonadonda tug'ilib, voyaga yetgan va tasodifan bir-birlarini ko'rib, sevishib qolgan Romeo va Juliettaning taqdiri hikoya qilinadi. Feodal dunyosi qabohatlari, zahar, fisq-fujur ularning erkin muhabbatiga to'g'anoq bo'lgani qoralanadi.

«Yuliy Sezar» (1599) tragediyasi syujetining materiali antik tarixchi Plutarxning «Qiyosiy tarjimai hol» kitobidan olingan bo'lib, unda o'sha davrning muhim siyosiy voqealari – qadimgi Rimdagi respublikachilar (Brut, Kassiy) bilan monarxiya tarafdorlari – sezarchilar (Antoniy, Oktaviy) o'rtasidagi kurash aks etgan. Asardagi chuqur ijtimoiy fikrlar, dushmanguruhlar o'rtasidagi shiddatli konflikt, tarixiy qahramonlar xarakterini yaratishdagi mahorat – bu tragediyani Shekspir ijodining eng yaxshi namunalaridan biri darajasiga ko'targan.

SHEKSPIR IJODINING IKKINCHI DAVRI

XVI asr oxirlarida Angliyada absolyut hokimiyatning tushkunlikka uchrashi tasodifiy hol emas edi, chunki u jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining bundan so'nggi rivojlanishiga to'siq

bo`lib qoladi, qirollik hukumati bilan parlament o`rtasida ziddiyatlar vujudga keladi. XVII asrning boshlarida, ya`ni yelizavetaning hukmronligi tugab, Yakov Styuart taxtga chiqqan (1603) va feodal reaksiya kuchaygan vaqtda, qirol bilan burjuaziya o`rtasidagi qarama-qarshilik jiddiy tus oladi. Bu yillarda keng xalq ommasi – dehqon va hunarmandlarning ahvoli yana ham og`irlashadi.

Milliy-tarixiy xronika janri Shekspirning bu yangi davrga xos dunyoqarashini to`liq aks ettira olmasdi. Shuning uchun dramaturg o`lib borayotgan feodal olamining inqirozini ko`rsatish va tug`ilib kelayotgan aqcha hukmronligi va uning ochko`z, yirtqich tabiatli vakillarining realistlik obrazini yaratishga qulayroq bo`lgan tragediya janriga butunlay o`tadi.

Shekspir ijodida yuz bergan katta o`zgarishni ifodalagan yirik asari «Gamlet» (1601) tragediyasidir. Belinskiy ta`biri bilan aytganda, «Gamlet» dramatik shoirlar shohi boshidagi nurafshon toj o`rtasiga qadab qo`yilgan eng porloqqavhardir».

Tragediyaning bosh qahramoni Daniya qirolining o`g`li shahzoda Gamletdir. Otasining munofiqona o`ldirilishidan ko`p o`tmay, onasining motam kuni «oyoqqa kiygan boshmog`i» to`zimasdanoq otasi taxtini egallagan Klavdiyga tegib olishi Gamletni cheksiz azobgirdobiga tashlaydi. Uning ko`ziga butun dunyo «to`ng, bema`ni va to`mtoq» ko`rinadi.

Otasining qotili o`z amakisi Klavdiy ekanini (ota arvohi orqali) aniqlaganidan so`ng, Gamletning qayg`usi yana ortadi. Ukaning akani o`ldirib, uning ham taxti, ham baxtiga tajovuz qilish kabi benihoya og`ir jinoyatga chidash mumkin emas edi. Shuning uchun Gamlet Klavdiyning jirkanch qiyofasi, munofiqligini fosh etib, undan qasos olish o`z zimmasiga tushganini anglaydi. Belinskiy aytganidek, endi unda «bolalikgarmoniyasi» belgilari barham topadi. Xayoliy illyuziyalari barbod bo`ladi, kutilmaganda yuz bergan bu dahshatli voqealar uni adolatsizliklar va buzilgan muhitga qarshi kurashga otlantiradi. U uzoq vaqt o`zi bilan, o`zidagi chigal, murakkab xayol va tushunchalar bilan kurash olib boradi. O`z boshiga tushgan g`am-g`ussa uni boshqalar baxtsizligini anglashga ham majbur etadi. Shaxsiy iltirob insoniyat qayg`usi oldida o`z ahamiyatini yo`qotadi. Aks holda, u badbaxt Klavdiydan allaqachon qasos olgan bo`lar edi. Lekin Gamlet shaxsiy o`ch olishdan oldin boshqa ko`p muhim masalalar ustida bosh qotirishi, ularning

mag`zini chaqib ko`rishi kerak edi. Gamlet sust, faoliyatsizdek bo`lib ko`rinsa ham, haqiqatda u passiv kishi emas. Turmushdagi keskin qarama-qarshiliklar, bir tomondan, otasining yovuzlaracha o`ldirilishi, ikkinchi tomondan, Klavdiy saroyida bo`layotgan buzg`unchiliklar, ichilgan har bir kosa mayni zambarak otish bilan nishonlash va boshqa qabohatlar uni jiddiy o`ylashga majbur etadi.

Tirik qolmoq yo o`lmoq? Shudir masala! Qaysi biri bulardan bizga munosib? Shu dilozor falakning tahqirlariga Shikoyatsiz – shikvasiz chidab turmoqmi? Yo`qsa, unga rad-badal berib qo`zg`almoq, Qurol olib yo yengmoq, yo mahv bo`lmoqmi?!

Gamlet shaxsiyati murakkab va ziddiyatli bo`lsa ham, lekin u bu savolga ijobiy javob berib, razolatga qarshi qo`zg`alish kerak, degan qarorga keladi.

Gamlet onasining xonasida u bilan jiddiy suhbatlashib o`tirgan vaqtida parda orqasida aygocchilik qilib turgan kishini sezadi va shiddat bilan qilich sanchib, uni o`ldiradi. Gamlet bu odamni qirol deb o`ylagan edi, lekin bu «telba jonsarak» Poloniy bo`lib chiqadi. Uni yo`q etish payiga tushgan kishilar uchun «chuqurroq quduq qazish»ga tayyor turgan Gamlet shubhalar ichida qolgan ilgarigi Gamletga sira o`xshamaydi.

Bundan ko`rinadiki, endi Gamletda na ikkilanish va na o`lim dahshati bor. U hamma vaqt dushmanga qarshi kurashga tayyor turadi. Laert bilan jang qilgan Gamlet o`ziga qarshi qaratilgan yangi xiyonatni anglaydi. Zaharlangan tig` bilan og`ir yarador bo`lganida u tez harakat etib, hamma jinoyatning sababchisi Klavdiyni qilichi bilan urib o`ldiradi. Otasi uchun shaxsiy o`ch olish Klavdiy va uning buzilgan saroyidan o`ch olish kabi ijtimoiy konfliktgacha o`sib chiqadi. Fojiali o`limi oldidan ham umidsizlikka tushmagan Gamlet Goratsioga vasiyat qilib, yuz bergan voqealar va butun haqiqatni odamlarga so`zlab berishni undan so`raydiki, bu bilan u haq ish uchun kurash hamisha eng zarur masala ekanini yana bir bor ta`kidlaydi.

Demak, Gamlet Uyg`onish ruhi bilan sug`orilgan Shekspirning dramatik dahosi yaratgan yangi tipdagi kishi – adolat uchun kurashuvchigumanist obrazidir. Uning xarakteri murakkab sharoitda, ko`p ichki va tashqi omillarga bog`liq ravishda rivojlanib boradi.

Gamlet yakka holda kurashish bilan mavjud adolatsizliklarni bartaraf etish mumkin, deb o`ylaydi, u yuz berayotgan

Malikagertruda aqlan zaif va juda chegaralangan, irodasi bo'sh ayoldir. Garchi u o'g'liga achinsa ham, lekin bu achinish yuzaki edi. Klavdiyning tuzog'iga ilingan va hissiyot qurboni bo'lgan malika Gamletning yuksak insoniy tuyg'ularini fahmlay olmaydi. Uning axloqi, Shekspir sharaflagan insoniy fazilatlariga qarama-qarshi o'laroq, o'ta tubandir.

Saroy ahliga xos xudbinlik va ikkiyuzlamalik qirolning yordamchilaridan biri xaris odam Poloniya ham mujassamlangan. Klavdiy kabi Poloniya ham saroy g'iybatchilaridan bo'lib, lagabardorlik, fisq-fasod va makkorlik uning asosiy kasbiga aylangan. U har bir qadamida shaxsiy manfaatini ko'zlaydi. O'g'li va qizini ham shu ruhda tarbiyalashga intiladi.

Mansab va o'z manfaatini ko'zlashda Poloniya ham o'tgan Rozenkrans, gildenstern, Ozrik singari xudbin, sotqinlarning qiyofasi ham saroy muhitining yaramasligini, Gamlet qarshi kurash olib borgan dunyoning razolatidan dalolat beradi. Ular toj kiygan qotilga qaram va itoatli qullar, mustaqil fikr va maslakdan, nomus va vijddondan mahrum bo'lgan, ma'naviy puch kishilardir. Do'stlik va o'rtoqlik ular uchun butunlay yotdir.

Ozrik – Rozenkrans vagildenstern taxlitidagi munofiq shaxs. U hamma narsadan voqif, ayyor kishi, qilichbozlik oldidan sudya zaharlagan quroldan, Laertga beriladigan qilichning maxfiy zaharlanganligidan ham xabardor. Pyesa oxirida esa Fortinbrasning kelayotganini ham u ma'lum qiladi. Ozrik har qanday hukmron xizmatiga tayyor turuvchi feodal saroyining tipik vakilidir.

Tragediyada Ofeliya va Laert obrazlari Gamletga dushman dunyoning yaxshi vakillari sifatida tasvirlanadi. Boshqacha hayot sharoitida, ehtimol, ular ijobiy fazilatlariga ega bo'lishlari mumkin edi, lekin Elsinor muhitida ularning yaxshi xayollari yo'qqa chiqadi va oxirida o'zlari halok bo'ladilar.

Laert har tomondan otasi Poloniya taqlid qiluvchi bir odam. Unda jasorat ko'rinso ham, lekin u Gamlet qiyofasidagi kishilarga sira o'xshamaydi. Gamlet otasining qotilidan qasos olishni zamonaning ko'p muhim masalalari bilan bog'lagan bir vaqtda, Laert esa, aksincha, otasini tasodifan o'ldirib qo'ygan Gamletdan qonli o'ch olishga, feodal dunyosi qoidasi bo'yicha o'g'ilning ota oldidagi burchini ado etishga oshiqadi. Dastlab u Poloniyaning o'limiga sababchi bo'lgan Klavdiyga nafrat bilan qaraydi, xalq o'rtasidagi

noroziliklardan foydalanib, g'alayon ko'taradi, saroyga bostirib ham kiradi, lekin mug'ambir Klavdiyning hiyla-nayrangiga uchib, o'zini fojiali o'linga mahkum etadi.

Poloniyni qizi Ofeliya Gamletni sevadi, lekin u ota va akasiga itoatkor, ularning aytganlaridan chetga chiqishga jur'at etolmaydigan sodda, sofdil bir qiz. Shuning uchun ham u Gamletning istak-orzularini tushunib yetmaydi, oila urf-odatlarini ta'siridan qutulishga o'zlik qiladi. «Ayollardan eng baxtsiz» Ofeliya fisq-fasod avj olgan feodal dunyosining qurboni sifatida halok bo'lgan qizlar obrazidir.

Tragediyadagi «soldat va studentlar» obrazlari ham diqqatga sazovordir. Ulardan biri Gamletning do'sti kambag'al student Goratsiodir. Gamlet u bilan ochiqqaplashadi, sirlarini undan yashirmaydi. Dushman nayranglarini fosh etishdagoatsio ham unga yordam qo'lini uzatadi. O'linga mahkum etilgan Gamlet bu voqeadan xabarsiz kishilarga o'zi haqidagi haqqapni hikoya qilib berishni unga topshiradi. Goratsio vafodor, rostgo'y, jasur yigit bo'lib, u tipik xalq vakili sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy turmushni dinamik ravishda tasvirlashga asos solib, tragediya janrini yangi bosqichga ko'targan Shekspirning estetik qarashlari ochiq-oydindir. U Gamletning nutqi orqali hamma davrda dramatik san'atning asosiy vazifasi «tabiatning ro'parasiga oyna tutish, sharofatga ham, qabohatga ham ularning chin basharalarini ko'rsatish, tarixdagi har bir zamonning yuzini bo'yoqsiz qilib namoyon qildirishdan iborat» ekanini haqqoniy ifodalab beradi. Gamlet obrazida yozuvchining inson, uning idroki, yaratuvchilik qudrati haqidagi qarashlari mujassamlangan.

Gamlet inson aqlining eskilik ustidan tantanasini aks ettirgan Uyg'onish davrining haqiqiy timsolidir.

«Otello» (1604) tragediyasining syujetiga XVI asrda yashagan italyan yozuvchisi Chintioning «Venetsiya mavri» novellasining mazmuni asos qilib olingan. Biroq tragediya mohiyati jihatidan novelladan butunlay farq qiladi. Shekspir o'z zamonasi ilg'or g'oyalarini ifodalab jonli kishilar obrazini yaratadi. Tragediyaning bosh qahramoni arab Otellodir. U «irqiy» bo'yoqlardan ozod, diniy e'tiqodlardan ustun turuvchi haqiqiy inson obrazidir. U qabohatlarning ijtimoiy mohiyatini tushunmas, buzilgan muhabbatini qozonadi. Hatto qalbida shubha tug'ilib, Dezdemonaga ishonmay

qo'yg'an kezlarda ham, uning yoriga bo'lgan muhabbati va samimiyligi saqlanadi, Dezdemonaga azob berishni istamaydi. Chunki Otello tabiatan kekchi emas, balki ochiq ko'ngil edi. Uning Dezdemonaga bo'lgan shubhalari Yagoning nayranglari tufayli paydo bo'ladi.

Dastlab Otello yovuz Yagoning ig'volariga ishonmaydi, lekin Yago keltirgan «dalillar» sodda mavr uchun yetarli bo'lib chiqadi. Chunki insongo'zalligining in'ikosi deb bilgan Dezdemonaning «vafosizligi» haqidagi xunukgap har qanday xotinning bevafofiga qaraganda ham Otello uchun juda dahshatli tuyuladi. Undagi azob rashk tashvishigina emas, balki xotining sofligiga bo'lgan ishonchini yo'qotish tufayli tug'ilgan qattiq qayg'u hamdir. Bu kutilmagan voqeadan g'azablangan Otello haq ish uchun o'ch olaman deb Dezdemonani fojiali ravishda halok etadi. Biroq u ko'p o'tmay katta xato qilganini anglaydi. Bundan so'ng yashash mumkin emasligini sezib, Dezdemonaning jasadi yonida o'zini o'ldiradi.

Dezdemonago'zal xulqi va chuqur insoniy fazilatlar bilan yorqin gavalangan obrazlardan biridir. U itoatkor va chegaralangan Ofeliyaga o'xshamaydi, ba'zi bir xususiyatlari bilan Julyettadan ham farq qiladi (Julyetta Romeoni tasodifiy uchrashuv vaqtida sevib qoladi. Dezdemonaga esa irqiy qarashlarni pisand qilmay, qora mavrni sevishini yashirmaydi va u bilan jang maydoniga birga ketishga tayyor turadi. Jon talvasasida yotgan chog'ida ham eriga bo'lgan muhabbatidan qaytmaydi, hatto uning qotil ekanini ham aytmaydi. Dezdemonaga vafoli yor timsolini mujassamlantirgan ayol ob-razidir.

Yago barcha pastkashliklar va burjua egoizmini o'zida aks ettirgan obrazdir. Dastlabki kapital to'plash davrining vakili Yago – razil, hasadgo'y, pulga o'ch, shafqatsiz va surbet, mansabparast va qora niyatli shaxs. U olijanob his-tuyg'ularga boy bo'lgan Otello va Dezdemonaga butunlay ziddir. Boshqalar bilan do'stlashishdan qochadigan, ma'naviy buzuq bu shaxs o'zining qabih niyatlarini amalga oshirishda xilma-xil jirkanch vositalardan foydalanadi. Soldat niqobidagi bu riyokor o'zini Otelloga sadoqatli qilib ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi, so'ngra hiyla-nayrang ishlatadi, tuhmatlar qiladi, shunday yo'llar bilan do'stlarini ham, xotinini ham unga nisbatan xiyonat qilishda ayblaydi.

Shunisi xarakterliki, Yago kim bilan qanday munosabatda bo'lishni yaxshi biladi. Otello bilan muomalasida u shirinso'z va

xushomadgo'y, Dezdemonaga nisbatan u pichingchi, Rodrigoni tahqirlashda dadil, o'z xotiniga nisbatan qo'pol va beordir. Lekin ochiq jangda u juda qo'rqq, yashirin vositalarni ishga solishda esa usta va rahmsizdir. U o'zidan boshqalarni odam o'rnida ko'rmaydigan va hech kimga shafqat qilmaydigan, ilojsiz hollarda ham o'zini yo'qotmaydigan razil, pastkash, xudbin odam. Yago jahon adabiyotida ustomon va makkor shaxsning eng mukammal tipik vakilidir.

Tragediyadagi xarakterli qahramonlardan yana biri – Emiliya. U asarning boshida eriga ko'r-ko'rona itoat qiluvchi haqir va sodda ayol sifatida tasvirlanadi. Dezdemona tushirib qoldirgan ro'molchani topib olgan Emiliya uni Yagoga olib borib beradi. Voqea fojiali tusga kirgan vaqtda u erining yovuz niyatini sezib qoladi va jasorat bilan uni fosh etib tashlashdan qaytmaydi. Emiliya ham Dezdemona kabi begunoh halok bo'ladi.

Asarning bosh qahramonlari Otello va Dezdemonalar yuz tuban ketgan Yago nayranglarining qurboni bo'lsalar ham, biroq ularning haq ishi nihoyat g'alaba qiladi. «Otello» tragediyasida Shekspir ikki tarixiy davr – o'lib borayotgan absolyutizm va tug'ilib kelayotgan burjua tuzumi sharoitida vujudga kelayotgan yangi axloq va tushunchalarning murakkab jarayonini, shaxs bilan uni o'rab olgan muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettiradi.

«Kirol Lir» (1605) tragediyasining syujeti Xolinshedning «Xronikalari», shuningdek, Lir haqidagi boshqa manbalardan olingan. Lekin Shekspir bu mavzuni qayta ishlab, ungagloster tarixini ham kiritgan. Bu pyesa dramatik holatning keskinligi va qo'yilgan masalaning chuqurligi bilan boshqa tragediyalardan farq qiladi. Asarda oila muammolari ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Ko'pni ko'rgan va o'z kuch-qudratiga ishongan kekxa qiroi Lir mol-mulkini uch qiziga taqsimlab berish bilan «davlat tashvishi»dan qutilmoqchi bo'ladi. U qizlaridan o'ziga bo'lgan muhabbat va sadoqatlarini izhor qilishlarini so'raydi. Katta qizigonerilya bilan o'rtancha qizi Regana uni dunyodagi barcha narsadan ko'ra ortiqroq sevishlarini aytadilar. Kenjatoyi Kardeliya esa opalaridan ortiq hech qanday so'z aytolmasligi, faqat bir farzand sifatida otasini hurmatlashini bildiradi.

Ko`r-ko`rona maqtovlarga moyil qirol kichik qizining bu javobidangazablanib, butun davlatini hiylagar va tilyog`lama ikki katta qiziga bo`lib beradi. Graf Kent «til jimligi dil bo`shligi belgisi emas» deb unga nisbatan Kardeliya sadoqati zo`r ekanini aytganida, mag`rur Lir uni quvib yuboradi, qizini esa butun merosdan mahrum etadi. Kardeliyaning aqli vago`zalligiga qoyil qolgan fransuz qirolini unga uylanadi.

Lir butun davlatini ikki qizi ixtiyoriga topshirgandan keyin ham, o`zini ilgarigidek hukmron deb biladi, drujinalarini saqlab qolishni istaydi. Bu hol qizlariga yoqmaydi. Bir qizidan arazlab, ikkinchisidikiga ko`chib yurgan o`jar Lir oxirida quvilib boshpanasiz qoladi va tez vaqt ichida achchiq haqiqatni anglab, atrofida adolatsizliklar, ochlik-yalang`ochlik hukm surayotganini ko`radi va o`z xatolarini tushunib kuchli iztirob chekadi.

Lir murakkab va ko`pqirrali obrazdir. Uning kuchli va zaif tomonlari bor. Hukmron bo`lgan davrda u zaif edi, chunki haqiqatni ajrata olmas edi. Gadoy holiga tushgan Lir haq va nohaqlikni farq qiladigan ma`naviy kuch kasb etadi, o`zini erkin his qiladi. Taxt ham, baxt ham, unga endi yot bo`lib ko`rinadi. Uning xarakterida yuz bergan bu o`zgarish katta qizlariga nafrat bilan qarashidagina emas, balki kichik qizi Kardeliya oldidagigunohiga iqrar bo`lishida ham ko`rinadi. Lir obrazi Shekspirga ziynat va aysh-ishrat ichida dabdabali hayot kechirayotgan bir to`da kishilar va ular qarshisidagadoylikda yashayotgan son-sanoqsiz xalq ommasining azob-uqubatlarini ko`rsatib, ulug`gumanistik g`oyalarni ifodalashga katta imkoniyat berdi.

Lirda yuz bergan fojiani kuchliroq ochishdagrafglosterning taqdirini bayon etuvchi tragediyaning ikkinchi syujet yo`li alohida ahamiyatga ega. Qirol Lir xonadonida yuz bergan voqeagloster xonadonida ham sodir bo`ladi. Lir kichik qizini quvib yuborgan edi, gloster esa katta o`g`li Edgarni haydaydi. Lir ixlos qo`ygan katta qizlari unga qarshi bosh ko`taradilar. Gloster esa o`gay o`g`li makkor Edmund tomonidan quviladi. Badkor Edmund yozuvchining boshqa tragediyalaridagi Yago va Richard IIIga o`xshab ketadi. Shuhratparast, xudbin Edmund oldin akasi Edgarni tuhmat bilan ayblab, uning quvilishiga erishadi. So`ngra otasiglosterni darbadarlikda yurgan Lirga xayrixohlikda ayblab, uning ikkala

ko`zini o`yib uydan haydab yuborishlariga muvaffaq bo`ladi. U shunday yo`llar bilan martaba orttirishga intiladi.

Qirol Lir vagrafgloster faqat og`ir azob-uqubatlarni boshdan kechirganlaridan so`nggina o`zgaradilar; ko`zlari ojiz bo`lsa ham, lekin haq nima-yu, nohaqlik nimaligini yaxshi biladigan dono kishilarga aylanadilar.

Boylik va obro` orttirish yo`lida har qanday razillikdan qaytmagan Edmund «qilichli kishi uchun ko`ngilchanlik munosib emas», deb, asir tushgan Lir va Kardeliyani o`limga hukm qiladi. Gonerilya va Reganani sevaman, deb ularni ishontiradi, opa-singillar o`rtasida tug`ilgan rashk dushmanlikka aylanadi. Gonerilya Edmundga erishmoq uchun beva qolgan singlisi Reganaga zahar beradi. Lekin eriga xiyonati sezilgach, u ham o`zini o`ldiradi. Glosterning katta o`gli Edgar kirib kelib, otaga, akaga Vagersogga nisbatan xoinlik qilgan ukasi Edmundning kirdikorlarini ochib tashlaydi va azobda yotgan Lir bilan Kardeliyani qutqarishga shoshiladi. Biroq bu vaqtda Kardeliya osib o`ldirilgan edi. Olijanob qizining o`limi ota uchun nihoyat og`ir judolik edi. Lir Kardeliya jasadi yonida holsizlanib yiqiladi va jon beradi.

Tragediya personajlari bir-biriga qarama-qarshi turgan ikki lager vakillaridir.

Ulardan biri – mol-dunyoga o`ch, xudbin, ma`naviy buzuq va shafqatsizgonerilya, Regana, Kornuel va Edmund, ikkinchisi esa o`zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassamlantirgan Kardeliya, Kent, Edgar, masxaraboz, so`ngra Lir vagloster bo`lib, bu ezilgan va tahqirlangan odamlar do`stlik, sadoqat va o`zaro yordam tuyg`ularini his etadigan kishilardir. Kamsitilgan va quvib yuborilgan farzandlar va xizmatchilar o`z sadoqatlaridan qaytmaydilar, ular yana qirol Lir vaglosterga yordam qo`lini cho`zadilar. Masalan, Kent kek saqlamay, o`z kiyimini o`zgartirib, darbadarlikda yurgan Lirga hamrohlik qiladi, Kardeliya Fransiyadan askar tortib kelib, haqoratlangan ota huquqini tiklamoqchi bo`ladi. Edgar esa ko`zi o`yib olingan padari buzrukvorining qayg`usiga hamdard bo`lishga urinadi. Ular Lirga xayrixohlik ko`rsatar ekanlar, uning qirolligini emas, balki jafo chekkan bir kimsani nazarda tutadilar. Lirning masxarabozi esa azaldan xo`rlanib kelganlardan bo`lib, uning obrazida xalq donodigi ifodalangan. U Lirning nojo`ya harakatlarini, katta qizlarining adolatsizliklarini fosh etadi va unga nima qilish

kerakligi haqida ham maslahatlar beradi. Xullas, u Lirning o'z xatosini tezroq anglab yetishiga sabab bo'ladi. Masxaraboz qirolning barcha davlatini ikki qiziga ulashib berib, o'zida hech narsa qoldirmagani, qo'lida endi hokimiyat – qudrat yo'qligini unga tushuntirish uchun ta'sirli so'zlar topadi. Sen «raqamsiz nolning o'zisan. Men sendan durustman, negaki, masxarabozman, sen-chi, hech nimasan», «Agar sen mening ahmog'im bo'lganingda edi, amakijon, men seni... vaqtidan ilgari qartayib qolganing uchun do'pposlar edim», deb u davlatning bo'linib ketishi natijasida mamlakatning kuchsizlanishi va oqibatda, xalq ommasining osoyishtaligi buzilishi mumkinligidan cho'chiydi.

Shekspir masxaraboz tili orqali aytilgan so'zlarga o'zining chuqur ma'noligumanistik fikrlarini singdiradi. Zamonning razilligini fosh etib, masxaraboz deydi:

Poplar xalqqa yolg'ongapni aytmaydigan kun, Pivochilar suv qo'shmasa pivoga bu kun. Sen dahriy, deb sho'rliklarni dorga osmasdan, Yolg'ondakam oshiqlarni yoqsa to'satdan, Sudyalar hamgunohsizni hukm qilmasa, Biror odam boshqasidan qarzдор bo'lmasa, Bo'htonchining tili tubdan qirqilib ketsa, Sudxo'r butun pullarini chuqurga tiqsa, Kisovurlar yot cho'ntakni kavlamay tursa, Yaqin O'rta Angliyada bo'lar shu zamon, Mamlakatni chulg'ab olur ulug' hayajon, Shunday zamon tez fursatda yetib keladi, Shunda hamma oyog'ini bosib yuradi.

Sof qalbli Kentning nafratli so'zi va masxarabozning istehzo bilan aytgan iboralari hukmronlarga qarshi ochiq norozilik belgisidir. Haqoratlangan va vijdon azobini chekayotgan bu kishilar qabohat oldida tiz cho'kishni bilmaydigan odamlardir. Jinoyat bandalari, mansabparast va pulga o'ch Edmund, gonerilya va Reganalar o'rtasidagi ziddiyat va raqiblik ularning kuchini zaiflashtiradi va mag'lubiyatini tezlashtiradi.

Tug'ilib kelayotgan kapitalistik munosabatlar, boylikka o'chlik kishilar o'rtasidagi eng kuchli aloqalar – qardoshlik, oila va birodarlik aloqalarini ham yemirib tashlaydi. Shuning uchun insonparvarlik g'oyalarini tashuvchi ijobiy obrazlarni Shekspir dunyoparastlikdan xoli bo'lgan kishilar qilib ko'rsatadi. Bu jihatdan kamtar, dono, go'zal, sof ko'ngil va jasoratli qiz Kardeliya obrazi ayniqsa jozibalidir. Garchi u tragediya oxirida halok bo'lsa ham, lekin Kardeliya himoya qilgan haq ish pirovardida tantana qiladi.

Yovuz niyatli kishilar mag`lubiyatga uchraydilar. Bu asarning optimistik ruhidan dalolat beradi.

«Makbet» (1605) tragediyasining syujeti «Makbet» ham Xolinshedning «Xronikalar»idan olingan.

Tragediyaning boshida Makbet dushmanga qarshi qahramonona jang qilgan jasur lashkarboshi sifatida namoyon bo`ladi. Lekin ko`p o`tmay uning qalbida shuhratparastlik hirsini uyg`onadi. Ilgari u fitnachilarga qarshi kurashsa, endi taxtni egallash uchun uning o`zi fitna uyushtiradi. Makbet ochiq jang qilmaydi, balki munofiqlik yo`lini tutib, goh o`zi, goh qotillar orqali juda ko`pgunohsiz kishilarni qonga belaydi. Lekin bu xilda ish tutish uning tabiagiga zid edi, qirol Dunkanni o`ldirish oldidan ikkilangan Makbet ruhan tinchlana olmay, o`ziga dushman deb hisoblagan kishilarining yostig`ini quritaveradi.

Makbet kechasi uyquda yotgan qirolni o`ldiradi. Bu sirni bekotish uchun uning ikki soqchisini ham yo`q qiladi. Fojiali voqeadan qo`rquvga tushgan qirolning o`g`illari chet elga qochadilar. Bu ahvoldan foydalangan Makbet ularni qotillikda ayblab, tezda taxtni egallaydi. Saroy kishilari birma-bir o`ldirilaveradi. Do`sti Banko, Makdufning xotini va uning yosh o`g`li ham halok etiladi. Yangidan-yangi yovuzliklar qilgan Makbet ruhan azoblansa ham, lekin u jinoiy ishdan qaytmaydi. Taslim bo`lishni istamagan Makbet Shotlandiyaga qo`shin tortib kelgan Makduf bilan bo`lgan ochiq jangda yengilib, mag`lubiyatga uchraydi. Makbet har tomonlama yuz tuban ketgan munofiq, xudbin tipdir. Uning halok bo`lishi tabiiydir. Xalqqa zulm o`tkazgan va mamlakatni qonga botirgan har qanday hokimning taqdiri shunday o`lim bilan tugashi kerak, degan fikr asarning asosiy g`oyasidir.

Asarda Makbet o`z qahramonligi bilan g`ururlansa, uning xotini ledi Makbetgo`zalligi bilan kibrilanadi. Ularning har ikkalasi ham o`z ustunligini taxt ziynati bilan bezashni istagan shuhratparastlardir. Ledi Makbet Makbetni qonli jinoyatlarga undaydi. Ledi – ayollarga xos xususiyatlardan mahrum bo`lgan yuragi tosh, qo`li qon xotin. Uning har bir harakati kitobxonda nafrat uyg`otadi.

Shekspir Makbet va ledi Makbetni siyosiy despotizmning to`la in`ikosi deb tasvirlaydi va zolim hokim yer yuzida yashamasligi kerak degan chuqurgumanistik fikrni himoya qildi. Muallif

«Xronikalar»da ko`rsatilgan shuhratparast ledi Makbet shaxsiyatiga ijodiy yondashdi. Ko`plab kishilarning qasddan qatl etilishiga sababchi bo`lgan ledini asar oxirida dahshatli jazoga mahkum etadi. Begunoh to`kilgan qonlar ledini aqldan ozdirib halok qiladi.

«Makbet»ning boshqa tragediyalardan farqi yana shunda-ki, bu ikki shuhratparast va jinoyatchiga qarshi qo`zg`alib chiqqanlar shaxsiy o`ch olishni emas, balki mamlakatni istibdodchi zulmidan qutqazib qolish va insoniy huquqlarni himoya qilishdek olijanob maqsadni ko`zlagan kishilardir. Malkolm va Makduflar boshliq bo`lgan buguruhning harakatida avtorninggumanistik qarashlari ifodalanadi.

Shekspirning bir necha tragediyasi «Rim tragediyalari» siklini tashkil etadi. «Yuliy Sesar» va undan so`ng yozilgan «Antoni va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» tragediyalari shu turkumga oiddir. Bu pyesalar syujeti uchun Shekspir Rim tarixiga oid voqealarni asos qilib olsa ham, bu voqealarni Angliyadagi ijtimoiy hayot va zamonaviy masalalar bilan uzviy bog`langan holda aks ettiradi.

Yozuvchining siyosiy qarashlari va chuqur insonparvarlik g`oyalari «Koriolan» (1607) tragediyasida o`zining yorqin ifodasini topgan. Pyesa syujeti uchun material Rim tarixchisi Plutarxning «Qiyosiy tarjimai hol» kitobidan olingan bo`lib, voqea uzoq o`tmishda yuz bersa ham, lekin tragediya mazmunan Shekspir zamonasi ijtimoiy-siyosiy voqealari, jumladan, London yaqinidagi birgraflikda och qolgan dehqonlarning qo`zg`olonlari bilan chambarchas bog`lanib ketadi. Tragediyada shaxs bilan xalq, plebeylar bilan patriitsiyalar o`rtasidagi ziddiyat hamda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar orasidagi kurashlarning realistik yoritilishi Shekspirning Uyg`onish davrigumanistik qarashlari bilan absolyutizm o`rtasida uyg`unlik yo`qligini payqab olganini, bu tuzumga tanqidiy qaraganini aniq ko`rsatadi.

«Afinalik Timon» (1608) tragediyasida Shekspir o`z davrida pulning halokatga olib boruvchi ta`sirini aks ettiradi. Boylikka o`chlik odamlar o`rtasidagi hamma munosabatlarni poymol qiladi. Timon og`ir ahvolga tushib qolganida oltinga sajda qilgan do`stlari uni unutib yuboradilar. Feodalizm o`rniga kelayotgan va oltin hukmron bo`lib borayotgan yangi jamiyat, uning nazarida Afinaga

o`xshaydi. Shuning uchun u sotqinlik avj olgan bu shahardan chiqib ketadi va o`rmonzorda yakka yashashni afzal ko`radi.

Shunday qilib, Shekspir ijodining ikkinchi davridagi tragediyalarida o`rta asr feodal zulmi, cherkov asoratidan qutulib, endi o`z qaddini rostlay boshlagan shaxsning aqcha hukmronligi avj olayotgan tuzum qarshiligiga duch kelishini aks ettirsa ham, lekin u insonning kelajagi, aql-idroki, istak-orzulari tantanasiga ishonadi. Shekspirgumanizmining chuqur xalqchilligi ham mana shundadir.

SHEKSPIR IJODINING UCHINCHI DAVRI

Shekspir ijodining uchinchi davrida (1608-1612 yillar) katta o`zgarishlar yuz beradi. Yakov I ning feodal reaksiyasi kuchaygan vaqtda Uyg`onish davrigumanistik g`oyalarini amalga oshirish haqidagi illyuziya zarbaga uchraydi. Teatr o`yinlari qirollikning nazorati ostiga olinadi. Endi fojiaiy, kishini hayajonga soluvchi, katta ijtimoiy-siyosiy voqealar aks ettirilgan tragediyalar emas, balki tomoshabinga yengil ta`sir etadigan tragikomik xarakterdagi pyesalar yaratila boshlaydi. Lekin shunday vaqtda ham ulug` dramaturg o`zininggumanistik g`oyalariga sodiqligicha qoladi. Garchi asarlarining oxiri yaxshilik bilan tugasa ham, mavjud tuzum bilan murosqa qilmaydi, aksincha, u teskaricha kuchlarning fe`l-atvorlarini qoralovchi pyesalar yozishni davom ettiradi.

Shekspir ijodining shu davrdagi muhim xususiyatlari uning tragikomediyalar tipidagi «Qishki ertak», «Simbelin» va «Bo`ron» pyesalarida yaxshi aks etgan. Shekspir bu janrni yuzaki qabul qilgan bo`lsa ham, lekin unga chuqur insonparvarlik g`oyalarini kiritdi. Uning bu turdagi asarlarida real voqealar xayoliy ertaklar bilan qo`shilib ketadi va ularda kishining yaxshi fazilatlarini yomon ehtirolar ustidan g`alaba qozonadi. Shekspirgumanizmi bu asarlarida ham ochiq ko`zga tashlanib turadi.

«Simbelin»(1609)da yaramas saroy muhiti ta`siri ostida ro`y bergan hodisalar, Imogena tarixi, qirol Simbelinning o`rmonzorda tarbiyalangan ikki o`g`li haqidagi voqealar tasvirlanadi. Imogena va Postum bir-birlarini sevadilar. Biroq Simbelin qizini keyingi xotini o`g`li olifta Klotenga berish niyatida edi. Qiz esa otasining ham, o`gay onasining ham talablarini rad etadi. Xotini,

izmidan chiqmagan Simbelin Imogenani uydan haydab yuboradi. Qiz og'ir vaziyatda ham ikkilanmay, o'z sevganiga sodiqligicha qoladi.

Asardagi ikkinchi voqea qirol tomonidan nohaq quvg'in qilingan jasur chol Belariyning, uning ikki yosh o'g'li shahzodagvideriy va Arviragni yashirinch o'zi bilan olib ketishidir. Cholning maqsadi bolalarni saroydagi buzg'unchiliklardan saqlab qolish edi. O'zlarining qirol oilasidan kelib chiqqanliklarini bilmagan bu yoshlar tabiat qo'ynida erkin tarbiya oladilar va Rim bilan bo'lgan jangda qahramonlik ko'rsatib, hammani qoyil qoldiradilar. Pyesaning oxiri yaxshilik bilan tugaydi. Sevishgan Imogena bilan Postum topishib, oilaga qaytadilar. Simbelin ham yo'qotgan bolalarini topadi. Yomon niyatli qirolicha va uning o'g'li Klotten halok bo'ladi. Belariy ham odamlar orasidan o'z o'rnini egallaydi.

Imogena aqli, jasorati va vafodorligi bilan Shekspirning realistik qalami yaratgan ajoyib obrazlar-fusunkor Dezdemon va Julyettalarni eslatadi.

«Qishki ertak» (1610) pyesasida voqea xayoliy bir mamlakatda yuz beradi. Asarning nomini kitobdagi bir qahramon «bunga qayg'uli ertak mos keladi» deb belgilab beradi.

Sitsiliya qiroli Leont kutilmagan vaqtda xotinigermionaga rashk qilib, uni vafosizlikda ayblaydi. Qayg'u ichida qolgan qirolicha bedarak yo'qoladi va o'n olti yil rashkchi eridan yashirilib yuradi. Bu vaqt ichida ularning dom-daraksiz ketgan, go'zal qishloq muhitida tarbiyalangan qizi Utrata ham topiladi.

Pesada tabiat qo'ynidagi osoyishta hayot saroy fisq-fujurlariga qarshi qo'yiladi. Leont hech qanday asosi bo'lmagani holdagermionani qoralaydi. Bu ayblar Leontning johilligi va zolimligidan kelib chiqadi. Pyesada Leont jaholat, germiona-uning qurboni, xizmatchi ayol jasur Paulina esa sadoqat timsolidek tasvirlanadi. «Qishki ertak»dagi fantastika va ertak orqali hayotiy voqealar – yaxshilik ham, yomonlik ham aks ettiriladi. Asardagumanistik g'oya-yoshlik va adolatning nohaqlik ustidan tantanasi ifodalanadi.

«Bo'ron» (1612) Shekspir ijodining so'nggi mahsulidir.

Pyesaning bosh qahramoni Milandan quvg'in qilingan gersog olim Prospero (italyancha «baxt» demakdir) o'z qizi Miranda bilan bir orolga chiqib qoladi. U yerda tabiat sirlarini o'rganadi, «qora kuch»larni bo'sundiradi va ularni inson foydasiga xizmat ettiradi.

Bo`ron Prosperoning mansabini zo`ravonlik bilan qo`lga kiritgan akasi egoist va shuhratparast Antoniy tushgan kemani ham shu orol qirg`og`iga chiqarib tashlaydi. Antoniy bilan kelgan kishilar bir-birlariga qarshi fitna uyushtiradilar. Faqat Prospero o`z qo`l ostidagi «kuchlar» vositasi bilan halokatga uchragan kemani tuzattirib, undagi firibgar va yomon niyatli odamlarni yaxshilikka moyil qilib, Italiyaga qaytishlariga yordam beradi.

«Bo`ron» pyesasi yozuvchining inson baxt-saodati haqidagi xayollarini mujassamlantiradi. Shu bilan birga bu pyesa real voqelikka asoslangan adabiy vasiyatnoma hamdir.

Yozuvchi kelajakda adolatli yangi ijtimoiy tuzumning tantana qilishiga ishonch bilan qaraydi. «Insoniyat qandaygo`zal!» – deb xitob qiladi Miranda:

O, mo`jiza bu!

Nechog`lik bunda ko`p toza ruxsorlar! Qanday inson zotigo`zal! Qanday soz Shunday inson bo`lgan bu yangi olam!

(Muhammad Ali tarjiması)

Zamona voqeligini chuqur o`rgangan va murakkab «voqealar oqimi»ning asosiy ma`nosini anglab yetgan dramaturg, inson kuchi va uning cheksiz imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi, bu uninggumanizmining hayotbaxshligini ta`minlaydi.

SHEKSPIRNING REALISTIK METODI

Shekspirning adabiy faoliyati yigirma ikki yil davom etgan bo`lsa, shundan o`n ikki yili (1595-1607) eng samarali davr hisoblanadi. Bu vaqt mobaynida u badiiy jihatdan eng yuksak tragediyalarini yaratadi. Mavzusining boyligi, g`oyaviy yo`nalishining aniqligi va hayotiy voqealarning chuqur realistik tasviri Shekspir tragediyalarini yuqori bosqichga ko`tardi. Shu sababli uning dramatik ijodi dunyo teatrlari repertuarlaridan mustahkam o`rin egallab, hozirgacha kishilarni hayajonlantirib kelmoqda va ularga badiiy zavq bag`ishlamoqda.

Turmushni atroflicha o`rganib, inson xarakterining mohiyatini ochish, uning ko`p qirrali tomonlarini haqqoniy yoritish, inson intilishlarining tub sabablarini har taraflama aks ettirish Shekspirning dramatik mahoratining asosini tashkil etadi. Dramaturg, ba`zi

yoʻzuvchilar kabi tomoshabinga pand-nasihat qilishni asosiy maqsad qilib qoʻymaydi, balki uni voqelikni chuqur tushunish, yuz berayotgan hodisalardan tegishli xulosalar chiqarib olishga majbur qiladi.

Shekspir realizmining kuchi feodal tuzumi halokatini, paydo boʻlayotgan burjua jamiyatining insonlar uchun fojiaaviyligini sezish hamda bu jamiyatning razolat va qabohatlarini hayotiy obrazlarda haqqoniy gavdalanirishidadir.

Shekspir oltin va tamagirlik kishini yoʻldan ozdirishini alohida taʼkidlaydi. Chunonchi, uning qahramonlaridan Romeo dorifurushdan oltin barobariga zahar sotib olib: «Zaharni sen sotmading, balki men senga sotdim», deb oltinning halok etuvchi taʼsiri zaharnikidan ham kuchli ekanini tasdiqlaydi.

Turmushning achchiq-chuchugini oʻz boshidan kechirgan va hukm surayotgan adolatsizlikni fosh qilib: «Gunohingni oltin bilan jilolantirsang, unga qonun nayzasi ham oʻtmay sinadi», deydi istehzo bilan keksa Lir. Oltin bandasi Sheylokning tosh yurak xarakteri, afinalik Timonning oltin haqidagi monologi ham bu jihatdan xarakterlidir.

Shekspir tragediyalaridagi koʻpchilik salbiy obrazlar mol-dunyoga oʻch, shuhratparast, xudbin va hiylagar shaxslardir. Bular dastlabki kapital toʻplash davrining vakillari Richard III, Klavdiy, Yago va Makbetlar boʻlib, ular oʻz shaxsiy manfaatlari yoʻlida qonli jinoyatlardan ham qaytmaydilar. Bularga qarshi oʻlaroq, Shekspir yuksak insoniy fazilatlarini oʻzida mujassamlantirgan pok tabiatli Romeo, Gamlet, Otello, Edgar obrazlarini madh qiladi.

Shekspir yaratgan obrazlar jonli kishilardir. Ularda ijobiy fazilatlar boʻlishi bilan bir qatorda katta nuqsonlar ham mavjuddir. Masalan, Otello olijanob inson, lekin uning zaif tomoni hodisalarni tanqidiy mulohaza qila olmasligi va ishonuvchanligidir. Lir ham yaxshilik bilan yomonlikni tez ajrata olmasligi tufayli, fojiaga duchor boʻladi. Yago, Richard III, Makbet, Klavdiylar jinoyat dunyosining vakillari, lekin ular nodon odamlar emas, oʻz maqsadlari yoʻlida qattiq turib harakat qiluvchi va ogʻir vaziyat yuz berganda ikkilanib, oʻz qilmishlarini oqlash yoki asoslashga intiladigan sezgir kishilar hamdir.

Shekspir yaratgan obrazlarda insonning tabiiy holati, orzu-istaklari, ishq-muhabbati yorqin aks etgan. Ayniqsa, ayollar

jozibadorligi, o`rta asr an`analari va johil ota zulmiga dadil qarshi chiqishlari bilan ajralib turadilar. Germiya («Yoz kechasidagi tush»), Julyetta, Dezdemonalar vafodorligi, jasur va pok axloqliligi bilan ajralib turadilar. Kardeliya («Qirol Lir») haq ish uchun qattiq turib kurashuvchi sifatida kishini o`ziga maftun etadi. Shekspir asarlaridagi ayollar ham aqliy, ham axloqiy tomondan erlar bilan baravardir. Hatto Julyetta jasorat jihatdan Romeodan yuqori turadi.

Shekspir dramaturgiyani yangi va yuqori bosqichga ko`tardi. Uning tematikasini boyitib, voqealarni tipik va real aks ettirish prinsipini takomillashtirdi. Shekspir o`z asarlari uchun turli tarixiy va adabiy manbalar (antik san`at, Angliya tarixi, Italiya Uyg`onish davri adabiyoti)dan ijodiy foydalandi. Bu narsa uning dunyoqarashini kengaytirdi, ingliz xalq teatri an`analarini davom ettirib, turmush dialektikasini anglashi (kulgi bilan fojiani birgalikda aks ettirish, san`atni chegaralab qo`yadigan antik adabiyotga xos uch birlik qonuniga rioya qilmaslik)ga yordam berdi, dramaturgiyasining xilma-xil, jonli bo`lishini, realistik va xalqchil yo`nalishini ham belgilab berdi.

Shekspir realistik metodining o`ziga xos xususiyati shundaki, u xarakterlarni tipik sharoitda individuallashtirib yoritadi.

Bular qahramonlarning doimiy rivojlanib borishida ham namoyon bo`ladi. Xarakterning mantiqiga muhitning jirkanch oqimi nomunosib kelgandagumanist-mutafakkir Gamlet so`zni tashlab, qo`liga qilich oladi, jasur lashkarboshi Makbet shuhratparastlikka berilib, zolim jinoyatchiga aylanadi. Personajlarda yuz bergan o`zgarishlar kurashlar natijasida kelib chiqqan bo`lib, ulardan har biri o`zining xususiyatlariga ega.

Shekspir dramaturgiyasida xalq vakillari – kambag`al studentgoratsio («Gamlet»), masxaraboz («Qirol Lir»), Flaviy («Afinalik Timon») va boshqalar alohida e`tibor bilan tasvirlanadi. Ular aql-zakovati, sof ko`ngilliligi va sadoqati bilan ajralib turadilar. Masxarabozning kinoyali, o`tkir so`zlarida xalq donoligi aks etgan. «Richard III», «Genrix V» tarixiy dramalarida ham dehqon, soldatlar katta kuch sifatida ko`rsatilgan.

Shekspir tipik xarakterlarni individuallashtirish yo`li bilan yorqin obrazlar yaratdiki, bu narsa uning tragediyalarini yuqori bosqichga ko`tardi. Shekspir yaratgan xarakterlarning jonliligi va ko`pqirraliligini Pushkin yuksak baholadi. Uni XVII asr fransuz

klassitsizm adabiyotining vakili Molyer bilan taqqoslab o`rtadagi farqni ko`rsatdi.

«Shekspir yaratgan shaxslar, – deb yozgan edi Pushkin, – Molyerdagi kabi biror ehtiros, biror qabohatning mohiyatini ifodalovchi tiplargina emas, balki bir talay his-tuyg`ular, ko`pgina qilmishlarni o`zida gavdalantirgan jonli odamlar sifatida mujassamlanadiki, muayyan sharoitlar ularning xilma-xil va ko`p qirrali xarakterlarini tomoshabin ko`z oldida rivojlantiradi. Molyerda xasis – faqat xasisgina, xolos; Shekspirda esa Sheylok – xasis, ziyrak, qasoschi, farzandsevar, hozirjavob kishi qiyofasida ham ko`rinadi». Pushkin Shekspirning «xarakterlarni erkin va keng» tasvirlashi to`g`risidagapirib, «Borisgodunov» ustida ishlaganda uning bu mahoratidan o`rganganini ko`rsatib o`tadi.

Shekspirning realistik san`at haqidagi qarashlari aktyorlar bilan bo`lgan suhbatida ochiq ifodalangan. Bu Uyg`onish davri realistik adabiyotining o`ziga mos manifestidir. Bunda u ortiqcha shovqin-suron ko`tarmaslik, sun`iylikka berilmaslik, «so`zga yarasha harakat» qilish, «harakatga yarasha»gapirish va «bular tabiiylik chegarasidan chiqmasligi shart» ekani haqidagapiradi.

Qahramonlarning nutqi ularning jamiyatda tutgan o`rniga qarab belgilanadi. Masalan, Gamletning nutqi haqiqatni aniqlashga intilgan, har tomonlama bilimdon kishi –gumanistning asosiy xususiyatlarini yaqqol ko`rsatadigan kinoya va aforizmlarga boydur. Xarakterlarni individuallashtirish, dastlab ular nutqining o`ziga xos bo`yoqlarini topa bilishda aks etadi. Otello uchun mahbubasining badani – «qordan ham oq», «marmardan silliq», uyqudagi Dezdemoni – ochilib turgangul, uning o`ldirilishi – kun va oying tutilishi bilan teng. Yagoning iboralari, tilidagi obrazlilik o`ziga xosdir. U atrofini o`rab olgan muhitni hayvonotxonaga o`xshatadi. Yago leytenant Kassioni kamsitadi; sodiq xizmatchini – eshak, odamlarni-qarg`alar bilan taqqoslaydi. Yagoninggaplari qo`pol, Otelloning iboralari nozik, yoqimli va chuqur ma`nolidir.

Shekspir pyesalarida fojiali va kulgili holatlarning birligi personajlar nutqidagi keskin o`zgarishlarda ham namoyon bo`ladi: ko`tarinki monologlar zaharxanda hajviy so`z o`yinlari bilan almashadi. Masalan, Julyetta to`yi azaga aylangan vaqtda, mashshoqlar masxarabozlik qiladilar, Ofeliyaninggo`rini qaziyotgan

go'rkovlar askiya bilan shug'ullanadilar. Urush ketayotgan paytda ritsar Jon Falstaf mayxonaga kirib olib, maishat bilan ovora bo'ladi.

Buyuk dramaturg Shekspir O'zbekistonda ham ma'lum va mashhur bo'lib ketdi, adabiyot darslarida uning ijodi chuqur o'rganilmoqda, ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. 1960 yilda o'zbek tilida nashr qilingan Shekspir pyesalarini respublikamizning taniqli shoirlari G'.G'ulom («Otello», «Qirol Lir»), M.Shayxzoda («Gamlet», «Romeo va Julyetta»), Uyg'un («Yuliy Sezar») tarjima qilganlar.

O'zbek davlat akademik drama teatri ikkinchi jahon urushidan oldingi yillardayoq Shekspir asarlarini sahnalashtirishga kirishgandi. Bu teatrdan Shekspirning «Gamlet» tragediyasining sahnaga qo'yilishi (1935) o'zbek teatrchilik san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. Undan keyingi yillarda ham teatr jamoasi ulug' dramaturgning asarlarini sahnalashtirish bilan jiddiy shug'ullanib, uning «Otello» (1941), «Romeo va Julyetta» (1951), «Yuliy Sezar» (1964) tragediyalarini, «Veronalik ikki yigit» komediyasini (1966) ham namoyish qildi.

Sermushohada Gamlet, shijoatli Otello obrazlarini yaratish va talqin qilishda Xalq artistlari A.Hidoyatov, O.Xo'jaev, Sh.Burhonovlarning ijodiy yutuqlari va aktyorlik san'ati ochiq namoyon bo'ldi.

Shekspir dahosi bilan yaratilgan ajoyib xotin-qizlar obrazi, xususan latofatli va kuchli irodali Dezdemonna obrazini yaratishda Xalq artisti Sora Eshonto'raevaning xizmatlari beqiyosdir.

1945 yilda Toshkentga kelgan ingliz parlament delegatsiyasi Shekspir tragediyasi postanovkasi bilan tanishgach, teatr xotira daftariga: «Biz pyesaning bunday yaxshi qo'yilganini hech qachon va hech qayerda, hatto Londonda ham ko'rmagan edik. Biz ayniqsa Otello va Dezdemonna rolini o'ynagan artistlar mahoratiga qoyil qoldik», deb qayd etishi bejiz emas edi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Yunon adabiyotining ibtidoiy davri.....	5
Gomer dostonlari.....	8
Gomer.....	9
Iliada.....	10
Odisseya.....	14
Attika davri yunon adabiyoti. V-IV asrlarda yunon jamiyati va madaniyati.....	20
Dramaning paydo bo`lishi.....	24
Yunon teatrining xususiyatlari.....	27
Esxil.....	30
Sofokl.....	37
Evripid.....	50
Komediya.....	55
Aristofan.....	56
Ellinizm davri yunon adabiyoti. Davrning ijtimoiy va madaniy ahvoli.....	64
Yangi attika komediyasi.....	67
Aleksandriya poeziyasi.....	78
Rim adabiyoti. Respublika davrida Rim adabiyoti. Eramizdan oldingi III va II asrning birinchi yarmida Rim jamiyati.....	93
Dastlabki Rim shoirlari.....	95
Plavt.....	99
Terensiy.....	106
Avgust davri Rim adabiyoti. Davrning ijtimoiy va madaniy ahvoli.....	113
Vergiliy.....	116
Ovidiy.....	123
O`rta asrlar adabiyoti. Qadimgi davrlardagi qahramonlik eposlari. Fransuz qahramonlik eposi.....	136
Qo`shiqning yaratilish tarixi.....	138
Ispan qahramonlik eposi.....	142
Yevropa uyg`onish davri adabiyoti. Italiyada uyg`onish davri adabiyoti.....	150
Dante Aligyeri.....	153
Petrarka.....	162

Jovanni Bokkachcho.....	167
Fransiyada uyg`onish davri adabiyoti.....	175
Fransua Rable.....	179
Ispaniyada uyg`onish davri adabiyoti.....	191
Servantes.....	196
Angliyada uyg`onish davri adabiyoti.....	201
Uilyam Shekspir.....	207
Shekspir ijodining birinchi davri.....	210
Shekspir ijodining ikkinchi davri.....	218
Shekspir ijodining uchinchi davri.....	230
Shekspirning realistik metodi.....	232

Nashrga tayyorlovchi:

D. KARABAEVA

Bosishga ruxsat berildi 26.01.2009 yil.
 Terishga berildi. 2.10.2011 yil. Ofset qog`ozida bosildi.
 Bichimi 148x210/16. Garniturası Times New Roman.
 Bosma tabog`i 14 b.t. Adadi 200. Buyurtma №_____

O`zbekiston Davlat san`at instituti
 O`quv bosmaxonasida bosildi.
 Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mronshoh, 123.